



ADABIY MEROS

2025-YIL 4-SON / ILMIY JURNAL

Tafakkur odami

Qarasakboy toshbitigi haqida

Folklorda mo'jizaviy tug'ilish motivi

Xalq maqollarining nashr etilishi tarixidan

Humoyun Fattohning "Boshqacha odam"i

Xorazm adabiy muhitiga oid ayrim manbalar

Kichik janrlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

Terminlar tizimini o'rganishning nazariy asoslari

Xo'janazar Huvaydo devonining g'oya va badiiyati

Turkiy folklorshunoslikning yetuk darg'alaridan biri

"Devoni Foni"ning yangi aniqlangan nusxasi xususida

Xolmuhammad To'raqulining tasavvufga oid qarashlari

Askariy Mirzo devoni qo'lyozmasi va o'zbekcha she'rlari

"Muhokamat ul-lug'atayn" asarida she'riy parchalarning o'rni

"Go'ro'g'li" dostonidagi ayol timsolining mifologik arxetiplari

Sirojiddin Sayyid she'rlarida olamning badiiy lisoniy manzarasi

"Nahju-l-farodis"ning Istanbulda saqlanayotgan bir qo'lyozmasi tavsifi

"Badoyi' ul-bidoya"ning ilk nusxasi: kodikologik jihatlari va kotibi xususida

Avaz O'tar ijodida tashbeh va husni ta'lil san'atlari istifodasi va Navoiy ta'siri

"Maxzan ul-asror" asarining Iosif Gotvald va Benedikt Peri nashrlari qiyosiy tahlili

Qozoq shoirlari oqit ulimjiuli va abdigali sariyevning asarlarida diniy-ma'rifiy yo'nalish

XX asr boshlarida she'riy majmua an'analari va yangilanish jarayoni ("Adab ad-din" misolida)

Turkiy xalqlar orasida mashhur bo'lgan Xo'ja Nasriddin,

Aldar ko'sa va Umirbek laqqi bilan bog'liq tadqiqotlar

ADABIY MEROS

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI

Bosh muharrir:
Jabbor Eshonqulov

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahnozaxon Nazarova

Mas'ul kotib:
Dilnoza Rustamova

Muharrir:
Feruza Abdurahmonova

Texnik muharrir:
G'iyosiddin O'narov



Manzirimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani
Navoiy ko'chasi, 69-uy
e-mail: adabiymeros@gmail.com
Tel.: (99871) 241-02-75
Jurnal 2020-yil 26-noyabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Axborot
va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №200936238
raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
ISSN 2181-2500

Jurnal 2025-yil 09-dekabrda
nashrga berildi.

“Adabiy meros” ilmiy jurnali
O'zbekiston Respublikasi VM
huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining qaroriga ko'ra
(№327/6, 30.11.2022-y.) filologiya
fanlari bo'yicha PhD va DSc
ilmiy darajasiga talabgorlarning
dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

2025
4-son (18)

Tahrir hay'ati:

Ahmedova Shoir
Asadov Maqsud
Abdirashidov Zaynobidin
Abdurahmonova Feruza
Barakayev Rahmatulla
Bekimbetov Azamat
Boltaboyev Hamidulla
Davlatov Olim
Jabborov Nurboy
Jo'raqulov Uzoq
Jo'raboyev Otabek
Karimov Bahodir
Kamilova Saodat
Mahmudov Nizomiddin
Ochilov Nasim
Pardayev Azamat
Palimbetov Kamalboy
Soriyev San'at
Sulaymonov Mo'minjon
Sabirova Nasiba
Rajabova Burobiya
Rashidova Ma'mura
Turdimov Shomirza
Tursunov Yusuf
To'xlijev Boqijon
Tilavov Abdumurod
Sheraliyeva Mashhura
Shodmonov Nafas
Shofiyev Obidjon
Xalilova Dilbar
Hamdamov Ulug'bek
Hasanova Shafolat
Eshchanova Gavhar
Qalandarova Dilafroz
Qosimov Abdug'ofur
Qobilov Usmon
Quronov Dilmurod
Qobilova Zebo
Yodgorova Mehribon
Chulliyeva Nilufar
Eshonboboyev Abdurasul

Hakamlar hay'ati a'zolari:

Abduhalimov Bahrom (O'zbekiston)
Abdullajon Axmataliyev (Qirg'iziston)
Ayşe Yücel Çetin (Turkiya)
Açık Fatma (Turkiya)
Almas Ulvi (Ozarbayjon)
Anarboy Boldiboy (Qozog'iston)
Ahmet Bican Ercilasun (Turkiya)
Ali Duymaz (Turkiya)
Asel Isayeva (Qirg'iziston)
Baydemir Husayn (Turkiya)
Bakchiyev Talantaali (Qirg'iziston)
Basangova Tamara (Rossiya)
Demir Necete (Turkiya)
Fayzulloyev Baxtiyor (Tojikiston)
Fikrat Turkman (Turkiya)
Gurer Gulseven (Turkiya)
Vahit Turk (Turkiya)
Veli Savaş Yelok (Turkiya)
Ismat Çetin (Turkiya)
Ibrayev Shokir (Qozog'iston)
Karl Rech (Germaniya)
Metin Ekici (Turkiya)
Mirzayeva Salima (O'zbekiston)
Ocal Oğuz (Turkiya)
Emek Uşenmez (Turkiya)
Eunkyung Oh (Koreya)
Rixsiyeva Gulchehra (O'zbekiston)
Sakaya Heroki (Yaponiya)
Sirojiddinov Shuhrat (O'zbekiston)
Sodiqov Qosimjon (O'zbekiston)
Selami Fedakar (Turkiya)
Temur Khocaoğlu (AQSH)
To'laganova Sanobar (O'zbekiston)
Zaytsev Ilya Vladimirovich (Rossiya)
O'rayeva Darmanoy (O'zbekiston)

**“ADABIY MEROS”
JURNALI
№4, 2025**

USHBU SONDA:

QADIMIY BITIKLAR

Usmon Fikri Sartqoya. Qarasakboy toshbitigi haqida.....4

NAVOIY ABADIYATI

Oysara Madaliyeva. “Badoyi’ ul-bidoya”ning ilk nusxasi: kodikologik jihatlar va kotibi xususida.....9

Mabruk Djurayev. “Devoni Foni”ning yangi aniqlangan nusxasi xususida.....25

MANBASHUNOSLIK VA MATNSHUNOSLIK

Maryam Eshmuhammedova. Xorazm adabiy muhitiga oid ayrim manbalar.....32

Saydakbarxon Valiyev. “Nahju-l-farodis”ning Istanbulda saqlanayotgan bir qo‘lyozmasi tavsifi.....38

O‘g‘iloy Ne‘matova. “Maxzan ul-asror” asarining Iosif Gotvald va Benedikt Peri nashrlari qiyosiy tahlili.....43

TOPILMA-YANGI MANBA

Otabek Jo‘raboyev. Askariy Mirzo devoni qo‘lyozmasi va o‘zbekcha she‘rlari.....49

JADID ADABIYOTI

Xilola G‘iyosova.

XX asr boshlarida she‘riy majmua an‘analari va yangilanish jarayoni (“Adab ad-din” misolida)58

Nodirjon G‘afurov. Xolmuhammad To‘raqulining tasavvufga oid qarashlari61

OLTIN BESHIK

Vladimir Prop. Folklorda mo‘jizaviy tug‘ilish motivi.....65

Sarsen Kazaxbayev. Turkiy xalqlar orasida mashhur bo‘lgan Xo‘ja Nasriddin, Aldar ko‘sa va Umirbek laqqi bilan bog‘liq tadqiqotlar.....78

Aynur Aydin Ibrahimova. “Go‘ro‘g‘li” dostonidagi ayol timsolining mifologik arxetiplari.....83

Vazira Davirova. Xalq maqollarining nashr etilishi tarixidan88

TILSHUNOSLIK

Sarvinov Nurmonova. Sirojiddin Sayyid she‘rlarida olamning badiiy lisoniy manzarasi95

Zulqumar Qalbayeva. Terminlar tizimini o‘rganishning nazariy asoslari.....101

TANQID VA TAHLIL

Marg‘uba Abdullayeva. Kichik janrlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.....106

Oralbek A. Qozoq shoirlari oqit ulimjuli va abdigi sariyevning asarlarida diniy-ma‘rifiy yo‘nalish.....113

Zulayho Abdurahmon. Xo‘janazar Huvaydo devonining g‘oya va badiiyati.....124

Salomat Matkarimova. Avaz O‘tar ijodida tashbeh va husni ta‘lil san‘atlari istifodasi va Navoiy ta‘siri.....129

Surayyo Duskarayeva. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida she‘riy parchalarning o‘rni.....134

ILMIY-ADABIY JARAYON

Abdulla Ulug‘ov. Tafakkur odami.....138

Olimjon Turdaliyev. Humoyun Fattohning “Boshqacha odam”i149

FANIMIZ FODOYILARI

Jabbor Eshonqulov. Turkiy folklorshunoslikning yetuk darg‘alaridan biri.....153

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo'ladi.

SHAVKAT MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

USMON FIKRI SARTQOYA

*Istanbul universiteti professori, fan doktori*QARASAKBOY TOSHBITIGI HAQIDA¹

To'xtamishxon Oltin O'rda taxtiga o'tirishda Amir Temurdan qarzdordir. Lekin u keyinchalik kuchayib, bu yaxshilikni unutadi va Sohibqiron Eron va Iroqda harbiy harakatlar bilan mashg'ul ekan, 1387-yil Movarounnahrda hujum qilib, o'z yerlarini kengaytirishni istagan; shahar-u qishloqlarni talon-toroj qilib, o'lkada dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanayotgan fuqarolarni o'ldiradi. Shuning uchun, Temur 1391-yilning yanvar oyida To'xtamishxonga qarshi yurish boshlagan. Mazkur yilning 18-iyunida Qundu(r)cha (yoki Qundu(z)cha) jangida To'xtamishxonni mag'lub etadi. Ushbu yurish jami o'n bir oy davom etgan.

Amir Temur 1391-yil yanvar oyining yigirma ikkida Toshkentdan O'trorga yetib kelgan. O'tror atrofi (Qorasomon)da To'xtamishning elchilari bilan uchrashgan, ularni ham yoniga olib, Yassi (Turkiston), Qorachuq, Sarbon shaharlari orqali yo'lida davom etgan. Nizomiddin Shomiy keyingi voqealarni shunday tasvirlaydi:

*"... Nihoyat suvdan (Sarisuv) kechib oyning yigirma birida lashkar Kichik Toqqa, undan ham ko'chib, ikki kecha yurgach, juma kuni Ulug' toqqa keldi. Amir Temur tog'ning ustiga chiqib, atrofga qaradi. Bu yer bepoyon bir cho'l edi. O'sha kun shu yerda qolib, butun askarlariga tosh terib kelishlarini buyurdi. Askarlar tosh terib keldilar. O'sha yerda baland bir obida qurildi. Amir Temur bu yurishning xotirasi abadiy qolishi uchun bu kunlarning tarixini shu yerga yozishlarini toshbitar ustalariga buyurdi..."*²

Bu yerda barpo etilgan Nishon qal'asidagi uyg'ur yozuvli turkiy bitikda faqatgina "ta'rix yedi yuz to'qsan uchta qo'y yil yazining ara oy" deyilgan. Nizomiddin Shomiy aniqroq qilib, 793-yil jumodul-avval oyining 23-kuni (milodiy 1391-yil 28-aprel juma)ni zikr etgan.

Zakiy Validiy To'g'on "Temurbekning uyg'urcha bir qo'lyozmasi" nomli maqolasida muhandis Karim Abloyxonovga tayanib yozuv bitilgan Nishon minora yodgorligi haqida quyidagi ma'lumotni bergan (faqat ushbularni qayerdan va qaysi manbadan olganligini qayd etmaydi):

"1938-yilda bu obidani Rossiya Fanlar akademiyasining Qozog'iston filiali tomonidan tadqiq etgan muhandis Ablayxono'g'li Karim Temur qubbasiga qozoqlar tarafidan "Olachaxonning molasi (mullasi)" nomi berilganligini; minoraning Temurga oid tarixlarda ma'lum qilinganiday g'oyat yuksak va bir necha qavat bo'lib, 1918-yilda isyonchi qozoqlar va qizil qo'shinlar o'rtasidagi jangda qizillar tomonidan yodgorlikning tepa qismi to'pga tutilib, vayron qilingani; obidaga hurmatda bo'lgan mahalliy qozoqlarning avval uning toshlariga tegishdan tiyilganliklari, so'nggi paytlarda esa mozorlarga nisbatan hurmat qolmaganidan g'isht va marmarlarini samovar tagiga qo'yish uchun yoki boshqa maqsad bilan olib ketishganini; bu yerda yana uyg'ur harflari bilan yozilgan va 1542-yilga oid bir xon maqbarasi va yana bir qancha amirlarning marmardan o'yib ishlangan mozor toshlari topilganini, Chingizxonning o'g'li Jo'jixonning maqbarasi ham bu yerdan 20 km uzoqlikdan topilganini" ma'lum qilmoqda.

¹ Ushbu maqola ma'ruza sifatida "Vafoining 600 yilligi munosabati bilan Amir Temur va uning merosi" mavzuidagi xalqaro simpozium (Istanbul / Turkiya, 26-27.05.2005)da taqdim etilgan.

² Nizamuddin Shami. Zafarnome. Farschadan chivren: Necati Lugal. Ankara, 1949. S.144. Zakiy Validiy To'g'on Sharafiddin Yazdiyning "Zafarnoma"si va Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla'-us-sa'dayn va majma'-ul-bahrayn"ida buning kabi qaydlar borligini xabar bergan.

1935-yil avgust oyida mazkur *Qarasakboy yozuvi*³ Qozog‘istonning Ulug‘tog‘ o‘lkasida Qarasakbay mis konlari va fabrikalariga yaqin Oltin Cho‘qqi tepasida akademik Qanish Imontoyevich Satpayev tomonidan topildi. 120 kg og‘irlikdagi tosh 1936-yil Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyiga olib ketildi. U hozirgacha Ermitaj muzeyining 46-xonasidadir. Yozuv qora bazalt qoya ustiga gorizontol holda yozilgan.



Toshning o‘lchovi: 130x93x50 sm.

Bitiktosh haqida 1940-yil N.N.Poppe tomonidan ma‘lumot berilgan.⁴ Poppening bu nashrini ilk tadqiqot deyish o‘rinli bo‘ladi. Zakiy Validiy Poppening maqolasidan foydalangan holda bir maqola e‘lon qiladi.⁵ Bunda asosan yodgorlik bilan aloqali K.Abloyxonovdan olingan ma‘lumotlar berilgan. Yozuvtosh haqidagi Poppedan keyingi ikkinchi tadqiqot A.I.Ponomaryov tomonidan amalga oshirilgan.⁶ Ponomaryov asosan 2,3,4 va 6-satrlarda Pope tarafidan xato o‘qilgan so‘zlarni tuzatishni taklif qilgan. Shundan so‘ng bitiktoshning ikki bora surati bosilgan.⁷ Keyingi bosilgan nashrda – 413-sahifdagi 147-paragrafdan o‘rin olgan Valentin Shkoda tomonidan amalga oshirilgan bitik tavsifi va matn tarjimasini, Pope nashriga asoslangani uchun xatodir.

Bitiktoshdagi yozuvning ilk uch satri arabcha bo‘lib, *bismilloh* va Qur‘onning 29-surasi “An-

³ Ushbu toshbitik haqida o‘zbek olimi Q.Sodiqovning “Uyg‘ur yozuvi tarixi” kitobi (To‘shkent: Ma‘naviyat, 1997. 91-92-betlar)da ham biroz ma‘lumot berilgan – Tarjimon.

⁴ Н.Н.Поппе. Карасакпайская надпись Тимура// Труды отдела истории культуры и искусства Востока, II. Ленинград, 1940. С.185-187.

⁵ Zeki Velidi Togan. Temur Beyin uygurca bir kitabesi. Çınaraltı, Dilde, fikirde, işde birlik. Cilt 5, sayı 117, 18 Birinci kanun 1943, s.6.

⁶ А.И.Пономарев. Поправки к чтению “Надписи Тимура”// Советское востоковедение, III. Москва, 1945. С.222-224.

⁷ Фотоальбом академик Қаниш Сатпаев. Алматы, 1999. 112-с.; Tuks. A Journey of a Thousand Years, 600-1600. Edited by David J. Roxbourg, Royal Academy of Arts. London, 2005. S.202-203.

kabut"ning 69- (so'nggi) oyatidir. Matn davomidagi uyg'ur yozuvidagi sakkiz misra esa sharq turkchasidagi bitikdir.

N.N.Poppe uyg'ur yozuvli matnni shunday o'qigan:

1. qara yeti yuz to 'qmaq o 'ran-da qo 'y
2. yul yaz-nying ara ay turan-ning sultani
3. temur beg iki yuz ming cherig bila ismi uchun to 'qtamish qan(?)ning(?)
4. qani-g 'a yo 'ridi bu yer-ge yetip bel-gu bo 'lsin tep
5. bu o 'ba-ny qo 'pardy
6. tngri nisfat bergey inshollo
7. tngri il kishi-ge rahmat qilg 'ay biz-ni duu-o bila
8. yod qilg 'ay.

Matnning Hasan Eren tomonidan ruschadan turk tiliga qilingan tarjimasi: "yetti yuz qora To 'qmoq mamlakatida qo 'y yilida o 'rta yoz oyida Turon sultoni Temurbek ikki yuz ming kishilik bir qo 'shin bilan nomi uchun To 'xtamish xonga qarshi safarga chiqdi. Bu joyga kelganida xotira sifatida bu yodgorlikni qurdirdi. Tangri nisfat bersin. Inshoalloh. Tangri mamlakat aholisiga rahmat etsin. Aholi bizni duo bilan yod etsin."

Endi ushbu maqola muallifi tomonidan amalga oshirilgan matn transliteratsiyasi va transkripsiyasi:

بسم الله الرحمن الرحيم
والذين جهد وافينا لنهد ينهم سبلناوان الله لمع المحسنين

1.
3-2.

Oyatning mazmuni: "Bizning to 'g 'rimizda (yo 'limizda) jihod (jiddu jahd) qilganlarni, albat-ta, o 'z yo 'llarimizga hidoyat eturmiz. Albatta, Alloh ezgu ish qiluvchilar bilan birgadir!"⁸

4. TYRYQ Y'DY YWZ TWQS'N 'WYÇ-T' QWY
tarix yedi yuz to 'qsan uch-te qo 'y
5. YYL Y'R-NYNK 'WQ-'NY TWR'-N-NYNK SWLD'N-Y
yul yerning ug '-any tura-n-ning sultan-ы
6. TYMWR P'K 'WYÇ YWZ MYNK Ç'RYK BYL-'
timur bek uch yuz ming cherik bil-a
'YSMY 'WYÇWN TOQD'MYŞ Q'N-Q' PWLQ'R
ism-i uchun to 'qtamish qan-qa bulg 'ar
7. Q'NY-Q' YWRYDY PW Y'R-K'Y'DYP P'LKW PWLZ-WN TYP
qany-qa yo 'rydy bu yer-ke yetip belgu bo 'lsun tip
8. PW 'WP'-NY QWP'DY
bu o 'ba-ny qo 'pardy
9. TNKRY NYSVFT P'RK'Y 'YNŞ'LL-'
t(e)ngri nysvat bergey insholl-o(h)
10. TNKRY 'YL KYŞY-K' R'QM'T QYLQ'Y PYZ-NY TW-' PYL'
t(e)ngri il kishi-ka rahmat qilg 'ay biz-ni du 'o bila
11. Y'D QYLQ'Y
yod qilg 'ay.

⁴⁴ Tarix yetti yuz to 'qson uchda, qo 'y⁵ yilida, yerning sohibi, Turon sultoni ⁶ Temurbek uch yuz ming askar bilan ismi (islom?) uchun To 'xtamishxonga – Bulg 'or ⁷ xoniga yurish qildi. Shu

⁸ Maqola muallifi mazkur oyatning turk tiliga qlingan ikki tarjimasini keltirgan (Balikesirli Hasan Basri Çantay. Kur'an-i Hakim ve meali kerim. Istanbul, 1974. S.717; Kur'ani kerim ve açıklamali meali. Türkiye Diyanet Vakfi yayinlari. 86, s.403). Biz esa ushbu o'rinda, maqola o'zbek tiliga o'girilayotgani va oyat mazmunini berishda yanglishmaslik uchun, Qur'oni karimning o'zbek tilidagi tafsiridan foydalandik (Шайх Абдулазиз Мансур. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Тошкент, 2007. 404-бет – Tarjimon.

yerga yetib kelib (bir) nishon (ishorat) bo'lsin deya ⁸ bu yodgorlikni insho qildirdi. ⁹ Tangri, inshoalloh, bizga adolat berajakdir. ¹⁰ Tangri urush qilmagan aholiga shafqatlidir. Aholi bizni duo bilan ¹¹ yod etajaklardir.”

Endi ba'zi bir jihatlarga to'xtalsak.

tarix yedi yuz to'qsan uch-te – misrasining boshlanishi Poppe tomonidan 1940-yilda *qara yeti yuz to'qmaq o'ran-da* tarzida o'qilib “yetti yuz qora To'qmoq mamlakatida” deya tarjima qilingani uchun uning nashridan foydalangan Zakiy Validiy (1943-y.)dan to V.Shkoda (2005-y.)ga qadar ko'plab xato talqinlarga sabab bo'lib kelgan.

N.N.Poppe yuqoridagidek o'qilganini shunday izohlaydi:

“To'qmoq nomiga kelsak, XV asrning birinchi yarmida O'zbek davlatiga shu nom berilganligini bilamiz. Bu nomning mo'g'ulcha ekanligi ma'lum. Mo'g'ul manbalarida esa Qipchoq mamlakati va umuman Jo'ji ulusi ma'nosida qo'llanilgan To'qmoq nomiga XVII asrning boshidan e'tiboran duch kelinadi. Biroq, uni yana ham avvalgi davrlarda ham qo'llanilganligini aytish mumkin. Yodgorlikda bu davlatga “yetti yuz qora To'qmoq” nomi berilgan. Qora va yetti yuz so'zlarining mazmuni bilinmaydi. Ularga boshqa manbalarda duch kelinmaganini ham aytib o'tish zarur. Yuz ta'biri bilan alohida qo'shinlar nazarda tutilgan bo'lishi ham mumkin. Ma'lumki, qozoqlar keyinchalik “Ulug' juz” (katta qo'shin), “O'rta juz” (o'rta qo'shin) va “Kichi juz” (kichik juz) deyilgan bir necha guruhlariga bo'lingan. Shuningdek, yedi yuz (birikmasi ham) etnik nomlarda tez-tez qo'llanilgan raqamlarga asoslanib analogiya bilan izohlanishi ham mumkin. Mo'g'ulcha Do'rben o'yrad (to'rt o'yrat) nomi kabi.”

Holbuki, Poppening bu taxlit talqinidan besh yil o'tgach, 1945-yilda A.I.Ponomaryov tarafidan (mazkur satr) tarix yedi yuz to'qsan uch-ta tarzida tuzatilgan va (shu bilan yuqoridagi) izohlar keraksiz bo'lgan edi.

qo'y yul – qo'y yili 12 jonzotdan iborat turkiy taqvimga ko'ra milodiy 1391-yilga to'g'ri kelmoqda.

yerning ug'-any tura-n-ning sulton-ы – Poppe, To'g'on, Ponomaryov va Shkodaning *yaz-nyng ara ay* tarzida o'qigan qismi eski uyg'ur turklarining yilni 12 oyini uch-uch shaklida davrlarga bo'lib nom berganliklaridan yuzaga kelgan. “Oltin Yoruq”da (589/9-16) shu tartibni ko'rish mumkin:

“uch aylar erur yazqi ud tip,

uch aylar atanur kuz udlar tip,

uch aylar titir yay udlar tip,

uch aylar bo'lur qishqi udlar tip,

munchulayu yangin tutmaktin bir yil sani ichinde ucher aylarig' uza ud bo'lur.” ⁹ Fasllar va o'zaro qiyosni shunday keltirish mumkin:

Eski uyg'ur turkchasi	Hozirgi Turkiya turkchasi	Fasl oylari
<i>Yaz</i>	<i>ilk bahar</i>	<i>Mart, aprel, may</i>
<i>Yay</i>	<i>yaz</i>	<i>Iyun, iyul, avgust</i>
<i>Kuz</i>	<i>son bahar</i>	<i>Sentyabr, oktyabr, noyabr</i>
<i>Qyish</i>	<i>kish</i>	<i>Dekabr, yanvar, fevral</i>

Sharqiy turklarda esa yaz (bahor) fasli quyosh baliq (hut) burjidan qo'y (hamal) burjiga kirishi bilan boshlangani uchun yangi yilning ilk kunlariga “yangi kun – navro'z” deyilar edi.

⁹ Ceval Kaya. Uygurca Altun Yaruq. Giriş, Metin ve Dizin. Ankara, 1994. S.313.

Navro‘z esa mart oyining 21 kuni boshlanadi. Shuning uchun *yaz* (bahor) faslining ilk oyi taxminan 21 mart – 21 aprel, o‘rta oyi 22 aprel – 21 may, so‘nggi oyi esa 22 may bilan 21 iyun oralig‘i bo‘lgan. Shu jihatdan qaraganda matndagi 28 aprel 793/1391 sanasi yazing ara ayiga ya‘ni bahorning ikkinchi oyiga to‘g‘ri keladi.

Faqat ikkinchi misraning to‘rtinchi va beshinchi so‘zlarini ara ay deb o‘qish to‘g‘ri emas. Matnda aniq ravishda ‘WQ-‘NY (ug‘-аны) deb berilgan. ы – egalik qo‘shimchasi o‘zidan oldingi *ning* – qaratqich kelishigiga bog‘liqdir. Biz tarafimizdan matn yerning ug‘-аны (dunyoning hokimi) deya o‘qildi. Bu o‘z-o‘zidan keyingi tura-n-ning sultan-ы bilan mos keladi.

uch – oltinchi satrning uchinchi so‘zi Poppe tomonidan *iki* deb o‘qilgan edi. Bunga tayanib Temur qo‘shinining “ikki yuz ming kishi” bo‘lgani bir necha bora qayd etilgan ham. Ammo bu so‘zni Ponomaryov to‘g‘ri ravishda ta‘kidlaganidek uch deya tuzatilishi kerak. Shunga ko‘ra, Temur qo‘shini ikki yuz ming emas uch yuz ming kishi bo‘ladi. Tarixiy asarlardagi bu boradagi ma‘lumotlarni ham tuzatish kerak, degan fikrdaman.


ism-i uchun – oltinchi satrdagi bu ibora Ponomaryov tomonidan ehtiyotan islom uchun deb ham o‘qish mumkin deyiladi. Matn aniq emas. Faqat yuqorida keltirilgan oyat jihod bilan bog‘liq bo‘lgani sababli bu kalimani islom bo‘lishi ma‘qul va bu mumkindir.

bulg‘ar – oltinchi satrning so‘nggi so‘zi bo‘lib, Ponomarev uni shunday aniqlagan. Bu so‘z yettinchi satrning birinchi so‘zi qаны so‘zi bilan qo‘shilganida “bulg‘or xoni” ma‘nosini beradi.

o‘ba-ны – sakkizinchi satrning ikkinchi so‘zi Zakiy Validiy To‘g‘on tarafidan tashini tarzida berilgan. To‘g‘onning qaysi manbaga tayanib bunday bergani ma‘lum emas.

нысват – arabcha bo‘lib, nasfat – insof, haqlilik, to‘g‘rilik va adolat demakdir.

Turkchadan Otabek Jo‘raboyev tarjimasi.



OYSARA MADALIYEVA,

*O'zR FA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

“BADOYI’ UL-BIDOYA”NING ILK NUSXASI: KODIKOLOGIK JIHATLARI VA KOTIBI XUSUSIDA

Annotatsiya. Turkiy adabiyot tarixida Alisher Navoiyning o‘z she’rlarini jamlab, “Badoyi’ ul-bidoya” devonini tuzgani alohida hodisa bo‘ldi. Ushbu devon Navoiy she’riyatining o‘smirlik va yigitlik lirikasini o‘zida jamlagan. “Badoyi’ ul-bidoya”ning muallif tirikligi chog‘i ko‘chirilgan sanali sakkizta nusxasining mavjudligi Navoiyning ma’lum davr oralig‘ida yozilgan she’rlari xronologiyasini aniqlash imkonini beradi. Ularning kitobati masalasi esa bir shoirning lirikasi mahsuli qo‘lyozmalarga homiylar va muxlislar tarafidan qabul qilinishi darajasini belgilashga xizmat qiladi. “Badoyi’ ul-bidoya” qo‘lyozmalari, xususan, devonning hozircha ilk kitobati hisoblangan Parij nusxasi o‘zining tashqi belgilariga ko‘ra so‘nggi temuriylar davri kitobchilik san’atining nodir namunalari ekani bilan diqqatga loyiq. Ushbu maqola “Badoyi’ ul bidoya” Parij qo‘lyozmasining kodikologik jihatlarini ochib bergan. Unda kitobat san’ati jamiyat hayoti bilan bog‘liq holda rivojlangani tahlil qilingan. Parij qo‘lyozmasining xat uslubini tekshirish orqali uning ko‘chiruvchisi Abduljamil kotib bo‘lishi mumkinligiga doir ba’zi farazlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Abduljamil kotib, Badoyi’ ul-bidoya, qo‘lyozma, devon, devon nusxalari, debocha, janr, kolofon, xat uslubi, nasta‘liq.

Abstract. In the history of Turkic literature, ‘Ali Shīr Navā’ī’s compilation of his own poems into his first divan, *Badāyi’ al-bidāya* (“Wonders of the Beginning”), marked a remarkable literary phenomenon. This divan encompasses the lyrical works of Navā’ī’s adolescence and youth. The existence of eight dated manuscript copies transcribed during the poet’s lifetime provides an opportunity to determine the chronology of poems written by Navā’ī within a specific period. The study of their transcription also helps to assess the extent to which the lyrical output of a single poet was received and appreciated by patrons and admirers through manuscript culture. The *Badāyi’ al-bidāya* manuscripts – particularly the Paris copy, regarded as the earliest known transcription of the divan – attract scholarly attention as outstanding examples of the book art of the late Timurid period due to their external features and refined execution. This article explores the codicological aspects of the Paris manuscript of *Badāyi’ al-bidāya* and analyzes the development of the art of bookmaking in connection with the socio-cultural life of the time. Through the examination of the handwriting style, several hypotheses are presented suggesting that the scribe of the manuscript may have been Abd al-Jamil Kātib the calligrapher.

Keywords: ‘Ali Shīr Navā’ī, Abd al-Jamil Kātib, *Badāyi’ al-bidāya*, manuscript, divān, copies of the divān, *dibācha* (preface), genre, colophon, handwriting style, nasta‘liq.

2025-yil 15-18-iyul kunlari Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasida¹ ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldim. Qisqa, ammo sermahsul kechgan ushbu safar davomida Nizomiddin Mir Alisher Navoiy asarlarining (1441–1501) ushbu kutubxona fondida saqlanayotgan qo‘lyozmalari ustida ishladim. Bu jarayonda Alisher Navoiyning o‘zi tarafidan tuzilgan “Badoyi’ ul-bidoya”ning shoir

¹ Bibliothèque nationale de France (BnF) – keyingi o‘rinlarda FMK.

tirikligi chog'ida ko'chirilgan eng qadimiy qo'lyozmasi – Parij nusxasini² ko'rish va uning ustida kodikologik³ tadqiqot olib borish nasib etdi.

Navoiy lirikasi tarixi, xususan, “Badoyi’ ul-bidoya” devoni va uning qo'lyozmalari, muallifning ushbu devon uchun yozgan debochasi haqida bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirilgan⁴. Sobiq Ittifoq davri navoiyshunosligi tadqiqotlarida ushbu devonning muallif tirikligida ko'chirilgan to'rtta nusxasi (Parij, London, Boku, Toshkent) aniqlangan edi. 1987-yilda “Badoyi’ ul-bidoya”ning nashri mana shu to'rt qo'lyozma asosida amalga oshirilgan edi⁵. Keyingi o'n yillar navoiyshunosligi ham qo'lyozma manbalarni aniqlash va ularning matni va manbashunosligi yuzasidan yaxshi natijalarga erishib kelmoqda. Xususan, “Badoyi’ ul-bidoya”ning yana to'rtta qadimiy nusxasi mavjud ekanligini oydinlashtirgan tadqiqot ishlari diqqatga loyiq⁶. Ushbu ilmiy ishlardan kelib chiqib, ayni paytda “Badoyi’ ul-bidoya”ning Navoiy ko'zi ochiqligida kitobat qilingan sakkizta sanali qo'lyozmasi haqida so'z yuritish imkoniga egamiz (5-ilovaga qarang). Nazarda tutilayotgan tadqiqotlarga ko'ra “Badoyi’ ul-bidoya”ning 1480–1500- yillar orasida sakkiz marta qayta kitobat qilingani va bu qo'lyozmalardan katta ehtimol bilan muallif xabardor bo'lib, ulardagi tahrir ishlariga o'zi bosh bo'lgani haqida fikr yuritish mumkin. Shuningdek, mazkur devonning Navoiy vafotidan keyingi yillarda kitobat qilinganini o'rtaga chiqarishga qaratilgan tadqiqotlar ham yozilmoqda⁷.

² Mir ‘Ali Shir Nevai. غرائب الصغر. Précédé, aux folios 2 verso-13 recto, de la Khotba-i davavin, de la préface aux quatre divans, en turc-oriental. décembre 1480. BnF. Supplément turc 746 (Ushbu qo'lyozmaga FMKning saytida shunday tavsif berilgan: Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. Avvalida – 2b–13a varaqlarda sharqiy turk tilida bitilgan to'rt devonning so'zboshisi – “Xutba-yi davovin” mavjud (“Xazoyin ul-maoniy” debochasi nazarda tutilmoqda. 1480-yil, dekabr). E'tibor qilgan bo'lsangiz, bu yerda ikkita xatoga yo'l qo'yilgan. 1. Ushbu devon “G‘aroyib us-sig‘ar”ning emas, “Badoyi’ ul-bidoya”ning qo'lyozmasi. 2. Qo'lyozmaning 2b–13a varaqlarini egallagan so'zboshi “Xazoyin ul-maoniy”ning emas, “Badoyi’ ul-bidoya”ning debochasi hisoblanadi. Buni o'z davrida prof. H.Sulaymonov isbotlagan, men olimning doktorlik dissertatsiyasi orqali bulardan xabardor edim. Shuningdek, bir necha yil avval ushbu qo'lyozmaning elektron variantini Dr. Aftondil Erkinov bizga bergan edilar. Buning uchun A.Erkinovga minnatdorlik bildiraman. Shu ma'noda, qo'lyozmaning tarkibi bilan avvaldan tanish ekanligim, bu yerga esa nusxaning kodikologik tadqiqi uchun kelganimni va saytdagi tavsifda xatolar mavjudligini FMKning turkiy qo'lyozmalar bo'limi boshlig'iga ma'lum qildim. U kishi bu haqda hozirda kutubxonaning turkiy qo'lyozmalar bo'limi elektron katalogi ustida ish olib borayotgan Dr. Lamine Tamssaoutga yozib berishimni iltimos qildi va shu asosda yaqin fursatlarda saytdagi tavsifga tuzatish kiritilishini ma'lum qildi.

³ **Kodikologiya – nusxashunoslik** (inglizcha: Codicology, fransuzcha: codicologie; lotincha: codex, genitiv: codicis, “kitob” + yunoncha: lógos – “so'z, fan”) – fan sohasi bo'lib, uning predmeti qo'lyozma kitoblarni o'rganishdir. Ayni paytda kodikologiyani yordamchi tarixiy fan sifatida tasniflash yoki paleografiya bo'limi yoki mustaqil kompleks fan sifatida ko'rib chiqish kerakligi haqida munozaralar davom etmoqda (Batafsil qarang: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>). Shu o'rinda, qo'lyozmalarni kodikologik jihatdan tadqiq etish bo'yicha talabalik yillari olgan bilimlarimni rivojlantirishda katta yordam berganligi uchun O'zR FA akademigi t.f.d., prof. D.Yusupova, O'zR FASHI katta ilmiy xodimi S.G'ulomov, Professor Francis Richard va Dr. Maria Eftimiouga minnatdorlik bildiraman.

⁴ Quyida ulardan ayrimlarini alifbo tartibida taqdim etamiz.

Birnbaum E., 1976, XX. – P. 157-190; Eckmann J., 1970. – S. 253-262; Juraboyev O., 2020. – S. 14-27; Levend A., 1958. – S.127-209; Subtelny M., 1993. – P. 90-93; Абдуғафуров А., 1989. № 4. – Б. 3-9; Ali Şîr Nevâyî., 2023. – 1072 s.; Алишер Навоий, 1466. Нашрга тайёрловчи: Ҳ. Сулаймон, 1968; Алишер Навоий, 1471 Нашрга тайёрловчи: А.Эркинов, 2015; Волин С., 1946. – С. 203-235; Жўрабоев О., 2016. – Б. 32-38; Имомназаров М., 2021. – 207 б.; Имомназаров М., 2017. – Б. 6-10; Имомназаров М., 2022. – 510 б.; Имомназаров М., 2018 –Б. 12-17; Куделин А.Б., 2016, том 75, №4. С. 5-11; Куделин А.Б., 2021, Special Issue 1, pp. 33-41; Мадалиева О., 2021. – 679 б.; Нагиева Ж., 1986. – 136 с.; Рамазонов Н., 2006/1. – Б. 17-23; Рамазонов Н., 2007/1. – Б. 78-89; Салоҳий Д., 2004. – 204 б.; Салоҳий Д., 2006/1. – Б. 74-78; Семенов А., 1935. – 88 с.; Сулейманов Х., 1955-1961. – С. 415; Сирождидинов Ш., Эркинов А., – Б. 8-30; Эркинов А., 2021. – Б. 81-85; Эркинов А., 2022. – Б. 132-158; Хайитметов А., 1961. – 294 б.; Ҳакимов М., 1983. – Б. 199.

⁵ Алишер Навоий. Текстни тузувчи: Ш.Шарипов, 1987. – 689 б.

⁶ Эркинов А., 2018. – Б. 51-57; Турдалиев А., Эркинов А., 2018 –Б. 57-62; Boltabayev S., 2022. – В. 438-466; Madaliyeva O., 2023. – В. 6-11; Madaliyeva O., 2023. – В. 209-218; Madaliyeva O., 2023. – В. 400-408.

⁷ Салоҳий Д., 2021. – Б. 53-58; Jo'raboyev O., №2, 2025. – В. 3-11.

Muhimi shundaki, shu choqqacha “Badoyi’ ul bidoya” bo’yicha amalga oshirib kelinayotgan ishlarning ko’lami keng. Ularning mavzu chegarasini tahlil qilganda, ushbu devon qo’lyozmalarining ilmiy tavsifidan tortib, matn transformatsiyasigacha, she’rlarning dunyoviy mazmun-mohiyatidan to tasavvufiy mohiyatigacha ochib berishga qaratilgani borasida so’z yuritish mumkin. Shu bilan birga, masalaning eng jiddiy mohiyatini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Bu ham bo’lsa, bugungi kungacha navoiyshunoslikda ushbu devonning avval ma’lum bo’lgan va yangi aniqlangan nusxalari tarkibining identikligi hamda ushbu qo’lyozmalarning so’nggi temuriylar Hirot kitobat san’ati tarixidagi roli masalalari haqida umumiy manzarani ko’rsatib beruvchi talqiotlar hali yaratilmadi. Shu ma’noda, matnshunoslik va manbashunoslik, kitobat va san’at tarixi nuqtayi nazaridan “Badoyi’ ul-bidoya” ustida kompleks tadqiqot yaratish zarurati mavjud deb aytish mumkin.

Mazkur tadqiqotda “Badoyi’ ul bidoya” Parij qo’lyozmasining kodikologiyasi xususida yozarkan, yuqoridagi masalalar, xususan, ushbu devonning kitobatiga oid jihatlarni yoritishga harakat qilamiz. Ma’lumki, so’nggi temuriylar davri xat san’ati va shu san’atning yaratuvchilari to’g’risida ko’plab tadqiqotlar yaratilgan⁸. Shuningdek, umuman islom olami xat san’ati tarixi bilan bog’liq ko’plab risolalarning ilmiy nashrlari amalga oshirilgan⁹.

Eronlik olimi Sh.Shahidani fors adabiyoti va nasta’liq xatining aloqadorligi haqidagi fikr yuritarkan: “Adabiyot va kalligrafiyaning o’rtasidagi aloqa keng va chambarchas bog’liqdir. Tarixan shoirlar va xattotlar bir-biri bilan chambarchas bog’liq bo’lib, she’riyatda xattotlik atamalarining qo’llanishi bir necha asrlarga borib taqaladi”, – deb yozadi¹⁰. Bizningcha, turkiy she’riyat va xat san’ati, xususan, nasta’liqning bog’liqligi haqida ham xuddi shu fikrlarni bildirish mumkin.

Fransuz olimi F.Rishard: “O’tmishda kotiblar qanday kitoblarni ko’chirishiga ko’ra farqlangan, kotiblar tayyorlovchi maktablar ularni ko’chiriladigan kitoblarning sohalariga ko’ra tayyorlaganini”, – ta’kidlaydi. Olim “She’riy kitoblarni ko’chiruvchi kotiblar yozilajak matnni avval yurakdan his etib, xotiralarida yozishgan, so’ng qog’ozga ko’chirishgan”, – deb hisoblaydi¹¹. Kotiblar biografiyasini o’rganar ekanmiz, ularning aksariyati she’r mashq qilishgani haqida xabardor bo’lamiz¹². Bizningcha, badiiy asarlarni, ayniqsa, poeziyaga tegishli matnlarni ko’chiruvchilarga o’zlari ham she’r yozganlari juda qo’l kelgan.

“Jomiyning (1414–92) ko’plab dostonlari Mir Ali Tabriziy (1369–1405) va Sultonali Mashhadiy (1432–33–1520) kabi ustoz xattotlar tomonidan nasta’liq xatida kitobat qilingan bo’lib, she’riyat va xattotlik uyg’unligini qadrlagan homiylar orasida katta talabga ega bo’la boshlagan”¹³. Alisher Navoiy asarlarining Sulton Muhammad Nur (1470–1533), Sulton Muhammad Xandon (vaf. 1551), Ali ibn Nur (vaf. XV a. ikkinchi yarmi), Abduljamil kotib (vaf.1505–1506), Sultonali Mashhadiy, Darvesh Muhammad Toqiy (vaf. XVI a. birinchi yarmi), Ali Hijroniy (vaf. XVI a.

⁸ Муродов А. 1971; Сулейманов Х., 1956–61; Ҳақимов М., 1991; Акимушкин О.Ф., 2004; Улуч Л., 2021; Мадраимов А. 2021; Shahidani Sh, 2024.

⁹ Calligraphers and Painters. A Treatise by Qadi Ahmad, son of Mir Munshi (circa A.H. 1015/A.D. 1606) translated from the Persian by V. Minorskiy. – Washington, 1959. – 223 p.; A Century of Princes. Sources on Timurid History and Art. – Cambridge, Massachusetts: The Aga Khan Program for Islamic Architecture, 1989. – 370 p; Schimmel A. Calligraphy and Islamic Culture. – London: I.B. Tauris & Co LTD, 1990. – 264 p.; Акимушкин А.Ф. Средневековый Иран. Культура, история, филология. – Санкт-Петербург: «Наука», 2004. – 392 с.; Mustafa ‘Ali’s Epic Deeds of Artists. Edited, translated and commented by Esra Akin-Kivanç. – Leiden * Boston: Brill, 2011. – 310 p.

¹⁰ Shahidani Sh., 2024. – P. 163.

¹¹ Ushbu iqtibos professor Frensis Richardning quyidagi seminarda bergan ma’ruzasidan olingan. 2025-yil 29-aprel kuni Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida Madaniy meros agentligi huzuridagi Samarqand davlat muzey-qo’riqxonasi bilan hamkorlikda “O’rta Osiyo qo’lyozmalari kodikologiyasi elementlari” mavzusida seminar-trening ish boshladi. Unda Fransiyadagi “College de Franse” doktori Mariya Eftimiyu, Fransiya Milliy ilmiy-tadqiqotlar markazi professori Frensis Richard.

¹² Қаранг: Муродов А. 1971. – Б. 57-58; Ҳақимов М., 1991. – Б. 12-13.

¹³ Shahidani Sh., 2024. – P. 163.

birinchi yarmi), Pirahmad ibn Iskandar (vaf. XVI a. birinchi yarmi) va boshqa nomdor kotiblar tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmalariga ham ushbu ta‘rifni berish mumkin.

“Badoyi’ ul-bidoya”ning barcha qo‘lyozmalari nasta‘liq xatining ko‘rkam uslublarida kito-
bat qilingan. Mazkur tadqiqotga jalb etilgan Parij nusxa xati uslubi mayda nasta‘liqda, yuqori
ehtiyotkorlik bilan nihoyatda tartibli qilib ko‘chirilgan. Uning kitobati saroy kutubxonasi uchun
maxsus ko‘chirilgan qo‘lyozmalarning darajasidadir, deb baholash mumkin. Ushbu qo‘lyozma
FMKda Supl. turc 746 raqami ostida saqlanmoqda. Uning tarkibida “Badoyi’ ul-bidoya” debo-
chasi (2b–13a) va devonning o‘zini (14b–231a) ko‘rish mumkin. Qo‘lyozmaning o‘lchami: 25x18
sm. Matnning o‘lchami: 16x11 sm.

Qo‘lyozmaning muqovasi jigarrang, u kartondan ishlanib, ustiga charm qoplangan. Muqova-
ga shamsa va lola tasviri tushirilgan, to‘rt tevaragiga ornament ishlangan. Ushbu bezaklar zarhal
fonda bo‘lib, ularda asosan islamiy naqshlar aks etgan. Shuningdek, shamsaning markazida qush
tasviri tushirilgan. Bu tasvir Eron muqovasozlik maktabi uslubini eslatadi. Shuning uchun, qo‘ly-
ozmaning muqovasi asl bo‘lmay, keyinchalik unga qayta muqova ishlangan deb taxmin qilish
mumkin.

Qo‘lyozmani zamonaviy raqamlash negadir forzas varaqdan boshlangan. Ushbu varaqning
a sahifasida arab va fransuz tillaridagi turli qaydlarni o‘qish mumkin. Jumladan, yuqori qismiga
arab xatida *ىىاون ناوىد* (“Devoni Navoiy”) deb yozilgan. Bu yozuv asosiy matnning xat uslu-
bidan farq qiladi. Katta ehtimol bilan qo‘lyozma ko‘chirilgandan keyin, boshqa davr kitobxoni
tomonidan yozilgan. Bu holat ushbu shaxs uchun devonning nomi emas, ko‘proq uning muallifi
muhim bo‘lganini anglata oladi. 1a tomoniga fransuz tilida qaydlar yozilgan. Unda asarning nomi
“G‘aroyib us-sig‘ar” ekani, u 231 varaqni tashkil etishi kabi ma‘lumotlarni topish mumkin. 1a
varaqda arab alifbosida *ررمل* (tahrirchidan) sarlavhasi bilan quyidagi bayt ham yozilgan:

نى عجب كوب ايرسا كر هاجر سيزكا اعتبار

قيمتين ارتوقراق ايتكاي اولسه جوهر دار تيغ

(*Ne ajab ko‘p ersa gar hojar sizga e‘tibor,*

Qiymatin ortuqroq etgay o‘lsa javhar dor tig‘)

Ushbu baytning “tahrirchidan” deb taqdim etilishiga qaraganda uning muallifi qo‘lyozmaning
kotibi bo‘lishi mumkin.

1b varaqda biror qayd yozilmagan.

2a varaqqa Sharq uslubiga xos 2 ta muhr bosilgan. Ulardan biri to‘rtburchak, ikkinchi muhr
esa limonsimon (sitrona) shaklda. Ushbu varaqda arab yozuvida bu ikki muhrning matni alohida
holda ham yozib qo‘yilgan¹⁴.

1 1-rasm. 1-muhr

2-rasm. 2-muhr.



[2a varaq]

Limonsimon muhrning matnini to‘liq o‘qiy olmadik, shuning uchun hozircha bu matnni faqat
rasmlarda aks ettirishga urindik. Uning mazmunidan FMKning saytidagi tavsifda yozilganidek,
“XV asr oxirida temuriylar saroyi kutubxonasi tarkibiga kirgan va u yerdan Ahmad Nuzhat ismli
noma‘lum bir shaxs tarafidan sovg‘a qilinib, Rag‘ib ismli bir vazirning ixtiyoriga o‘tganligini”
anglash mumkin¹⁵.

Debocha matni qo‘lyozmaga bir ustun, she‘rlar matni esa ikki ustunli jadval ichida ko‘chiril-

¹⁴ Unga ko‘ra to‘rtburchak muhrning matnini quyidagicha o‘qidik:

قدصار من مهدقات ارجر المالبيك * بكم المالک ما لا ستحقاق.

¹⁵ <https://archivesetmanuscripts.bnf.fr/ark:/12148/cc94082r>

gan. Ustunlarning chiziqlari zarhal va ko'k ranglarda. Jadval uchta moviy va 1 ta zarhal chiziqli ustundan iborat. Eng qalin moviy rangli ustun 0,5 mm, zarhal chiziq esa 1 mm ni tashkil etadi. Jalval ichi she'rlar orasidagi masofa 1 sm. Jadvalning dastlabki chiziqlari moviy ustunlardan boshlangan, ular debocha matnida 16,5x11,6, she'rlar matnida esa 16,4x11,4 smni (ba'zan 16,3x11,3 mm) tashkil etadi. Ba'zan kichik hajmli g'azallar jadval ichida ikki yon tarafidan 1 sm dan qoldirilib, alohida zarhal chiziq bilan o'ralgan (Qarang: 20b-21a, 47b, 64ab, 65b, 176a, 183b).

Matnlar varaqqa 13, 14, va 15 satrdan joylangan. Xati mayda, xushxat nasta'liq. Matnni ko'chirishda oralig'i 1 smli mistaradan foydalanilgan. Mistarani matn yozilgan varaqalarda payqash juda mushkul. Ammo matn yozilmagan varaqalarda uning izini lupasiz ham ko'rish imkoniyatiga egamiz.

Asosiy matn qora, har bir she'rning boshlanishida yozilgan و (yana o'sha (shu tartibda sarlavhalash ikkinchi g'azaldan boshlanadi) so'zlari esa qizil siyoh bilan ko'chirilgan.

Qo'yozmaning qog'ozi filigransiz, qalin, tolalari zich, qadimiy xitoy uslubida ishlangan. U och krem rangida. Qog'oz tuxumning oqi bilan yaxshigina ohorlangan (38b varaqda tuxum oqi dog'larini aniq ko'rish mumkin), silliqdanish darajasi ham juda yuqori. Ba'zi varaqalar, ayniqsa, ularning hoshiya qismlari namlikdan biroz zarar ko'rgan. Lekin bu matnning o'qilishiga ta'sir etmagan. Qo'lyozmaning saqlanish holatini yuqori baholash mumkin. Unda matnning biror o'rniga zarar yetmagan. Faqat poygilar matni odatdagiga nisbatan ancha pastda qolib ketgani sababli ba'zan ularni o'qish imkoniyati pasaygan. Bu holat qo'lyozmaning restavratsiyaga uchraganini va uning varaqalari aslida hozirgi o'lchamidan kattaroq bo'lganini anglatadi. Lekin restavratsiya muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Sababi matnlarni o'zida jamlab turgan ramkalar ikki yondosh varaqda o'zaro proportsionalligini saqlab qolgan. Bu varaqalarning ham tepa, ham pastki qismidan bir xilda qirgilgan bo'lishi mumkinligini anglatadi. Ehtimol, yon taraflardan ham kesilgan bo'lishi mumkin.

Poygilar bo'yicha ba'zi nuqsonlar quyidagilarda aks etadi. 10b varaqda avval دورور deb yozilib, so'ng يلا tarzida tuzatilgan. 51b varaqda poygir belgisi umuman tushmay qolgan. 149b varaqda esa poygir uchun 3 ta ishoratni ko'ramiz. Bular: او، لعلينك، ني، او (la'ling, ne, u) so'zlari-dir. Ulardan birinchi so'z, ya'ni la'ling so'zi yanglish yozilgan. U aslida poygir ishorati berilgan varaqdagi ikkinchi g'azalning birinchi so'zi hisoblanadi. Ehtimol, kotib avval ushbu g'azalni yozishni rejalagan, so'ng yanglishib keyingisini yozib yuborgan bo'lishi mumkin. Ne va u so'zlari esa ishoratlanayotgan tegishli varaqdagi dastlabki so'zlarning "Ne uchun ..." deb boshlanishiga to'g'ri poygir bo'lgan. 51b, 220b, 225b, 227b, 228b, 229b, 230b varaqalarning poygiri ko'rinmay qolgan, ular varaqning kesilgan qismida qolib ketgan bo'lishi mumkin.

Qo'lyozmaning daftarlari 3 varaqli, ular markaziy va ikki yon taraflama oq ip bilan (ba'zan ipning rangi qizg'ish tus olgan) tikilgan. Daftarlarning umumiy soni 77 kurosadan iborat. Nusxa 231 varaqni tashkil etadi. Qo'lyozmaning sahifa, varaq va daftarlari sonini quyidagi matematik amalda ko'rish mumkin:

$$(2 \times 3) \times 77 = 6 \times 77 = 462 : 2 = 231.$$

Qo'lyozmada nag'zas varaqalar yo'q. Eng so'nggi varaq (231a) devonning matni bilan yakunlangan.

Kolofonda quyidagi qaydlarni o'qiymiz:

تمت الكتاب بعون الملك الوهاب في تاريخ شهر شوال سنة ٨٨٨

(Kitob marhamatli zot Allohning izni ila tarix 885-yil shavvol oyida yakuniga yetdi / 1480-yil dekabr–1481-yil yanvar).

Debochaning va she'rlarning boshlanish varag'iga unvon ishlangan. Dastlabki unvonning o'lchami: 12x6,5 sm. Ikkinchi unvonning o'lchami: 12x7 sm. Unvonlarni ishlashda zarhal, ko'k, qizil va havorangdan foydalanilgan. Naqshlarning ranglari yaxshi holatda saqlangan.

Debocha matni yakuniga yetgach, she'rlarning boshlanishi orasidaga 13b–14a varaqlar bo'sh (lakuna) qoldirilgan. Lakuna matnga ta'sir ko'rsatmagan.

Kotib matnni juda diqqatli ko'chirgan. Bir-ikki o'rindagi poygir belgisi bilan bog'liq chalkashlikni hisobga olmaganda, asosiy matnning biror o'rnida yanglish yozilib, ustidan chizilgan, hoshiyada tuzatish kiritilgan o'rinni topish mushkul.

Shuningdek, qo'lyozmada ba'zi g'azallarning hajmi bilan bog'liq "Badoyi' ul-bidoya"ning boshqa nusxalari orasida tafovutlar ko'zga tashlanadi. O'rnak sifatida shulardan biri haqida quyidagi statistikani chiqarish mumkin. 150a varaqda "Ne uchun tarki muhabbat qildi" deb boshlanuvchi g'azalning uchinchi bayti mavjud emas:

Yor ko'yi ichra itti zor jismim ohdim,

Qayda tushganni bu yeldin bargi kohim bilmadim.

نی اوجون ترک محنت قیلدی ماھیم بیلمادیم

بو غضبکیم ایلادی ماھیم کنایم بیلمادیم

Bizni ushbu g'azalning "Badoyi' ul-bidoya"ning Parij nusxasidan avval va keyin ko'chirilgan qo'lyozmalarda necha baytli ekani qiziqtirdi. Shuning uchun, kichik bir tahlilni amalga oshirdik. Natijada ushbu g'azal "Ilk devon"¹⁶ va "Oqqo'yunli muxlislar devoni"¹⁷ mavjud emasligi va "Badoyi' ul-bidoya"ning muallif tirikligi chog'i ko'chirilgan uchta qo'lyozmasida (Parij, Boku va Mashhad) mavjudligini aniqladik. Uning matni aynan "Badoyi' ul-bidoya"ning Parij nusxasidan, ya'ni 1480-yildan boshlab ko'rina boshlaydi. Devonning 1481–1483-yillar orasida ko'chirilgan London va Tehron nusxalarida¹⁸ ham ushbu she'r uchramaydi. "Badoyi' ul-bidoya"ning Boku nusxasida 7 baytli hoshiya g'azali bo'lib keladi¹⁹. Ushbu qo'lyozmaning asosiy matni va hoshiya matni xat uslubi bir xil ekanini hisobga olsak, g'azalning Parij nusxasida mavjud bo'lmagan uchinchi bayti 1484-yil Boku nusxaga katta ehtimol bilan muallif tarafidan tahrirlangan holda kiritilganini taxmin qilish mumkin. G'azal 1491-yilga tegishli Mashhad nusxasida ham yetti baytli ko'rinishda kelgan²⁰. Shuningdek, mazkur g'azalni "Navodir un-nihoya" nusxalari sifatida qarayotgan O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondiga oid 11675 va 1995 raqamli qo'lyozmalar tarkibidan ham mavjudlik holatini tekshirib ko'rdik. Natijada Abduljamil kotib tarafidan ko'chirilgan nuxxada (№11675) mavjud emasligi²¹, Sultonali Mashhadiy kitobatiga qo'lyozmada (№1995) yana yetti baytli g'azal shaklida ko'chirilgani ayonlashdi²². Demak, ushbu g'azal faqat dastlabki ko'rinishidagina olti baytli she'r bo'lgan

Qo'lyozmalarning kodikologik tahlillari ko'pgina masalalarga yechim berishi mumkin. Jumladan, "Badoyi' ul-bidoya" Parij nusxasi ustida olib borgan xat uslubi borasidagi tekshiruvlarimizning natijasi uning ko'chiruvchisi Abduljamil kotib bo'lishi mumkinligini o'rta qayd chiqarmoqda. Ushbu masalaga kirishishdan avval Abduljamil kotib haqida ba'zi ma'lumotlarni yodga olsak. Ushbu xattot Navoiyning shaxsiy kotibi bo'lgani va o'zi ham she'r mashq qilgani haqida

¹⁶ Qarang: Алишер Навоий, 1466. Нашрга тайёрловчи: Ҳ. Сулаймон, 1968; Eckmann J., 1970. – S. 253-262; Özdaraedeli N., 1989. – S. 1007.

¹⁷ Qarang: Алишер Навоий, 1471. Нашрга тайёрловчи: А.Эркинов, 2015; Алишер Навоий. 1471. Нашрга тайёрловчилар: А.Эркинов, Р.Жабборов., 2021. – 411 б.

¹⁸ Alisher Navoiy. "Badoyi' ul-bidoya" London nusxasi. Britaniya muzeyi, № 401. 887/1482-83 y.; Alisher Navoiy. "Badoyi' ul-bidoya" Tehron nusxasi. Islom sho'ro majlisi kutubxonasi, № 14197. 888-y., safar oyi /1483-y., mart-aprel.

¹⁹ Alisher Navoiy. "Badoyi' ul-bidoya" Boku nusxasi. Ozarbayjon BA Qo'lyozmalar instituti, № 3010. 889/1484-y. 454/119a varaq (hoshiya g'azal)/7 bayt.

²⁰ Alisher Navoiy. "Badoyi' ul-bidoya" Mashhad nusxasi. Kitobxona-yi Oston-i Qudsi Razaviy, № 4783. Jumodi I 896/1491-y. mart-aprel. Ko'chiruvchi: Darvesh Muhammad Toqiy. 413/115a varaq/7 bayt.

²¹ Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. k̄tib: Abduljamil k̄tib. 1487 y. O'zRFASHI asosiy fondi. № 11675.

²² Alisher Navoiy. XV–XVI. Navodir un-nihoya. k̄tib: Sultonali Mashhadiy. O'zRFASHI asosiy fondi. №1995. 483/138a varaq/7 bayt.

manbalarda ma'lumotlar mavjud. "O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" nomli monografiyada u haqida shunday yozilgan: "Muhammadrizo Ogahiy (1809–1874) "Ravzatu-s-safo"ni o'zbek tiliga tarjima qilgan ekan, Abduljamil kotibni shunday ta'riflaydi: "Mavlono Abduljamil donishmandlar silkida intizom topib, bir necha vaqt "Sultoniya" madrasasida donish qalami bilan ilm ahli va talabalarning ko'ngillari sahifasiga ifoda naqshini yozdi. Tarixi hijriy 911-yilda (1505–1506) edikim, vafoti ittifoq tushib, mazkur tarixni qayd qilish uchun Sulton Ibrohim Aminiyning qalami bu qit'ani varaq ruxsoriga bitdi:

(U ilm osmonining (ketganiga) afsus
Mehr tufayli uni ofoq (ya'ni dunyo) olqishlagan edi
Shu sababli uning nomi Abduljamil bo'ldi.
Chunki u yaxshi xulqi bilan tanilgan edi.
Uning vafot ta'rixini donish(mandlar) shunday aytdilar:
Dunyoning tengi yo'q allomasi).

افسوس از آن سپهر دانش
کز مهر و را ستود آفاق
ز آن عبدالجمیل گشت نامش
کارسته شد بحسن اخلاق
تاریخ وفات او خرد گفت
علامه بی مثال آفاق

Qit'ada ta'rix moddasi "Alomai be misoli ofoq" bo'lib, raqamlar yig'indisi hijriy 911 (milodiy 1505–1506) yil bo'ladi"²³.

Navoiy asarlarining Abduljamil kotib tomonidan ko'chirilgan ikki qo'lyozmasi O'zR FASHI asosiy fondida saqlanmoqda. Ular "Xamsa" (5018- raqamli) va "Devoni jadid" ("Navodiru-n-nihoya", 11675-raqamli) qo'lyozmalaridir. Ma'lumotlarga ko'ra, Abduljamil kotib uzoq yillar davomida Navoiy asarlarini kitobat qilishi jarayonida shoir lirik merosidan shohbaytlarni tanlab, "Tuhfat us-salotin" nomli bir to'plam tuzgan. Mazkur asarning 914/1508–1509-yil Hirotida kotib Muhammad ibn Hasan Jum'on Ansoriy tomonidan ko'chirilgan yagona nusxasi Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda²⁴.

Tabiiyki, shaxsiy kotib vazifasini bajarib kelgan Abduljamil kotibdan Navoiy qalamiga tegishli faqat shu ikki asarning ("Xamsa" va "Devoni jadid" yoki "Navodir un-nihoya") nusxalarigina ko'chirilgan bo'lishiga ishonish qiyin. Shu ma'noda, Navoiy asarlari qo'lyozmalari bilan shug'ullanib kelayotgan bir mutaxassis sifatida ushbu kotibning boshqa dastxatlari aniqlanishiga doim umid qilardim.

FMKda "Badoyi' ul-bidoya"ning Parij nusxasini qo'limga olib, uning matnlar boshlangan varaqlarini ilk ochib ko'rishimdayoq xayolimga yalt etib Abduljamil kotibning xatiga juda o'xsharkan degan o'y keldi. Nusxaning kodikologik tadqiqi uchun uni jiddiyroq o'rganishga davom etarkanman, bu o'y meni sira tark etmadi. Ehtimol, Abduljamil kotib dastxatiga oid "Devoni jadid" ("Navodir un-nihoya", O'zR FASHI, №11675) va uning nusxasi – Sultonali Mashhadiy dastxati bilan ko'chirilgan (O'zR FASHI, №1995) qo'lyozmalarning ilmiy-tanqidiy matni ustida ishlayotganim, qariyb to'rt yildan buyon eng ko'p bu ikki xattotning xat namunalari o'qish va yozish bilan band ekanim uchun shunday kuchli intuitsiyani his qilgandirman.

Shu o'y bilan "Badoyi' ul-bidoya"dan bir qancha g'azallarning yuqoridagi qo'lyozma devonlar tarkibiga ham ko'chirilganini esladim va kompyuterimdan 1487-yil Abduljamil kotib tomonidan ko'chirilgan "Devoni jadid"ning elektron nusxasini ochdim. "Badoyi' ul-bidoya" Parij nusxasidan "Devoni jadid"ga ko'chgan bir nechta g'azallarning varaqlarini aniqladim va xat uslubini solishtirishga tushdim. Harflarning alohida ko'rinishi, so'z boshi, o'rtasi va oxirida kelish uslublariga diqqat qildim. Borgan sari taxminim to'g'ri ekaniga iqror bo'ldim. Shu tariqa to'rtta g'azalning matnini to'liq qarab chiqdim. So'ng FMKning chig'atoy va usmonli tilli manbalar

²³ Муродов А. 1971. – Б. 57-58; Ҳакимов М., 1991. – Б. 12-13. Qarang: Mirxond. Ravzatu-s-safo. VII jild. O'zR FASHI, 1716- raqamli qo'lyozma. 227- varaq; Xondamir. Habibu-s-siyar. O'zR FASHI. 2153- raqamli qo'lyozma. 631- varaq.

²⁴ Ҳакимов М., 1991. – Б. 12-13. Mazkur saylanma haqida batafsil qarang: Шамсиев П., 1986. – Б. 64-68.

bo'yicha mutaxassisi Dr. Lamine Tamssaoutni chaqirib, farazimning ishonchliligi borasida fikrini bilish uchun dalillarim bilan o'rtoqlashdim. Ushbu olim bilan bir kun avval kutubxonada tanishgan edik. Uzoq davom etgan tekshirishlarimizdan keyin L.Tamssaout farazimning to'g'ri ekanini 99% ma'qullashini bildirdi. Olim ishonch bilan qolgan 1% bizning qo'lyozmada ko'ra olmayotganimiz mavhumlikdan, deb aytdi²⁵. Quyida "Badoyi' ul-bidoya" Parij nusxasining Abduljamil kotib ko'chirgani bilan bog'liq dalillar bilan tanishishingiz mumkin.

1-jadval

Xat uslubi harfma-harf qiyoslangan g'azallarning "Badoyi' ul-bidoya" Parij nusxasi (Supl. turc 746) va "Devoni jadid" ("Navodir un-nihoya") Abduljamil kotib nusxasidagi (O'zR FASHI, №11675) ko'rsatkichi

№	G'azallarning matlallari	G'azallarning qo'lyozmadagi tartib raqami, varaqlar bo'yicha ko'rsatkichi va hajmi		Tegishli ilovalar bo'yicha ko'rsatkich
		"Badoyi' ul-bidoya" Parij nusxasi (Supl. turc 746)	"Devoni jadid" ("Navodir un-nihoya", O'zR FASHI, №11675)	
	قويون ديك وصل دشتی دين كر ای لیلی مینی سوردونک ديکچاچ سرکشته مجنونوم باشيمنی کوکا یتکوردونک	342/113b/7 ²⁶	431/84a/9	1-ilova
	نی خیال ایدی یناکیم کونکول قوشی صیدینی هوش ایلادینک بدنیم غه هر ساریدین خدنک اوروبان انکا قفس ایلادینک	355/117a/9	439/85b/8 ²⁷	2- ilova
	جنوندين ايله توفراغ اولدی جسم رنج بیورردیم که هر تیش اورسالار اطفال جسمیمغا جبقار کردیم	460/146b/7	477/93ab/7	3- ilova
	بهار و باغ سیریدین کلنی سرودور کامیم بودور کاهیم که شاید اوجراغای سروکل اندامیم	481/152b/9	472/92b/9	4- ilova

Harflarning so'z boshi, so'z o'rtasi, so'z oxiri va alohida kelish hollari bir xil ekani o'rta qichiq (ilovada berilgan o'rnaklarga qarang). Shuningdek, g'azallar matnida kelgan harflarning eng qalin va eng ingichka o'lchamini aniqlashga urindik. Natija shunday: so'z oxirida kelgan nun harfining kosa qismi eng qalin o'lchami: 0,8 mm, bu eng qalin ko'rsatkich. Ushbu harfning so'z boshida kelish o'lchami 0,1 mm, bu eng ingichka ko'rsatkich deya olamiz (qarang: 113b). Alif harfining uzunligi 0,3 mm, eni esa 0,1 mm ni tashkil etishi ayon bo'ldi. "Badoyi' ul-bidoya" matni xat uslubidagi mazkur ko'rsatkichlarni Toshkentga qaytgach, Abduljamil kotib xati bilan qiyoslab ko'rilganda o'lchamlarning bir xil ekani ma'lum bo'ldi. Bu esa tahlillarimiz xulosasini yana bir marta tasdiqlay oladi. Shu o'rinda ba'zi so'zlarning imlosi bilan bog'liq yuqoridagi ikki qo'lyozmada farqlilik kuzatilishini ta'kidlash lozim. Masalan, so'z yakunida kelgan qisqa a unlisining bir nusxada *alif*, ikkinchisida *hoi havvaz* bilan berilish hollari mavjud (1-ilovaning matlasiga qarang). Ammo bu holat bir qo'lyozmaning o'zida ham turli o'rinda turli xil kelaverishi mumkin. So'z ketayotgan "Badoyi' ul-bidoya"ning Parij nusxasi va "Devoni jadid"ning Abduljamil kotib qo'lyozmasida ham xuddi shu holat tez-tez takrorlangan. Bizningcha, turkiy matnlardagi ushbu harxillik qo'lyozma varaqlarning matn yozilishiga mo'ljallangan chegarasiga so'zni sig'dirish muhimligi natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ushbu ikki qo'lyozma bir qamish qalam bilan yozilgan bo'lishi mumkin. Bu esa

²⁵ Shu o'rinda FMKda menga ko'rsatgan barcha yordamlari uchun Dr. Lamine Tamssaoutga cheksiz minnatdorlik bildiraman.


²⁶ Ushbu g'azal "Badoyi' ul-bidoya"ning Boku va Mashhad nusxalarida ham mavjud. Ulurda 9 baytli g'azal ko'rinishini olgan.

²⁷ Ushbu qo'lyozmada g'azalning 8-bayti mavjud emas:

*Tunu kun sabu chekib, egningga sol o'zungni halqayi dayr aro
Chu belingga mug'bachalar kamandi xayolini maras aylading.*

kotiblarning o‘z uslubini saqlay bilish uchun sevimli bir qalamidan ko‘p yillar (ayni vaziyatda yetti yil) foydalangan bo‘lishi mumkinligini anglata oladi.

Shuningdek, “Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasi ustunlar orasiga qo‘yilgan quyidagi belgi ham diqqatimizni tortdi:



[59b varaq]

Ushbu qo‘lyozma yuqorida ta’kidlanganidek, yuqori saviyada, nozik did bilan ko‘chirilgan. Unda bir g‘azal tugallanib, keyingisi boshlanishidan avval, albatta, jadval chiziqlari tortilgan. Ammo biz o‘rnak sifatida keltirayotganimiz mazkur varaqda so‘nggi bayti ko‘chirilgan g‘azalning o‘zidan keyingi she‘r bilan orasini chegaralab turuvchi ustun yo‘q, uning vazifasini  mana shu belgi bajargan.

Qizig‘i shundaki, Abduljamil kotib qo‘lyozmasida “Devoni jadid”da ajratib turuvchi belgi o‘rnida bu ishoratdan hoshiya g‘azallari chegarasini bildirish uchun juda ko‘p marta foydalanilgan. Bizningcha, mayda detal bo‘lsa-da, ushbu holatni ikki qo‘lyozma kotibi bir shaxs bo‘lishi mumkinligiga kichik dalil sifatida keltirish mumkin.

Abduljamil kotib Alisher Navoiyning lirik merosini juda katta zavq bilan kuzatib borgani uning tarafidan tuzilgan “Tuhfat us-salotin”dan ma’lum. Navoiy shohbaytlaridan tanlab tuzilgan aynan mana shu saylanmada shoirning she‘rlari ilk bor 45 ta mavzuviy guruhga ajratilgan va har bir mavzu – tuhfa muvofiq keluvchi baytlar saralanib ko‘chirilgan²⁸. Prof. P.Shamsiyev ta’kidlaganidek, “Tuhfat us-salotin”ni tuzish saylanma asar va terma devonlar tuzishga qaraganda ancha murakkab kechgan. Bu ishni Navoiy devonlarini ko‘chirish davomida Abduljamil kotib ado etgan²⁹. Bu esa Abduljamil kotib Navoiyning kotibigina emas, shoir ijodining didli muxlisi va ma’lum ma’noda tadqiqotchisi bo‘lganini anglatadi. Qolaversa, yuqorida matni qiyoslash uchun asos bo‘lgan qo‘lyozma “Devoni jadid” ham Abduljamil kotibni xuddi shu pozitsiyada namoyon eta oladi. Sababi unda Navoiyning o‘rta yosh lirikasiga oid g‘azallarining katta qismi asosiy matndan tashqari hoshiya matnlari sifatida radif va qofiyasiga ko‘ra devonchilik an‘analariga uyg‘un tarzda joylab chiqilgan³⁰. Bu holat muallifning emas, aynan kotibning mehnati va adabiy saviyasi evaziga yuzaga kelgan deb aytish mumkin.

Abduljamil kotib “Tuhfat us-salotin” saylanmasiga bitgan debochada³¹ “bir necha yil davomida Navoiy bilan yaqqalam bo‘lib, kulliyotlarini ko‘chirgani, bu ishdan zavq olib kelayotgani va ko‘nglining javohirlarini sohib yuborgani taqdirda ham ushbu bitiklarning qadrini bilmay qolaverishi; mazkur to‘plamni Sulton Husaynning hukmiga ko‘ra madrasa talabalari o‘qishi uchun Navoiyning qadimiy devonlari ustida ishlashi asnosida tuzgani va bu ishi muallifga ma’qul kelganidan yanada quvvatlanganini”³² faxr bilan yozadi. Biz Abduljamil kotibning o‘z og‘zidan yozilayotgan mana shu ma’lumotdan xulosa chiqarish mumkin bo‘lgan ba’zi jihatlariga diqqatimizni qaratmoqchimiz:

1. “Tuhfat us-salotin” tuzilgunga qadar Abduljamil kotib uzoq yillar Navoiyning kulliyot-

²⁸ Шамсиев., 1986. – Б. 66-67.

²⁹ O‘sha joyda.

³⁰ Bu haqda batafsil qarang: Шамсиев П., 1986. – Б. 9-15; Madaliyeva O., 2024-yil 1-son. – Б. 4-39.

³¹ Шамсиев П., 1986. – Б. 67.

³² Ushbu jumla “Tuhfat us-salotin”dan aynan keltirilmay, faqat mazmunni ifodalash maqsad qilingan. Uslub maqola muallifiga tegishli.

larini kitobat qilib kelgan. Bu kulliyotlarning bizgacha yetib kelmagani haqida M.Hakimovning farazlari mavjud³³, biz ham ushbu fikrlarga qo'shilamiz.

2. Abduljamil kotibning Navoiy bilan "yakqalamligi"ni muallifning qoramalarini eng avval u ko'chirib kelgani va ba'zan Navoiy og'zaki bayon etib turganda (masalan, xat-hujjatlarni) u oqqa tushirgani ma'nosida tushunish mumkin.

3. "Tuhfat us-salotin" kabi bir to'plamning tuzilishiga saroy she'riyat majlislaridan birida Sultonning o'zi hukm qilgan, bundan murod madrasa talabalariga Navoiy she'riyatini o'qitish bo'lgan. Yana bir jihati saroyda tashkil etilgan mana shunday kechalarda Abduljamil kotib ham ishtirok etgan.

4. To'plam muallifga taqdim etilgani va unga ma'qul kelgani haqidagi ma'lumot uning shoir tirikligi chog'i tuzilganidan darak beradi. Demak, Navoiy tirikligidayoq, uning she'riyati Hirot madrasalarida o'qitilishiga Sulton Husaynning maxsus buyrug'i bo'lgan.

5. Tuzuvchining so'zlariga ko'ra "Tuhfat us-salotin" Navoiyning qadimiy devonlari ustida ishlash, ulardan eng kuchli baytlarni saralab olish ("hazratning qadimiy devonlari daryosidin g'avvosliq birla durri luoli muxtasarona jam qilib") natijasida yuzaga kelgan". Bunda katta ehtimol bilan "Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlari nazarda tutilgan bo'lsa kerak. Bu esa, ma'lum ma'noda, Abduljamil kotibning "Badoyi' ul-bidoya"dan ham nusxa ko'chirganiga ishora bo'lishi mumkin.

6. Shuningdek, Abduljamil kotibning "Navoiy kulliyotlarini ko'chirgani, she'rlarni qadimiy devonlardan saralab olgani" ma'nosidagi jumlaridan "Tuhfat us-salotin" Navoiy asarlarining katta qismi yozilib, kulliyot holida kitobat qilinganidan keyin, 1490-yillarning oxirlarida tuzilganini ham taxmin qilish mumkin. Har holda mana shunday vaziyatdagina 1480-yillardan dastlabki nusxalari ko'chirila boshlagan "Badoyi' ul-bidoya" va 1487-yilda dastlabki qoramasi kitobat qilingan "Navodir un-nihoya"ga nisbatan "qadimiy devonlar" sifatini berish mumkin edi, deb hisoblaymiz.

M.Hakimov: "Abduljamil butun hayoti davomida kotiblik bilan mashg'ul bo'lganligini ta'kidlash uchun ko'chirgan qo'lyozmalarining oxirida "Kotib" taxallusini qo'shib "Abduljamil Kotib" tarzida to'la imzo chekadi", deb yozadi³⁴. Biz hozircha Navoiyning shaxsiy kotibi bo'lish vazifasi Abduljamilga qachondan boshlab berilgani haqida manbalardan biror ma'lumot topa olmadik. Ushbu lavozim unga Alisher Navoiy amirlik maqomini olgach, taxminan, 1472-yildan keyin berilgan bo'lsa kerak. Mirxondning "Abduljamil kotib Hirotning Sultoniya madrasasida mudarrislik qilib sarf-u nahvdan dars bergan"³⁵ mazmunidagi ma'lumotini yodga olsak, uning faqat kotiblik bilan shug'ullanmay, faoliyatining bir qismi madrasa hayoti bilan bog'liq bo'lgani o'rta chiqadi. Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, Abduljamil kotibning Navoiydan boshqa biror muallifning asarini kitobat qilganligi haqida ham ma'lumotga ega emasmiz. Shu ma'noda, "Badoyi' ul-bidoya"ning Parij nusxasi Abduljamil kotibning ilk kitobati bo'lishi, shuning uchun kamtarlik yuzasidan kolofonda o'zining ismini qayd etmagan bo'lishi mumkin.

Quyidagilarni ushbu tadqiqotning xulosalari sifatida bildirish mumkin. "Badoyi' ul-bidoya" Parij nusxasi ushbu devonning keyingi yillarda ko'chirilgan qo'lyozmalariga faqat tarkib jihatdan emas, ma'lum ma'noda kitobati jihatidan ham manba, model vazifasini o'tagan. Qo'lyozmalar orasida ularning bichimi, ustunlari va satrlari soni, bezaklari va hajmi, xati uslubi (nasta'liq) jihatidan o'zaro yaqinlik shunday xulosani keltirib chiqaradi (5-ilovaga qarang).

"Badoyi' ul-bidoya" muallif tomonidan tobora mukammallashtirib, sayqallanib borilgan. Ushbu devonning Navoiy hayotligi chog'i ko'chirilgan dastlabki nusxalari keyin kitobat qilinganlariga ko'ra tarkib jihatidan farqlanishi fikrimizning dalili bo'la oladi.

³³ ХАКИМОВ М., 1991. – Б. 14.

³⁴ O'sha asar. – B. 12.

³⁵ O'sha joyda.


“Badoyi’ ul-bidoya” devonini qo’lyozma kitob holiga keltirish Navoiyning o’zi tomonidan tartib berilgan dastlabki devoni bo’lishi bilan birga buyuk shoirning ilk asari sifatida ham buyurtmachi, kotib, muqovasoz, naqqosh va boshqa mana shu ish bilan shug’ullanuvchi kishilar uchun juda muhim bo’lgan. Ushbu devon nusxalarining kodikologik belgilari bunga dalil bo’la oladi. Debochasida bildirilganidek, “Badoyi’ ul-bidoya”ning Sulton Husaynning (h.y. 1469–1506) shaxsan ixtiyori va buyrug’i asosida tuzilganidan Parij qo’lyozmasiga dastlabki nusxa o’laroq ham muallifning, ham saroy darajasidagi e’tiborning mahsuli sifatida qarash mumkin.

“Badoyi’ ul-bidoya” qo’lyozmalari kitobati jihatidan muallif vafotidan keyingi davrlarda shoir she’rlaridan tuzilgan terma devonlar uchun ham asos bo’lgan deyish mumkin. Ayniqsa, XVI asrga oid Navoiy terma devonlari nusxalarining kitobati “Badoyi’ ul-bidoya” qo’lyozmalariga juda yaqin.


Abduljamil kotibning “yakqalamlik” haqidagi faxriyasidan uning Alisher Navoiy hayoti va faoliyatida muhim rol tutganini anglash mumkin. Saroyda o’tkazilgan she’riy majlislarda ishtirok etgani, hukmdordan saylanma tuzish haqidagi alohida topshiriq olgani esa uning nozik ta’bli nashta’liqnavis bo’lishi bilan bir qatorda yuksak badiiy didga ega ekanligi, bu iqtidori saroy darajasida e’tirof etilgani hamda Hirot adabiy muhitida alohida mavqe’ga ega bo’lganini bildiradi. Abduljamilga nisbatan bunday ishonchning mavjudligi uning Navoiy she’riyatining bilimdoni darajasiga yetishi zahirida shoir musannifligidagi devonlarning dastlabkisi – “Badoyi’ ul-bidoya”dan tortib, eng oxirgi tuzilganlari – “Xazoyin ul-ma’oniyy” gacha kitobat qilganiga ishora etsa kerak.

So’zimiz yakunida “Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasining Abduljamil kotib ko’chirgani bilan bog’liq farazimizni dalillash uchun keltirilgan tahlillarga manbashunos-navoiyshunoslarning fikrlari va munosabatlarini kutib qolamiz.


1- ilova

“Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasi (Supl. turc 746) 342/113b/7	“Devoni jadid” (“Navodir un-nihoya”, O’zR FASHI, №11675) 431/84a/9
	



2- ilova

“Badoyi’ ul-bidoya” Parij nuxsasi (Supl. turc 746) 355/117a/9	“Devoni jadid” (“Navodir un-nihoya”, O‘zR FASHI, №11675) 431/84a/9
	

3- ilova

“Badoyi’ ul-bidoya” Parij nuxsasi (Supl. turc 746) 460/146b/7	“Devoni jadid” (“Navodir un-nihoya”, O‘zR FASHI, №11675) 477/93ab/7
	

4- ilova

“Badoyi’ ul-bidoya” Parij nuxsasi (Supl. turc 746) 481/152b/9	“Devoni jadid” (“Navodir un-nihoya”, O‘zR FASHI, №11675) 472/92b/9
	

Muallif tirikligi chog'i ko'chirilgan "Badoyi' ul-bidoya" devonining sanali sakkizta nuxsasi kodikologiyasi va tarkibiga oid ba'zi ma'lumotlar³⁶

Nº	Nusxa nomi Ko'chirilgan yili	Bezak turi va soni	Qog'ozi	Xat turi	Hajmi	Qo'lyozma o'lchami	Matn o'lchami	Satrlar soni	Jadval ustunlari	Tarixiy muhr mavjudlik ko'rsatkichi	She'rlar soni
	Parij nusxa. 885-y. shavvol/1480-y. dekabr-1481-y. yanvar	2 ta unvon	Xitoy uslubida ishlan- gan sharq qog'ozi	Nasta'liq	231 varaq	25x18 sm	16x11 sm	13, 14, 15	2 ta	+	831
	London nusxa. 887-y. robe'u- l-avval/1482-y. aprel-may	2 ta unvon	sharq qog'ozi	Nasta'liq	233 varaq	23,5x15,2 sm	9,5 sm	14	2 ta		816
	Tehron nusxa. 888-yil, safar oyi /1483-y., mart-aprel	1 ta unvon	sharq qog'ozi	Nasta'liq	268 varaq	24x16 sm	15x10 sm	13	2 ta		869
	Boku nusxa. 889-y. jumodu- l-avvalning 15-kuni/1484- y.14-iyun	1 ta unvon	sharq qog'ozi	Nasta'liq	188 varaq	23x16 sm		15	2 ta		839
	Istanbul nusxa. 889/1484-1485- y., Hirot	1 ta unvon	sharq qog'ozi	Nasta'liq	161 varaq	25,6x17 sm	16x9,6 sm	13	2 ta	+	652
	Toshkent nusxa. 891 jumodu-l- avval/1486-y. may, Hirot	2 ta unvon	sharq qog'ozi	Nasta'liq	215 varaq	23x17 sm			2 ta		916
	Mashhad nusxa. jumodi I 896/1491-yil mart-aprel	1 ta unvon	sharq qog'ozi	Nasta'liq	204 varaq	24,3x15,5 sm		17	2 ta	+	899
	Tehron – 2 nusxa. 906/1500-1501	1 ta unvon	sharq qog'ozi	Nasta'liq	123 varaq (noto'liq)			17	2 ta		511

³⁶ Ochiq qoldirilgan kataklar tegishli ma'lumotlarning bizda mavjud emasligini bildiradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. A Century of Princes. Sources on Timurid History and Art. – Cambridge, Massachusetts: The Aga Khan Program for Islamic Architecture, 1989. – 370 p.
2. Ali Şîr Nevâyî. Bedâyiü'l-bidâye. Hazırlayan: Vahit Türk, Jabbor Eshonkul. İstanbul: “Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı”, 2023. – 1072 s.
3. Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. kâtib: Abduljamil kâtib. 1487 y. O‘zRFASHI asosiy fondi. № 11675.
4. Alisher Navoiy. XV–XVI. Navodir un-nihoya. kâtib: Sultonali Mashhadiy. O‘zRFASHI asosiy fondi. №1995.
5. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya”. Boku nusxasi. Ozarbayjon BA Qo‘lyozmalar instituti, № 3010 889/1484 y.
6. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Istanbul nusxasi. Turkiya, Sulaymoniya, Ayasofya № 3981. – Hirot, 889/1484-1485 y. Ko‘chiruvchi: Sultonali Mashhadiy.
7. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” London nusxasi. Britaniya muzeyi, № 401. 887/1482-83 y.
8. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Mashhad nusxasi. Kitobxona-yi Oston-i Qudsi Razaviy, № 4783. Jumodi I 896/1491 y. mart–aprel. Ko‘chiruvchi: Darvesh Muhammad Toqiy.
9. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Parij nusxasi. Fransiya milliy kutubxonasi, № 746. 885/1480-81 y.
10. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Tehron nusxasi. Islom sho‘ro majlisi kutubxonasi, № 14197 888 y., safar ohi /1483 y., mart-aprel.
11. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Tehron-2 nusxasi. Eron milliy kutubxonasi, № 1082924. 906/1500-1501 y.
12. Alisher Navoiy. “Badoyi’ ul-bidoya” Toshkent nusxasi. O‘zR FA AdM, № 216. – Hirot, 891/1486 y. Ko‘chiruvchi: Ali ibn Nur.
13. Birnbaum E. Ottoman Turkish and Chaghatay literature. An Early 16th Century Manuscript of Nava’is Divan in Ottoman Orthography // Central Asiatic Journal. 1976, XX. – P. 157-190.
14. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque nationale. Paris, 1905. Tome I.
15. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque nationale. Paris, 1912. Tome III.
16. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque national. – Paris, 1912. Tome IV
17. Boltabayev S. Navoiy devonining shoir hayotligida ko‘chirilgan yangi topilgan nusxasi haqida // Alisher Navoiy va Sharq Renessansi (xalqaro simpozium materiallari). – Toshkent, 2022. – B. 438-466.
18. Calligraphers and Painters. A Treatise by Qadi Ahmad, son of Mir Munshi (circa A.H. 1015/A.D. 1606) translated from the Persian by V. Minorskiy. – Washington, 1959. – 223 p.
19. Eckmann J. Nevai’nin ilk divanları üzerine // Türk dili araştırmaları yillığı. Belleten, 13. – Ankara. 1970. – S. 253-262.
20. Eckmann Janos. Nevai’nin ilk divanları üzerine // Türk dili araştırmaları yillığı. Belleten, 13. – Ankara. 1970. – S. 253-262.
- <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D0%B4%D0%B8%D0%BA%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F>.
- Jo‘raboyev O. “Badoye’-ul-bidoya” devonining yana bir nodir qo‘lyozmasi haqida // Adabiy meros, №2, 2025. – B. 3-11.
- Juraboyev O. Kitabet Sanatının Bir Örneği Olarak Ali Şir Nevai’nin “Bedaiyü’l-Bidaye” Divanının Taşkent Nüshası. // Uluslararası Beşeri Bilimler ve Sanat Dergisi. Cilt/Volume:1. – Bolu, 2020. – S. 14-27.
- Levend A. Türkiye kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları // Türk dili araştırmaları yillığı. Belleten. – Ankara, 1958. – S.127-209.

Madaliyeva O. Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devoni va uning qo‘lyozmalari // Professor Hamid Sulaymon nomidagi yosh matnshunoslarning ilmiy-amaliy respublika konferensiyasi materiallari to‘plami. – Toshkent: «Yosh avlod matbaa», 2023. – B. 6-11.

Madaliyeva O. Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonining Mashhad qo‘lyozmasi // Alisher Navoiy va XXI nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent – Boku: «Zebo print», 2023. – B. 209-218.

Madaliyeva O. Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonining o‘rganilish tarixi // Alisher Navoiy va XXI nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent – Bursa: «Zebo print», 2023. – B. 400-408.

Madaliyeva O. Alisher Navoiy she’riyatining 1480- yillar tarixiga nazar (“Devoni jadid” yoki “Navodir un-nihoya” devoni qo‘lyozmalari asosida) // Oltin bitiglar. 2024-yil 1-son. – B. 4-39.

21. Mirxond. Ravzatu-s-safo. VII jild. O‘zR FASHI, 1716- raqamli qo‘lyozma. 227- varaq; Xondamir. Habibu-s-siyar. O‘zR FASHI. 2153- raqamli qo‘lyozma. 631- varaq.

22. Mustafa ‘Ali’s Epic Deeds of Artists. Edited, translated and commented by Esra Akın-Kıvanç. – Leiden * Boston: Brill, 2011. – 310 p.

23. Özdarædeli N. Ali Sir Nevayi. İlk divan. İnceleme-Metin-Dizin. Doktora tezi. – Edirne: Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1989. – S. 1007.

24. Schimmel A. Calligraphy and Islamic Culture. – London: I.B. Tauris & Co LTD, 1990. – 264 p.

25. Shahidani Sh. The role of the Safavids in the Spread and Institutionalization of the Nasta‘liq Script // Journal of Persianate Studies. – Leiden: Brill. 2024. – P. 149-188.

26. Subtelny M. Mir ‘Ali Shir Nawa’i // Encyclopedie de l’Islam. 2e edition, vol. VII. – Leiden–Paris: «Brill», 1993. – P. 90-93.

27. Абдуғафуров А. «Бадоеъ ул-бидоя»нинг тузилиш санаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989. № 4. – Б. 3-9.

28. Акимовский А.Ф. Средневековый Иран. Культура, история, филология. – Санкт-Петербург: «Наука», 2004. – 392 с.

29. Алишер Навоий. «Оққўюнли мухлислар девони»: табдил ва факсимил матн. Нашрга тайёрловчилар: А.Эркинов, Р.Жабборов. 1-том. Лойиха раҳбари: Г.Рихсиева. Лойиха илмий раҳбари: А.Эркинов. – Тошкент: “Donishmand ziyosi”, 2021. – 411 б.

30. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. Тексти тузувчи: Ш.Шарипов. МАТ. Йигирма томлик, биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – 689 б.

31. Алишер Навоий. Илк девон. 1466 йили кўчирилган қўлёзманинг факсимиле нашри. Нашрга тайёрловчи: Ҳ. Сулаймон. Тошкент: «Фан», 1968.

32. Алишер Навоий. Оққўюнли мухлислар девони. 1471 йили кўчирилган қўлёзманинг факсимиле нашри. Нашрга тайёрловчи: А.Эркинов. – Tokyo: «Research Institute for languages and cultures of Asia and Africa», 2015.

33. Волин С. «Описание рукописей произведений Навои в ленинградских собраниях» // Алишер Наваи. Под ред. К. Боровкова. – Москва–Ленинград: «Издательство АН СССР». 1946. – С. 203-235.

34. Жўрабоев О. Навоий асарлари қўлёзма ва матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент, 2016. – Б. 32-38.

35. Имомназаров М. XXI аср. Алишер Навоий лирик мероси матншунослиги муаммолари. – Тошкент, 2021. – 64 б.

36. Имомназаров М. XXI аср: Алишер Навоий лирик мероси матншунослиги муаммолари. – Тошкент: «Donishmand ziyosi», 2021. – 207 б.

37. Имомназаров М. Алишер Навоий лирик мероси матншунослигининг долзарб масалалари // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: «Tamaddun», 2017. – Б. 6-10.

38. Имомназаров М. Мусулмон минтақа маданияти ривожда «мажоз тариқи» босқиқи. 2-китоб. Алишер Навоий. – Тошкент: «Mumtoz so‘z», 2022. – 510 б.

39. Имомназаров М. Уч девон муқоясаси (Алишер Навоий шеърятини лирик жанрлар хронологиясига доир) // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: «Turon iqbol», 2018 –Б. 12-17.
40. Куделин А.Б. Алишер Навоий – родоначальник узбекской литературы (К 575-летию со дня рождения) // Известия РАН. Серия литературы и языка. 2016, том 75, No4. С. 5-11.
41. Куделин А.Б. Алишер Навоий – ўзбек адабиёти асосчиси (Навоий таваллудининг 575 йиллигига). Journal of Central Asian Renaissance. 2021, Special Issue 1, pp. 33-41.
42. Мадалиева О. Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қийматий тадқиқи. – Тошкент: «Donishmand ziyosi», 2021. – 679 б.
43. Мадраимов А. Алишер Навоий бадиий асарларининг XV–XVI асрлардаги қўлёзмалари. – Тошкент: «Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi», 2021. – 382 б.
44. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: «Фан». 1971. –196 б.
45. Нагиева Ж. Бакинские рукописи Алишера Навои. – Баку: «Элм», 1986. – 136 с.
46. Рамазонов Н. Алишер Навоийда “таҳрирни таҳрир” // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006/1. – Б. 17-23.
47. Рамазонов Н. Яна “таҳрирни таҳрир” масаласи хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007/1. – Б. 78-89.
48. Салоҳий Д. “Бадоеъ ул-бидоя” малоҳати. – Тошкент: “Фан”, 2004. – 204 б.
49. Салоҳий Д. Навоий лирик девонлари қўлёзмалари ва фотонусхалари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Наманган, 2021. – Б. 53-58.
50. Салоҳий Д. Таҳлил ва талқин масъулияти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006/1. – Б. 74-78.
51. Семенов А. Описание персидских, арабских и турецких рукописей. – Ташкент: «Издательство среднеазиатского государственного университета». 1935. – 88 с.
52. Сирожиддинов Ш., Эркинов А. Кириш // Алишер Навоий – Қомусий луғат. 1-жилд. – Тошкент: «Sharq» – Б. 8-30.
53. Сулейманов Х. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои / В трех томах / том первый. – Ташкент – Москва, 1955-1961. – С. 415.
54. Турдалиев А., Эркинов А. «Бадойиъ ал-бидоя»нинг Навоий даврида қўчирилган ва янги аниқланган санали олтинчи қўлёзмаси (Султонали Машҳадий, Ҳирот, 889/1484-1485 йил) // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: «Turon iqbol», 2018 – Б. 57-62.
55. Улуч Л. Алишер Навоий асарларининг Истанбул кутубхоналаридаги безакли қўлёзмалари. – Тошкент: «Silk Road Media» * «East Star Media», 2020. – 448 б.
56. Шамсиев П. «Тухфатус-салотин» // Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 64-68.
57. Эркинов А. «Бадойиъ ал-бидоя»нинг Навоий даврида қўчирилган ва янги аниқланган санали бешинчи қўлёзмаси (888 йил, сафар ойи/1483 йил, март-апрель) // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: «Turon iqbol», 2018. – Б. 51-57.
58. Эркинов А. В.В.Бартольд нега Навоийни таржимон ва тақлидчи деб ҳисоблади? // Алишер Навоий ва Шарқ ренессанси (халқаро симпозиум материаллари). – Тошкент, 2022. – Б. 132-158.
59. Эркинов А. Темурийлар даври қўлёзма мероси манбалари // Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Наманган, 2021. – Б. 81-85.
60. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: «Фан», 1961. – 294 б.
61. Ҳакимов М. “Алишер Навоий асарларини қўчирган хаттотлар”.
62. Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. – Тошкент: «Фан», 1983. – Б. 199.

MABRUK DJURAYEV,

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

“DEVONI FONIY”NING YANGI ANIQLANGAN NUSXASI XUSUSIDA

Annottatsiya: Maqola Alisher Navoiy – Foniy “Devoni Foni”sining Britaniya muzeyi fondida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasi tavsifiga bag‘ishlangan. Unda qo‘lyozma tarkibi, saqlanish holati hamda har bir janrga alohida e‘tibor berilib, ularning boshlanish baytlari keltirilgan. G‘azal janriga ko‘proq urg‘u berilib, ularning miqdori jadval asosida ko‘rsatilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Alisher Navoiy, Foniy, “Devoni Foni”, Britaniya muzeyi, qo‘lyozma, g‘azal, ruboiy, qasida, tatabbu‘, tavr, muxtara.

Аннотация: Статья посвящена описанию рукописного экземпляра “Дивани Фани” Алишера Навои-Фани, хранящегося в фонде Британского музея. Особое внимание уделяется составу рукописи, сохранности и каждому жанру, а также представлены их начальные стихи. Особое внимание уделено жанру газели, количество которых указано в таблице.

Ключевые слова и фразы: Алишер Навои, Фани, “Дивани Фани”, Британский музей, рукопись, газель, рубаи, касыда, татаббу, тавр, мухтара.

Abstract: The article is devoted to the description of the manuscript copy of Alisher Navai – Fani’s “Divani Fani” stored in the British Museum fund. It pays special attention to the composition of the manuscript, the state of preservation, and each genre, and their opening verses are presented. The ghazal genre is given more emphasis, and their number is indicated in the table.

Keywords and phrases: Alisher Navai, Fani, “Divani Fani”, British Museum, manuscript, ghazal, quatrain, ode, tatabbu‘, tavr, mukhtara.

Alisher Navoiy fors tilidagi ijodiy merosining o‘rganilishi, xususan, uning turli davrlarda ko‘chirilgan forsiy asarlari qo‘lyozma nusxalarini ilmiy tavsiflash va matniy-qiyosiy tadqiq etish masalasi navoiyshunoslikda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy forsiy she‘rlari majmui – “Devoni Foni” qo‘lyozma nusxalarining soni so‘nggi vaqtlarda ortib borishi quvonarli holat, albatta. Devonning bir nechta qo‘lyozma nusxalari Fransiya, Turkiya va Eron Islom Respublikasi kutubxona fondlarida saqlanishidan xabardormiz. Devonning Angliyaning Britaniya muzeyi fondidan yana bir qo‘lyozma nusxasining aniqlanishi navoiyshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasida o‘ziga xos yangilik hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, “Devoni Foni”ning ushbu yangi aniqlangan qo‘lyozma nusxasini paleografik va kodikologik tavsif etish, uning tarkibi, janr xususiyatlari va qo‘lyozmaning saqlanish holati, manbashunoslik tavsifi, nafaqat, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, balki navoiyshunoslik tadqiqotlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bu nusxa haqida Hamid Sulaymonning dissertatsiyasi [5:288 c.] hamda bu devon bilan bog‘liq maqolalarida [4: 155 b.], shuningdek, “Devoni Foni”ga oid ilmiy tadqiqotlarda ma‘lumot uchramadi. Shuningdek, 1888-yilda tuzilgan “Catalogue of the turkish manuscripts in the British museum” katalogida ham ma‘lumot mavjud emas. [6:345 p.] Bizningcha devon qo‘lyozma nusxasi katalog tuzilgan yildan so‘ng muzey fondiga olib kelingan.

Ushbu nusxa 210 varaqdan iborat. O‘lchami haqida ma‘lumot Britaniya muzeyi saytida

ko'rsatilmagan. Biz ushbu manbani tavsiflashda electron nusxadan foydalanganligimiz sababli aniqlay olmadik. Ushbu nusxa ham nasta'liq xatida ko'chirilgan. Har bir sahifadagi misralar soni 15 tadan iborat. Qo'lyozmada jadval mavjud emas, lekin har bir janr qizil siyohli sarlavha bilan bir biridan ajratilgan. Uning muqovasi qattiq havorang va yashil kartondan qayta ishlab, ta'mirlangan.

Ushbu manbaning ingliz sayti [7. <https://iiiif.bl.uk>]da qisqagina tavsifi ham berilgan bo'lib, uning qachon yozilgani va Eron adabiyotiga tegishli ekanligi bayon etilgan. Ko'chirilgan sanasi manbaning boshida, ya'ni 1a varaqda yozilgan bo'lib, hijriy 916-yil, milodiyda esa 1510-yilga to'g'ri keladi. Bu jihatdan biz tavsif etayotgan nusxa "Devoni Foniy"ning ma'lum nusxalari ichidagi eng qadimgisi bo'lmish Parij Milliy kutubxonasi fondida saqlanayotgan 285 raqamli nusxadan 15 yil oldin ko'chirilgan bo'lib chiqdi. Sana ostidan kotibing nomi keltirib o'tilgan: العبد، صدق غفرله الحاج مصطفى الفقير، الضعيف، الفقير، الحقيقير مير علي احمد غفر الله ذنوبه **Qul, zaif, faqir, haqir Mir Aliyor Ahmad Alloh uning gunohlarini kechirsin.** Shuningdek, ushbu varaqdan ikki muhr hamda fors va turkiy tilidagi tartibsiz yozilgan baytlar ham bor. Muhrlarga quyidagi yozuv bitilgan: ماشا الله لاقوة الا بالله – **Mashaal-loh Laquvvata Illa billahi.** Keyingi ikkinchi muhrga esa: صدق غفرله الحاج مصطفى الفقير من ممتلكات – **Sidqi g'afaralahu al-hoji Mustafao al-faqir min mutamallikot** [3. 1^a varaq]. Shuningdek, ushbu varaqda Alisher Navoiy – Foniyga tegishli bo'lmagan fors tilidagi she'rlar ham o'rin olgan:



“Devoni Foniy” Britaniya muzeyi. №11249. 1a varaq.

Bu nusxa debocha, qasida, g'azal, musaddas, marsiya, ruboiy, qit'a, muammo va lug'z kabi janrlarda yozilgan she'rlarni qamrab olgan. Lekin "Tarix" janriga oid she'rlar umuman uchramadi. Quyidagi jadvalda devonning ayni nusxasi to'liq tarkibi namoyob bo'ladi:


Mundarija

№	Debocha va janrlar	Soni	Varaqalari
1	Debocha		1b – 2a varaqlar
2	Qasida	9 ¹	2b – 26b varaqlar
3	G'azal	525	27b-178avaraqlar

¹ "Sittayi zaruriya"ning 6 qasidasi, "Fusuli arbaa"ning 3 qasidasi bor. Faqatgina "Saraton" qasidasi yo'q.

4	Musaddas	1	178a – 179b varaqlar
5	Marsiya	1	179b – 181b//187a ² varaqlar.
6	Ruboiy	34+24	182a – 184b//195b-197b
7	Muammo	67+298	185a – 186b//198a-209a
8	Qit'a	72	187a – 195b
9	Tarix	-	-
10	Lug'z	8	209a-210b

1b varaqda unvon ishlash uchun joy qoldirilgan lekin unvon mavjud emas. Undan so'ng تىب bayti bilan devon boshlangan:



“Devoni Foni” Britaniya muzeyi. №11249. 1b varaq.

Ayni nusxa debochaga ham ega bo'lib, u 1b varaqdan boshlanadi. Debochaning daslabki sahifasi matnida ayrim satrlarning oxirgi so'zlari muqovani ta'mirlash oqibatida ko'rinmay qolgan. Shuningdek, ta'mirlash vaqtida debochaning bir varag'i yo'qolgan. Ya'ni “گمندر سوخ اطاعت...” jumlasini bilan 1b varaqdagi debocha yakunlangan bo'lsa, keyingi varaqdagi debocha “اهل دل را سرمایه” jumlasini bilan boshlangan. Shu bilan birgalikda bir varaq yo'qolganini poygir bilan keyingi varaqning birinchi so'zi boshqa-boshqa ekanligi ham tasdiqlaydi. Unda ham qolgan nusxalar kabi qasidalar haqida bayon etilgan. Foniyning “Ruhul quds”, “Aynul hayot”, “Tuhfatul afkor”, “Qutul qulub”, “Tuhfatul najot”, “Nasimul xuld” qasidalarini o'rin olgan, shuningdek, ayrim qasidalarining sarlavhalari qizil siyohda ajratib yozilgan.

2b varaqdan “Ruhul quds” qasidasi boshlanadi. Qasidan boshlanishidan avval uning yuqorisida unvon uchun joy qoldirilgan, lekin unvon chizilmagan. O'rni bo'sh. 5b varaqqacha ushbu qasida o'rin olgan bo'lib, qasidani ko'chirish chog'ida unutib qoldirilgan sakkizinchi va bir yuz o'n ettinchi baytlar xoshiyaga yozilgan. Ushbu qasidaning 42 va 71-baytlari joylashgan bir varaq yo'qolgan. 6a varaqdan 12b varaqqacha “Aynul hayot” joylashgan bo'lib, uning ham to'rtinchi bayti hoshiyada yozilgan. Ushbu qasida ham to'liq emas, uning 38 – 58 baytlari joylashgan varaq yo'qolgan. Shuningdek, bu qasidaning 88-baytdan keyingi baytlari hamda “Tuhfatul afkor” qasidasining daslabki 40 bayti joylashgan varaq va 71-91-baytlari joylashgan varaq ham yo'qolgan. 9a varaqdan “Qutul qulub” qasidasi boshlanib, 12b varaqda tugaydi. Ushbu qasida to'liq bo'lib, u


² Marsiyaning qolgan 6 bayti joylashgan.

joylashgan varaqlarning barchasi saqlanib qolgan. 13a varaqdan 17b varaqqacha “Minhojun najot” qasidasi o‘rin olgan. bu qasida ham to‘liq. Ushbu qo‘lyozma nusxadagi yana bir to‘liq holda saqlangan qasida “Nasimul xuld” bo‘lib, u 17b - 21b varaqlarda joylashgan.

“Devoni Foni”ning ayni qo‘lyozma nusxasida “Fusuli arbaa” qasidasining “Xazon”, “Bahor” va “Day” qasidaları ham mavjud. 22a-22b varaqlarda “Xazon” qasidasi o‘rin olgan bo‘lib, uning 28 bayti saqlangan. 23a-24a varaqlarda “Bahor” qasidasi joylashgan bo‘lib, uning boshlanish 23 bayti va “Xazon” qasidasining oxirgi baytlari joylashgan varaq yo‘qolgan. Oxirgisi “Day” qasidasidir. Bu qasida to‘liq holda mavjud va u 23a-26b varaqlarda joylashgan. “Fusuli arbaa” qasidasidan “Saraton” nomli qasidasi mavjud emas. Ehtimol, ushbu qasida joylashgan varaq ham yo‘qolgan.

Qasidalaridan so‘ng 27b varaqda yana bir unvon uchun joy mavjud. Lekin unvon chizilmagan. O‘rni bo‘sh. Undan so‘ng g‘azallar boshlangan. Daslabki g‘azalning matlasi quyidagicha:

ای خاک سر کوی تو گشتن هوس ما
بر پای سگت بوسه زدن ملتئم م [3. 27^b varaq]



“Devoni Foni” Britaniya muzeyi. №11249. 27b varaq.

Bu nusxada g‘azallarning deyarli barchasiga qizil rangli siyohda sarlavha qo‘yilgan. G‘azallar 27b varaqdan 178a varaqqacha joylashgan bo‘lib, 525 tani tashkil etadi.



Bizga ma‘lumki, devon tarkibidagi g‘azallar arab alifbosi tartibida joylanadi. “Devoni Foni”ning Britaniya muzeyida saqlanayotgan nusxasi tarkibidagi g‘azallarning qaysi harfga qancha g‘azal ekanligini quyidagi jadvalda berishni maqbul ko‘rdik:

Jadval

№	Harflar	G‘azallar soni	Varaqlari
1	ا	41	27b – 39b
2	ب	24	39b – 46b
3	ت	75	46b – 68b
4	ث	1	68b – 69a
5	ج	4	69a – 70a
6	ح	3	70a – 71a

7	خ	3	71a – 71b
8	د	103	71b – 102a
9	ذ	1	102a – 102b
10	ر	20	102b – 108a
9	ز	10	108a – 110a
10	س	8	110b – 112b
11	ش	28	112b – 120b
12	ص	1	120b – 121a
13	ض	1	121a
14	ط	1	121b
15	ظ	1	121b – 122a
16	ع	3	122a – 122b
17	ف	2	122b – 123a
18	ق	2	123a – 124a
19	ک	2	124a – 124b
20	گ	5	124b – 126a
21	ل	11	126a – 129a
22	م	66	129a – 148b
23	ن	35	148b – 158a
24	و	15	159b – 162b
25	ه	17	163a – 166b
26	ال	1	166b – 167a
27	ی	41	167a – 178a
27 harfga		525	27b – 178a

Ayni nusxada ham asosiy matndan tushib qolgan yoki unutib qoldirilgan g'azallar hoshiyaga yozilgan yoki kotib yanglishib ko'chirgan g'azallarini ustidan chizib o'chirgan holatlar ham mavjud:



Alisher Navoiy. Devon Foni. Britaniya muzeyi. Inv:11249.
89 va 103 varaqlar

Gʻazallardan keyin 178a varaqdan musaddas boshlangan. Musaddasning sarlavhasi qizil rangli siyohda quyidagicha: “Oliy hukm bilan Xazrat Maxdum gʻazaliga bogʻlangan musaddasdir” U quyidagi bayt bilan boshlanadi va 27 baytdan iborat:

کردمی در خاک کوی دوست ماوا کاشکی

[3. 178^a varaq] سودمی رخسار خود بر خاک آن پا کاشکی

Musaddasdan soʻng “مودخ ترضح هیثرم” sarlavhali marsiya oʻrin olgan boʻlib, 179b-181b varaqalarda joylashgan. Marsiyaning oxirgi baytlari 187a varaqdan oʻrin olgan. Bizningcha manbani taʼmirlayotganda uning varaqlari oʻrni almashtirib yuborilgan. Bu holat boshqa janrlarga oid sheʼrlarda ham koʻzga tashlanadi.

Marsiya ham qizil rangli siyohda ajratib yozilgan boʻlib, quyidagi bayt bilan boshlanadi:

هر دم از انجمن چرخ جفای دیگرست

[3. 177^b varaq] هر یک از انجم او داغ بلایی دیگرست

Quyidagi bayt bilan 187a varaqda yakunlanadi:

شاه معنی را گر صورت افتاد چین

[3. 187^a varaq] باد تا شحر شه صورت و معنی آمین

Marsiyadan soʻng ruboiylar oʻrin olgan boʻlib, ular orasiga ularni qaysi harfga ekanligi yoki “اضی” soʻzi qizil siyoh bilan yozilgan. Ruboiylar joylashgan varaqlar ham tartibsiz joylashtirilgan. Yaʼni ruboiyning boshlanishi va sarlavhasi 195b 197b varaqda, qolgani esa 182a – 184b varaqda joylashgan. Bu janr 182a varaqda quyidagi bayt bilan boshlangan:

آید برخم خون دل از دیده فرود

[3. 182^a] از آمدن دیر تو و رفتن زود

Ushbu nusxada 58 ta ruboiy oʻrin olgan. Undan soʻngra muammolar joylashgan va bu janrni boshlanishiga hech qanday sarlavha qoʻyilmagan. Bu nusxadagi muammolar 365 tani tashkil etgan boʻlib, ular 185a varaqdan quyidagi baytli “Aflax” nomiga aytilgan muammo bilan boshlanadi:

ز هجران زلفش نگر فال دل

[3. 185^a] بدانسان که بی قامتش حال دل

Muammolarning javobi baytlarning oʻng va chap tomoniga qizil siyohda yozilgan. Muammolar janrining ham varaqlarining oʻrni almashtirib qoʻyilgan. Chunki bu janr ham 185a-186b hamda 198a-209a varaqalarda joylashgan.

Muammolardan soʻng 187^a varaqdan qitʼalar boshlangan boʻlib, marsiyaning oxirgi olti bayti va qitʼalar orasiga qizil siyohda “تاعطقم” deb janrlar bir-biridan alohida qilib ajratib qoʻyilgan. Ushbu nusxada qitʼa quyidagi bayt bilan boshlangan:

هر انکه از همه اشحاس پر مشقت دهر

[3. 187^a] برید و ساخت وتن در حریم تنهای

Bu nusxada qitʼalar 72 ta boʻlib, har bir qitʼa orasiga “qitʼa soʻzi qizil siyoh bilan yozilgan.

Qitʼalardan soʻng yana ruboiy janri 195b-197b varaqalarda hamda muammo janri 198a-209a varaqalarda joylashgan. Ulardan soʻng manbaning oxirida lugʻz janri oʻrin olgan. Ilk lugʻz “Bobo shayxiy” lugʻzining quyidagi bayti bilan boshlanadi:

چو مه مثال بود آنگه در لطافت هست

[3. 209^a] چنانکه نبودش از مهوشان دهر مثال


Lugʻzlar soni sakkizta boʻlib, ularning javobi qizil rangli siyohda har bir lugʻz tepasiga yozilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Devoni Foni”ning ushbu qoʻlyozma nusxasi devon tarkibidagi “tarix” janridan boshqa barcha janrlarni oʻzida qamrab olgan. U boshqa nusxalardan koʻchirilgan sanasi maʼlum ekanligi hamda qadimiyligi bilan hamda “Fusuli arbaa”ning “Saraton” qasi-

dasidan tashqari to'liq bo'lmasa-da to'qqiz qasida mavjudligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, undagi matnlarining ravonligi, varaqlarning izchilligini ta'minlash maqsadida har bir sahifaqa poygirlar qo'yilgani, bu nusxada g'azallar soni anchagina ko'p ekanligi (525ta) manbashunoslik uchun uning ahamiyati nechog'lik katta ekanligini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 18, 19, 20 том. Девони Фониий. – Т.: Фан, 2002.
2. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2011.
3. Alisher Navoiy. Devon Foniyy. Britaniya muzeyi. Inv:11249. 210 varaq.
4. Ҳамид Сулаймон. Навоийнинг “Фоний” девони. Шарқ юлдузи. № 9. Тошкент. 1965. – Б. 155.
5. Хамид Сулейман, Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Док. дисс. част первый. – Ташкент: изд. АН УзССР 1961. – С.288.
6. Catalogue of the turkish manuscripts in the British museum. Charles Rieu. Printed by order of the Trustees. 1888. 345 p.
iiif.bl.uk



MARYAM ESHMUHAMEDOVA,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Turkshunoslik" oliy maktabi dotsenti

XORAZM ADABIY MUHITIGA OID AYRIM MANBALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitida yaratilgan qo'lyozma manbalar haqida so'z borgan. Mazkur manbalar bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining asosiy fondida saqlanadi. Maqolada bu qo'lyozmalar dastlab tasnif qilinib, keyin ular haqida ma'lumot berilgan. Bu tasniflarda shunday qo'lyozmalar borki, ular bayozlardir. Bular tarkibida XIX asrda ijod etgan Xorazm adabiy muhitiga mansub shoirlarning asarlari o'rin olgan, deyiladi. Va bu shoirlarning ismlari keltirilgan. Bayoz qo'lyozmalarga umumiy holda tavsif berilib, misol sifatida ulardan biriga batafsil to'xtatilgan. Tasnifda ko'rsatilganidek, mazkur manbalar ichida shundaylari borki, ular mazkur adabiy muhitda ijod etgan shoirlarning alohida devonlaridan iboratdir, deyiladi. Va bunday qo'lyozmalardan biriga batafsil to'xtalangan. Maqola davomida bu qo'lyozmalar badiiy jihatdan san'at asari darajasidagi manbalar ekanligi ta'kidlangan.

Mazkur qo'lyozma manbalar o'z davri madaniyatidan xabar beruvchi hujjat ekanligiga alohida urg'u berilgan. Ularning turli-tuman shaklda yaratilganligi, masalan, ijodkorlarning faqat muxammas janridagi asarlardangina tarkib topgan qo'lyozmalar ham shu muhitda yaratilganligi haqidagi ma'lumotlar maqolaning kulminatsiyasini tashkil qiladi. Ana shunday qo'lyozmar haqida ma'lumot berilar ekan, misol sifatida ulardan biriga batafsil tavsif berilgan.

Maqola davomida Xorazm adabiy muhitida ijod qilib, bugungi kunda adabiyot olamiga tanish bo'lmagan ijodkorlarning ko'p ekanligi, ularning ham alohida devonlari mazkur fondga saqlanishi aytilgan. Bunday ijodkorlardan ayrimlarining devonlari haqida so'z aytilib ularning tavsifi to'liq holda berilgan. Xullas, maqola so'ngida Xorazm adabiy muhitida ijod qilgan ijodkorlarning XIX-XX asrga mansub qo'lyozmalarining hali yetarli darajada o'rganilmaganligi, ularni tadqiq etib, ommalashtirish manbashunoslikning dolzarb muammolarida ekanligi ta'kidlangan.

Tayanch so'z va iboralar: devon, bayoz, adabiy muhit, siyoh, tavsif, tarjima, manba, janr, qog'oz, san'at asari.

Abstract: This article discusses manuscript sources created in the Khorezm literary environment. These sources are currently stored in the main fund of the Abu Raykhan Beruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. The article first classifies these manuscripts, and then provides information about them. Based on the classification, it is said that there are manuscripts that are bayazes. They are said to contain the works of poets belonging to the Khorezm literary environment who created in the 19th century. And the Bayaz manuscripts, in which the names of these poets are given, are generally described, and one of them is discussed in detail as an example. As indicated in the classification, among these sources there are those that are said to consist of separate divans of poets who created in this literary environment, one of such manuscripts is discussed in detail. Throughout the article, it is emphasized that these manuscripts are sources at the level of a work of art in terms of artistic value.

Special emphasis is placed on the fact that these manuscript sources are documents that inform about the culture of their time. The culmination of the article is the information that they

were created in various forms, for example, manuscripts that contain only works of authors in the genre of muhammas were also created in this environment. While providing information about such manuscripts, a detailed description of one of them is given as an example.

Throughout the article, it is noted that there are many authors who created in the Khorezm literary environment and are not known to the literary world today, and that their separate divans are also kept in this fund. The divans of some of these authors are mentioned and their descriptions are given in full.

In short, at the end of the article, it is emphasized that the manuscripts of authors who created in the Khorezm literary environment of the 19th-20th centuries have not yet been sufficiently studied, and their research and popularization are urgent problems of source studies.

Keywords and expressions: *divan, bayaz, literary envirovement, ink, descirption, translation, source, genre, paper, works at art.*

Mumtoz adabiyotimiz tarixida Xorazm adabiy muhitining o'ziga xos o'rni bor. Xorazm azaldan ko'plab ijodkorlarning maskani bo'lgan. Bu yerdan yetishib chiqqan Olim-u fozillar kishilik madaniyatiga o'z hissasini qo'shgan. Bu obidalarining ko'pi bizga qo'lyozma manbalar orqali yetib kelgan.

Birgina O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida Xorazm adabiy muhitida turkiy tilda bitilgan ana shunday yozma obidalar talaygina.

Bu qo'lyozmalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Qo'lyozma bayozlar holidagi manbalar.
2. Mualliflarning alohida devonlari.
3. Xorazm adabiy muhiti shoirlarining muxammaslaridan tuzilgan qo'lyozma bayozlar.
4. Mualliflarning tarixiy asarlari o'rin olgan qo'lyozmalar.
5. Mualliflarning tarjima asarlari o'rin olgan qo'lyozmalar.
6. Bir necha shoirning she'riy devoni jamlangan majmualar.
7. Xorazm adabiy muhiti shoirlarining g'azallaridan tuzilgan qo'lyozmalar.
8. Dastxat qo'lyozmalar.

O'zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan Xorazm adabiy muhiti manbalari ma'lum qismining tavsifi SVR ("Собрание Восточных рукописей" \ "Sharq qo'lyozmalari to'plami")da berilgan [1]. Lekin bu katalogga kirmagan manbalar ham oz emas.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, SVRda berilgan bu qo'lyozmalar tavsiflari qisqa, devonlardagi she'rlarning boshi va oxiri berilmagan. Sohaga oid ma'lumotlar to'liq emas. Demak, tavsiflarni kengroq ochib berish zarurati bor. Shu maqsadda ayrim ishlar amalga oshirildi.

Xorazm adabiy muhitida yaratilgan manbalarni ko'zdan kechirar ekanmiz, ular ichida qo'lyozma bayozlar ko'proq uchraydi. Bu qo'lyozma bayozlardan, asosan, Chokar, Avaz, Mirzo, G'ulomiy, Bayoniy, Kamoliy, Devoni, Mutrib, Nadimiy, Xodim, Muznib, Tabibiy, G'oziy, Asad, Amiriy, Doiy va yana boshqa shoirlarning she'rlari o'rin olgan.

Bu qo'lyozmalarning tarixi ko'proq XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga mansub. Tabiiyki, bu davrda ko'chirilgan qo'lyozmalarning qog'ozi fabrika qog'ozi, ayrimlariniki esa shildiroq Sharq qog'ozidir. Shuningdek, boshqa qo'lyozmalardan farqli ravishda, ularda sahifalar raqamlangan. Aksariyat qo'lyozmalarning xattoti aniq. Ular asosan nasta'liqda yozilgan. Bu manbalar ichida husnixatda bitilib, san'at asari darajasidagilari ham bor. Muqovalari asosan kartondan. Masalan, 1178 raqami bilan institutning asosiy fondida saqlanayotgan qo'lyozma bayoz bilan tanishsak. Undan Chokar, Avaz, Muznib, Bayoniy, Niyoziy, Umidiy, Xokiy, G'oziy, Asad, Amiriy va Xorazm adabiy muhitida ijod qilgan yana boshqa shoirlarning g'azallari ham o'rin olgan. G'azallarning soni 253 ta.

Boshi (basmaladan so'ng 2b.):

اول پرى كر سورسه مندين مقصد اقصى نيدور
نى ايشيتكاي جز بو سوز دنيا وما فيها نيدور

Oxiri (96b.):

بو خادم بيچاره نى عشقين زياد ايتماك بيله
زربفت جالمة كيמים اول خورشيد بان اوستيغه

Matn qora siyoh bilan go'zal nasta'liqda fabrika qog'oziga bitilgan bo'lib, ikki ustunli sakkiz yo'ldan joylashtirilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Matn jadvalga olingan. Qo'lyozmaning varaqlari raqamlangan.

Qo'lyozma yaxshi saqlangan. Tarixi: hijriy 1326-yil. Xattot: Bobojon devon Tarrox ibn Abdulaziz maxdum. 96 varaq (2b–96b). 21x12. Sharq muqovasi, kartondan, moshrang. Qo'lyozma badiiy jihatdan ahamiyatga molik san'at asari darajasida.

Yoki 1143 ashyo raqamli qo'lyozma bayozni oladigan bo'lsak, undan Bayoniyni 31 ta, Sodiqning 21 ta, Umidiyni 13 ta, Avazning 15 ta, Haqiriyni 30 ta, Mutribi Xona Xarobning 13 ta, Xayoliyni 12 ta, Sultoniyni 16 ta, Sa'diyni 7 ta, Mirzoning 2 ta, Oqilning 25 ta, Devoniyni 13 ta, Ojizning 54 ta, Shinosiyni 5 ta, Xokiyni 48 ta, Doiyni 2 ta, Niyoziyni 41 ta, Yusufning 43 ta va Komiliyni 13 ta she'ri o'rin olgan. Qo'lyozma badiiy jihatdan alohida ahamiyatga molik- xattotlik san'atining go'zal namunasi. Matn qora, sarlavhalar qizil siyohda nihoyatda chiroyli nasta'liq xati bilan Sharq qog'oziga 2 ustunli 10 yo'ldan naqsh usulida bitilgan. Qo'shjadval, she'rlar raqamlab chiqilgan. Biz bu o'rinda ulardan ayrimiga e'tibor qaratdik, yuqorida ta'kidlanganidek, bunday manbalar anchagina.

Bu qo'lyozma bayozlarning ahamiyatga molik tomoni shuki, barchasining tarixi ko'rsatilgan.

Birinci qo'lyozmada nomlari zikr etilgan shoirlardan yarmining ismi 2-qo'lyozmada ham uchraydi. Agar uchinchi qo'lyozmaga murojaat etadigan bo'lsak, bu ro'yxatning yana yangi shoirlar ismi bilan boyib borayotganini ko'rish mumkin. Demak, Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari juda ko'p bo'lib, bu ijodkorlardan ayrimlarininggina asarlari nashr etilgan.

Mazkur qo'lyozmalar ichida mualliflarning alohida devonlari ham bor. Bu devonlardan bir shoirning bir necha janrdagi she'rlari o'rin olgan. Mazkur qo'lyozmalar yoki Sharq qog'oziga yoki fabrika qog'oziga asosan nasta'liq xatida bitilgan. Tarixi ham, xattoti ham ko'rsatilgan. Shu bilan birga, ular ichida shunday qo'lyozmalar borki, badiiy jihatdan yuksak bir san'at asari namunasi hisoblanadi. Masalan, 345 ashyo raqamli qo'lyozma. Bu qo'lyozma Avazning turli janrdagi she'rlarini o'z ichiga olgan devon. Mazkur devon san'at asari darajasida bitilgan bo'lib, hoshiyasiga ham matn yozilgan. Tarixi hijriy 1325 yil, xattot – Chokar taxallusli ibn Muhammad Yoqub devon. Bunday qo'lyozmalar ham anchagina.

O'rganishda davom etarkanmiz, Xorazm adabiy muhiti shoirlarining faqat muxammas janridagi she'rlari o'rin olgan qo'lyozmalar ham mavjud. Masalan, 1132 raqamli qo'lyozma. Undan Ogahiy, Rojiiy, Xo'ja va yana boshqa shoirlarning muxammaslari o'rin olgan. Tarix: 1323/1905 yil, xattot: Mulla Bolta Niyoz. Asar nasta'liqda bitilgan. Bunday qo'lyozmalar ko'p emas.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Xorazm adabiy muhiti shoirlarining faqat g'azallarigina o'rin olgan qo'lyozmalar ham bor. Masalan, 6969 ashyo raqamli qo'lyozma bayoz. Undan Nadimiy, Xodim, Chokar, Devoni, Yusuf, Kamoliy, G'oziiy, Avazlarning g'azallari o'rin olgan.

Boshi (basmaladan so'ng 2b.):

ظلم و ستم منكا ايلا ب سنكا مطلب نيدور
يحيى؟ كافر دلربا ايلا ب سنكا مطلب نيدور

Oxiri (۶۶۱b.):

Matn qora, sarlavhalar qizil siyoh bilan fabrika qog'oziga nasta'liqda yozilgan.

Matn ikki ustunli olti yo'ldan joylashtirilgan. Varaqlar raqamlab chiqilgan.

Xattot: Mulla Muhammad Sharif ibn Muhammad Yoqub devon. Tarix: 1326-yil.

Sharq muqovasi, kartondan, moshrang. 166 varak (2b–166b). 18x11.

Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari asarlari o'rin olgan bunday qo'lyozmalar ichida bir ijodkorning faqat tarjima asarlari yoki faqat tarixiy asarlari o'rin olgan manbalar ham uchraydi. Bunday manbalar asosan, Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansubdir. Masalan, 12229 raqamli qo'lyozmadan shoirning beshta asari o'rin olgan:

1. "Shoh Ozod baxt" qissasi;
2. "Majmau-l-g'aroyib";
3. "Tuhfatu-l-vuzaro";
4. "Zubdatu-l-hikoyat";
5. "Qobusnoma".

Xorazm adabiy muhitida yaratilgan yana shunday qo'lyozmalar ham borki, bir shoirning faqat bir janrdagi asarlari so'ngida boshqa bir nechta shoirning huddi shu janrdagi she'rlari ham o'rin olgan. Masalan, 6932 ashyo raqamli qo'lyozma. Undan Ogahiyning 90 ta muxammasi, shuningdek, Muznib, Sodiq, Yusuf, Kamoliy, Xokiy, Shinosiy, Rog'ib, G'oziy, Nadimiy va Chokar kabi shoirlarning g'azallari ham o'rin olgan.

Boshi (basmaladan so'ng 2b.):

الهی افتدم در بحر عصیان
کرفتارم بد ست نفس شیطان

Oxiri (۲۴۹b):

بولوب مطرب کبی هر برکون نوروز عید ی دیک
ایچیب کاهی لبی نینک باده سین غمدین الر؟

Matn qora siyoh bilan, sarlavhalar qizil siyoh bilan chiroyli nasta'liqda fabrika qog'oziga bitilgan. Ikki ustunli olti yo'ldan joylashtirilgan. Varaqlar raqamlangan. Xattot: Mulla Muhammad Sharif ibn Yoqub devon. Tarix: hijriy 1328-yil. Sharq muqovasi, kartondan, moshrang. 18 x 11. 153 varak (2b–153b). Bu turdagi qo'lyozmalar ko'p emas.

O'rta asrlarda yashab, ijod etgan ijodkorlarning hammalarining ham asarlari tadqiq etilgan emas. Hali ko'plab ijodkorlarning asarlari ilmiy jamoatchilikka ma'lum emas yoki ayrim she'rlari chop etilgan-u devonlari chop etilmagan, ismlari mashhur emas. Ana shunday shoirlardan biri Habibdir. Bu shoirning ham bir necha devonlari mazkur qo'lyozmalar xazinasida saqlanadi. Ulardan biri bilan tanishamiz. 946 raqamli qo'lyozmadan Habibning 197 ta g'azali, 25 ta muxammasi, 5 ta musaddasi va 5 ta qasidasi o'rin olgan.

Boshi (basmaladanso'ng 3b):

ذهی قدرت نمالیغ قیلدینک عالمغه عدد پیدا
نی ذاتینکغه مکان ظاهر نی اوصافینکغه حد پیدا

Oxiri (۵۹a):

استعداد یغه لایق سوز اینور ای حبیبکیم هر
هیچ کیشی مطلومی؟ ایرماسنور شبستان بهار

Matn qora, sarlavhalar qizil siyoh bilan chiroyli nasta'liqda fabrika qog'oziga ko'chirilgan. Ikki ustunli yigirma bir yo'ldan joylashtirilgan. She'rlar raqamlab chiqilgan. Poygirlar bor. Devon

hijriy 1327-yili Mulla Karimbergan devon ibn Rahmonbergan Xorazmiy tomonidan kitobat qilingan. Dastlabki muqova, moshrang kartondan. Bunday devonlar ko'plab mavjud.

Yuqorida dastxat manbalar haqida so'z aytili. Misol tariqasida ulardan biriga to'xtalamiz. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'rta asrlarda yashagan ijodkorlarning aksariyati mashhur xattot ham bo'lishgan. Xorazm adabiy muhiti ijodkorlarining ko'pi xushnavis xattotlar ham bo'lishgan. Ular o'z devonlarini o'zlari kitobat qilganlar. Bunday avtograf nusxa qo'lyozmalar mazkur fondga bir qancha. Masalan, 7693 ashyo raqamli qo'lyozma Faqiriy Xorazmiy – mulla Abdurazzoq Mahdiy qori ibn Abdujabbor oxund qorining she'rlarini o'z ichiga olgan devon bo'lib, u devon tuzish tartibi bo'yicha tuzilgan. Qo'lyozmadan shoirning quyidagi janrdagi asarlari o'rin olgan:

1. Debocha
 2. G'azal – 180 ta
 3. Mustazod – 1 ta
 4. Muxammas – 25 ta
 5. Marsiya – 1 ta
 6. Musaddas – 9 ta
 7. Masnaviy – 3 ta
 8. Murabba' – 2 ta
 9. Qasida – 3 ta
 10. Munojot – 10 ta
 11. Ruboiy – 4 ta
 12. Qissa ariza – 2 ta
 13. Pandnoma – 5 ta
 14. Aytishuv – 60 ta
 15. Muammo – 6 ta
- Boshi (basmaladan so'ng 16b.):

زهی قادر قیلور قدرتین کونین ارا پیدا
جهان باغیدا صنعی دین عجب نشونما پیدا

Oxiri (184b.):

کرچه ایرسا قصد ینکیز من بی نوانی اور تاماک
قتل ایتینک سنکسار ایتیب جاهل لاره ایتینک کوماک

Matn qora, sarlavha qizil siyoh bilan chiroyli nasta'liq (yirik va mayda) xatida daftarga va turli rangdagi fabrika qog'oziga yozilgan bo'lib, har sahifada ikki ustunli o'n besh yo'ldan joylashtirilgan. Poygilar bor. Qo'lyozma raqamlangan. Matndan tushib qolgan qism hoshiyaga to'ldirilgan. Shuningdek, xato so'zlar ustiga chiziq tortilib, ular ham hoshiyaga tuzatilgan. Asar Xivada hijriy 1333/milodiy 1914 yili ko'chirilgan. Xattot muallifning o'zi, ya'ni bu avtograf nusxa. Qo'lyozmaning 26a varag'idagi yozuv mazmunidan ma'lum bo'lishicha, devon Xorazm doru-s-saltanatida sayyid Isfandiyor Bahodirxonning buyrug'i bilan yozilgan. Devondagi she'rlar raqamlangan. Ayrim varaqlarda matn uchun joy tashlab ketilgan. Qo'lyozmaning 69b va 70a varaqlaridagi xat ham, qog'oz va qog'oz o'lchami ham boshqacha. Demak, xuddi shu qo'lyozmaning boshqa nusxasi ham bo'lgan va o'sha nusxadan ko'rsatilgan varaqlar qirqib olinib, bu nusxaga yopishtirilgan.


Qo'lyozmaning ayrim varaqlarida dog'lar bor. Ayrim varaqlarda siyohi biroz xiralashgan. Dastlabki, bosma naqshli Sharq muqovasi, anor rangli kartondan. Bunday dastxat devonlar bir nechta.

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida Xorazm adabiy muhitida yashab ijod etgan shoirlarning asarlari juda ko'p. Lekin ular hali yetarli

darajada tadqiq etilmagan. Bu manbalarni o'rganib, ilmiy jamoatchilikka taqdim etish galdagi dolzarb vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР (СВР) / Под ред. А. А. Семёнова. Т. I. – Т., 1952; СВР / Под ред. А. А. Семенова. Т. II. – Т., 1954; СВР / Под ред. А. А. Семенова. Т. V. – Т., 1960; СВР / Под ред. А. А. Семенова, Д. Г. Вороновского.*
2. *Бобожон Тарроҳ Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари (нашрга тайёрловчилар Анбара Отамуродова, Олланазар Абдурахимов). – Т.: Тафаккур қаноти, 2011.*
3. *Қобулов Н. Хоразм адабий муҳити. – Урганч, 1998.*
4. *Абдуллаев Ҳ. Мумтоз Хоразмийлар муқаддас битикларда. – Т.: 2011. Лаффасий. Тазкирани шуаро.*
5. *ЎЗР ФА Шарқишунослик институти асосий фонди 12561 рақамли қўлёзма.*
6. *Худойберганов К. Хива хонлари тарихидан. – Урганч: Хоразм, 2008.*
7. *Абдуллаев Ҳ. Хоразм адиблари. – Урганч. Хоразм, 1998.*
8. *Абдуллаев Ҳ. Қадрият қатралари. – Урганч. Хоразм, 1996.*
9. *Болтабоев Ҳ. Тазкиралар зикри. 1-китоб. – Т.: Мумтоз сўз, 2015.*
10. *Жумахўжа Н. Феруз маданият ва санъат ҳомийси. – Т.: Фан, 1995.*



SAYDAKBARXON VALIYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Turkshunoslik oliy maktabi tayanch doktoranti

“NAHJU-L-FARODIS”NING ISTANBULDA SAQLANAYOTGAN BIR QO‘LYOZMASI TAVSIFI

Annotatsiya: Ushbu maqola Mahmud ibn Ali Al-Kardariyning “Nahju-l-farodis” asarining Istanbul shahridagi Yangi jome kutubxonasida saqlanayotgan 879-raqamli qo‘lyozmasining tavsifi haqida. Maqolada bu qo‘lyozmaning tarixi, qachon yozilgani, kotibi, kimlar birinchi o‘rgangani, qo‘lyozmaning matni, xati, o‘lchami va boshqa tavsiflari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Kardariy, Nahju-l-farodis, Istanbul, Yangi jome, qo‘lyozma.

Abstract: This article is about the description of manuscript number 879 of Mahmud ibn Ali al-Kardari’s work «Nahju-l-faradis,» which is kept in the Yeni Cami Library in Istanbul. The article studies the history of this manuscript, when it was written, its scribe, who first studied it, the text of the manuscript, its script, size, and other descriptions.

Keywords: Kardari, Nahju-l-faradis, Istanbul, Yeni Cami, manuscript.

“Nahju-l-farodis” asarining birorta qo‘lyozma yoki toshbosma nusxalari bizning yurtimizdagi kutubxonalarda mavjud emas. Dunyo miqyosida ham sanoqli nusxalari bor. Biz “Nahju-l-farodis”ning bir nusxasini Yangi jome kutubxonasining Telegram ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasidan original nusxadan olingan fotonusxasini topdik¹.

Nusxa qattiq muqovali, ta’mirlangan, sahifalarning ba’zi joylariga Xitoy qog‘ozidan yopishtirilgan. Bu nusxa asar qo‘lyozmalari orasida qadimiylaridandir. Biz o‘z tadqiqotimizda ana shu qo‘lyozmani tayanch nusxa sifatida oldik.

Kitobning muqovasi qattiq. Muqovaning ichki tarafida kitob haqida turk tilida qisqacha quyidagi ma’lumot yozilgan:

Yeni Cami 879 numerali

Kitap tıpkı basılmışı

Basma bağışlar 3897 numeradadır

Yeni Camiden bu 879 numara okuyucu tarafınan istenirse verilmeyecek.

Bu jummalardan asarning Yangi Jome kutubxonasidagi 879-raqamdagi qo‘lyozmasi ekanligi anglashiladi.

Kitobning 1a sahifasidan oldin bir bo‘sh varoq bor. Varoqning 1a sahifasining yuqorisida *Yani Jamî* 879 yozuvi bor. Varoqning 1b sahifasida esa:

Kitābu Nahju-l-Farādis

Maḥmud ibni ‘Ali Kardali

Kitabu faḍā‘ili mu‘jizāti-n-nabi ‘alayhi-s-salām

Va tafsiru āyātīn mutafarriqatin mina-l-qur‘āni-l-‘aẓimi liš-šayxi-l-imāmi-l-‘ālimi Abi Muḥammadin ibn Mas‘udīn al-Bağavi

Bi rasmi-l-xizānati-l-maqarri-l-aşrafi-l-‘āli sayyidi Muḥammadin valadu-l-maqāmi-ş-şari-fi-l-maliki-żāhiri Abu Sa‘idin čaqmaq naşarahullahu

¹ <https://t.me/YeniCamiLibrary/887>

Bu jumlar noma'lum kishi tomonidan 1a sahifadagi yozuvlar bevosita ko'chirilgan. Kitobning 1a sahifaning eng yuqorisidagi jumla bo'lib, u:

كِتَابُ فَضَائِلِ مُعْجَزَاتِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ

“Kitabu faḍā’ili mu’jizāti-n-nabi ṣallallahu ‘alayhi va sallam” [NFİ.1a] [1-ilova] [Nabiy sollallohu a’layhi vasallam mo’jizalarining fazilati kitobi] shaklida yozilgan. Uning ostida esa qora qalam bilan arabcha 879 raqami yozilgan.

“Nahju-l-farodis”ning ushbu nusxasi haqida eng avval Ahmad Zakiy Validiy To’g’on “Turkiyat majmuasi” to’plamining 1928-yil 2-sonida e’lon qilingan “Xorazmda yozilmish eski turkcha asarlar” nomli katta ilmiy maqolasida xabar bergan. Jumladan:

“Nahju-l-farodis” – mafqud zon o’lunan bu asarning nusxasi “Yangi jome” kutubxonasida 879 no’meruda mavjud o’lub, “Fazoilu-l-mo’jizot” ismi ila qayd o’lmishdir”², deyiladi.

Bu jumladagi “Fazoilu-l-mo’jizot” ismi ila qayd o’lmishdir, deyilishi asarning birinchi sahifasidagi yozuvlarning avvalgi qatoridagi yozuvdir. Lekin Ahmad Zaki Validiy jumlanı to’liq keltirmagan. “Nahju-l-farodis” asari ustida yirik tadqiqot qilgan Yanos Ekmann [Janos Eckmann] esa qisman to’liqroq holda “Kitābü faḍā’ili mu’cizāti-n-Nebi”³ tarzida keltiradi.

Undan pastroqdagi, o’rtada naqshli gul ichidagi doiraning ichida esa:

تَفْسِيرُ آيَاتِ مُتَفَرِّقَةٍ مِنَ الْقُرْآنِ الْعَظِيمِ لِلشَّيْخِ الْإِمَامِ الْعَالِمِ أَبِي مُحَمَّدٍ بِنِ مَسْعُودٍ الْبَغَوِيِّ

“Tafsiru āyātin mutafarriqatin mina-l-qur’āni-l-’azimi liš-šayxi-l-imāmi-l-’ālimi Abi [Muḥammadin ibn] Mas’udīn al-Bağavī” [NFİ.1a] [1-ilova], [Shayx Imom Olim Abu [Muhammad ibn] Mas’ud Bag’aviyning Qur’oni azimdan har xil oyatlarning tafsiri], deb yozilgan.

Bu jumla haqida Ahmad Zaki Validi: “G’olibo turkcha be va yoshroq turchasini bilmayan birisi bu kitobni bir tafsir kitobi zonn idrok yoldizla “Tafsiri oyati mutafarriqo minal Qur’onil a’zim ...” deya yozmishdir. Chunki “Nahju-l-farodis”ning aksar fasllarining boshinda “Imom Bag’aviy”ning “Masobih”ina isnod vordir”⁴, degan fikrni yozadi.

So’nggi eng pastdagi uchinchi qatorda esa:

بِرِسْمِ الْخَزَانَةِ الْمَقَرَّةِ الْأَشْرَفِ الْعَالِ سَيِّدِي مُحَمَّدٍ وَلَدِ الْمَقَامِ الشَّرِيفِ الْمَلِكِ الظَّاهِرِ أَبُو سَعِيدٍ جَفْمَقُ نَصَرَهُ اللَّهُ

“Bi rasmi-l-xizānati-l-maqarri-l-ašrafi-l-’āli sayyidi Muḥammadin valadu-l-maqāmi-š-šarifi-l-maliki-žāhiri Abu Sa’idin čaqmaq našarahullahu” [NFİ.1a] [1-ilova] [Alloh nusrat bergur sharaffi maqom va zohir podshoh Abu Sa’id Chaqmoqning o’g’li oliy sharaffi maqom ekasi sayyidim Muhammadning xazinasining muhri bilan], deb yozilgan jumla bor.

Bu jumla haqida Ahmad Zaki Validiy “Xorazmda yozilgan bu kitob so’ngra Misrga kelmishdir. Birinchi sahifadagi [“Bi rasmi-l-xizānati-l-maqarri-l-ašrafi-l-’āli sayyidi Muḥammadin valadu-l-maqāmi-š-šarifi-l-maliki-žāhiri Abu Sa’idin čaqmaq našarahullahu”] iborasi kitobning Misrda Amir Chaqmoqning [1438-1445] o’g’li Muhammadbekning kutubxonasida bo’lundug’ini ko’rsatur”⁵, deydi.

Jakos Ekmann ham shu fikrni ma’qullab, Misrda Abu Said Chaqmoqning o’g’li Muhammadbekning kutubxonasidagi kitob qanday qilib Turkiyaga kelib qolagani ma’lum emas, deydi⁶.

Asarning to’liq nomi kitobning 1b sahifaning 16-qatorida muallif asarning nomi haqida: Bu kitābgā “Nahju-l-farādis” at berdük. Ma’nāsi Uštmaxlarniñ açuq yoli demäk bolur [NFİ.1b,16] deydi.

² Ахмад Заки Валидий. Хоразмда ёзилмиш эски туркча асарлар. Туркият мажмуаси 2. 1928. – Б. 331 (17).

³ Mahmut b. Ali. Nehçü'l-Feradis. Uşmaḥlarning açuq yoli. Cennetlarin açik yolu). Metin, Dizin-Sözlük, Tıpkıbasım. Birleştirilmiş baskı. Tıpkıbasım ve çeviri yazı Janos ECKMANN. Yayıl原因lar: Semıth TEZCAN – Hamza ZÜLFİKAR. Dizin-Sözlük: Aysu ATA. Ankara, 2014. – S. III

⁴ Ахмад Заки Валидий. Хоразмда ёзилмиш эски туркча асарлар. Туркият мажмуаси 2. 1928. – Б. 333 (19).

⁵ Ахмад Заки Валидий. Хоразмда ёзилмиш эски туркча асарлар. Туркият мажмуаси 2 -1928. – Б. 333 (19).

⁶ Mahmut b. Ali. Nehçü'l-Feradis. Uşmaḥlarning açuq yoli. Cennetlarin açik yolu). Metin, Dizin-Sözlük, Tıpkıbasım. Birleştirilmiş baskı. Tıpkıbasım ve çeviri yazı Janos ECKMANN. Yayıl原因lar: Semıth TEZCAN – Hamza ZÜLFİKAR. Dizin-Sözlük: Aysu ATA. Ankara, 2014. – S. IV

Yangi jome kutubxonasi fihristi [katalogi]da 879 raqamli kitobning nomini “Fazoilu-l-mo’jizot”, muallifini esa Muhammad ibn Xusrav al-Xorazmiy deb berilgan⁷.

Asar matni nasx xatida harakatli yozilgan. Asar to’liq holda saqlangan. Asar matni boshdan oxirigicha 17 qatordan yozilgan. Matnda bo’g’in ko’chirilishlar mavjud. Bob, fasl nomlari va payg’ambarlar hamda taniqli kishilarning ismlari va oyatlar avvalida yozilgan *qavluhu ta’ala* jumlasini qizilda yozilgan. Ko’p o’rinlarda xato yoki qayta yozilgan so’z va jumlar ustidan chizilgan. Ba’zi tushib qolgan so’z va jumlar hoshiyada berilgan va matnda o’rni ko’rsatib ketilgan. Bundan tashqari hoshiyada matnga tegishli bo’lmagan turkiy va arab tilida yozilgan izohlar bor. Ayrim o’rinlarda poyg’irlar ham mavjud. Asarning yarmidan keyin oyatlar odatdan boshqa xatda yozilgan. Bu holat asarda boshqa xattotning ham xizmati bor degan xulosani beradi.

Asarning asl qo’lyozmasi qo’limizda bo’lmagani uchun, u haqida tadqiqot olib borganlarning xulosasiga tayanamiz. Kitobning muqovasi, o’lchami, qog’oz sifatini fotonusxada ko’rishning imkonini yo’q.

“Nahju-l-farodis” asarining “Yangi jome” nusxasining o’lcham¹ va varoqlarinir¹³ adadi haqida Ahmad Zaki Validiy: “Yangi jome nusxasining tili [bo’yi] 25 $\frac{1}{2}$, ’arzi [eni] 23 $\frac{1}{2}$ santim. Har sahifada 19 santim tulinda 17 satr o’lmoq uzra jam’an 222 varaq ya’ni 444 sahifalik buyuk bir asardir”⁸, deya xabar bersa, asar haqida yirik tadqiqot qilgan Janos Ekman esa: “Yeni Cami nushasi 34x25 [yuzli kism 25x19] cm olchisunde, her birinde 17 satir olmak uzere, 222 yaprak 444 sehifeden ibarettir”⁹, deydi.

Bu ikki ikki ma’lumotda asar sahifalarining o’lchamida har xillik bor. Ahmad Zaki Validiy sahifaning o’lchamini 25,5x23,5 desa, Janos Ekman 34x25, yoki Ahmad Zaki validiy matnli qismi-ning bo’yini 19 sm desa, Janos Ekman 25 sm o’lchamdiligini aytadi. Ikki tadqiqotda ham qator va sahifalarning adadi bir xil. Bizning fikrimizcha, bunda turli xil o’lchamlarning paydo bo’lishiga sabab, ikki tadqiqotchidan bittasi qo’lyozma nusxaning aslidan foydalangan, boshqasi esa faksimil nusxasidan foydalangan bo’lishi mumkin.

Matn yuqorida aytilganidek, har bir sahifada 17 qatordan iborat, nasx xatida yozilgan. Bob va fasllar nomi, payg’ambar, sahobalar va ulamo va mashoyix ismlari hamda deyarli har bir oyatdan oldin keladigan “Qovluhu ta’ala” jumlasini qizil rangda yozilgan. Matn harakatlari qo’yilgan. Lekin harakatlar matn yozilgandan keyin bir qancha vaqt o’tib yoki boshqa kishi tomonidan qo’yilgan bo’lishi mumkin. Ali Fahmi Karamanlio’g’li bunday fikrga sabab bo’lgan bir necha omillarni keltiradi:

- a] Asarning ilk o’n sahifasi bilan keyingi sahifalarning harakatlari bir-biridan farqlidir.
- b] Ba’zi kalimalarga ikki xil harakat qo’yilgan.
- v] Matn qalin yozilgan holda, harakat ingichka yozilgan. Ya’ni ikkisi bir qalamda yozilmagan.
- g] Harakatda xatoliklar bor¹⁰.

Bunda xulosaga kelishga sabab, birinchidan, harakatlar xato qo’yilgan. Ikkinchidan, matn bilan harakatlarning siyohi va qalami boshqa-boshqa. Uchinchidan, qizilda berilgan so’zlarning harakatlari ham qorada yozilgan.

Asar matni bir tekis nasx xatida bitilgan. Lekin asar so’ngiga borib Qur’on oyatlarining xat ko’rinishi sayqallangan, ya’ni asosiy matndan farqli ravishda alohida husnixat bilan yozilgan. Matn mullif huzurida ko’chirilgan yoki muallif matnni tahrir qilgan. Chunki juda ko’p o’rinlarda xato yozilgan so’z yoki jumla ustiga chiziq tortish bilan o’chirilgan va o’sha so’zdan keyin be-

⁷ Фихристи мактабати Яни жоми. 46-бет.

⁸ Аҳмад Заки Валидий. Хоразмда ёзилмиш эски туркча асарлар. Туркийт мажмуаси 2 -1928. – Б. 332 (18).

⁹ Mahmut b. Ali. Nehcü’l-Feradis. Uşmağların açuq yolu. Cennetlerin açık yolu). Metin, Dizin-Sözlük, Tıpkıbasım. Birleştirilmiş baskı. Tıpkıbasım ve çeviri yazı Janos Eckmann. Yayıl原因lar: Semih Tezcan – Hamza Zülfikar. Dizin-Sözlük: Aysu Ata. Ankara, 2014. – S. III

¹⁰ Ali Fehmi Karamanlioğlu. Nehcü’l-feradisın dil hususiyetleri I. 2 s.

vosita yoki hoshiyada to'g'ri so'z va jumla yozilgan. Ba'zan tushunarsiz va arabcha so'zlar ham hoshiyada izohlangan.

Hoshiyalardagi hamma yozuvlarni ham xattot yoki muallif yozmagan. Keyingi davrlarda o'quvchilar tomonidan yozilgan hoshiyalar ham bor.

Matn poygirsiz yozilgan, lekin ba'zi o'rinlarda poygir qo'yilgan o'rinlar ham bor. Juda ko'p o'rinlarda bo'g'in ko'chirishlar bor. Umumiy holatda matn yaxshi saqlangan.

Janos Ekmanning ta'kidlashicha, ungacha asarning 11b[22] betdan 21a[41] betgacha bo'lgan sahifalar chalkashib ketgan. 11b[22] betdan keyin 15a-20b [29-40] sahifalar, undan keyin 14a-14b[27-28], 12a-12b[23-24] va 13a-13b[25-26] sahifalar joylashtirilgan. Yana kimdir tomonidan 11b[22], 18b[36] [qo'lyozmada 14b[28] va 20b[40] [qo'lyozmada 13b[26] sahifalarga ustiga nuqsonlik belgisini qo'yilgan. Lekin asarda kamchilik va nuqsonlar yo'q¹¹. Shu sabab kitob ta'mirdan keyin muqovalangan va sahifa raqamlari ham aralashib ketgan, masalan, 12 varoq 19, 13 varaq 20, 14 varaq 18, 15-20-varaqlar 12-17 raqamlanib qolgan. Hozirgi vaqtda bu chalkashliklar tuzatilgan¹².

3 [2a], 216 [113b] sahifaning yuqori qismida va 444 [222b] sahifaning pastki qismida yumaloq oval shaklida yozilgan muhr bor. Bu muhr 1149-hijriy, 1703-milodiy yilda vafot etgan Usmoniylar sultoni III Sulton Ahmadga tegishli bo'lib, muhr 115-hijriy yilda yasalgan. Muhrning o'lchami 36x38 mm. Muhrda quyidagicha arab alifbosidagi turkiy matn yozilgan:

وقف سلطان أحمد خان بن غازي سلطان محمد خان أحمد شاه بن محمد خان المظفر دائما ٥١١١

O'qilishi: "Vaḡf-i Sultān Aḡmad Xān bin ḡāzī Sultān Muḡammad Xān Aḡmad šāḡ bin Muḡammad Xān al-Muzaffār Dā'imā 1115"¹³. [2-ilova]

Ma'nosi: "Doimo muzaffar-g'olib Sulton Ahmadxon ibn G'oziy Sulton Muhammadxon Ahmad Shoh ibn Muhammadxonning vaḡfī. 1115-yil".

Asarning oxirida kotib kitobning qachon ko'chirilganini bayon qiladi:

"Bū kitāb tamām boldi tārix yeti yüz āltmīš birdā šahrullāhi-l-mubārak jumādi-l-ulā āyiniḡ āltinč künündä erdi-kim, kitābnī qoşliḡ vaxtindā tamām boldi. Taḡi bū kitābnīḡ muşannīfi madkür yakşanba kün dāru-l-fanādīn dāru-l-baqāḡa riḡlat qildi". [NFİ.222a,15-17].

Undan keyingi, oxirgi kolofon sahifada kotib o'zini tanishtiradi:

"Al-kātibu-l-'āsī-l-ḡāfi-r-rājī ilā raḡmati rabbihi-l-laṡifu 'alā yadi 'abdi-ḡa'ifi-n-naxifu-l-faqir mulaqqab bismi Muḡammad ibn Muḡammad Xusravu-l-Xārazmī ḡafara Alluhu lahu li-man katab va li-man naḡara va li-man qar'a va li-jamī'i-l-müminiyna val-mümināt. Amin Rabba-l-'alamiy". [NFİ. 222b, 13-17].

Bu iqtiboslardan ma'lum bo'lishicha, kitob 761-hijriy yilning Jumadul ula oyining oltinchi kuni, yakshanba kunida Muhammad ibn Muhammad ibn Xusrav al-Xorazmiy tarafidan ko'chirilgan.

Ahmad Zakiy Validiyning yozishicha bu sana milodiy 1360-yilning 25-mart, Chorshanba kuni-ga to'g'ri keladi. Musannifning vafot sanasi esa ush yilning 22-mart, yakshanba kuni bo'lgan¹⁴.

Lekin, bizning hisob kitobimizga ko'ra 761-hijriy yilning jumadul ula oyi 1359-yilning aprel oylariga to'g'ri keldi.

Asar so'ngida ham ikki bo'sh sahifa mavjud.

¹¹ Zeynep Korkmaz Armağanı. Nehçü'l-Feradis Uzerine. Ankara,2004. 313 s.

¹² Mahmut b. Ali. Nehçü'l-Feradis. Uşmaḡlarning açuḡ yoli. Cennetlarin açik yolu). Metin, Dizin-Sözlük, Tıpkıbasım. Birleştiriłmiş baskı. Tıpkıbasım ve çeviri yazı Janos ECKMANN. Yayılāyanlar: Semīth TEZCAN – Hamza ZÜLFİKAR. Dizin-Sözlük: Aysu ATA. Ankara, 2014. – S. III.

¹³ <https://muhur.yek.gov.tr/muhur/yekmu0054>

¹⁴ Аҳмад Заки Валидий. Хоразмда ёзилмиш эски туркча асарлар. Туркият мажмуаси 2 -1928. – Б. 333 (19).

Mikrofilm arxiv raqami 4429 bo'lgan asarning tili kutubxona katalogida Chig'atoy turkchasi deb ko'rsatilgan.¹⁵

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nehcul-Feradis. Ushtmahlarinin Achuq Yoli. Cennetlerin Achiq Yolu Doghru Siralan-mish. El Yazma. Ebcad-444s. <https://turuz.com/book/title/Nehcul+Feradis-Ushtmahlarinin+Achuq+Yoli-Cennetlerin+Achiq+Yolu-Doghru+Siralanmish-El+Yazma-Ebcad-444s>.
2. Mahmut b. Ali. 2014. Nehcü'l-feradis. Uşmağlarning açuq yoli. [Cennetlerin açık yolu]. Metin, Dizin-Sözlük, Tıpkıbasım. Birleştirilmiş baskı. Tıpkıbasım ve çeviri yazı Janos Eckmann. Yayıl原因lar: Semuth Tezcan – Hamza Zülfikar. Dizin-Sözlük: Aysu ATA. Ankara.
3. Ahmad Zaki Validiy. Xorazmda yozilmish eski turkcha asarlar. Turkiyat majmuasi 2 -1928. <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/172807>.
4. Fihristi maktabati Yani jomi. <https://t.me/YeniCamiLibrary/5>.
5. Ali Fehmi Karamanlioğlu. Nehcü'l-feradisın dil hususiyetleri I. <https://arastirmax.com/en/system/files/dergiler/190871/makaleler/16/1/arastirmax-nehcul-feradisın-dil-hususiyetleri-i.pdf>.
6. Zeynep Korkmaz Armağanı. Nehcü'l-Feradis Uzerine. Ankara, 2004.
7. <https://t.me/YeniCamiLibrary>.
8. <https://muhur.yek.gov.tr/Ilovalar>

1-ilova:



2-ilova:



¹⁵ Zeynep Korkmaz Armağanı. Nehcü'l-Feradis Uzerine. Ankara, 2004. 314 s.

O'G'ILOY NE'MATOVA,

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

“MAXZAN UL-ASROR” ASARINING IOSIF GOTVALD VA BENEDIKT PERI NASHRLARI QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: Maqolada Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” asari Iosif Gotvald va Benedikt Peri tomonidan tayyorlangan nashrlari asosida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda har ikki nashrning ilmiy-tekstologik asoslari, ularning tayanilgan qo'lyozma manbalari, manbalarning kelib chiqish tarixi hamda nashrlarning ilmiy-uslubiy yo'nalishlari batafsil yoritilgan. Muallif har ikki nashrda kuzatilgan leksik, orfografik va uslubiy tafovutlarni aniqlab, ularning asar mazmuni va badiiy tizimiga ta'sirini tahlil qilgan. Shuningdek, maqolada Gotvald nashrining tizimlilik va manbaviy aniqlikka tayangan yondashuvi bilan Peri nashrining zamonaviy tahrir prinsiplari qiyoslangan. Natijada “Maxzan ul-asror”ning turli nashrlarida matnshunoslik an'analarning shakllanish jarayoni, xorijiy va mahalliy ilmiy maktablar o'rtasidagi ilmiy aloqadorlik hamda mazkur nashrlarning filologik tadqiqotlar uchun amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Haydar Xorazmiy, qo'lyozma, Qozon nusxasi, Perzsa nusxasi, qiyosiy tahlil, filologik yondashuv, nashrlar farqi, til va uslub, matnshunoslik.

Abstract: The article presents a comparative analysis of the editions of Haydar Khwarazmi's “Makhzan al-Asrar” prepared by Iosif Gotvald and Benedikt Péri. The study examines the textual and philological foundations of both editions, the manuscript sources they are based on, their historical background, and the scholarly approaches employed by each editor. The author identifies lexical, orthographic, and stylistic differences observed in both editions and analyzes their influence on the meaning and artistic structure of the work. Furthermore, the article compares Gotvald's systematic and source-based editorial method with Péri's modern editorial principles. As a result, the research substantiates the process of formation of textual traditions in various editions of “Makhzan al-Asrar”, reveals the scholarly interrelation between foreign and local academic schools, and emphasizes the practical significance of these editions for contemporary philological studies.

Keywords: Haydar Khwarazmi, manuscript, Kazan copy, Persza copy, comparative analysis, philological approach, differences and style, textual studies.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyada shakllangan sharqshunoslik maktabining taraqqiy etishida Iosif Fyodorovich Gotvaldning (1813-1897) xizmatlari alohida tahsinga sazovordir. U hayotining katta qismini ilmgga, xususan, arab, fors, turkiy qo'lyozmalarni o'rganish va ularni ilmiy muomalaga kiritishga bag'ishladi. Gotvald arabshunoslik va turkologiya uchun nihoyatda katta xizmat qilgan olim sanaladi.

Olimning bir qator tadqiqotlari arab tili va yozuvidagi nodir yodgorliklarni o'rganishga bag'ishlangan. U Germaniyada tavallud topishiga qaramay, hayotining eng sermahsul davrlarini Qozon shahrida o'tkazadi. Olim 1894-yildan boshlab Qozon universitetida faoliyat yuritgan, umrining oxirigacha shu universitetda xizmat qilib, oddiy kutubxonachilikdan katta professor darajasigacha ko'tarilgan. [<https://tatarica.org>] Ayniqsa, uning rahbarligi davrida Qozon universitetining nashriyoti arab yozuvidagi asarlarni chop etish markaziga aylanadi.

Sharqshunos olim “Qozon imperator universiteti kutubxonasiga tegishli arab qo'lyozmalari tavsifi”ni tuzadi. Bu ishning ahamiyatli tomoni shundaki, mazkur tavsif Rossiyada yaratilgan arab

qo'lyozma asarlarining ikkinchi katalogi hisoblanadi. Gotvaldning tadqiqoti manbashunoslik sohasida kataloglashtirish ishlarini qaytadan jonlantiradi.

Olim 1895-yilda Gotvald Qozon universitetining faxriy a'zosi etib saylanadi. [<https://tatarica.org>] Uning ilmiy merosi, xususan, arab qo'lyozmalarining tavsifi, arabcha-ruscha lug'at tuzish tajribasi, Yassaviy hikmatlarini nashr ettirish kabi bir qator ishlari turkiy sharqshunoslikning rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

"Maxzan ul-asror" dostonining ilk nashrlari XIX asrda jahon olimlari tomonidan bir necha marta nashr etilgan. "Vena nusxasidan olib uning ayrim parchalarini rus turkshunosi I.N.Beryozin "Turk xrestomaniyasi"ga, kiritgan edi. Qozon universitetining professori I.O.Gotvald Qozon va Vena nusxalari asosida uni 1858-yilda nashr etadi". [Mallayev, 1965:296]

Uning "Maxzan ul-asror" dostonini nashr etish borasidagi sa'y-harakatlari chinakam tashabbus bo'ldi. Shuni ta'kidlash joizki, Gotvaldning bu ishi nafaqat, "Maxzan ul-asror"ni nashr ettirish, balki, uning qo'lyozma nusxalarini topish va ular haqida ma'lumot berishda yangi imkoniyatlarni ochdi. Gotvaldning maqsadi asarni shunchaki nashr ettirish emas, balki, uni nasriy tarjimasini amalga oshirib, rus xalqini bu asar bilan yaqindan tanishtirish edi.

1858-yilda arab grafikasida bostirilgan nashr asosida keyinchalik boshqa olimlar ham o'z nashrlarini amalga oshirishni boshladi. Gotvalddan so'ng 1882-yili Haydarning "Maxzan ul-asror" asarini fransuz turkologi Pave de Kurteyl amalga oshirdi. [Abdullayev, 1974:15] Taassufki, Gotvald o'z nashrida asarning boblarga ajratilishi, ularning nomlanishi borasida hech qanday ma'lumotlarni qayd etmadi. Hatto asarning muallifi va yozilish tarixi borasida aniq ma'lumotlarni to'play olmadi, ammo Gotvaldning "Maxzan ul-asror" dostonini o'rganish va nashr jarayonidagi ishlari tom ma'noda asarni yangidan kashf etilishiga zamin yaratdi.

Maqolaga asos qilib olingan "Maxzan ul-asror"ning 1858-yilda Qozonda nashr etilgan nusxasi toshbosma hisoblanadi. Bu kitobning chop etilganiga qariyb 150 yildan oshiqroq vaqt o'tdi. Shu jihatdan mazkur toshbosma nusxa noyob manba sifatida qadrlanishga arziydi. Xususan, ushbu kitobning bir nusxasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining toshbosma asarlar fondida (inv.5498) saqlanmoqda.

Kitobning ilmiy tavsifi quyidagicha:

Nomi: مخزن الاسرار

Muallifi: میر حیدر خوارزمی

Nashr etilgan yili: 1858-yil

Nashr etilgan joyi: قازان

Tili: اوزبیکچه

Hajmi: 24x16 sm

Varoqlar soni: 32 bet

Boshi: بسم الله رحمان الرحيم

فتح و ظفر ايتی دور ای حکیم

Oxiri: بولدور و مینک امتحان

زخم و پراکندا و نیشی روان

Asar jami 598 baytdan iborat, kitobning 2-31 sahifalariga joylashtirilgan. Har sahifaga 18 yoki 21 qatordan baytlar yozilgan. Asarda hech qanday sarlavha mavjud emas, boblar o'rni esa bo'sh qoldirilgan. Noshir kitobda asar muallifi haqida ma'lumot keltirmagan va mundarija berilmagan.

Kitobning so'nggi 32-varog'ida muhim qaydnoma mavjud:

و مخزن الاسرار نینک باسمه سینه رخصت بیرلدی بو شرط ایلان کیم باصلغاندین صونک تیوشلی نسخه لار تیکشرو
[Gotvald, Qozon, 1858:32b] محکمه سینه احضار قیلنسون قازان ۹۱ نچی مارط روسیه نینک ۸۵۸۱ نچی یلدا یوسف کوتوال

(Bu "Maxzan ul-asror"ning bosmasina ruxsat berildi bu shart ilankim, bosilg'ondin so'ng tivishli nusxalar tekshiruv mahkamasina ihzor qilinsun, Qozon, 19-mart, Rusiyaning 1858 nchi

yilinda.) Yusuf Kutvol. Bundan ayon bo'ladiki nashrni tayyorlagan – Iosef Gotvald. Yusuf Kutvol esa ismning sharqona ko'rinishi.

Yuqorida Gotvald ilmiy nashrni amalga oshirish uchun “Maxzan ul-asror”ning Qozon va Vena nusxalaridan foydalanganligi haqida qayd etildi. Bu haqida o'zbek olimi Nizom Abdullayev o'z tadqiqot ishida quyidagicha tafsilot bergan: “Tekshirish ishimizga asos qilib olingan “Maxzan ul-asror”ning ikkinchi nusxasi Qozon davlat universiteti Fanniy kutubxonasida saqlanayotgan 60251 raqamli qo'lyozmaning fotokopiyasidir. Bu qo'lyozma o'rta formatda bo'lib 25 varaq (50) betdan iborat. Har bir betga asosan 13 qatordan (har qatorda 2 misra) yozilgan. Qo'lyozmada uni qachon, kim tomonidan ko'chirilgani haqida hech qanday ma'lumot berilmagan. Xati o'rtacha, nasta'liq bilan yozilgan. Qo'lyozmaning 3^a betida: 60251, Heyder, Kazan, 1858/1274 deb ishoralar qo'yilgan. 3^a25^b sahifalarga muhr/pechat bosilib, ularda Библиотека императорского Казанского университета degan jumlaning o'qish mumkin”. [Abdullayev, 1974:12] Bu ma'lumotlar orqali Gotvald Qozon universiteti kutubxonasidagi qo'lyozmadan foydalangan holda doston nashrini amalga oshirgan degan xulosa kelib chiqadi.

Haydar Xorazmiyning adabiy merosini o'rganishda, uning nashrlararo qiyosiy tadqiqini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Olim Jamoliddin Jo'rayev o'zining “Gulshan ul-asror” asarining Kurteyl tomonidan nashrga tayyorlangan matni xususiyatlari” nomli maqolasida ana shu jihatga e'tibor qaratadi. [Jo'rayev, 2022:123] Xususan, maqolada Kurteyl tomonidan tayyorlangan asar matnining o'ziga xos mohiyati xususida so'z yuritib, 249 baytdan iborat nashr matnini boshqa nusxalar bilan o'zaro qiyosiy tahlil qiladi. Tahlil jarayonida olim Eron Milliy kutubxonasida 13524 raqam bilan saqlanuvchi nusxa, Gotvald tomonidan nashrga tayyorlangan Qozon davlat universiteti kutubxonasida saqlanuvchi fotonusxa, Fransiya 978 raqam bilan saqlanuvchi nusxa, Hirotda ko'chirilgan Britaniya kutubxonasida saqlanuvchi 7914 raqami bilan ro'yxatga olingan fotonusxalarning matnlardan foydalanib, ularning o'xshash va farqli jihatlari tavsiflab beriladi. Farqlar jadval ko'rinishida ko'rsatib o'tiladi.

Mazkur maqolada esa “Maxzan ul-asror” dostonining ikki nashri, ya'ni O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan toshbosma nusxa bilan mashhur vengriyalik mashhur olim Benedikt Peri tomonidan 2020-yilda te'lon qilingan nashr qiyosiy tahlil etilgan.

Ta'kidlash joizki, ikki nashrning eng katta yutuqlaridan biri – doston matnining to'liq holda qamrab olinishidir. Demakki, ikki nashr ham to'liq nashr hisoblanadi. Birinchi nashr XIX asrning o'rtalarida, ikkinchi nashr esa XXI asrda amalga oshirilganiga qaramay, har ikkisi ham asarning matnshunoslik jihatidan mukammal holatini tiklashda muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Ikki nashrning ham o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ular quyidagicha:

Gotvald nashri dostonning Vena va Qozon nusxalari asosida tayyorlangan bo'lib, unda asarning tuzilishi, baytlar tartibi va poetik uslubini aniqlashga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi asarning ayrim holatlardagi so'z o'zgarishlari va variantlarini o'rganib, matnning asosiy shakl va mazmun qatlamini yoritishga harakat qilgan. Bu nashr dastlabki to'liq nashr bo'lgani uchun e'tibor faqatgina matnni qayta tiklashga qaratilgan. Ushbu nashr o'z davrida “Maxzan ul-asror”ning g'arb ilmiy muhitida tanilishi va o'rganilishiga zamin yaratgan.

Benedikt Peri tomonidan tayyorlangan nashr esa ilgari aniqlanmagan qo'lyozma nusxalar asosida mukammallashtirilgan bo'lib, unda doston matni zamonaviy ilmiy talablarga muvofiq tarzda qayta tiklangan. Benedikt Peri boshqa qo'lyozma, ya'ni Perzsa nusxasidan foydalanib nashrga tayyorlagan. Bu nashrda asarda ayrim baytlari to'ldirilgan, tahririy tuzatishlar kiritilgan hamda izohlar orqali matnning semantik qatlamlari yoritilgan. Natijada, Benedikt Peri asarning yangi va tahliliy jihatdan boy nashrini yaratishga amalga oshirishga muvaffaq bo'lgan.

Gotvald nashri dostonning ilk ilmiy tahlilini beruvchi manba sifatida qadrlansa, Benedikt Peri tahriri mazkur merosning keyingi bosqichdagi matnshunoslik asoslarini belgilab bergan deb aytish

mumkin. Gotvaldning ikki qo'lyozma nusxasiga, Perining esa boshqa manbaga tayanib nashrga tayyorlagani mazkur tadqiqotni ilmiy jihatdan yanada qiziqarli va ahamiyatli qiladi. Chunki nashrlarning qiyosiy tahlil jarayonida nafaqat matnning o'zgarish darajasi, balki qo'lyozma nusxalarning o'zaro qanday farqlarga ega ekani ham aniqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, "Maxzan ul-asror" asarining matnshunoslik jihatidan shakllanish bosqichlari, kotiblik an'analari hamda nusxa ko'chirishdagi tahririy o'zgarishlarni tasavvur qilish imkonini beradi.

Asarning boshlanishi ikki nashrda ham bir xil quyidagicha boshlangan:

بسم الله الرحمن الرحيم Bismillahir-rohmanir-rohim,

فتح و ظفر ایتی دور ای حکیم Fath-u zafar oyatidur, ey, hakim.[Qozon, 1858:1b]

Demak, ikki nashr ham basmala bilan boshlangan va bu hol islomiy adabiy an'anaga xos shaklda asarni Haq nomi bilan boshlash an'anasini ko'rsatadi.

Shu o'rinda nashrlar aro aniqlangan tavofutlarni matnshunoslik nuqtayi nazaridan quyidagi turlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

1. Leksik farqlar
2. Morfologik farqlar
3. Mazmuniy farqlar.

Leksik farqlar. Bunday farqlar asosan, qo'lyozma va nashrlarda bir so'zning o'rnida boshqa so'z (ma'nodosh yoki mazmunga yaqin) so'zning ishlatilinishi oqibatida kelib chiqadi. Bu farqlar ko'pincha matnni tahrir qilgan shaxsning uslubiy tuzatishi, forsha va arabcha sinonimlarning almashtirilishi, so'z tushib qolishi yoki qo'shilishi holatlarida aks etadi. Ushbu farqlarni o'rganish orqali matnning til qatlamini, keyingi nashrlardagi tahririy izlarni yoki til tarixi evolyutsiyasini bilib olish mumkin:

Gotvald nashrida:

اول کیم ایروور نشو و نماسیز جماد

باغلاماغای نامیغا اعتماد [Qozon, 1858:7b]

Benedikt Peri nashrida:

Ul kim erur nashv u namasiz jamod,

Bog'lamayag'ay nomiyag'a e'tiqod. [Peri, 2020:76]

Birinchi baytning oxirida kelgan *e'tiqod* va *e'timod* so'zlari o'zaro ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lib, tag zamirida "ishonch" "ruhiy yoki hissiy bog'liqlik" tushunchalari yotadi. Albatta, bu ikki nashrdagi xilma-xillik so'zning ma'noviy jihatdan ta'sir doirasining qay darajada yuqori ekanligi bilan aloqador bo'lishi mumkin. "Maxzan ul-asror"ning Parijda – Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan 978 raqamli qo'lyozmada esa bu baytdagi so'z "e'tiqod" tarzda yozilgan.

Yana bir xuddi shunday farq ya'ni, bir so'z boshqa ma'nodosh so'z bilan almashtirilgan holatga misol:

Gotvald nashrida:

اراهه کیرسا مهک امتحان

نقل عیاری بولور اولدم عیان [Qozon, 1858:7b]

Benedikt Peri nashrida:

Arag'a kirsa mihaki-imtihon,

So'z iyor bo'lur ul dam ayon [Peri, 2020:79]

Bu holatda "naql" va "so'z" bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar bo'lsa-da, uslubiy qo'llash jihatdan ozgina farq qiladi. Bu farqni bir qarashda matnni ko'chirish yoki tahrir qilish jarayonida yuzaga kelgan deyish mumkin, ammo buni aniqlash uchun misralarning mazmun-mohiyatini anglamoq lozim. Baytdagi "mihak" so'zi arabchadan "biror narsani sayqallash" ma'nosini anglatga, ko'chma ma'noda "haqiqatni aniqlovchi vosita", "mezon" kabi tushunchalarni aks ettiradi. Shoir nazarida, insonning qiymatini faqat imtihon, ya'ni haqiqat mezoniga qo'yilgan so'zi orqali bilsa

bo'ladi, degan g'oya ilgari suriladi. Demak, Gotvald nashridagi naql-an'anaviy arabcha leksik shakl bo'lib, keyingi nashrlarda "so'z"ga almashtirilgan. Agar "Iyor – qimmatbaho metallarning haqiqiylik darajasini aniqlovchi o'lchov birligi" ekanini nazarga olsak, keying variantning ma'qul ekani ayonlashadi.

Morfologik farqlar asosan nusxalarda bir so'zning turli shakllarda kelishi hodisasi bilan bog'liqdir. Bunda so'zlarning grammatik shakllari (qo'shimcha, masalan, fe'llardagi zamon, shaxs-son, otlardagi egalik, kelishik va hk.) o'zgargan bo'lib, bunday o'zgarishlar ko'chirilgan joyning til unsurlari yoki tahrirni soddalashtirishga urinish orqali vujudga keladi.

Gotvald nashrida:

گاه ملک اوچیدا طیران ایتیب

گاه فلک بورجیدا سیران ایتیب [Qozon, 1858:5b]

Benedikt Peri nashrida:

Goh malak avjida tayron qilib,

Goh falak burjida sayron qilib. [Peri, 2020:76]

Baytdagi "qilib" va "etib" so'zlari bir fe'lining tarixiy shakl o'zgarishini namoyon qilgan. Ya'ni "etib" so'zi tarixan qadimiyroq shakl bo'lib, vaqtning ta'siri natijasida Benedikt Peri nashrida keyinchalik "qilib"ga aylangan. Qiziqarli tomoni shundaki, Peri nashrga tayyorlash uchun asos qilib olgan Perzsa qo'lyozmasida ham aynan "etib" so'zi yozilgan.

Ayniqsa, nashrlarda jo'nalish kelishigi (-ga) va o'rin-payt kelishigi (-da) qo'shimchalari qo'llanilishi bilan aloqador farqlar talaygina kuzatildi. Xususan, bunday tafovutlar ma'nodoshlik va fonetik yaqinlik sababli bir-birining o'rniga qo'llanilavergan. Bunda lahjaning ham ta'siri katta bo'lib, xattotning lahjasiga qaysi biri yaqin bo'lsa o'sha qo'shimchani yozib ketavergan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas.

Gotvald nashrida:

کیمدا که بار ایشتهی ایتیم حلال

قورساغینه توش بو جام و زلال [Qozon, 1858:7b]

Benedikt Peri nashri:

Kimga ki bor ishtahi ettim halol,

Qursag'ina tushti bu jom-i zulol. [Peri, 2020:72b]

Mazmuniy farqlar. Ko'pincha so'z yoki jumlar o'rniga boshqa so'z va iboralar ishlatish, ularning strukturasini o'zgartirish orqali kelib chiqadi. Bunday farqlar asar matnining nafaqat ma'nosini, balki mazmun yo'nalishini yoki badiiy talqinini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Gotvald nashrida:

کر تیلانسانک سعی بیلا بو صفت

سعیتیینک ایرور هرزه و بی منفعت [Qozon, 1858:7b]

Benedikt Peri nashrida:

Gar tilasang say bila bu sifat,

Saying erur harzayi be-ma'rifat. [Peri, 2020:75b]

Mazkur baytda "manfaat" va "ma'rifat" so'zlarining o'zaro almashinuvi mazmuniy farqni yuzaga keltirgan. "Ma'rifat" so'zi arabchadan "idrok qilish", "ilohiy haqiqatni anglash" ma'nolarini anglatga, "manfaat" esa "foйда", "naf" kabi ma'nolarni bildiradi. Shuning uchun Peri nashridagi "ma'rifat" shakli baytning mazmunini ma'naviy kamolot, ilohiy bilish va ruhiy yuksalish g'oyasiga aylantirgan. Bunga qarama-qarshi tarzda Gotvald nashridagi "manfaat" so'zi baytning mohiyatini moddiylik, amaliy natija yoki shaxsiy foyda yo'nalishiga moslashtirgan.

Gotvald nashrida:

عمر چو قطع ایتی عدم منزلی

سوزکا رقم اوردی قلمنیک تیلی [Qozon, 1858:3b]

Benedikt Peri nashrida:

Umr chu qat etti adam manzili,

So'zga raqam urdi Adamning tili. [Peri, 2020:60 b]

Ushbu bayt mazmun jihatidan o'xshash ko'rinsa-da, ular orasida ma'noviy farqni sezish mumkin. Haydar Xorazmiy "Umr chu qat etti adam manzili" iborasi orqali "hayot yo'lining yakuni", "inson umrining nihoyasi"ga ishora qiladi. Umrning ilohiy yozuv vositasi-qalam bilan yozilganligi ramziy ma'noda qo'llanilib, "qalamning tili" – taqdirning avvaldan bitilganligini nazarda tutadi. Benedikt Peri nashrida esa bu tushuncha "Adamning tili" ga o'zgartirilgan. Demak, uning nashridagi so'z bayt ma'nosini biroz yumshatadi. Ya'ni, Adam (Odam) o'z so'zi bilan ijodkorlik timsoli, til (so'z) esa abadiylikka erishish quroli sifatida talqin qilinadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, qadimgi qo'lyozma asarlarni o'rganish shunchaki uni o'qib, tahlil qilish emas, uning so'z dunyosiga kirish, mazmun va mohiyat eshigini sabr va idrok bilan ochish demakdir. Shunday ekan, xorijiy olimlar tomonidan bizning adabiyotimiz bu qadar yuksak ehtirom bilan o'rganilgan ekan, ulardan o'rnak va tajriba olmoqlikni o'rganish lozim. "Maxzan ul-asror"ning ikki mashhur olim: Gotvald va Benedikt Peri tomonidan amalga oshirilgan nashrlarda matnning asl qiyofasini tiklashga e'tibor qaratilganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Qiyosiy jarayon orqali esa ayrim so'z va ifoda almashinuvi muallif g'oyasining turlicha talqin qilinishiga olib kelgani kuzatiladi. Bu holat, o'z navbatida, har bir nashr muhitining madaniy va til xususiyatlarini aks ettiradi. Shunday qilib, Gotvald va Benedikt Peri nashrlarining o'zaro qiyosiy tahlili nafaqat "Maxzan ul-asror" asarining matnshunoslik jihatlarini aniqlashtirishga, balki Haydar Xorazmiyning badiiy tafakkuri hamda mazmuniy yo'nalishining shakllanish jarayonini yoritishga ham xizmat qiladi.

Mazkur tahlil asosida aytish mumkinki, asar nashrlari orasidagi leksik, morfologik va mazmuniy farqlar shoir uslubining o'ziga xos va mukammalligini, til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanganini va asarning turli davr hamda muhitlarda yangicha talqin etilganini ko'rsatadi. Shu jihatdan qiyosiy tadqiqot "Maxzan ul-asror"ning ilmiy matnini tiklash, uning adabiy va falsafiy qimmatini to'laqonli anglash uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://tatarica.org>

2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Тўрт томлик. 1-том. – Т.: Ўқитувчи наشريёти, 1965. – 650 б.

3. Абдуллаев Н. Ҳайдар Хоразмий ва унинг "Махзан ул-асрор"и. Илова. – Т.: 1974, – 24 б

4. Ҳ. Хоразмий. Махзан ул-асрор. – Қозон. 1858. Инв.5498 – 32б.

5. Жураев Ж. "Тулиан ул-асрор" асарининг Куртейл томонидан нашрга тайёрланган матни хусусиятлари //Тафаккур зиёси, 2022.3-сон. 120-123 бетлар.

6. Benedikt P. Haydar Xorazmiy. Maxzan al-asrar. Library and Information Centre of the Hungarian Academy of Sciences, 2020. – 215 b.

7. Муборак мактублар. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS <https://scientific-jl.com/new> Volume–72_Issue-1_March-2025 17 наشريёти, 1987, 211-246-бетлар.

8. Фаффоров Н. "Тулиан ул-асрор" нашрлари ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти, 1993, 2-сон, 52-53-бетлар.

9. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Т.: ЎзЮ Адабиёт жамғармаси наشريёти, 2006.

OTABEK JO'RABOYEV,

*O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

ASKARIY MIRZO DEVONI QO'LYOZMASI VA O'ZBEKCHA SHE'RLARI

Adabiyotimiz xazinasida hanuz kashfiyotlar uchun boy ganjinadir. Ayniqsa, temuriylar va keyingi davr mumtoz adabiy yodgorliklari yuzasidan tadqiqat hali yangidan-yangi manbalar mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Jumladan, boburiy zoda ijodkorlarning asarlari ham to'liq ilmiy iste'molga kiritilmagan. Biz bu o'rinda Askariy mirzoning yangi aniqlangan devoni qo'lyozmasi va undagi she'rlar haqida to'xtalmoqchimiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning farzandlari ko'p jihatdan otalariga taqlid qilgan, uning hukmdorlik va ijodkorlik salohiyatini o'z faoliyati davomida takrorlashga harakat qilishgan. Birgina shoirlik iqtidorini Muhammad Humoyun mirzo (1508-1556), Muhammad Komron mirzo (1509-1557), Muhammad Askariy mirzo (1512-1558) va hatto kenja o'g'li Hindol mirzo (1518-1551) ham o'zlarida sinab ko'rishgan.

Bir necha adabiy manbalar, jumladan, Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahhob" va Fahriy Hiraviyning "Ravzat-us-salotin" tazkiralarda boshqa boburiy zodalar kabi Askariyning ham she'r yozganligi borasida ma'lumot bor. Bu tazkiralarda XVI asrga oid bo'lib, ulardagi ma'lumot ishonchli hisoblanadi.

"Muzakkiri ahhob"da Askariy mirzoni "xushtab' poshohzoda" ekanligi va "ilm-u fazlga mayli bor"ligi haqida ta'kidlanadi hamda "To kard Xudo ro'zi man vodii g'amro..." deya boshlanuvchi forscha g'azali keltiriladi. "Ravzat-us-salotin"da esa "fahm-u farosati nihoyatda yaxshi" ekanligi va "tab'i nazm uslubida e'tiborga loyiq" yoziladi. So'ngra, fors tilidagi bir ruboiy va ikki matla'si keltiriladi.

Bu boburiy zodaning shoirliği haqida podshohzoda, shulardan boshqa deyarli, ma'lumot uchramaydi. Uning hayot yo'li esa turli siyosiy o'yinlar va sarguzashtlarga boyligi tarixiy manbalardan ma'lum. Lekin hayotining oxirgi yillari borasida unchalik aniq ma'lumotlar yo'q darajada.

Askariy Komron mirzo bilan onasi bir edi – Gulruxbegim. Shuning uchun ko'p jihatdan uni "humoyunparast" tarixchilar Komron mirzo bilan hamfikr va qo'llovchi sifatida ta'rif etishadi. 1545-yildagi taloto'plarda ham katta akasi Humoyun mirzo saltanatni qayta qo'lga kiritish asnosida, unga birmuncha vaqt muxolif bo'lib turgan Askariy mirzoni asirga oladi, hamda hibsda saqlaydi. Keyinchalik, Hijoz (Makka va Madina)ga Haj ziyoratiga ketishiga ruxsat beriladi. Askariyning o'sha yerlarda vafot etgani eslatiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Askariy mirzo Hijozga borishdan oldin Istanbulda ham bir fursat yashaganligi va hatto usmonli saroyiga yaqinlashishga harakat qilganligi haqida dalillar paydo bo'lmoqda. Buning asosi hozirda Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi Jorulloh bo'limidagi 1668 raqamli qo'lyozmadir.¹ Ta'kidlash kerakki, ushbu devon haqida ilk bora turk olimi Jamol Aksu xabar bergan (Turk Dili ve Edebiyati Dergisi. Sayi XLIX. 2014). Lekin J.Aksu o'z tadqiqida uning Boburni o'g'li Askariy mirzoga tegishli ekanligini aniqlay olmagan va turfa taxminlarni bildirgan.

¹ Biz bu o'rinda devon qo'lyozmasini topishimizda yaqindan ko'makchi bo'lgan iste'dodli olim Saidbek Boltaboyevga o'z tashakkurimizni bildiramiz – O.J.

Aslida, bu qo'lyozma Askariy mirzoning devoni bo'lib, u paleografik xususiyatiga ko'ra taxminan XVI asr ikkinchi yarmida kitobat qilingan. Quyidagi rasmda uning boshlang'ich-unvon sahifasi:



Devon hajmi uncha katta emas, 36 varaq. Ravon nasta'liq xatida ko'chirilgan. Unda muallifning o'zbek va fors tilidagi she'rlari o'rin olgan. Ular: fors tilida 88 g'azal, 1 qasida, 1 soqiynoma va 2 ruboiy, o'zbek tilida 1 qasida va 7 g'azal.

Ma'lum bo'lishicha, devonda forsiy abyot salmoqli. Lekin shoirning o'zbekcha tab'i nazmi ham yaxshi ekanligini ko'rish mumkin. U ulug' so'z san'atkorlari Alisher Navoiy va Lutfiy ijodidan ko'p bahramand bo'lganligi she'rlaridan ma'lum bo'ladi. Masalan,

“Oshiqi dilxastani gar dilbari shod aylagay,
Oncha bordurkim, buzug' olamni obod aylagay...”
matla'li g'azali Navoiyning ikki g'azaliga “Navodir-ush-shabob” devonidagi (635-):
“Istadim yoreki ko'ngulm dam-badam shod aylagay,
Bilmadim jonimg'a bedod uzra bedod aylagay...”
va “Badoe'ul-vasat”dagi (621-)
“Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod alagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay...”
g'azallariga nazira-tatabbu'dir.
Yoki,


“Tortayin deb yuz musavvir emdi jonon suratin,
Kimdur ulkim, torta olgay, ey ko'ngul, jon suratin...”
g'azali esa mavlono Lutfiyning:

*“Pardadin chekti-yu zohir qildi Rahmon suratin,
Tole’ isbot etti shirinlik bila jon suratin...”*

g’azaliga nazira-tatabbu’ ekanligi ko‘rinadi.

Umuman olganda, Askariy mirzoning o‘zbekcha nazmi otasi Bobur mirzo she’rlari kabi sodda va ravon yozilgan. Usluban murakkab bo‘lmagan satrlarda fikrni aniq izhor qilish, tasvirni yorqin ifodalash aynan Bobur g’azallarini eslatadi. Bu jihatlar Askariy otasining ijodidan ham yaxshigina bahramand bo‘lganligiga ishoradir.

Endi Askariyning Istanbulda bo‘lishi bilan bog‘liq farazga to‘xtalsak. Ayni devonning dastlabki she’ri forscha qasida bo‘lib, u usmonli-turk sultoni Qonuniy Sulton Sulaymonga (1494-1566; hukmdorligi 1520-1566) bag‘ishlangandir. Jumladan, asardagi ushbu bayt ham bunga dalil bo‘ladi:



*Hazrati sulton Sulaymon Xusravi getiston,
Vorisi mulki jahonu sohibi asru viqor...*

Ushbu qasida va yana bir necha she’rda ham aynan Sulton Sulaymon nomiga ishoralar, unga madh-u sanolar o‘rin olgandir.

Devon oxirrog‘i – 33^b-34^b varaqlardagi *“Har qachon ul sarvqad ohangi javlon aylagay”* misrasi bilan boshlanuvchi she’r ham shu mazmundagi asar ekanligi biz tomonimizdan o‘rganildi. Lekin u o‘zbek (chig‘atoy turkchasi) tilida yozilgan bo‘lib, qasida nomlanmagan. Hajmi (24 bayt – 48 misra) va shaklidan ham shu janr talabiga javob berishi anglashiladi.

Qasida bir go‘zal chaman ta’rifi bilan boshlanib, mazmun bora-bora Sulton Sulaymon dargohining bir bog‘ga mengzatish bilan bog‘lanadi. Muallif – Askariy ana shu gulzor-u bog‘ egasining lutf-u marhamatiga muhtojligi, ojizligi va sarafroz etilishdan umidvorligi, sohibqiron (Sulaymon) uni o‘ziga “aqron” (yaqin)lardan biriga aylantirishiga ko‘z tutayotganini ma’lum qiladi. Qasida maqta’sida shoir bu muddaosi va tilagini aniq bildirgan:

*Askariy, ul Xusravi sohibqiron oxir seni,
Lutf etib, olam aro mumtozi aqron aylagay.*

Birinchi taxmin shuki, Askariy mirzo Hijoz safaridan oldin, taxminan 1550-yillarda, usmonli saltanatining poytaxtida bo‘lgan va yashagan. Ushbu devondagi keltirilgan aksar she’rlarni ham shu yerda yozgan ko‘rinadi.

Qo‘lyozmaning ilk 1^a sahifasida kutubxona muhri (zamonaviy) va pastroqda “Ahmad afandi vaqfi”ga oidligi haqida qadimiy muhr bor. Shu bilan birga, eslatma qayd etilgan: *“Devoni Askariy, daxili mulki Muhammad og‘o kotibi muzofoti al-Hoj Ahmad posho voliyi Oydinsobqo daxili mulki Muhammad afiallohu taolo anhu”*. (Oxirgi duo uch bora ketma-ket yozilgan.)

Bu esa ikkinchi taxminni keltirib chiqaradi. Ya’ni, Askariy o‘z devoniga Hijoz (Makka)da tartib bergan va Muhammad og‘o kotibga Istanbulga yuborish uchun taqdim etgan.

Albatta, bu dastlabki mulohazalar bo‘lib, manba yuzasidan hali izchil izlanishlar davom etadi.

Qo‘lyozmaning kotibi esa ko‘rsatilmagan. Lekin yozilishi uslubidan u Movarounnahr nasta’liq xatidir. Usmonli xattotlari ko‘p ham bu xattiy uslubni qo‘llamaganlar. Shunga ko‘ra, Askariy devonining xattoti ham muallifning o‘zi bo‘lishi ehtimoldir. Chunki Bobur o‘z farzandlarining har

jihtadan ta'limiga alohida e'tibor bergan edi. Jumladan, xat ilmi va chiroyli yozuvga ham. Askariy ushbu malakasini o'z devonida qo'llaganini taxmin etish mumkin.

Bunday fikrga kelishimizga yana bir sabab, qo'lyozma devonda deyarli bezak yo'q. Faqat sahifalarga jadvallar ishlangan, xolos. Poygir bor. Xat ravon nasta'liq bo'lsa-da, ayrim sahifalarga tuzatma va hoshiyalarga kiritmalar qilingan. Ayrim sahifalarning hoshiyalarida keyinchalik boshqa kotib tomonidan o'zgacha xat bilan Hofiz Sheroziy g'azallaridan yozib qo'yilgan. Demak, bu qo'lyozma qaysidir ma'noda musavvada (qoralama)dir va to'liq devon tartibiga keltirilmagan.

Maqolamiz oxirida biz Askariy mirzoning o'zbek tilidagi qasidasining fotosurati va matnini hamda boshqa yetti g'azalini to'liq holda ilk marotaba hozirgi yozuvga tabdil qilib taqdim etmoqdamiz.



Askariy mirzoning o‘zbekcha she’rlari

Qasida

Har qachon ul sarvqad ohangi javlon aylagay,
Bog‘bon tarki gulu shamshodu rayhon aylagay.

Andalibi xushnavo gulshanda gulni shavqidin,
E’tikof etib hamisha shukri Yazdon aylagay.
G‘unchai navras chamanda jumlai atrofini
Huqqai feruzagun ichinda pinhon aylagay.

Har kishi ahhob ila gul vaqtida baxtiyor,
Peshini badrud etib, azmi guliston aylagay.

Bo‘lmagay gulshan kibi ranginu xo‘bu xushnamo,
Qog‘az uzra gar kishi tazhibi afshon aylagay.

Gul daraxtin shohini nogah chamanda, ey ko‘ngul,
Har kishi ko‘rsa, xayoli shohi marjon aylagay.

Anga o‘xshar – chashmani suyi chamandakim, birov
Ko‘zguni sayqal qilib, shaffofu raxshon aylagay.

Sabzai navras chamanda bordurur, anga shabih
Kim, kishi zangorni to‘kub parishon aylagay.

Gar nasim, subhi dam gulshanda o‘tsa, ul zamon,
Sunbuli jo‘lida ham jondin parishon aylagay.

G‘uncha yafroq orasinda anga o‘xsharkim, kishi
Tegmadin oroyishi zebinda xokdon aylagay.

Gul daraxtig‘a qizil gul bordurur, andoqki, yor
Xalqasin ziynat uchun la’li Badaxshon aylagay.

Bulbuli xushgo‘ dag‘i, gulshanda gulni vaqtida,
Gulga boqib har zamon, tashni’i² rayhon aylagay.

Bog‘bon xilvat etib, gulshanni gulning vaqtida,
Ishrat ahlin tolibi miftohi bo‘ston aylagay.

Bir zamon naqqosh agar, gulshanni ko‘rsa, rashkdin
Hamani muzmar etib, qog‘azni pinhon aylagay.

Har qachonkim, forig‘ o‘lsa, o‘zga ishlardin faqir,
Istimo‘i go‘ftu go‘i Sa‘du Salmon aylagay.

² *Tashni’* – ayblash, malomat qilish.

Yo‘q kishida hech shug‘le ondin ortug‘, ey ko‘ngul,
Toki doim midhati sulton Sulaymon aylagay.

Lutf etib ojizni ul qilg‘ay sarafrozi jahon,
Hukm etib fag‘furni mahkumi xoqon aylagay.

Xusravi mardumnavozu shahriyori sarfarozi,
Lutf etib, ul qatrani daryoi ummon aylagay.

Anga o‘xshar olam ichra lutfini hosiyati
Kim, chamanda doimo boroni nayson aylagay.

Har kishiga gar inoyat qilsa ul bir lahzada,
Shafqatidin Xusravi Eronu Turon aylagay.

Kimdurur Firdavsii Tusiylki vasfining borida
Kim, jahonda shuhrati tarixi dehqon aylagay.

Bordurur jismi zaifu notavon, hajr ilgidin
Ham magar lutfing seni taskini hirmon aylagay.

Doimo xushvaqt bo‘lki, ey ko‘ngul, kim oqibat
Ul Masihodam sanga, mushkilni oson aylagay.

Askariy, ul Xusravi sohibqiron oxir seni,
Lutf etib, olam aro mumtozi aqron aylagay.

G‘azallar

1.

Shohidu bazmu qadah, barcha muhayyodurur,
Boda ketur soqiyo, domani sahrodurur.

Gulshani bog‘i Eram, davlati Kisro-u Jam,
Barcha xarobot aro zohiru paydodurur.

Dilbari sohibkamol, bo‘ldi badi‘u-l-jamol,
La‘lida aning dag‘i mo‘jizi Isodurur.

Zulfi aning pechu tob, ko‘zi dag‘i nimi xob,
Oshiqi shaydo qani, vaqti tamoshodurur?!

Ey saname no‘shi lab, xolu xatting bul-ajab,
Jonima ishqing o‘ti, boshima savdodurur.

Shahdu nabotu rutab³ – barcha o‘shal la’li lab,
Sarvi sihi istasang, ul qadi ra’nodurur.

Va’dai vaslin qilib, ilgida sog‘ar olib,
Qildi o‘shal dilrabo suhbat zebodurur.

Bodaga qildi havas, tutti ilig har nafas,
Barcha muroding seni, emdi muhayyodurur.

Qildi yana ishvasoz, dilbari oshiqnavoz,
Askariy emdi, base oshiqi shaydodurur.

2.

Bordurur chehrang seni, ey gul’uzori benazir,
Nozigu rangigu xo‘bu xushnamo-u dilpazir.

Ey ko‘ngul, da’vo qilib olam aro Mansurdek,
Sen yana paydo qilibsan guftugo‘yi dorugir⁴.

Bo‘lmagay ozurda ul ko‘ylakdin, ul nozukbadan
Ul parining ko‘ylagikim, bordurur nozik harir.

Istagan tobt jahonda oqibat mulku sipoh,
Ul gadokim bor edi, mundin burun xosdek haqir.

To o‘qub, har bir so‘zumga “ofarin” qilg‘ay edi,
Bo‘lg‘ay erdi, koshki, Firdavsiy ravshan zamir.

Askariydin qolg‘usidur seni ishqing so‘zlari,
Dahr aro garchi qolibtur Ko‘hkandin jo‘yi Sir.

3.

Ayshi tarab vaqtida dilbari ra’no kerak,
Bodai gulfom uchun jomi musaffo kerak.

Senki bo‘lubsan, yana oshiqi purkofire,
Ishqidin aning sanga mazhab tarso kerak.

Xolu xatti dilpazir, la’li labi benazir,
Vaslinga aning manga husni tamanno kerak.

Chehrasidur bosafo, la’li labi dilkusho,
G‘olibo, kun xattidin yuzunga tug‘ro kerak.

Bodi sabo beqaror, lolavu gul beshumor,
Ahli tarab hushyor, sog‘ari sahbo kerak.

³ *Rutab* – yangi pishgan hurmo mevasi.

⁴ *Dorugir* – janjal; isyon.

Toki ichib bodani, o'zinga bo'lgay halol,
Rindu xarobot uchun dinu Masiho kerak.

4.

Ul parivash, ey ko'ngul, ham jonu ham jonondurur,
Yuzuvu xatti dag'i guldastavu rayhondurur.

Jismu jondin o'tgil, ey ko'ngul, savdosida
Jismu joning ishqida gar boisi hirmondurur.

Sarf bo'ldi dahr aro, vaqti xushu umri aziz,
Zulfining ishqidakim sarrishtai darmondurur.

Oshiqi bechora javringdin seni, ey dilrabo,
Ishqingda xos kabi tufrog' bilar yaksondurur.

Bo'ldi tarsovu musulmon ishqidin beixtiyor,
Vasfining sharhinda ham Injilu ham Qur'ondurur.

Hajr aro gar la'lidin topsang murod, ul zamon
Askariy zulmat aro ul chashmai hayvondurur.

5.

Oshiqi dilxastani gar dilbari shod aylagay,
Oncha bordurkim, buzug' olamni obod aylagay.

Sanam gar jilvae qilsa chamanda ul zamon,
Bog'bon tarki gulu rayhonu shamshod aylagay.

Sabzai xattiki, gulgun yuzunga zohirdurur,
Oshiqi komil o'zunga xatti irshod aylagay.

Oqilekim, dahr aro g'aflat bilan ul bir zamon,
Bemay-u ma'shuqtur, umrini barbod aylagay.

Oshiqi sodiqtur ulkim, ul parining ishqida,
Mehnatu dardig'a ul o'zini mo'tod aylagay.

Gul yuzunga bulbuli shaydo ko'rub, beixtiyor,
Xutbai tavhid o'qub, afg'onu faryod aylagay.

Dilrabolar ishqidin gar shammae qilding ayon,
Askariy, Majnun seni o'ziga ustod aylagay.

6.

Tortayin deb yuz musavvir emdi jonon suratin,
Kimdur ulkim, torta olgay, ey ko'ngul, jon suratin.

Ko‘hkan mundin burun oshiq bo‘lub Shirin uchun
Besutun tog‘inda qazdi, qasru ayvon suratin.

Qildi ul zohir, ul suratni naqqoshi azal,
Ul kunikim qildi bunyod inson suratin.

Har kishikim sabzai xattini ko‘rdi nogahon,
Gulistonning tegrasida topti rayhon suratin.

Tiladim men Tangridin ul dilraboning vaslini,
Tark etib, xuldi barinu⁵ xuru Rizvon suratin.

So‘rdim ersa dardima darmon, dedi “yuzumga boq”,
Ko‘rsatibtur Askariyg‘a, emdi darmon suratin.

7.

G‘unchakim gulshanda doim ziynati gulzordur,
Balki ul rangin surohi dami gulnordur.


Nastaran ermas chaman yuzida balki, ey rafiq,
Kayfiyat vaqtida boshtin tushgan ul dastordir.

Za‘faroniy xil‘atidindur nishone, g‘olibo,
Ul sarig‘ gulkim, hamisha ziynati gulzordur.

Sabza ermas, gulshan ichra tohir⁶ o‘lgan, ey ko‘ngul,
Balki yerning yuziga to‘kilgan ul zangordur.

Qomati bordur sanavbardek latifu xushnamo,
Gul yuzi ul dilraboning sar-basar gulzordur.

Askariyning holidin gar so‘rsalar, andoq degil:
“Sarvari iqlimi ma‘no, xazini asrordur”.



⁵ *Xuldi barin* – jannat.

⁶ *Tohir* – toza, pok.

XILOLA G'YOSOVA,

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

XX ASR BOSHLARIDA SHE'RIY MAJMUUA AN'ANALARI VA YANGILANISH JARAYONI ("ADAB AD-DIN" MISOLIDA)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Saidahmad Vasliyning "Adab ad-din" nomli she'riy majmuasi va uning XX asr boshlarida shakllangan jadid adabiy jarayonidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda aks etgan diniy-axloqiy g'oyalar, ma'rifatparvarlik ruhiyati hamda xalqni ilm-ma'rifatga chorlovchi chaqiriqlar jadid adabiyotining umumiy maqsad va tamoyillari bilan uyg'unlikda o'rganiladi. Shuningdek, Vasliyning mazkur majmua orqali millatni uyg'otish, islohotlar zaruriyatini targ'ib etish va o'zbek she'riyatining yangi bosqichiga hissa qo'shishdagi faoliyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Saidahmad Vasliy, "Adab ad-din", jadid adabiyoti, she'riy majmua, ma'rifatparvarlik, diniy-axloqiy g'oyalar, jadid adabiy jarayoni, milliy uyg'onish.

Annotation: This article examines Saidahmad Vasliy's poetry collection "Adab ad-din" and its place in the Jadid literary movement of the early 20th century. The study analyzes the religious and moral ideas, the spirit of enlightenment, and the calls for knowledge and education reflected in the collection, in harmony with the general aims and principles of Jadid literature. Special attention is given to Vasliy's efforts in awakening the nation, promoting the necessity of reforms, and contributing to the development of a new stage in Uzbek poetry.

Keywords: Saidahmad Vasliy, Adab ad-din, Jadid literature, poetry collection, enlightenment, religious and moral ideas, Jadid literary process, national awakening.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti tub o'zgarishlar davrini boshdan kechirdi. Jamiyatda milliy uyg'onish g'oyalari shakllana boshladi, ilm-ma'rifat va taraqqiyot masalalari kun tartibiga chiqdi [Qosimov, 2002]. Bu jarayonlar adabiy hayotda ham o'zining kuchli in'ikosini topdi. Xususan, jadid adabiyoti namoyandalari tomonidan yaratilgan she'riy majmualar yangi davr adabiyotining eng muhim hodisalari sifatida e'tirof etiladi. Ular o'z mazmun-mohiyati jihatidan xalqni ilmga, taraqqiyotga, o'zligini anglashga chaqirish bilan birga, an'anaviy adabiyot va yangilanayotgan ijtimoiy ong o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajardi [Nazarova, 2022].

Mazkur davrda yuzaga kelgan she'riy majmualar bir tomondan, o'zbek mumtoz adabiyotining shakl va janr an'alarini davom ettirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangicha ijtimoiy-siyosiy mazmun bilan boyitildi. Bu esa jadid adabiy jarayonining murakkab va serqirra xususiyatlarini ko'rsatib berdi. Xususan, mazmunda diniy-ma'rifiy, ijtimoiy-adabiy va tarbiyaviy g'oyalar ustuvor bo'lib, ular millatning o'zlikni anglash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatdi. She'riy to'plamlarning darslik sifatida maktablarda qo'llanilgani ham ularning amaliy-tarbiyaviy ahamiyatidan dalolat beradi.

She'riy majmualarning matniy tadqiqi esa jadid adabiyoti tarixini o'rganishda alohida ilmiy qiymat kasb etadi. Chunki bu majmualarda faqat badiiy namuna emas, balki muallifning davr ruhini qanday qabul qilgani, xalq taqdiriga munosabati, diniy-ma'rifiy qarashlari, islohotlarga nisbatan

pozitsiyasi mujassamdir. Shu bilan birga, matnshunoslik nuqtayi nazaridan ham ular muhimdir: nashr tarixi, tipografiya usullari, sahifa tuzilishi, janrlarning joylashtirilishi, aruz bahrlarining qo'llanilishi kabi jihatlar o'sha davr poetikasining shakllanish qonuniyatlarini ochib beradi.

Shunday to'plamlardan yana biri Mullo Said Ahmad al-Vasliy qalamiga mansub **“Milliy she'rlar majmuasidan 1-juz yoxud adab ad-din”** bo'lib, majmua 1912-yil (hijriy 1330)da nashr qilingan [Vasliy. 1912]. Yuqoridagi majmualar kabi mazkur to'plam haqida ham birinchi marta adabiyotshunos Sh.Nazarova monografiyasida ma'lum qiladi [Nazarova, 2022]. Kitobning musahhih va noshiri sifatida Munavvarqori Abdurashidxon ko'rsatilgan, ammo kitob qaysi matbaada chop etilgani berilmagan. Biroq o'rganishlarimiz natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, adabiyotshunos olim B.Muhitdinovanning “Saidahmad Vasliy Samarqandiy merosi va uning adabiy muhitdagi o'rni” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida mazkur to'plam hijriy 1328, milodiy 1910-yilda Toshkentdagi B.M.Ilin tipografiyasida litografiya usulida nashr qilingan [Nazarova, 2022:34]. Demak, biz o'rganayotgan 1912-yilda chop etilgan “Adab ad-din” majmuasi kitobning ikkinchi nashri. Buni to'plamning ilk sahifasidagi “2-tab”. Takror tab'i noshirlarına maxsus” jumlası ham tasdiqlab turibdi. Bundan ma'lum bo'ladiki, ikkinchi nashr 2 yil o'tibgina chop etilgan.

Mazkur she'riy majmua Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyining Nodir qo'lyozma, toshbosma va bosma asarlar xazinasida 453/II inventar raqam ostida saqlanadi. O'lchami 17×25,5, muqovasi qalin kartondan. Toshbosma asarlar katalogida risolaning boshlang'ich maktablarda Turkiston muallimlari tomonidan dars jadvaliga kiritilgani xabar qilinadi [Hasanov, 2020: 47]. To'plamning birinchi sahifasida *“Bu risola millati islomiyaning ahvoli hozirasini eng ma'yusona va mustad'iyona bir tariq ila tasvir etmish hasrat va nadomat manzumalaridan iborat dar makotibi ibtidoiyaining 2 nchi sinfig'a Turkiston muallimlari tarafidan qabul o'linub dars jaz(d) valina kiritilmishdir”* jumalari keltiriladi. Kitobga Rasulmuhammad Shoshiy o'g'li Mulla O'tab xattotlik qilgan.

To'plam basmala bilan boshlanib, “O'qug'uvchi bir bola og'zidan”, “Maktabga muhabbatlik bola”, “Ittifoq nadir?”, “Kim na bo'lg'ay?”, g'azallari, “Islom cho'juqlaridan bir rijo” murabbasi, “Islah haqinda iltijo” musaddasi, “Ahvoli muslimin” musammani va “Millati islomiyaning ahvoli hozirasi” tarje'bandi va munojot o'rin olgan. Ayrim she'rlar ostida aruzning qaysi bahrida yozilgani ko'rsatib ketilgan. To'plamda g'azal, tarje'band, munojotlar o'rin olgan bo'lsa-da, janrlar an'anaviy ketma-ketlikda berilmagan. Bu devon tuzish an'anasi o'zgarishlarga uchray boshlaganini ko'rsatadi. Shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyotiga, xususan, Navoiy maktabiga yangicha munosabat shakllanib kelayotganidan darak beradi.

Adabiyotshunos Sh.Nazarovanning fikricha, “she'riy namunalarda to'la yangilangan jadidchilik g'oyalari ko'zga tashlanmaydi. To'plovchi milliy she'rlar deganda diniy-ma'rifiy, ta'limiy she'rlarni nazarda tutgan. Muallif aruzni tushuntirishdagi an'anaviy dars usulidan foydalangan” [Nazarova, 2022: 36]. Mazkur fikrga qo'shilgan holda shuni yodda tutish kerakki, Qo'qon, Xiva xonligi va Buxoro amirligi adabiy muhitidagi ijodkorlar bir-biri bilan aloqa qilish bilan birga, ularning har biri o'ziga xos yo'nalishlarga ega bo'lgan. Milliy uyg'onish davri ularni umumiy ma'rifatparvarlik g'oyasi ostida fikrlashga da'vat etdi. Ammo bu ijodkorlar ijodiy faoliyatlarini o'z geografik hududlari ahli ruhiyatiga yaqin uslubda shakllantirdi. Masalan, Toshkent shahri adabiy muhiti vakillari Kamiy, Xolis, Xislat kabi shoirlar ijodida diniy-falsafiy dunyoqarash bilan bir zamonda sodir bo'layotgan madaniy-ma'rifiy o'zgarishlarga kuchli targ'ibot ruhini sezish mumkin. Bu ijodkorlar merosida zamon va zamona ahlidan noliş, o'zining nochor ahvolidan qattiq iztirob chekish kabi ijtimoiy asarlarni uchratish mumkin. Samarqandlik Ajziy, xususan, Vasliy ijodida esa diniy-irfoniy g'oyalar yetakchi o'rin egallaydi.

Qo'qon shoirlari davrasida esa jiddiy ijtimoiy g'azaldan ko'ra, hajviyot ustunlik qildi. Ma'rifatparvarlik targ'ibiga bag'ishlangan asarlarning mazmuni, obrazlarini ham real turmush

haqiqatlari tashkil etdi. Albatta, hajv va satira Toshkent, Samarqand, Kattaqo'rg'on shoirlari ijodida ham faol janr sifatida ko'zga tashlanadi. Ammo bu hodisa Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodida bo'lgani kabi yetakchilik qilmaydi.

Adabiyotshunos olim S.Halimov ham bu davr adabiy muhitining asosiy xususiyatlari haqida fikr yuritgan ekan, quyidagi mulohazalarni bayon etadi: "Samarqandlik shoirlarning adabiy muhitda tutgan o'rinlari va asarlarining g'oyaviy-tematik mundarijasiga qarab, ularni ikki guruhga ajratish mumkindir. Birinchi guruhga o'z ijodiy faoliyati davomida turmush voqea-hodisalarini diqqat bilan kuzatib, undan mavzu va mazmun tanlagan va shunga mos uslubda ijod etgan Saidahmad Ajziy, Ibrohim Jur'at, Tojiy (Tikon) va shu kabi shoirlarni kiritish mumkindir. Bu shoirlarning asarlarida olg'a surilgan g'oyalar ularni adabiyotdagi ma'rifatparvar shoirlar qatoriga qo'shish imkoniyatini beradi.

Ikkinchi guruhga esa asosan mumtoz uslubda ijod qilib, o'tmish adabiyot an'analari yong'och sharoitda davom ettirgan Saidahmad Vasliy, Tug'ral, Fikriy, Pisandiy kabi shoirlarni kiritish mumkin. Ular mumtoz adabiyotda keng tarqalgan muhabbat haqida she'rlar yozib, tematika va obrazlar tizimidan tashqariga chiqqan bo'lsalar-da, bu obrazlarning turli-tuman holatlarini va ichki kechinmalarini ifodalashda ma'lum novatorlik ko'rsatdilar" [Halimov, 1978: 79].

Saidahmad Vasliy o'z millati, xalqi kelajagi uchun qayg'urgan, tashvishlangan ma'rifatparvar, vatanparvar shoir edi. Shoir ijodiy merosini chuqur o'rgangan olim B.Muhitdinovning ta'kidlashicha, "uning mumtoz adabiyot an'analari, g'oyaviy uslubi va obrazlaridan foydalanib, g'azal, muxammas, musaddas, musamman, masnaviy, tarje'band, tarkibband, ruboiy, muvashshah, qasida kabi janrlarda ijod qilgan asarlaridan ko'ra, shu janrlar shakllaridan foydalanib, o'z zamonasi ma'rifat ahli va maorif tizimi holatini realistik uslubda ifoda etib, taraqqiyotga tashviq etuvchi g'oyalarni ilgari surib yozgan asarlari salmog'i ancha ustun ekanligining guvohi bo'lamiz".

Vasliy Samarqandiy murakkab bo'lgan bir davr — bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchi bir ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tilayotgan bir davrda yashab ijod qildi, faoliyat olib bordi. U o'zidan adabiyot va jurnalistikaning turli janrlarida yozilgan katta ijodiy meros qoldirdi. Bu ijodiy meros Toshkent va Samarqand matbaalarida chop etilgan, bir qancha qo'lyozma nusxalarda jamlandi. Shoir ijodi zamonasi va davri xususiyatlari bilan izohlanishi lozim bo'lgan ayrim kamchiliklar va qarama-qarshiliklardan xoli bo'lmasa-da, u o'ziga xos badiiy jihatlari, ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati, tarixiy qimmatini bilan xalqchilik g'oyalarining targ'ib etilishi nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan toshbosma asarlar katalogi. S.Hasanov, Sh.Hasanova, J.Jo'rayev va boshqalar. – Toshkent: Fan, 2020. – B.47.
2. Halimov S. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida o'zbek va tojik adabiy aloqalari. – Samarqand, 1978. – B.79
3. Milliy she'rlar majmuasi yoxud adabi ad-din. Majmua / Musahhih va noshir: Husaynxo'ja bin Xonxo'ja Munavvarqori bin Abdurashidxon. – Toshkent, 1912.
4. Muhitdinova B. Saidahmad Vasliy Samarqandiy merosi va uning adabiy muhitdagi o'rni. *Filol.fan.nomz.diss. Samarqand. 2009. – B.34.*
5. Nazarova Sh. "XX asr boshlari o'zbek she'riyatining yangilanish tamoyillari". *Monografiya. – Toshkent, "Akademnashr", 2022. – 40 B.*
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.

NODIRJON G'AFUROV,
O'zMU tayanch doktoranti

XOLMUHAMMAD TO'RAQULINING TASAVVUFGA OID QARASHLARI


Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi "Nodir nashrlar" bo'limida saqlanayotgan "Al-Isloh" jurnalining 1917-yil 10-sonida e'lon qilingan Mulla Xolmuhammad To'raqulining "Tasavvuf va mutasavvuf boqiyasi" maqolasi tabdil qilingan. Tabdil qilingan maqolada islom va tasavvuf haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, shariat, tariqat, haqiqat, Islom, ta'lim, axloq.

Annotation: This article discusses the adaptation of the article 'Tasavvuf va mutasavvuf boqiyasi' (Sufism and Sufis) by Mulla Kholmuhammad To'raqul, published in the 10th issue of the journal 'Al-Isloh' in 1917, which is stored in the 'Rare Publications' section of the Alisher Navoi National Library of Uzbekistan. The adapted article addresses topics relating to Islam and Sufism. At the end of the article, a Persian text and an Arabic text are included.

Key words: Sufism, sharia, tariqat, truth, Islam, education, ethics.

Ushbu jurnalning o'tgan sonida ("Adabiy meros" jurnalining 2025-yil 3-sonida¹) bosilgan maqolaning davomi sifatida mulla Xolmuhammad To'raqulining "Al-Isloh" majallesidagi "Tasavvuf va mutasavvuf boqiyasi"ni e'lon qilishimizni aytgan edik. Shu so'zimizning isboti sifatida quyidagini sizga taqdim etamiz.



¹ Izoh: ushbu sonda chiqqan maqola annotatsiyasida "Al-Isloh" jurnalining 1916-yil 6-sonida e'lon qilingan degan jumalani 1917-yil 6-sonida e'lon qilingan deb qabul qilishingizni so'raymiz.

“Tasavvuf va mutasavvuf boqiyasi²”

Imom Birgaviy³ alayhirrahma al-Boriy-ul-G'aniy “Tariqati Muhammadiya”da Buxoriy, Muslim hazratlarini hadislarindin rivoyat etmishlar: “Har kishi bizni ushbu dinimizda yo‘q nimarsani paydo qilsa, ul nimarsa marduddur”. Munodiy hazratlari bu hadisi sharif sharhida ayturlar: Bu hadisdan ishoratdurki, dini mubinimiz tahqiq nuqsonsiz komil o‘lmish, oftob kabi nuri tobon o‘lmishdur, “Al-yavma akmalu lakum dinikum” «موكنيني د كل تللكم أويلا» oyati karimasi shahodati ila. Bas, emdi dinimizda bir nimani yaxshi ko‘rmoq ila ziyoda etmoq marziyya emas. Bu hadis dini islomni usul va qoidalaridin hisoblanur. Imom Navaviy⁴ bu hadisni hifz etmoq lozim, munkar ishlarni botil etmoq va anga sanad etmoq uchun shul jihatdan “adillayi shar’ ”ni nisfi demoqqa ham salohiyati bor demishlar. /Intiho/.

Bid’ati hasanalarni te’dod ila shar’i sharif tarafidin izn verildig’in hasana deb bid’atni hasana bo‘lmoqig’a shore’ tarafidan so‘z ila yo fe’l ila ishorat ila yo sirohta⁵ ila izn bo‘lmoq shart ekanin tanbih etgan. So‘ngida ayturlar ushbu hadisi sharif va aqvoli fuqaholardan zohir bo‘lurki, zamonamizni ba’zi mutasavvufi umuri shar’iyyag’a muxolif ishlarini inkor etilg’on vaqtida biz as’hobi botinlardinmiz, bizlar xilvat ila shayximizni himmati ila Alloh taolog’a vosil o‘lurmiz. Bizlarg’a ilmlar munkashif o‘lur, kitob mutola’a etmoqqa ustoddan ilm o‘qumoqqa muhtoj emasmiz. Alloh taolog’a vosil bo‘lmoq ilmi zohiriyni tark etmayancha hosil o‘lmaz. Agar biz botil ishda bo‘lsak, bizlarg’a bu yaxshi holat va bu oli karomatlar hosil o‘lmaz edi. Bizlar anvori ilohiyni mushohada va anbiyolarni ma’oina⁶ ko‘ramiz, ayduk bizlar bir makrda ne ishlasak tushimizda tanbih etilur biz degan so‘zlari va shunga o‘xshash botil so‘zlar hammasi kufr va zalolatdur. Chunki bu so‘zlar shariatni va kitob vu sunnatni istixfof⁷ etmak va xo‘r tutmoqdur va e’timod etmaslikdur, Al’iyozi billahi taolo⁸. Bas, shul tariqa so‘zlarni eshitguvchilarg’a vojibdurki, bu so‘zni botillig’ig’a betaraddud va batavaqquf jazm etib, rad etsun. So‘zlaguvchini zindiq⁹ig’a hukm etsun, bo‘lmasa o‘zini ham o‘shal jamoadan hukm etilur.

So‘fiylar sayyidi arbobi tariqat va haqiqatni imomi Junayd¹⁰ hazratlari ayturlar: Rasul alayhissalom izlaricha yurulmagon yo‘lni hammasi masduddur va marduddur. Har kishi Qur’onni ma’nisi ila tamul¹¹ va tafakkur etib hifz etmasa, ahkomig’a amal etmasa, hadislarini yozmasa, amal etmoq uchun tariqatda ul kishig’a iqtido etilmaz. Chunki bizni bu tariqimiz kitob va sunnatg’a bog‘ludur. Sirri Saqatiy¹² ayturlar: “Tasavvuf uch ma’nig’a ism o‘lmishdur 1- mutasavvufni ma’rifatini taqvosini nuri aslo o‘chmas. 2- zohiri kitob va sunnatg’a manoqaz(?) ilmni aslo so‘zlamas 3- hech karomatni shariat harom etmish nimarsag’a hamul etmaz. Abu Yazid Bistomiy¹³ bir shuhratli shayxni ko‘rmoqqa as’hoqlari ila borib, qibla tarafg’a qarab tukrganin¹⁴ ko‘rib bu shayx rasul alayhissalom odoblaridin birini tark etmish, da’vosida nechuk sodiq o‘lur deb salom qilmay qaytmishlar. Abu Yazid hazratlari aytmishlar agar bir shayxni ko‘rsangizki anvoyi karomatlari zohir o‘lmish, hatto havoda murabba o‘ltirur, ul shayxni amr-u nahiyda hududi shar’ni muhofazasida ado va sha’riatda imtihon etmag’uncha ani karomatig’a mag’rur o‘lmanglar. Abu Sulaymon

² Al-isloh jurnali, 1917-yil 10-son, – B. 930-933.

³ https://alphapedia.ru/w/Muhammad_Birgivi

⁴ <https://muslim.uz/uz/e/post/33730-imom-navaviy?page=2&per-page=1>

⁵ sirohta – ochiqlik, aniqlik

⁶ ma’oina – mushohada

⁷ Istixfof etmak – mensimaslik

⁸ Al’iyozi billahi taolo – Allohga sig’inaman

⁹ zindiq – dindan chiqish

¹⁰ Junayd – Junayd Bag’dodiy

¹¹ tamul – Chuqur o‘ylash


¹² https://uz.wikipedia.org/wiki/Sirri_Saqatiy

¹³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bistomiy>

¹⁴ Tukrganin – tupurganin

Doroni¹⁵ aytmishlar: “Bisyor o‘lurki, so‘fiylar nuktalaridin dilimizg‘a bir nukta hosil bo‘lur necha kunlarga‘acha anga kitob va sunnatdin ikki odil guvoh tobmag‘uncha ani qabul etmazman”. Zulnun Misriy¹⁶ aytmishlar: “Xudoni muhabbatini alomati so‘zda, fe‘lda, amrlarda, sunnatlarda habibig‘a komil mutobaat etmoqdur. Bishr Hofiy¹⁷ aytmishlar: “Rasululloh alayhissalomni tushumda ko‘rdim: “Aydilar ey Bishr bilursanmu, Alloh taolo seni aqron¹⁸laringdan qaysi xislat ila martabangni baland etdi. Ban aydim: Bilmazman, yo rasululloh, aydilar meni sunnating‘a mutobaat etmoqing, solih bandalarga‘a xizmat va mo‘min birodaringg‘a nasihat va meni as‘hobim va ahli baytimg‘a muhabbat etmoqing ila seni abrorlar manozilig‘a yetkurdi demishlar. Abu Said Xarroz¹⁹ aytmishlar: “Har botiniyki anga zohir muxolif o‘lsa ul botin botildur”. Muhammad ibn Fazl²⁰ aytmishlar: “Islom dini to‘rt nimarsadin mahv o‘lur 1- bilg‘onlarig‘a amal etmazlar, 2- bilmay amal etarlar, 3- amallarini ilmini ta‘lim olmazlar, 4- odamlarni ilmdan man etarlar. Ushbu sodoti toyifalarni so‘zlari hammasi imom Qushayriy²¹ risolalaridadur. Ey haqni talab qilg‘uvchi oqil, bir karra insof ila nazar qilg‘il. Ushbu ulamolar, tariqat mashoyixlarini ulamolari, haqiqat va sulukni kubarolaridurlar. Shar‘ sharifni shul qadar ta‘zim etarlar botiniy ilmlarni siyrati Ahmadiya va millati Hanafiyag‘a bino etarlar. Bas, o‘zlarin so‘fiyalardin taroshlamish, johillarni sayhalari, o‘zlari fosid va gumroh hammani ham fosid va gumroh etug‘uvchi shayxlarni botil da‘volari seni mag‘rur etmasun. Onlar shar‘ qavmdin va siroti mustaqimdin bid‘at-u havog‘a moyil o‘lsalar ulamoyi sha‘riatni yo‘llaridin xorij, mashoyixi tariqatni suluklaridin qochmish o‘lurlar. Bas, vayl kulli vayl onlarga‘a va onlarga‘a tobe o‘lguvchilarga‘a va onlarni ishlarin tahsin etg‘uvchilarga‘a. Onlar rohi haqni qito‘il tariqlaridur. Haqni botil ila yopmishlar, bila turib haqni yoshurmishlar, intiho kulli min tariqatul Muhammadiya.

X.Mulla To‘raquli Markidin.”



¹⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Sulaymon_Doroni

¹⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Zunnun_Misriy

¹⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Bishr_Hofiy

¹⁸ Aqron (qarn) – yaqinlar

¹⁹ <https://old.islamonline.uz/index.php/lugat/111-a/1783-abu-said-xarroz>

²⁰ https://uzpedia.uz/pedia/muhammad_ibn_fazl_balxiy

²¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulkarim_al-Qushayriy

Maqolani o'rganish davomida muallifning masalaga izchil yondashuvini sezamiz. Masalan, dastlab imom Birgaviy so'zi bilan Buxoriy va Muslim orqali yetib kelgan hadisni keltiradi. So'ngra Munodiy hazratlari bu hadisni sharifni oyati karima bilan sharh etkanini isbot sifatida keltiradi. Imom Navaviy esa bu hadisni yod olmoq lozim ekanligini uqtirgani holda bir hadisni uch imom tomonidan bildirilgan munosabat bilan dalillaydi. Keyin masalaning muhim tomoni bo'lmish shayx va murid masalasiga to'xtalib, zamonasida mavjud illatlarni so'z bilan ko'rsatib, ularni nomunosibligiga munosabat bildiradi. Matn davomida muallif imom Junayd, Sirri Saqatiy, Bistomiy, Doroni, Zunnun Misriy, Bishr Hofiy, Abu Said Xarroz, Muhammad ibn Fazl, Imom Qushayriy kabi ulug' so'fiylar so'zlaridan keltirib, ularning aytgan hadislarini va hukmlarini dastur qilib ko'rsatadi.

Demak, diniy-tasavvufiy jihatdan ma'lum bir masalaga yondashuv oyat, hadis orqali asoslanadi. Bu holatda masalaga yaqinlashiladi va shu orqali fikr dalillanadi, natijada o'z fikrini aytishga sharoit yaratiladi. Bunda ham to'g'ridan to'g'ri fikr aytilmay, avval, o'zidan oldin o'tgan azizlarning so'zlaridan manba beriladi, keyin uning davomidan fikr qo'llab-quvvatlanadi yoki izoh beriladi. Yuqoridagi tabdil matnda ham muallif shu yo'sinda fikrlarini keltirgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu maqola avvalgi matnning mantiqiy davomi sifatida yozilgan bo'lib, birinchi qismda mavzu tarixiy va nazariy jihatdan yoritilgan. Ushbu qismda esa muallif ayni mavzuni tarixiy va nazariy ma'lumotlarni yorqin dalillar bilan asoslagan.

Shuningdek, bizga bularni – tabdil matnlarini qidirib topishda, tayyorlashda eski o'zbek yozuvidan bugungi alifbomizga moslab, ayrim tushunarsiz so'zlarning izohini berishda bilim va yordamlarini ayamagan O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasini mudiri H.Boltaboyev hamda professor-o'qituvchilari f.f.d. J.Jo'rayev, f.f.d. N.Xasanov, S.Shomurodova hamda B.Ismoilovga o'z minnatdorchiligimizni izhor qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Al-isloh jurnali*, 1917-yil 10-son. – B. 930-933.
2. Пардаев Қ. Миллий уйғониш даври манбаларида адабий ва публицистик муаммолар талқини (“Ал-ислоҳ” журнали материаллари асосида). Филол.фан.номз. дисс... Ўзбекистон миллий университети. – Т.: 2008.
3. Саидакбар Агзамходжаев, Заҳро Улуғбекова “Ал-ислоҳ” журнали – Туркистондаги ислохотчилик ҳаракатини ўрганиш бўйича тарихий манба (1915-1918 йиллар). – Т.: “Ўзбекистон халқаро ислом академияси”, 2019 й.
https://alphapedia.ru/w/Muhammad_Birgivi
<https://arxiv.uz/ru/documents/diplom-ishlar/adabiyot/jadidchilik-va-jadid-matbuoti>
<https://muslim.uz/uz/e/post/33730-imom-navaviy?page=2&per-page=1>
<https://uz.wikipedia.org/wiki/Bistomiy>
https://uz.wikipedia.org/wiki/Sirri_Saqatiy
https://uzpedia.uz/pedia/muhammad_ibn_fazl_balxiy

VLADIMIR PROPP

FOLKLORDA MO‘JIZAVIY TUG‘ILISH MOTIVI

1. Asosiy masala

Qahramonning mo‘jizaviy tug‘ilishi – jahon folklorida, ayniqsa ertaklarda juda keng tarqalgan motivlardan biridir. Ammo bu motiv faqat ertaklar bilangina cheklanib qolmaydi. Bokira holatdagi homiladorlik deyarli barcha dunyo dinlarida – ibtidoiy va qadimgi dinlardan tortib, nasroniylik kabi kechroq shakllangan dinlargacha mavjud. Shunday ekan, bu borada folklor birlamchi emas, deb aytish mumkin.

Mazkur mavzu bo‘yicha adabiyotlar nisbatan boy. Ayniqsa, mo‘jizaviy tug‘ilish masalasi diniy kontekstda etnograf va dinshunos tarixchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Biz masalaning tarixiga chuqur kirib o‘tirmaymiz. Aytishimiz mumkin bo‘lgan narsa shuki, mavzuga oid juda ko‘p qimmatli ma‘lumotlar to‘plangan, ammo masalaning mohiyati haligacha to‘liq ochilgan emas. Buning uchun esa katta hajmli ilmiy ish talab qilinadi. Bizning vazifamiz biroz boshqacharoq hamda ancha kamtarona: biz ertaklarni tadqiq qilib, folklor materiallari hamda tarixiy haqiqatlarni solishtirgan holda aynan ertaklardagi mavjud mo‘jizaviy tug‘ilish motivini tushuntirishga, shuningdek, uning manbalarini aniqlashga harakat qilamiz. To‘g‘ri, bunda bir noma‘lum narsani boshqa bir noma‘lum narsaga qiyoslashga to‘g‘ri keladi. Biroq qaysidir folklor namunasini ma‘lum bir hayotiy, madaniy, marosimiy voqelik bilan taqqoslash orqali biror tarixiy materialga ozgina bo‘lsa-da, oydinlik kiritishi mumkin bo‘ladi. Bu o‘rninda folklorshunoslikdagi hech qanday katta masalalar ko‘rib chiqilmaydi, chunki bitta motivni tadqiq qilish orqali folklorshunoslikning barcha muammolarni hal qilish imkonsiz. Bizning asosiy maqsad – ertakni chuqurroq anglashga oz bo‘lsa-da, hissa qo‘shishdir.

a) otasiz tug‘ilish

Turli tadqiqotlarda keltirilgan boy materiallarga ko‘ra, bir paytlar ayol kishining erkak ishtirokisiz homilador bo‘lishi mumkinligiga keng miqyosda ishonilgan, hatto hozirgi kunda ham ayrim joylarda bu e‘tiqod saqlanib qolgan. Qator dalillar va ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, inson erkakning urug‘lantirishdagi ahamiyatini har doim ham to‘liq tushunmagan. Avlod yaratuvchisi faqat ayol kishi deb hisoblangan. Hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlik uzoq vaqtgacha yashirin qolgan – masalaning mohiyati ham aynan shunda: inson bu bog‘liqlikni qachon va qanday anglagan? Bu savolga aniq va qat‘iy javob berish qiyin. Ya‘ni, biz insoniyat taraqqiyotining aynan qaysi davrida bu anglashilmovchilik tugagani va ilmiy bilish boshlanganini aniq aytib bera olmaymiz. Bugungi kunda hatto eng orqada qolgan xalqlar ham bu masalaning mohiyatini aniq tushunadi, biroq ayrim holatlarda o‘zlarini go‘yoki bu haqiqatdan bexabardek tutishadi. Taylarga qaramay, biz bugun shuni bilamizki, ibtidoiy tafakkur, biz tushunadigan ma‘nodagi sabab-oqibat munosabatlarini izlash bilan shug‘ullanmaydi. Aksincha, ular uchun bu bog‘liqliklar o‘zicha “aniq” ko‘rinadi. Bunday vaziyatda har qanday holat (masalan, biror hayvonning yugurib o‘tishi, shamol esishi, yutib yuborilgan tosh yoki yong‘oq) – bularning barchasi ibtidoiy tafakkurda bola tug‘ilishining sababi sifatida qaralishi mumkin. Bu hozircha masalaning soddalashtirilgan bayoni xolos. Uning murakkabligi asta-sekin ochiladi. Bunday tasavvurlar bevosita matriarxat davri bilan bog‘liq. Ayolning ijtimoiy mavqeini uning biologik funksiyasi – tug‘ish orqali belgilagan Engels ularni inson zotini “ishlab chiqaruvchi” sifatida ko‘rib, boshqa sohadagi oddiy tirikchilik vositalarini ishlab chiqaruvchilar bilan tenglashtiradi [1;26]. Otalik rolining anglanishi esa ancha

keyin paydo bo'lgan. Marosimlarda erkak, endilikda urug' boshlig'iga aylanganidan so'ng ilgari ayollarga tegishli bo'lgan vazifalarni o'z zimmasiga oladi, ya'ni ayolga taqlid qiladi. Masalan, "kuvada" deb nomlanuvchi odat paydo bo'ladi: bunda bola tug'ilgach ayol emas, balki erkak xuddi tuqqan ayoldek yotoqqa yotadi va o'zini kasalga o'xshab ko'rsatadi. Atrofdagilar unga tug'ruqdan chiqqan ayol kabi g'amxo'rlik qilishadi. Bular bilan bog'liq holda erkaklar tug'rug'i haqidagi afsonalar ham yuzaga keladi va ular uzoq vaqtgacha yashab qoladi. Misol uchun, Lafarg Afina ma'budasi Zevsning boshidan tug'ilgani haqidagi rivoyat – otalik huquqining ustunligini asoslashga qaratilgan timsollardan biridir, deb ta'kidlaydi [41;28].

Yuqorida keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, erkak ishtirokisiz homiladorlik haqidagi e'tiqod – tarixiy, hattoki juda muhim tarixiy fakt hisoblanadi. Shunga qaramay, ba'zi etnograflar bu fikrni ishonchsiz deb hisoblab, unga shubha bilan qaraydilar. Masalan, D.K.Zelenin yozadi: "Bir qator etnograflar eng ibtidoiy qabilalar ham erkakning urug'lantirishdagi ishtiroki to'g'risida mutlaqo bexabar bo'lganliklarini nohaqlik bilan aytishadi" [2;365]. Bunga qarshi ravishda, Reitsenshteyn bu nuqtayi nazarni keskin tanqid qiladi va jinsiy yaqinlik bilan homiladorlik o'rtasidagi sababiy bog'liqlik hatto tarixiy inson uchun ham uzoq vaqtgacha noma'lum bo'lganligini ta'kidlaydi.

Bu fikr nafaqat umumiy mulohazalar, balki aniq faktlar va kuzatishlar orqali ham asoslanadi. Masalan, Spenser va Gilen Avstraliya aborijenlari orasida quyidagi holatni aniqlagan: "Arunta, Luritja va Ilpirra qabilalari orasida (ehtimol, boshqa qabilalar, masalan, Varramungalar orasida ham) quyidagi tasavvur mustahkam ildiz otgan: bola to'g'ridan-to'g'ri jinsiy yaqinlik natijasida dunyoga kelmaydi; jinsiy yaqinlik faqat ayolning tanasini unda avvaldan mavjud bo'lgan, maxsus totemik markazlarda yashovchi bola-ruhning kirishi va tug'ilishi uchun tayyorlaydi, xolos. Biz bu savolni ular bilan bir necha bor muhokama qildik va har safar xuddi shu javobni oldik: bola jinsiy yaqinlikning bevosita natijasi emas" [3;265].

O'sha vaqtda avstraliyaliklar insoniyat madaniyatining eng quyi bosqichida turgan xalqlardan biri bo'lib, boshqa jamiyatlar bu bosqichni allaqachon ortda qoldirishgandi. Shu sababli bu kuzatuv aynan erkakning rolga doir tushunmovchiliklar tarixda haqiqatan ham mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Turli e'tiqodlarning tadrijida bu bosqich eng boshlang'ich daraja bo'lib xizmat qildi. Biroq vaqt o'tishi bilan haqiqiy sabablar, ya'ni biologik homiladorlikning asl mexanizmi, albatta, odamzotga ayon bo'ldi. Shunga qaramay, jinsiy yaqinliksiz homilador bo'lish mumkinligi haqidagi e'tiqod uzoq vaqt davomida yashab qoldi. Bu inonch nihoyatda qat'iy va yashovchan bo'lib chiqdi.

Albatta, bu e'tiqodning ham o'z tarixi va o'zgarishlari mavjud. Bu tarix hali hech kim tomonidan to'liq yozilmagan, biroq uning asosiy bosqichlarini kuzatish mumkin. Aynan shuni ta'kidlash lozimki, insoniyat madaniyatining eng ibtidoiy bosqichlarida "mo'jizaviy tug'ilish" hech bir istisnosiz barcha uchun xosdir. Bunday holatni avstraliyaliklar misolida ko'ramiz. Keyinchalik mo'jizaviy tug'ilish faqat qabila sardorlari va yarim ma'budlarga xos bo'lib qoladi: masalan, olovni o'g'irlab keltiruvchilar, afsonaviy ovchilar kabi. Mazkur holatni nisbatan rivojlangan qabilalar, masalan, Shimoliy Amerika, Afrika yoki Okeaniya orollarida uchratamiz. Bu kabi jamiyatlarda mo'jizaviy tarzda tug'ilgan bola – najotkordir. U odamlarga olovni, birinchi urug'ni olib keladi, jamiyat tartibini, totemik marosimlarni joriy qiladi. U haqidagi afsonalar muqaddas tusga ega. Shohlik va ma'budlar haqidagi tasavvurlar shakllanganidan so'ng esa, bunday mo'jizaviy tug'ilish faqat shohlar va ma'budlarga xos holatga aylanadi. Oddiy insonlar esa odatiy yo'l bilan dunyoga keladi. Masalan, Misr podshohlari o'zlarini quyosh xudosi Raning avlodi deb e'lon qilishgan [4; 43-44]. Hind va Xitoy imperatorlari ham Misr hukmdorlaridan ortda qolishmagan. Keyinroq ishda bu boradagi dalillar keltiriladi, hozir esa asosiy g'oya haqida gapirgan ma'qul. Mo'jizaviy yoki bokira holatda homilador bo'lib tug'ilishdan Iyso Masih ham mustasno emas. Bu harakat ijtimoiy pillapoyaning pastidan yuqorisiga qarab harakatlanadi.

Ijtimoiy “yuqori qatlam”da mazkur hodisa uzoq vaqtgacha rasmiy tan olingan hodisa bo‘lib qoladi. Ijtimoiy “quyi qatlam”da, hatto XIX asrgacha, balki hozirgi zamongacha ham erkak va ayol yaqinligisiz tug‘ilish istagi saqlanib qolgan. Biroq mazkur o‘rinda bunday hodisalar allaqachon xurofot yoki sehr-jodu sifatida talqin etiladi.

Umumiy asoslar aniqlangach, endi ertakka o‘tamiz. Ertaklarda mo‘jizaviy tug‘ilishning juda ko‘plab turlari uchraydi. Biz rus xalq ertaklarida mavjud bo‘lgan mo‘jizaviy tug‘ilishning asosiy turlarini ko‘rib chiqamiz. Har bir ertakdagi tug‘ilish shakli bilan bir qatorda ertakka aloqador bo‘lmagan (ya‘ni real hayotga oid) materiallar ham keltiriladi. Bu materiallar shuni ko‘rsatadiki, ertaklar faqat erkin fantaziyaga asoslanmagan – ular mavjud bo‘lgan haqiqiy e‘tiqod yoki urf-odatlarini aks ettiradi. Bu orqali biz nafaqat mo‘jizaviy tug‘ilish motivining turli ko‘rinishlarini, balki uning tarixiy ildizlarini ham ochib bera olamiz. Materiallar hech qanday qat‘iy tizimli yoki xronologik tartibda berilmaydi. Buning o‘rniga, har bir shaklning tahlili boshqalari bilan takrorlanmasligi uchun shunday tartib tanlanadi, natijada turli shakllar o‘zaro bog‘liq tarzda tushuntiriladi. Natijada bir shaklni tahlil qilish orqali boshqalarini ham tushunishga yo‘l ochiladi.

b) mevanan tug‘ilish

Meva yoki rezavorni yeb homilador bo‘lish – mo‘jizaviy tug‘ilish motivining shakllaridan biridir. Bir qancha misollarni ko‘rib chiqamiz. Ko‘plab rus va ukrain ertaklarida no‘xat bu borada asosiy vosita hisoblanadi (42;133). Boshqa bir misol: “Men o‘rmon bo‘ylab yurdim, no‘xat terdim, o‘sha no‘xatning ustida bitta dukkak bor edi, o‘sha po‘choqda don bor edi, o‘sha donni olib yedim”. Ba‘zan no‘xat o‘rnida olma ham keladi. Sibir xalq ertagida bolasiz savdogar haqida gap boradi. Bozorda aylanib yurgan bir tilanchi bu savdogarga olma sotib olishini, sotuvchi qancha so‘rasa, so‘raganini berishini maslahat beradi. Savdogar xuddi shunday qiladi. Shunda olmaning yarmini savdogarning xotini, yarmini biyasi yeb qo‘yadi. Bir qancha vaqt o‘tkach, savdogarning xotini o‘g‘il tug‘adi, biya esa erkak toychoq tug‘adi.

Bu o‘rindagi muhim jihat sehrli olmadir. Vyatlar ertagida bir begoyim farzandli bo‘lish maqsadida sehgarga 15 tilla berib, olmani sehrlab berishini so‘raydi. Bu olmani yeb u bir o‘g‘il tug‘adi.

Homilador bo‘lish uchun meva yeyish holatini biz deyarli butun dunyoda, madaniy rivojlanishning barcha bosqichlarida, jumladan, bugungi kunda ham kuzatishimiz mumkin. Sumatra orolida yashovchi malay xalqlarida ayrim kokos yong‘oqlari jinsiy yaqinliksiz ham homilador qilib qo‘yadi, degan inonch mavjud (38; I, 6). Xuddi shu kabi kokosdan homilador bo‘lish mumkin, degan qarash ayrim hindu qabilalarida ham bor. Fiji orollarida bolasiz juftliklar kokos yong‘og‘ini dorivor vosita sifatida iste‘mol qiladilar (38; I, 38). Kanadada joylashgan Britaniya Kolumbiyasi okrugida ma‘lum turdagi kauchuk chaynashdan qochiladi, chunki u ham homiladorlikka olib kelishi mumkin, deb ishoniladi. Amerika va Afrikaning ko‘plab hududlarida esa, o‘simlik damlamalarini ichish orqali homiladorlik sodir bo‘ladi, deb ishonilgan. Ba‘zan esa hatto mevaning tanaga qo‘yilishi ham homiladorlikni yuzaga keltiradi, deb qaralgan. Gavayi orollarida shunday bir afsona mavjud: Bir qiz ikki dona banan topib oladi. Dushmanlardan ularni yashirish uchun u bananlarni ko‘kragiga yashiradi. Natijada u homilador bo‘lib qoladi [16; 226].

Bunday qarashlar juda ko‘p afson va rivoyatlarda kelgan bo‘lib, yuqorida ta‘kilaganimiz kabi mo‘jizaviy tug‘ilish yarim ma‘budlarga xos bo‘ladi. Shimoliy Amerikaning janubi-g‘arbida yashovchi Pueblos qabilasining afsonasiga ko‘ra, qahramon Poshayaume onasi ikki dona yong‘oq yegandan keyin dunyoga keladi (38; I, 4).

Xuddi shunday miflar antik davrning madaniy xalqlari orasida ham uchraydi. Lekin bu yerda mo‘jizaviy tarzda ma‘budlar yoki yarim ma‘budlar tug‘iladilar va bu kabi munosabatlar ma‘budlarning ishtirokisiz sodir bo‘lmaydi. Masalan, Dionis Erigonaga uzum berib uni ona qiladi [43; 6, 125].

Xitoy va Hindistonda yuqoridagi kabi holatda hukmdor sulola vakillari tug'iladilar. Xitoy imperiyasi asoschisi Fo-Xi qiz bola Ching-Mon tomonidan dunyoga keltirilgan. U tasodifan o'z libosida topib olgan gulni yeb qo'yganidan so'ng homilador bo'ladi. Yana bir xitoy sulolasi asoschisi haqidagi rivoyatda esa, uning onasi qush keltirgan bir dona qizil meva yeb homilador bo'ladi (38; I, 5). Shunga o'xshash afsonalar hind monarxlari haqida ham mavjud bo'lib, ulardan ayrim misollar Hartland asarlarida keltirilgan.

Agar endi zamonaviy, madaniyatli xalqlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunimizda ham ayrim ayollar turli xil meva, rezavor va don mahsulotlarini iste'mol qilish orqali homiladorlikka erishish niyatida bo'lishlarini ko'rishiz mumkin. Ammo bu hozirda ochiq-oydin emas, yashirin ravishda amalga oshiriladi hamda istisno holat hisoblanadi.

Har bir xalqda homiladorlikka yordam beradi, deb hisoblangan muayyan mevalar mavjud: Hindistonda – guruch, Bogema orollarida – archa mevalari, Gretsiyada – behi, yahudiylarda esa yostiq ostiga qo'yiladigan mandragora giyohi. Biroq hozirgi davrga kelib, mevaning mo'jizaviy kuchiga bo'lgan ishonch ancha susaygan. Shu bois meva shunchaki iste'mol qilinmay, avval unga dam solinadi, diniy duolar o'qiladi. Birinchi galda tabib va sehrarlar chaqiriladi, keyin esa, asosan, katoliklarida ayollar ruhoniylarga murojaat qilishadi. Masalan, Toskanada (Italiya) ayollar rohibdan olma olishadi, keyin esa muqaddas Annaga ibodat qilib, bu olmani yeyishadi.

Yuqorida ayganlarimizning barchasi aniq faktlar. Xo'sh, ularni qanday tushunish mumkin? Bu turdagi inonchlarni tushunishda Shternberg juda asosli fikrlarni ilgari surgan. Ular Freyzerning "o'xshashlik asosidagi sehr" nazariyasiga mos keladi. Shternberg yozadi: "Umuman o'simliklarning, xususan, daraxtlar kultining e'tiqod darajasigacha ko'tarilishiga asosiy sabab – ularning beqiyos meva berish kuchidir. Hech bir inson yoki jonivor daraxt kabi minglab meva (farzand) tug'ishga qodir emas" [5;440].

Daraxtdagi beqiyos "tug'ish" (hosildorlik) kuchi mevasidan foydalanadigan odamga ham sehrli yo'l bilan o'tadi, deb hisoblangan. Bu nazariya boshqa bir qarashni ham asoslashi mumkin. Homiladorlik bilan bog'liq eng muhim mevalarga e'tibor bersak, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, ayollar ichki imuquq (assotsiatsiya) ila xuddi bachadon ichidagi homilaga o'xshash po'stloqli mevalarni tanlab iste'mol qilishgan. Yong'oqning mashhurligiga ham shundan. Hatto hozirgi kunda ham rus xalqida "bola" so'zining sinonimi sifatida "meva" (ruscha – плод) ishlatilishi bu imuquqning izlarini ko'rsatadi. No'xatning aynan shishib ketishi tufayli ham mashhurligi rus xalq ertaklari matnida keladi. Malika bir dona no'xatni yutib yuboradi. "No'xat shishib ketaveribdidi, shishib ketaveribdi. Malika og'irlashib, qiynalibdi. No'xat o'sib boraveribdi, malikaning tanasini bosib, qiynab qo'yibdi" [42;473]. Shuningdek, bu borada hozirgi kunda keng miqyosda foydalaniladigan xamirturush ham farzandsizlikka davo sifatida qo'llaniladi.

Yana bir qiziq tomoni shuki, ayollar bunday mevalardan istalmagan homiladorlikdan qochish uchun ham tiyilishadi. Xususan: Ikki bo'lakli (qo'sh) yong'oqlar – egizaklar tug'ilishiga olib keladi, degan e'tiqod mavjud. Hartland to'plagan materiallarga ko'ra, ko'plab xalqlarda, ayniqsa qizlar, nafaqat qo'sh yong'oq, balki birikib o'sgan boshqa mevalarni ham iste'mol qilishdan qochishadi. Hatto bir shoxda o'sgan ikkita nok ham egizak tug'ilishining sababi deb qaralgan. Bu misollar shuni aniq ko'rsatadiki, iste'mol qilingan mevaning "xususiyati" go'yoki ayol tanasiga ko'chadi. Agar "qo'sh yong'oq"dan homilador bo'lmaslik uchun saqlanilgan bo'lsa, odatiy yong'oq homiladorlikni yuzaga keltiruvchi eng keng tarqalgan vosita hisoblangan. Bundan kokos yong'og'i ham istisno emas.

Vaqt o'tishi bilan muayyan mevalarga xos xususiyatlar asta-sekin yo'qoldi, ya'ni homiladorlikni yuzaga keltirishga oid e'tiqod endilikda har qanday meva bilan bog'lanadi. Shu bilan birga, mo'jizaviy tug'ilishda so'z magiyasi (mo'jizaviy so'z) tobora muhimroq rol o'ynay boshlaydi.

Yuqorida keltirilgan faktlardan so'ng, anor mevasiga homiladorlikni yuzaga keltiruvchi kuchli vosita deb qaralganini isbotlab o'tirishimiz shart emas. Anor donalari juda ko'p bo'lgani uchun, u homiladorlik belgisi sifatida qabul qilingan. Bunday holatda, anor nafaqat iste'mol qilinishi, balki unga tegishning o'zi ham homiladorlikni yuzaga keltirishi mumkin, deb ishonilgan. Attisning onasi anor mevasini ko'ksiga qo'ygani, natijada homilador bo'lib uni dunyoga keltirgani hamqidagi afsona juda mashhur. Qovoq ham xuddi shu vazifani bajaradi. Ko'plab mevalar singari, u ham homiladorlik ramzi – bachadon deb tasavvur etilgan. Qadimgi hind mifida shohning qallig'i Sagara ichida oltmish ming bola bo'lgan qovoq tug'adi [6;96]. Mevaning homiladorlikka ta'siri shu darajada kuchli bo'lganki, ba'zida erkaklar ham ularni iste'mol qilib tug'ruq holatiga tushganlar, degan rivoyatlar mavjud. Masalan, portugal rivoyatida bir ayol muqaddas Antony maqbarasi oldida ibodat qiladi va unga uchta olma beriladi. Bu olmalarni u och qoringa iste'mol qilishi kerak edi. Biroq xatolik sabab mevalarni eri yeb qo'yadi. To'qqiz oy o'tgach, erkakning qorni yoriladi va undan qiz bola tug'iladi [7;48].

Bunday inonchlar asrlar davomida turli xalqlar orasida o'z-o'zidan yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Shu sababli, ularni aniq bir joy yoki davr bilan bog'lab bo'lmaydi va bu kerak ham emas. Chunki bu kabi savollarni yana-da chuqurroq o'rganish bizni ertakshunoslik muammolaridan juda uzoqlashtirib yuboradi. Shu sababli, hozircha faqat keltirilgan kuzatish va faktlar bilangina cheklanamiz. Ammo masala Shternberg o'ylaganichalik oddiy emas. Mevaning unumdorligi haqidagi g'oya, shubhasiz, mavjud va bizga ko'p narsani tushuntiradi. Mevani iste'mol qilgan ayol go'yoki oilani qabul qiladi, degan tushuncha mavjud, biroq buning nihoyasi yo'q. Materiallar shuni ko'rsatadiki, farzand tug'ilishi faqat meva bilan emas, balki toshcha, qum donasi, yog'och parchasi, igna, archa yaprog'i va hokazolarga ham bog'lanadi. Demak, bu yerda mevani homiladorlik vositasi sifatidagi kuchi bilan bir qatorda, boshqa narsalar ham bor. Ular bizga sal quyiroqda aniqroq namoyon bo'ladi. Ana shundan keyin biz bu borada ba'zi fikrlarini bildirishimiz, tuzatishimiz, yoki o'rta tashlashimiz mumkin bo'ladi.

c) so'z (afsun)dan tug'ilish

Agar odamga afsun (duo yoki sehrli so'z) bilan biror meva yedirilsa, u holda insonning bevosita afsun yoki sehrli so'z orqali tug'ilishiga hayron bo'lmasligimiz mumkin. Masalan, "Ahmoq Ivan" ertagida bosh qahramon suvda yashovchi baliq – shuchka yordamida podsha qizini homilador qiladi.

Bu o'rinda misol sifatida aka-uka Grimmlar tomonidan qayta ishlangan "Sehrli ko'zgu" ertagidagi qizning mo'jizaviy tarzda tug'ilishini ko'rib chiqish diqqatga sazovordir. Ertakda malika qish faslida qora yog'ochdan bo'lgan ochiq deraza oldida narsa tikib o'tirgan bo'ladi. Kutilmaganda u ignani barmog'iga tiqib oladi va bir tomchi qon oppoq qor ustiga tushadi. Buni ko'rib, malika tilak aytadi: Oh, qani endi, mening qor kabi oppoq, qon kabi qizil va qora daraxt kabi qop-qora sochli farzandim bo'lsa!" Shundan keyin malika qiz tug'ib vafot etadi. Shu o'ringacha hech kim uning qishda ochiq deraza oldida narsa tikib o'tirganiga ajablanmaydi. Aslida chindan ham shunday bo'lganmidi? Ko'rinib turibdi, bir vaqtlar bu motiv boshqacharoq bo'lgan: malika barmog'iga ignani atay sanchgan, derazani ham atay ochib qo'ygan. Qonining oppoq qorga tushishi ko'pgina afsunlar kabi o'xshatishga asoslangan afsunni aytish uchun unga imkon bergan. "Qani endi, farzandim bo'lsa!" degan jumla qachonlardir "Farzandim bo'lsin!" shaklida bo'lgan. Afsun bevosita onaning o'zidan chiqadi. Bunday holat ancha kam uchraydi, biroq yagona ham emas. Jumladan, malagash (Madagaskar) xalq ertagida ota-onalar quyidagicha tilak aytishadi: "Oh, qani endi, qanday ko'rinishda bo'lmasin, bir o'g'limiz bo'lsa! Hattoki qopga o'xshagan bo'lsa ham mayli edi!" [8;237] Oradan vaqt o'tib ular qo'lsiz, oyoqsiz o'g'il ko'rishadi. Biz bu yerda orzu-tilakning afsun kabi kuchga ega ekanini ko'ramiz. Shunga o'xshash holat yunon ertagida ham bor: qiz bola haqida – "u hech bo'lmasa dafna mevasiga o'xshasin", yoki o'g'il bola haqida – "u hatto eshak bo'lsa ham bo'lsin" – deyiladi. Tilak esa xuddi so'ralgani kabi amalga oshadi (38;, I, 27).

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, sof holatdagi afsunlar juda kam uchraydi. Ko'pincha ular biror meva, jismonan teginish, yoki nazar (boqish) bilan qorishiq holda amalga oshiriladi. Masalan, Kaliforniya hududidagi Vishok qabilasining bir afsonasida ma'bud bir ayolni ko'rib qolib, uni homilador bo'lishini istaydi va Xudo bir ayolni ko'rib, unga homilador bo'lishni tilaydi va ayol homilador bo'ladi. Homiladorlik ko'pincha nazar (boqish) sababidan yuz beradi. Shu yo'l bilan hind ma'budi Shivaning qallig'i Parvati shuningdek, Chingizxon, Rim imperatori Serviy Tulli va boshqalar dunyoga kelgan, deb hisoblanadi. Bu vaziyatlarda biz ilohiy kuchlarning o'lik ayolga bevosita ta'sir ko'rsatishini kuzatamiz.

d) ichilgan suvdan tug'ilish

Tug'ilish motivining mevdan tug'ilish shakli ichilgan suvdan tug'ilish bilan chambarchas bog'liqdir. "Ko'ribdiki – buloq oqib turgan ekan. Ayol buloq suvidan ichib, homilador bo'libdi va o'g'il tug'ibdi". Shimol xalqlari ertakida [44; 4] malika quduqdan suv ichadi. O'g'lini esa Ivan Vodovich deb ataydi. Bu o'rinda suvning butun tabiatda yaratuvchi kuch, tiriklik manbai ekanini nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim. Suv hayot beradi, jonlantiradi, gullarni ochiltiradi, o'simliklarni o'stiradi. Shu sababli, inson tanasiga kirgan suv ham yangi hayot yaratadi. Xuddi shu inonchga ko'ra, farzand ko'rishni istagan malagash (Madagaskar) ayollari to to'yunlaricha suv ichib yurishgan. (38; I, 67). Bu odat ibtidoiy jamoalar orasida juda kam qayd qilingan. Borlari ham, asosan, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi jamoalar orasida uchragan. Bunday xalqlarda suvga mo'jizaviy kuch sifatida qaraganlar. Boshqa tomondan, ularning ilohlar haqidagi tasavvurlari aynan suv yoki yomg'irning ilohiy kuchi bilan bog'langan.

Pima qabilasi (Shimoliy Amerika)dagi mifga ko'ra, makkajo'xori ma'budasi yomg'ir tomchisi urug'lanib, inson avlodini dunyoga keltiradi [16; 234]. Bu esa ma'bud Zevsning oltin yomg'iridan dunyoga kelgan Danayani yodimizga soladi. Ko'pincha homila suvning o'zi bilangina emas, balki unda yashovchi baliq yoki qurt orqali paydo bo'ladi. Bunday holatlarda hayvon elementi birlamchi, suv esa ikkilamchi omil sifatida namoyon bo'lishini ko'ramiz. Misol uchun, suv qurt bilan birga ichilishi kerak. Irland eposi qahramoni Kuxulain aynan shu tarzda dunyoga keladi. Ko'pincha turli miflarda birinchi odam suvdan paydo bo'ladi. Kichik Osiyodagi Adonis sharafiga uyushtirilgan bayramlarda ayollar Adonis haykalchasini ko'tarib, uni dengiz yoki suv havzasiga tashlaganlar. Ayrim hududlarda esa bu dafn marosimining ertasiga Adonisning tirilishi nishonlangan (Фрезер III, 50). Bu misollar suvning dehqonchilikdagi yaratuvchilik kuchini namoyon qiladi.

Nihoyat, qadimiy e'tiqodlarning aksariyatida bo'lganikabi, suv orqali insonning serfarzandligini ta'minlash marosimi hozirgacha keng tarqalgan bo'lib, u quyidagi ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi: suv ichish yoki suvda cho'milish. Bu tushuncha ilmiy tomondan qaralganda xurofot bo'lsa-da xalq orasida shunchalik keng ildiz otganki, hatto cherkov uni tan olib, qonuniylashtirishga majbur bo'lgan. Homiladorlikka sabab bo'luvchi sehrli buloqlar va yoshartiruvchi suv havzalari butun G'arbiy Yevropa bo'ylab ko'p uchraydi hamda ular qaysidir avliyo nomi bilan bog'lanadi.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan holatlar go'yoki bir guruhga birlashgandek taassurot uyg'otadi. Ular insonning unumdor, serhosil tabiat bilan bevosita aloqasi mavjud, degan e'tiqodga asoslangan. Inson tabiatning ta'siriga o'xshashlik asosidagi sehr tamoyillari sabab duchor bo'ladi. Ba'zida bu ta'sir so'z magiyasi orqali kuchaytirishga harakat qilinadi shu nuqtadan afsun tushunchasi paydo bo'ladi.

Yuqoridagi barcha misollarni chuqur tahlil qilar ekanmiz, biz bu yerda kuch faqatgina suv, meva yoki afsun (so'z kuchi)ga tegishli emasligini ko'ramiz. Suv baliq yoki qurt bilan bog'lanadi; Ivan ahmoq malikani homilador qilgan bo'lsa, buni baliq vositasida qiladi; Danaya ustiga yog'ilayotgan oltin yomg'ir esa shunchaki suv emas, balki ilohiy quvvat – Zevsning o'zidir. Bu yerda yana qandaydir boshqa narsa bilan aralashgan (ehtimol, hayvonlar bilandir) narsa mavjud. Bir so'z bilan aytganda, savolning javobi hali batafsil ochilmagan. Uni ochiqlash uchun esa, mo'jizaviy tug'ilish motivining boshqa shakkarini ko'rib chiqish lozim.

e) o'likdan qayta tug'ilish

Tabiatning hayot beruvchi kuchi haqidagi qarash bilan bir qatorda, mo'jizaviy tug'ilish motivida yana boshqa inonchlarning ham borligini kuzatish mumkin. Qadimda odamlar tug'ilayotgan inson bu dunyoga birinchi marta kelayotgani yo'q, u ilgari yashab o'tgan odam va hozir yangi bir qiyofada dunyoga kelmoqda, deb ishonishgan. Tug'ilish – bu o'lgan insonning, ko'pincha biror ajdodning, hayotga qaytishi, deb qaralgan.

Ko'plab xalqlar tug'ilgan bola o'z ajdodining yangi bir qiyofasi ekanligiga ishonishgan. "Agar bola tug'ilsa", – deydi Levi-Bryul – "bu shuni anglatadiki, ma'lum bir shaxs yana hayotga qaytgan, shunchaki uning ruhi boshqa tanaga ko'chgan. Har bir tug'ilish – bu qayta tug'ilish, reinkarnatsiyadir" [9;77]. Bu fakt etnograf olimlar tomonidan turlicha izohlanadi. Shternberg qayta reinkarnatsiyaga ishonch ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan [5;317], deb ta'kidlaydi. Ammo buning istisno holatlari ham bor: bola doimo otasi yoki bobosining qiyofasi, deb hisoblanmagan, u boshqa marhumlarning qiyofasi sifatida ham qabul qilingan, bu o'rinda hatto uning jinsiga ham e'tibor berilmagan. Ism esa uning ruhining bir qismi sifatida ko'rilgan. Masalan, eskimoslar yangi tug'ilgan qiz bolani "bobojonim" deb atashgan.

Haruzin holatni biroz boshqacha tushuntiradi: "Ilk odam oldida, odatda, yangi tug'ilganlarning ruhi va hayoti qayerdan keladi, degan savol paydo bo'ladi... Madaniylashmagan (ibtidoiy) odam bu savolga o'liklarning ruhlari yangi tug'ilganlarga o'tadi, ya'ni ruhning ikkinichi hayoti boshlanadi, deb javob beradi" [10;195]. Haruzining izohi yuqoridagi izohlar kabi ishonchsiz tuyuladi. Chunki "Madaniylashmagan" odamning ruh haqida o'ylashi isbot talab qiladigan narsa, isbotlash esa oson ish emas.

Ilk davr odamlari tafovutni – tirik va o'lik o'rtasidagi farqni tushunmaganliklarini hisobga olsak, bu holatni izohlash mumkin: Ibtidoiy odam o'lik va tirikning farqini bilmagan, shu bois tug'ilgan bolani qaysidir ajodining qaytib kelishi, deb qabul qilgan. Bu inonch shunchalik kuchli bo'lganki, avstraliyalik tub aholi u yerga borgan oq tanli muhojirlarni biror oborijenning yangi tanada qaytgan ruhi deb qabul qilishgan. Uning "ota-onasi" undan 60 mil uzoqlikda yashab, yangi topilgan o'g'lini yiliga ikki marta ko'rishga kelishgan, bunda yo'ldagi turli xavflarni ham yengib o'tishgan. Levi-Bryul shu kabi kulgili holatlarning o'n beshga yaqinini sanab o'tadi. Oborijenlar tomonidan shunday "tan olingan o'lik"lardan biri o'zini mahalliy aholi orasiga birinchi marta kelganini aytishga harakat qilganida, ulardan quyidagicha javob olgan: "Sen yolg'onchisan, agar rost gapirgan bo'lsang, bu yerga yo'lni qanday topding?" Hindularda bola tug'ilganda sehrargar chaqirilgan, u ekstaz (jazava) holatiga tushib, kim qaytganini aniqlagan va yangi tug'ilgan bolaga ism bergan [11;303]. Nasroniy missionerlari yangi tug'ilgan chaqaloqni suvda cho'miltirish vaqtida unga qanday ism berishni boshqalardan so'rasa, o'z obro'larini yo'qotganlar. Chunki Apapokuva qabilasi hindularining qarashicha, ruhoniylar bu narsani boshqalardan ko'ra yaxshi bilishi kerak. Ushbu faktlarni jamlab, Diterixning so'zlarni keltiramiz: "Shuni unutmasligimiz kerakki, yangi tug'ilgan bola qayta tug'ilgan o'likdir, degan qarash juda ko'p ibtidoiy xalqlarning inochlarida bo'lgan" [12;19].

Bu faktlar yordamida taqdim qilingan materiallar ancha-muncha oydinlashadi. Shimoliy Amerikada ayolning suvdan topib olgan mevani (bizda no'xat) yutib yuborish motivi keng tarqalgan. Ammo biroz boshqacha ko'rinishga ega. Shunday afsonalardan birida ayol bolali bo'lishni juda istaydi. Eri unga: "Agar bola istasang, buning imkoni bor", deydi. "Qanday qilib?" deb so'raydi ayol. Shunda erkak chelakni suvga to'ldirib, ayolining yoniga qo'yadi va: "Agar kechqurun chanqasang, mana shu chelakdagi suvdan ich", deydi. Hammalari uxlab qolganida, erkak o'zini kichik yaproqqa aylantirib, chelakka tushadi. Ayol kechasi chanqab, chelakdan suv ichganda suvga qo'shib bargni ham yutib yuboradi. Erkak uning qorniga tushib olgach: "Semir, semir!" deya baqiradi. Shundan so'ng erkak qayta tug'iladi [25;105].

Shu o'rinda savol tug'iladi: Ertakdagi malika yutib yuborgan no'xat ham yuqoridagi

misol bilan aloqadormi? Bu savolga faqat mo'jizaviy tug'ilish motivining barcha holatlarini o'rganibgina javob berish mumkin. Amerikada yutilgan meva, rezavor har doim jonli inson ramzi, deb qaralgan. Shu tarzda qahramon – quyosh o'g'risi tug'iladi. U quyoshning uyiga kirish uchun mevaga aylanadi, quyosh qizi esa uni yeb yuboradi, yana ham aniqrog'i, suv bilan ichadi. Ana shunda u qayta tug'iladi va shu yo'l bilan quyosh uyiga yetib boradi [25;123;312]. Xuddi shu kabi motiv chukchalar, yoqutlar va boshqa xalqlarda ham uchraydi. Masalan: "Er vafot etadi uni xuddi o'zi vasiyat qilganidek dafn qilishadi. Xotini uning qabrini qordan tozalash uchun kelganida qabr ustidan ikki dona o't o'sib chiqqan bo'ladi. Ayol ularni ildizi bilan sug'urib olib yeb qo'yadi" [25;98]. Ma'lumki, misr ertagida Batta bir daraxtga aylanadi. Bu daraxt kesiladi, bir chippak (payraxa) ayolning og'ziga tushadi va Batta yana tug'iladi. Bu qadimgi Misr miflarida kam uchraydigan holat emas. "Men Amentida Osirisdan yana yer yuziga qaytishni o'tinib so'radim". Ilon notanish odamga shunday deydi: "Sen ikki oy ichida yurtingga qaytib kelasan. Ana shu payt yana yosh bo'lish uchun bolalaringni ko'ksingga bosasan va o'z qabring oldiga borasan". Qiziq tomoni shundaki, Batta qanday qayta tug'ilsa, nenets xalq ertagidagi qahramon ham xuddi shunday tug'iladi. Bu ertakda o'rmondagi chol uy erga kelgan aka-ukalarni yeb qo'yadi. Shundan keyin cholning kampiri o'rmondan bolalardan birining qoni tomgan yog'och chippagini topib oladi. "Kampir chippakni bolakay qilib belanchakka qo'yadi va tebratadi. Shunda chippak bola bo'lib qayta tiriladi". Frezerning "O'lim qo'rquvi" asarida bu borada ko'plab misollarni ko'rish mumkin.

Yuqoridagi barcha ushbu materiallar yangi tug'ilgan bolani ilgari yashab o'tgan qaysidir odamning boshqa tanada qayta tug'ilishi (tirilishi) deb hisoblangan e'tiqod tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu izlanishlar bizga hali ko'rib chiqilmagan mo'jizaviy tug'ilish motivining turli shakllarini tushunishga yordam beradi.

f) o'choq (pech)dan tug'ilish

Qahramonning o'choq (pech) yoki manqaldan tug'ilishini tushunish uchun biz masalani biroz kengroq qo'yib, o'choq (pech) bilan bog'liq barcha motivlarni ko'rib chiqishimiz lozim. Ko'pgina ertaklarda qahramon biror sinovdan o'tishdan oldin o'choq (pech) ustida o'tirgani yoki uning ichida yotgani hikoya qilinadi. Masalan, Yemelya ahmoq doim pech ustida yotadi va hammaga: "Men dangasaman", deb javob beradi. U deyarli pechka bilan birga birlashib ketgandek edi. Podsho elchilari kelib uni saroyga taklif qilganda u shunday deydi: "Cho'rtanbaliq amri bilan, mening iltimosimga ko'ra pech qirol saroyiga yurib borsin". O'zi pech ustiga o'tiradi, pech esa saroyga jo'naydi [42;166]. O'choq (pech) bilan bog'liq bu holat quyidagi namunalarda ham uchraydi: "Kichkina bola erinchoq edi, qachon qarama, faqat issiq pech ustida yotardi" [44;3]; "Buldak Borisovich o'sha paytda pech ustida yotgandi"; "Omelya Lelekoskoy degani bor edi. U hamisha pech ustida uxlab yotardi..."; "Vanyusha kelib pech ustiga o'tirdi. Keyin uni qoqa boshladi"; "Uchinchidan: Ivan ahmoq, hech bir ish qilmasdi, faqat burchakda pechkada o'tirib, burunni jiyirardi" [42;179].

Berilgan misollarda shunchaki kundalik maishiy hayot aks etgandek ko'rinadi. Ammo aslida vaziyat biroz boshqacharoq. Pech ustida faqat kenja o'g'il o'tiradi, katta o'g'illar haqida gap ketganda bunday lavhalar yo'q. Shu bilan birga, ertaklarda kamdan-kam hollarda o'choq (pech) realistik element sifatida qatnashadi: "Bor ekan-u yo'q ekan, bir badavlat chol bilan kampir yashagan ekan. Ularning uch o'g'li bo'lib, bir-birlaridan baquvvat va sog'lom ekan. Ular yoz bo'yi tinmay mehnat qilar, qishda esa pech ustida mazza qilib yeb-ichib yotisharkan".

Ivan aynan o'choq (pech) bilan qandaydir aloqasi bor qahramon. Uning pech ustida o'tirishi oddiy hol emas. Buning isboti uning ismida ham aks etgan: "Ivan Zapechin" (44;68), "Ivashko Zapechnik" [42;128], "Ivan Zapetsin", "Zapechniy Iskr". Bu ismlar Ivanning pech ustida emas, balki uning ortida, mo'ri tagida o'tirishini anglatadi. Masalan, "Pech ortidagi mo'ri yonida o'tirgan" [42;106], "U mo'richi" [42;130]. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Ivan faqat o'choq yonida emas, balki

pechka ustida, hatto uning ostida ham bo'lishi mumkin. U kul, chang, qurum qoldiqlari bilan bog'liq. "U qurum va kul bilan qoplangan pech ustida yotardi" [44; 8]; "U doim pechka ustida o'tirar, tinmay kulga dumalab yurar edi" [42; 130] variant 2). Kenja o'g'il Ivanning yana "Popyalov" (Kulning bolasi ma'nosida) degan nomi ham bor: "Bir paytlar chol bilan kampir yashagan ekan. Ularning uchta o'g'li bo'lib, ikki kattasi aqlli, uchinchi kenjatoyi esa ahmoq – ismi Ivan, laqabi Popyalov edi"; "Ion 12 yil kulda yotibdi, undan keyin turib silkinibdi, shunda undan olti pud kul tushibdi" [42;135]. Bu 12 yil kul ustida o'tirish shunchaki pech ustida yotish emas, balki pech va Ivan o'rtasida qandaydir doimiy aloqa borligini ko'rsatadi. "Zolushka" (Kuloyim) nomi ham shunga mansub. Garchi bu ism rus folklorida unchalik ma'lum bo'lmasa-da Yevropaning deyarli barcha xalqlarining folklorida mavjud.

Ivanning pech, o'choq bilan bog'liqligi shu bilangina chegaralanib qolmaydi. U ko'pincha aynan pechkadan tug'iladi: "Bir podsholikda chol bilan kampir yashagan ekan. Ularning farzandari yo'q ekan. Bir kuni chol aytibdi: "kampir, bor, bozordan sholg'om olib kel, tushlikda yeymiz". Kampir bozorga borib, ikkita sholg'om olib kelibdi. Birini biroz chaynab qo'yishibdi, ikkinchisini pishirish uchun pechka ichiga qo'yishibdi. Birozdan pechdan qichqirgan ovoz eshilibdi: "Buvijon, pechni oching, bu yer issiq!" Kampir pech qopqog'ini ochsa, u yerda tirik qizcha yotganini ko'ribdi" [42; 141].

Bu o'rinda asosiy unsur pech emas, balki sholg'om, deb o'ylash mumkin. Ammo boshqa bir matnda [42;142] bola pech ustiga quritish uchun qo'yilgan g'o'lardan tug'iladi: "Bir g'o'la bor edi, keyin u bolaga aylandi". Insonga aylanadigan modda turlicha bo'lishi mumkin, lekin pech har doim o'zgaras element sifatida qoladi. Qorqiz haqidagi ertakda qizcha pech yoniga qo'yilgan ko'zadagi qor parchasidan tug'ilishi aytiladi. "Barmoqcha bola" ertagining bir variantida bola pech ustida turgan tuvak ichidagi kesilgan barmoqdan tug'iladi.

Bizning vazifamiz bu motivning kelib chiqishini aniqlashdan iborat. Lekin bu ishni nimadan boshlash to'g'ri bo'ladi? Bizga kalavaning uchini topishga yordam beradigan fikrlar kerak. Ana shunda butun jumboq yechiladi.

Keling, muammoni taftish qilishdan oldin yana bir holatni ko'rib chiqaylik. "Qaysidir mamlakatda bir Buxtan Buxtanovich degan kishi yashagan ekan. Buxtan Buxtanovichning dala o'rtasida ustunlarga mahkamlangan pechi bor ekan. U pechka ustida yarim tirsagigacha suvarak sutiga botib yotarkan" [42;163].

"Suvarak suti" ramziy ma'noda bo'lib, o'n ikki yil pechka Ichida yotgan, turganda olti pud kul to'kilgan qahramon kabi o'choq yoki pechda abadiy yotishni anglatadi. "Ustunlarga mahkamlanga pech" aslida ustunlarga mahkam bog'langan qabrdan o'zga narsa emas. Buxtan Buxtanovichning pech ustida yotishi – qabrda yotish demakdir. O'choq yoki pech qabrdan boshqa narsa emas ekan, undan chiqib keladigan qahramon ham o'tmishda yashab o'tgan, endi qayta tirilib, hayotga qaytgan odam, deb taxmin qilishimiz mumkin. Usbu dastlabki taxminlarimizni tasdiqlash maqsadida nafaqat ertaklardagi qahramonlarning o'choq ostiga dafn etilishi, dafn qilishining boshqa bir qancha turlari hamda nima sababdan vafot qilgan odamlar chaqaloq ko'rinishida hayotga qaytganliklarini ko'rib chiqamiz. Ustunlarga dafn qilinish va jasadlarning yoqilish holatiga quyidagi misol keltirish mumkin. Rus xalq ertaklaridan birida shunday deyilgan: "Bir biya osilgan tobutni ko'rib qolibdi. Bu tobutda nochorlikdan vafot etgan tungus (odam) bor ekan. Biya o'lgan tungusning tizzasni yalabdi, unga g'amxo'rlik qilibdi". Biyadan Ivan Kobilnikov (Biya o'g'li) ismli o'g'il tug'ilibdi. Quyida bir zamonlar odamni tiriltirish uchun uning jasadidan bir bo'lakni yeyish kerak degan qarash juda keng tarqalganini, bu qarash ko'p hollarda ertaklarda yaqqol namoyon bo'lganini kuzatamiz.

Jasadni kuydirishga to'g'ridan-to'g'ri ishora qiluvchi voqea Afanasev uchraydi: (42;143) Bu ertakda qiziga sovg' har doim sovg'a olib keladigan ruhoniylar haqida hikoya qilinadi. Lekin kunlarning birida u sovg'ani esidan chiqaradi. "U yo'l bo'ylab ketayotgan ekan, shu payt yo'lning

o'rtasida yonib kulga aylangan kalla suyagi yonayotgani ko'rib qolibdi. U o'z yo'lida davom etibdi. Keyin birdan to'xtab, o'ylay boshlabdi. "Nega yonib kul bo'lgan kallani ko'rib, indamay o'tib ketdim? Kel, yaxshisi uni cho'ntagimga solib olay-da uyga borgach ko'mib tashlay!" Ertak davomida ruhoniy uyiga borgach, yotib uxlab qoladi. Otasini kutib o'tirgan qiz uning cho'ntagidan sovg'a qidiradi va kichkina quticha topib oladi. Qiz qutichani ocholmaydi va ozroq yalab ko'radi. Shundan keyin homilador bo'lib qoladi. Nima uchun kul qutiga aylanib qolganini qiyosiy materiallar yordamida tushuntiramiz. Yo'l bo'yidagi yonib kul bo'lgan kalla suyagidan kimningdir jasadi yoqilgani ma'lum. Aynan shu jasadning kulidan homiladorlik kelib chiqmoqda. Xuddi yuqorida biya tungusning jasadini yalab toychoq tuqqani kabi. Shunga o'xshash barcha holatlarda o'likning qayta tug'ilishi haqida gap borayotgani ko'rinib turibdi.

Yuqorida keltirilgan misollar bunday tasavvurlar borligini ko'rsatadi. Bu esa motivimizning eng qadimgi asosidir – u bo'lmasdan bu motiv yuzaga kelishi mumkin emas edi. Tug'ilgan inson – o'liklar olamidani qaytgan kishi sifatida tasavvur qilingan. Uning ildizlari ilk jamiyatdagi mehnat va ijtimoiy munosabatlar shakllangan davrlarga borib taqaladi.

Keyinchalik, mehnat va mulkka bo'lgan munosabatning rivojlanishi bilan hayot va mamot, tug'ilish va o'lish o'rtasidagi farq yana-da ravshanlashdi. Lekin bu rivojlanish biz o'rganayotgan motivga aloqador emas.

Biz bergan materiallar o'zining aniqligi bilan juda qimmatlidir. Ammo ular kul ichida yotib, pechkada o'tirgan yoki undan tug'ilgan qahramon ham o'liklar olamidani qaytgan kishilar ekanini isbotlaydimi? Yo'q, albatta. Shuning uchun bizga pech, xususan, o'choq qanday qilib dafn joyi (qabr)ga aylanib qolganligini yana ham chuqurroq ko'rib chiqish muhim.

Qayerda hali pech yoki o'choq bo'lmagan bo'lsa, odamlarni shunchaki uy ichiga dafn qilganlar. "Inson o'lmaydi", degan asos g'oya "Marhum o'z hayotini o'tkazgan muhitda yashashda davom etadi", degan tasavvurni paydo qilgan. Shu sababli ham marhum uyning ichida dafn qilingan va bu orqali marhum va tiriklar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ifodalangan.

Keling, marhumni uyda dafn etishning bir qancha misollarini ko'rib chiqamiz. Fogel Bismark orollari aholisi haqida shunday yozadi: "Kulbalarning birida biz yupqa tuproq va bo'ya ostida ko'milgan yangi murdani ko'rdik. Kulbani achimtir hid to'ldirdi, ammo odamlar bu yerda yashashda davom etardi" [13;10]. Fon den Shteynen Paressi hindulari haqida shunday yozadi: "O'lganlarni uy ichida, boshlarini sharqqa qarab dafn qiladilar" [14;434]. Fogel Yangi Pommeraniyaliklar haqida yozadi: "Jasad erkaklar uyiga olib kirilib, zambilga yotqiziladi. So'ngra uy ichida chuqur qazilib, tubi mato bilan qoplanadi. Shu mato ustiga jasad qo'yiladi" [13;228].

Bunday misollarni juda ko'p keltirish mumkin. Marhumni uy ichiga dafn qilish eng sodda holatdir. Bu, asosan, o'troq yashashga o'tgan xalqlarga xosdir. O'troqlashish dehqonchilikning boshlanishi bilan bog'liq. Dastlab bu yarim o'rtoqlashish edi. Chodirlar osonlik bilan buzilib, tashlab ketilar, yangi joyda yana uy ichida dafn qilish davom ettirilardi.

Marhumni uy ichida dafn qilish bizning motivimiz tarixidagi ikkinchi asosiy qatlamdir. Qiziq jihati, bu o'rinda hali pech yoki o'choq haqida gap yo'q. Olovni muqaddas bilish bor, ammo u hozircha uydani tashqarisida saqlanadi. Frobenius Shimoliy Transvaalda yashovchi qabilalar haqida shunday yozadi: "Ular atrofi jonli to'siq bilan o'rab olingan olovni asrab-avaylashadi. Bu olovlar hech qachon o'chmasligi kerak. Olov saqlanadigan joyga kirishda mahalliy aholi oyoq kiyimlarini yechib, kulni o'pishadi" [16;289]. Bu ajdodlardan qolgan umumiy olov edi va yuqorida aytilganidek, hech qachon so'nmasligi kerak edi. Keyinchalik har bir oilaning o'z olovi paydo bo'lsa-da, umumiy olov baribir mavjud bo'lib qoldi. Yana vaqt o'tishi bilan u ibodatxonalarga ko'chirildi.

Pechka yoki o'choq faqat to'liq doimiy yashash boshlanganida paydo bo'lgan. Bu esa iqtisodiy jihatdan dehqonchilik va ijtimoiy jihatdan urug' jamiyatining rivojlanishi bilan bog'liq. Ammo bu yerda juda qiziqarli qarama-qarshilik yuzaga keladi. Doimiy yashashga erishilgach, uy ichida dafn

qilish texnik jihatdan mumkin emas bo'lib qoladi, chunki barcha o'lganlar uchun joy yetarli emas edi. Bu qarama-qarshilikdan qanday chiqilgan? Endi uy ichida dafn qilishdan tashqariga o'tish bosqichlari ko'zga tashlanadi. Shunday shakllardan biri uy oldidagi ostonaga (eshik oldida) dafn qilish edi. Bunday usulni Afrikaning qishloqlarida yashovchi va dehqonchilik qiluvchi aholisi orasida Fyulleborn qayd etgan. Mazkur dafn qilishning ma'nosi aniq: dafn qilingan kishi tiriklar bilan birga yashashi kerak [17;301].

Bundan tashqari, boshqa usul ham bor: qabr uydan tashqarida, lekin marhum yashagan kulbaga o'xshash shaklda qurilgan. Bu yerda u o'zining yangi uyiga ko'chib o'tgan kishi sifatida ko'rilgan.

Boshqa tomondan, eski usul ham ba'zan saqlanib qolgan, lekin faqat ayrimlar uchun. Masalan, Raum shunday yozadi: "Farzandlari bor kishilar agar oila ichida vafot etsa, uyga dafn qilingan" [18;183]. Bu juda qimmatli ma'lumot. Uy ichida faqat "farzandalari bor", ya'ni otalar dafn qilingan. Oila rivojlanishi bilan ajdodga hurmat kuchaygan. Faqat ulargina uy ichida dafn qilinib, qolganlari esa tashqariga ko'milgan.

Ammo o'zimizga savol beraylik – bu yerda pech yoki o'choq qani? Biz bir qancha misollar keltirdik, yana ko'proq keltirishimiz mumkin edi, lekin manbalarimiz bu bosqichda pech va o'choq haqida jim turadi. Taxmin qilish mumkinki, qabrlar uyda yong'in boshlanishidan ilgariroq tashqariga ko'chirilgan.

Qizqi joyi shuki, bir qator tarixchilar ilgari odamlar o'choq ostiga dafn qilganini ta'kidlashgan. Bunga bevosita dalillar yo'q, faqat noaniq ko'rsatmalar mavjud. Biz esa o'choq ostiga dafn qilishni ko'z oldimizga keltira oladigan, shunday guvohlik bergan kishilarning fikrlarini topmadik. Masalan, hali o'choq bo'lmagan davrda ham ovchilik ham dehqonchilik bilan shug'ullangan kishilarni uylarida dafn qilish haqida aniq ma'lumotlar mavjud. Agar o'choq ostiga dafn qilish bo'lgan bo'lsa, u qanday amalga oshirilgan? O'choqning ustki qismi buzilganmi yoki uning yonidan chuqur qazilganmi? Yoki vafot etgan odam kul yig'ilgan joyda dafn qilinganmi? Bular haqida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar yo'q.

Bularning barchasi bizni shunday xulosaga olib keladi: o'choq ostiga dafn qilish amaliyoti aslida hech qachon sodir bo'lmagan, balki odamlarning ongida paydo bo'lgan. Odamlar o'zlarining ajdodlari o'choq ostida dafn etilganiga ishonganlar. Albatta, o'choq ostiga dafn qilish haqida juda kam va noaniq ko'rsatmalar mavjud, lekin bu asosan, bolalarni dafn qilish uchun ishlatilgan va ular yana qayta tug'iladi, deb ishonilgan. "Andaman orollari aholisi juda kichik bolalarni uyning pollari ostiga, o'choq ostiga dafn qilishadi, chunki ular vafot qilgan bolalarning ruhlari ona qorniga qaytib kirib, yana tug'ilishi mumkinligiga ishonishadi" [19;18–20]. Arxeologik qazishmalar esa qadimgi yunonlarning ajdodlarida ham shunday holat bo'lganini tasdiqlaydi: uylar ostida bolalar jasadlari solingan idishlar topilgan.

Ammo umumiy qilib aytganda, o'choq ostiga dafn qilish hodisasi amalda mavjud emas. Ba'zi alohida holatlar faqat bolalar dafn qilinganini ko'rsatadi va ularning o'choq bilan bog'liqligi ham shubhali. Ajdodni o'choq ostiga dafn qilish haqidagi tasavvur esa butunlay boshqa hodisa – u tarixiy zarurat bo'lib, mulkchilik va yerga egalik qilish huquqi paydo bo'lishi bilan butun hayot tarzining o'zgarishini anglatadi. Doimiy va mustahkam mahalliy turmush paydo bo'ladi. Mulkka egalik va mulkiy munosabatlarning paydo bilan ajdodlar (ruhi)ga sig'inish dini yuzaga keladi. O'choq, ilgari ko'rib turganimizdek, uy tashqarisida saqlangan bo'lsa, endi uyning ichiga olib kiriladi. Mana shu o'choqning paydo bo'lishi hisoblanadi. Ajdodlarga sig'inish o'choq kulti bilan kesishadi va odamlar ongida o'choq yoki pech marhum ajdodlarning istiqomat qiladigan joyiga aylanadi.

Bu bosqichda biz tushungan ma'nodagi ertaklarning bo'lishi mumkin emas edi. Ehtimol, qandaydir hikoyalar bo'lgan va ular afsona va mif ko'rinishida bo'lib, odamlar ularning haqiqatiga ishonishgan. Yana muayyan marosim va rituallar mavjud bo'lgan, ular aynan shu tasavvurlar bilan bog'liq edi.

Ushbu marosimlarni qadimgi davrlardan boshlab kuzatish mumkin va ular asta-sekin yo‘qolib borganini ko‘rish mumkin. Aynan shu jarayon ertakning yuzaga kelishi, ya‘ni jonli haqiqatning hikoyaga aylanishi, keyinchalik esa haqiqiy hayotdan yo‘qolgan voqealar ertakka o‘tib borganligini anglatadi.

Shimoliy Amerika eskimoslarida o‘liklarni xotirlash kunida o‘liklar o‘choq ostidan, ya‘ni kul to‘planadigan chuqurchadan chiqib, ularga tayinlangan dasturxonga yig‘ilishadi, deb ishonilgan [20;302]. Ko‘pchilik xalqlarda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib o‘tishda kul olib ketilgan. Bu esa u yerdagi ajdod – himoyachi ruhni ham ko‘chirish uchun qilingan. Uylarning ruhlari, ilohlari, o‘choq ruhi har doim o‘choq bor joyda mavjud, deb tushunilgan. Ammo ko‘chmanchilarda bunday e‘tiqod mavjud bo‘lmagan. Ushbu motiv “marhum-yordamchi” motivi bilan chambarchas bog‘liq.

Endi rivojlangan quldorlik jamiyatlarining paydo bo‘lishi bilan, yuqoridagi tasavvurlar dunyosi qay darajada o‘zgarib borganligini ko‘rib chiqaylik. Misol tariqasida qadimgi Gretsiyani olamiz. Rode Gretsiyada qachonlardir o‘choq ostiga dafn qilish an‘analari bo‘lganini ishonch bilan ta‘kilaydi va quyidagilarni yozadi: “Qadimgi davr haqida xotira saqlanib qolgan, u paytda vafot etgan odam o‘z uyining ichida, diniy marosimlarga eng yaqin joyda dafn etilgan”. Rode bu fikrga qo‘shimcha izoh beradi: “Bu o‘rinda shubha qilishga asos yo‘q. O‘choq yaqinida oila boshining so‘nggi dam olishi uchun joy bo‘lishi kerak edi. Bu “Bor edi” emas, aynan “Bor bo‘lgan bo‘lishi kerak edi” degani” [21;228]. Bu izohlar Rodening o‘choq ostiga dafn haqida bevosita dalillari yo‘q bo‘lganini, ammo bu tarixiy zarurat ekanligini anglaganini ko‘rsatadi. Fyustel de Kulanj ham Rode bilan bir xil fikrda bo‘lgan. Ammo u Serviydan boshqa hech qanday dalil topa olmagan unga ishora qilib o‘tgan. Boshqa mualliflar ham Serviyga murojaat qiladi, chunki u yagona manba edi. Fyustel de Kulanj yozadi: “Serviy, qadimgi yunon va rim qadriyatlari haqida katta bilimga ega bo‘lib, qadim zamonlarda o‘liklarni uyda dafn qilish odati borligini aytadi, va qo‘shimcha qiladi: “Shu odat tufayli uyda aynan Larlar va Penatlar (uy ruhlari)ga sig‘inish mavjud edi”. Bu gap o‘liklarga sig‘inish va o‘choq o‘rtasidagi qadimgi bog‘liqlikni aniq tiklaydi. Shuning uchun, uy o‘chog‘i dastlab o‘liklarga sig‘inish ramzi bo‘lgan, o‘choq tosh ostida bir ajdod yotgan va uning sharafiga olov yoqilgan, deb o‘ylash mumkin: olov uning hayotini qo‘llab-quvvatlagan yoki uning doimiy uyg‘oq ruhini ifodalagan” [22;29].

Fyustel de Kulanj odamlarni o‘choq ostiga emas, balki qabrlarga ustiga olov yoqib dafn qilishgan va aynan shu olov yoqish ajdodga hurmatning dastlabki shakli hisoblanadi, deb ta‘kidlaydi. Ammo qanday bo‘lmasin, o‘likka sig‘inish va olovga sig‘inish shu yerda ham birlashib, ajralmas bir murakkab tizimni hosil qiladi.

Shu jihatdan antik davr biz uchun hech qanday yangilik yoki istisno holatni bermaydi. Muhimi shundaki, quldorlik jamiyatining ichida ushbu tasavvur hali juda jonli bo‘lib, shu bosqichda u hali ertakka aylanishi mumkin emas edi. Avlod asoschisi vafot qilgach tezda ilohga aylantirilgan, undan yordam so‘rab duo qilingan. U har qanday ofatdan qutqaruvchi, himoyachi sifatida ko‘rilgan.

Bu biz uchun juda muhim nuqta. Avval aytganimizdek, ertaklarda faqat kenja o‘g‘il (qahramon) o‘choqda yotadi yoki o‘choqda bo‘ladi, uning aka-ukalari esa yo‘q. Solishtirma morfologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, ertak qahramoni aynan qutqaruvchi bo‘lib, uning aka-ukalari hech qachon bunday bo‘lmaydi. Qahramon paydo bo‘lishi ma‘lum bir ofatga javob bo‘lib, u (shu jumladan, o‘choqdan chiqishi) bevosita qiyinchilikka qarshi kurashishdir. O‘choqdan chiqadigan qahramonda ajdodlarning yordamchi va qutqaruvchi ruhlarining tavsirini ko‘rilishi mumkin. Biroq bizning ertaklarimiz yunonlarning diniy e‘tiqodlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri borib taqaladi, deb aytishimiz to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ertakni biz mahalliy yoki xronologik cheklangan hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida ko‘ramiz va uning ildizlari qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga borib taqalishini o‘rganamiz. Antik dunyo biz uchun faqat misol sifatida xizmat qiladi. Antik dunyoda o‘choqdan yoki olovdan bola tug‘ilishiga oid boshqa misollar ham mavjud. Bola o‘choqdan


(kuldan) chiqqanda, o‘choq ona vazifasida keladi. Antik davr odamlari o‘choqqa otaning, erkakning rolini yuklashgan: “Bir kuni Tarkviniyning xotini o‘z oqsochidan o‘choqdagi olov uchun pirog pishirib, olovga sharob quyayotgan vaqtida olov ichidan erkak kishining jinsiy a‘zosiga o‘xshash narsa chiqqani eshitib qoladi. Shunda dono malika xizmatkoriga shunday deydi: “Bu bejiz emas, ko‘rinib turibdiki, sen farzanding o‘lim bilmas, noyob Bolani dunyoga keltirasan”. Keyin malika u oqsochga kelin libosida o‘choq yoniga borib, o‘sha yerda tunashni buyuradi. Natijada xizmatkor ayol olov ruhidan homilador bo‘lib, Serviy Tulliyni dunyoga keltiradi. Shunga o‘xshash holat Romul va Rimning tug‘ilishi haqidagi afsonada ham bor” [5;367–368]. Yuqoridagi vaziyatda o‘choqqa otaning rol yuklangani aniq ko‘rinadi. Bu yerda tug‘ilish – qayta tug‘ilish, degan narsa yo‘q, chunki tug‘ilish yoki qayta tug‘ilish faqat ayol orqaligina amalga oshishi mumkin.

Xulosa sifatida, biz baluch ertaklarida tasvirlangan yana bir voqeani keltiramiz. Unda qayta tug‘ilish haqidagi qarashlarning qoldiqlarini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi: “Bir podsho bor ekan. Uning hech bitta ham farzandi yo‘q ekan. Bir kuni u uzoq o‘ylab, o‘choq yoniga borib o‘tiribdi. Odamlar buni ko‘rib: “Ey podsho, nima uchun kul oldiga o‘tirib oldingiz?” deb so‘rashibdi. “Sizlarning ishingiz bo‘lmasin”, debdi podsho. (Shunda bir darvesh paydo bo‘lib) debdi. “Ey podsho, sening peshonangga farzand bitilmagan. Agar bo‘lsa ham u tirik emas, o‘lik bola bo‘lar edi”, debdi. Bu gapga javoban podsho: “O‘lik bo‘lsa ham mayliga edi. Qaytangga: “Bolam shu qabrda yotibdi-kul!” deb qabristonga borib turardim”, debdi. “Yaxshi”, debdi darvesh, “Sening farsandsizliging uzoqqa cho‘zilmaydi”, deb podshoning xotiniga olma beribdi”. Shundan so‘ng podsho avval o‘choq oldidagi kul ustida, so‘ngra qabristonda yotib farzand tug‘ilishini kutadi. Ertakda darvesh podshoning bolasi o‘lik holda tug‘ilishini bashorat qiladi. Biz bu o‘rinda o‘choq va kulning birgalikda ongimizda imuquq berishini, tug‘ilish va o‘lganlarning qayta tug‘ilishi kabilarni kuzatamiz. Ammo podshoning barcha urinishlari bekor ketadi, chunki bular endi eskirgan g‘oyalarga asoslangandi. Darvesh podshoning xotiniga olma bergach, ayol homila ko‘taradi. Ertak davomida, xuddi darvesh bashorat qilganidek, o‘lik holda tug‘ilgan, ammo shu zahoti osmonga ko‘tarilib, qayta tirilivchi bola haqida gap boradi.

Bu materiallar bizga shuni taxmin qilishga asos beradi: pechda o‘tirgan va undan tushayotgan yoki undan tug‘ilayotgan qahramon obrazi marhumlarni uyning ichida dafn qilish odati asosida shakllangan. O‘choq paydo bo‘lishi bilan “uning ostida marhum ajdodimiz dafn etilgan” deb tasavvur qilina boshlangan. Bu tasavvurlar, tirik holda tug‘ilgan kishi – hayotga qaytgan o‘lik degan qarashlar bilan birlashadi. Ertak qahramoni, pechkadan chiqib kelayotgan obraz – tarixiy nuqtai nazardan olganda, o‘choqda yoki uning atrofida bo‘lgan o‘likning hayotga qaytgan holatidir.

Ammo bu yerda ba‘zi bog‘lovchi halqalar yetishmayapti. Ya‘ni biz o‘rganayotgan motivning ertakka aylanishi bosqichi belgilab beradigan halqa. Buning ikki xil sababi bo‘lishi mumkin. Birinchidan, bu kabi tasavvurlar, asosan, marosim va xatti-harakatlar orqali yashab kelgan. Ertaklar esa faqat bu xatti-harakatlar o‘z asl ma‘nosini yo‘qota boshlagan vaqtda yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, ehtimol, bunda ertaklar bo‘lgan, biroq bizgacha yetib kelmagandir.

Tarjimon: Abdukamol Abdujalilov



SARSEN KAZAXBAYEV,

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
filologiya fanlari doktori, professor*

TURKIY XALQLAR ORASIDA MASHHUR BO'LGAN XO'JA NASRIDDIN, ALDAR KO'SA VA UMIRBEK LAQQI BILAN BOG'LIQ TADQIQOTLAR

ИССЛЕДОВАНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ХОДЖОЙ НАСРЕДДИНОМ, АЛДАРОМ КУСОЙ И ОМИРБЕКОМ ЛАККИ, ИЗВЕСТНЫМИ СРЕДИ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Аннотация. В статье исследуется происхождение и распространение анекдотов, легенд и преданий о народных мудрецах и остроумцах, таких как Ходжа Насреддин, Алдар Косе и Омирбек Лакки, известных среди тюркских народов. Особое внимание уделяется историко-литературным источникам и фольклорным традициям, отражающим как общие, так и региональные особенности этих персонажей. Также рассматриваются художественные особенности анекдота как жанра, включая использование юмора, сатиры и гиперболы.

Ключевые слова: Анекдот, фольклор, рассказ, повествование, импровизация, миф, юмор, сатира, гипербола.

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy xalqlar orasida mashhur bo'lgan Xoja Nasriddin, Aldar Ko'sa va O'mirbek Laqqi kabi xalq donishmandlari va so'z ustalari haqidagi latifalar, afsonalar va ertaklarning kelib chiqishi, tarqalishi o'rganiladi. Ushbu qahramonlarning umumiy va mintaqaviy xususiyatlarini aks ettiruvchi tarixiy va adabiy manbalar hamda folklor an'alariga alohida e'tibor qaratilgan. Latifaning janr sifatidagi badiiy xususiyatlari, jumladan, yumor, satira va giperbola qo'llanilishi ham ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: Anekdot, folklor, hikoya, rivoyat, improvizatsiya, afsona, yumor, satira, giperbola.

Введение. Анекдот – это короткий юмористический рассказ, который может иметь сатирическую окраску, в анекдотах используется гипербола — один из художественных приемов для создания комического эффекта за счет явного преувеличения. Анекдот может быть представлен как в письменной, так и в устной форме. Юмористические высказывания, несмотря на краткость, могут выполнять воспитательную функцию, раскрывая важные жизненные вопросы через призму позитивных и негативных событий, жизненного опыта и психологических особенностей людей.

Анализ литературы. Сбор и публикация образцов устного народного творчества каракалпакского народа, а также написание статей начались в 30-40-х годах XX века. А. Бегимов, К. Аимбетов, О. Кожуров, Н. Жапаков, А. Шамуратов и Х. Тажимуратов внесли существенный вклад в сбор анекдотов, связанных с народными мудрецами и острословами: «Алдар Косе», «Ходжа Насреддин» и «Омирбек лакки».

В 1962 году К. Максетов, Н. Камалов и К. Мамбетназаров впервые опубликовали книгу под названием «Каракалпакские народные легенды и анекдоты», в которой были представлены анекдоты о Ходже Насреддине и Омирбеке лаккы.

В 1990 году был опубликован большой сборник под названием «Анекдоты Омирбека».

В книге Ю. Пахратдинова «Омирбек лаккы и вопросы юмора и сатиры» (1992) рассматриваются аспекты юмора и сатиры.

Рассмотрение анекдота как самостоятельного жанра было предложено в научных трудах Н.А. Баскакова.

Основная часть. Не все умеют рассказывать анекдоты, потому что это искусство, требующее определённых навыков, таких как чувство юмора, артистизм и умение владеть ситуацией. Также необходима способность передать характеры персонажей и создать нужное настроение с помощью голоса и мимики.

Умение вдохнуть жизнь в текст и оживить юмористические рассказы зависит от мастерства исполнителя; они заставляют людей смеяться до колик, и люди остаются довольны, получая удовольствие.

У восточных народов они называются латифа, зарифа, надира, алжиба (арабские остроумные рассказы), а в западной литературе – анекдотом.

Термин «анекдот» (греч. *anekdotos* – «неизданное, не подлежащее широкой огласке») впервые был использован в VI веке в Византии греческим историком П. Кесарийским для обозначения неопубликованных историй. Существует легенда о том, что жанр анекдота произошёл от персов и арабов. Однако очень сложно утверждать, что эта информация абсолютно достоверна. Дело в том, что у каждого народа был свой Ходжа Насреддин, то есть, его образ трансформировался в разных культурах. У тюркских народов он предстаёт как ученый и учитель, в то время как в Центральной Азии распространены легенды о нем как о мулле или эфенди [1.1]

До сих пор неизвестно, существовал ли Ходжа Насреддин в реальности: одни источники связывают его с исторической личностью, жившей в Акшехире (Турция) в 1207-1285 годах, другие отождествляют его с азербайджанским ученым XIII века Насреддином Туси. Третьи относят его к эпохе правления Амира Темура (XIV-XV века). Также есть мнения о том, что в таджикской и арабской литературе Ходжу Насреддина связывают с персонажем по имени Джуха.

Действительно, в X веке были опубликованы юмористические рассказы о Джухе под названием «Китаб наводир Джуха» (Книга анекдотов о Джухе). В преданиях упоминается, что Джуха, имевший персидское происхождение, со временем трансформировался в тюркского Муллу Насреддина.

Называть Ходжу Насреддина персонажем только одного народа нецелесообразно, поскольку истории о Ходже Насреддине распространены по всему мусульманскому Востоку, а также среди народов Средиземноморья и Балкан. Он является фольклорным героем, а не национальным персонажем одной страны.

В казахской культуре персонажа Ходжа Насреддин (Кожанасыр) часто воспринимают двояко: как изначально казахского героя устного народного творчества и как образ, пришедший из других стран и распространившийся по всему миру. Он является народным мудрецом и хитрецом, прославившимся остроумием, находчивостью и умением находить выход из сложных ситуаций с помощью интеллекта и юмора [1.3]

Например, однажды Ходжа Насреддин приехал на местный рынок, закупаться. Привязал он своего осла на стоянке. Пошёл, купил что надо и вернулся на стоянку, а осла нет, его украли. Тогда Ходжа Насреддин громко заявил:

– Я сейчас пойду, пройдуся, вернусь через 15 минут, чтобы моего осла вернули на место. Если нет, то сделаю так, как сделал мой отец!

Воры это слышали и испугавшись, они быстро вернули на осла своё место и удалились. Ходжа Насреддин вернулся, сел на осла и поехал. Один из воров из любопытства остановил его и спросил:

– Скажите мне пожалуйста, а что ваш отец сделал-то?

Насреддин ответил:

– У моего отца тоже украли осла, Он вернулся домой пешком.

Однажды состоялся разговор о молодости и старости. Когда очередь говорить дошла до Ходжи Насреддина, он сказал:

– Хотя я сейчас и постарел, моя сила ничуть не уменьшилась по сравнению с молодостью.

– Откуда вы это знаете? – спросили его окружающие.

– В нашем дворе есть большой камень. Я не мог поднять этот камень в молодости, не могу поднять его и сейчас, – ответил он [2.1]

Шокан Валиханов высоко ценил Жиренше Шешена и Асан Кайгы как мудрецов, общих для тюркоязычных народов и широко известных среди каракалпаков и казахов. Он называл их кочевыми философами, жившими во времена объединения ногайского племени [6].

В то же время, близость и сходство двух тюркских народов проявляются в их пословицах и поговорках, песнях о традициях, сказках, эпосах, легендах, связанных с Жиренше Шешеном, Асаном Кайгы, Коркыт Ата, анекдотах об Алдаре Косе и Ходжа Насреддине, и даже в сборе других образцов фольклора, в чем Ш. Валиханов проявил активность. В качестве доказательства этого известный ученый М. Нурмухаммедов, глубоко изучавший исторические источники русско-каракалпакских культурных отношений, высоко оценивая труды знаменитого казахского ученого Ш. Валиханова, жившего в середине XIX века, писал: «Можно утверждать, что влияние передовой русской культуры на каракалпаков осуществлялось также через известного казахского ученого, демократа-просветителя Ш. Валиханова» [7].

В целом, будет целесообразно отметить значимость трудов Ш. Валиханова, особенно в области каракалпакского фольклора и этнографии, поскольку они представляют собой ценнейшее наследие для изучения истории и культуры народов Центральной Азии.

В 20-30-е годы XX века в Центральной Азии писатель, журналист, сценарист и собиратель фольклора Леонид Соловьев написал повесть «Ходжа Насреддин», которая впоследствии была экранизирована. А в 1973 году была написана диссертация, посвященная жизненному пути Ходжи Насреддина. Образ Ходжи Насреддина появился в фольклоре тюркских народов ещё в XV веке и на протяжении веков образ Насреддина стал общим для многих народов, историй о нем насчитывается несколько сотен. В повести Леонида Соловьева описывается детство и юность Насреддина, который благодаря своему остроумию и таланту красноречия становится народным героем. Автор, рассказывая о жизни Насреддина, от его детства до момента, когда он стал известным острословом и народным мудрецом, отметил, что Насреддин обладал характером, присущим тюркским народам, и предполагал, что он мог родиться в Бухаре. Писатель говорил, что он «изменил мотив в фольклоре, то есть изменил его краски».

В результате трансформации образа Насреддина, писатель смог раскрыть его мировоззрение, философские мысли и положительные черты характера, а также психологические способности, мастерски отразив их через призму своего творчества и сделав образ Насреддина живым и многогранным.

Появление анекдотов, связанных с Ходжой Насреддином, известных в устной литературе тюркских народов, обусловлено его красноречием, находчивостью, сообразительностью,

защитой и поддержкой трудового народа от представителей господствующего класса. Он стал известен народу как человек, который помогал простым людям получить причитающееся им от богатых феодалов, угнетавших народ того времени. Появление анекдотов о Ходже Насреддине было вызвано его образом как красноречивого и находчивого человека, который поддерживал простой народ в борьбе с господствующим классом. Анекдоты возникли как отражение народной мудрости и стремления к справедливости, ведь он изображается как защитник трудящихся, помогающий им противостоять угнетению со стороны феодалов.

В 1970 году в Нукусе впервые на русском языке была издана книга под названием «Анекдоты Омирбека» в переводе Б. Привалова. В конце этой книги, вместо послесловия, представлена монография под названием «Анекдоты Омирбека и некоторые вопросы сатирико-юмористического фольклора»¹.

Эта книга была опубликована во второй раз в 1977 году.

Анекдоты тюркских народов связаны с легендарными персонажами, такими как Ходжа Насреддин (также известный как Насреддин афанди или Кожа Насыр) и Алдар Косе, а также с именами других любимых народом мудрецов, как Жиренше Шешен, Асан Кайгы и Омирбек Лаккы.

Алдар Косе известен не только в казахском фольклоре, но и в сказаниях и преданиях татарского и башкирского народов (Алдар (баш. и тат. Алдар –обманщик, тат. Алдар-Таз, Алдар-Күсә) – татарский и башкирский фольклорный персонаж, герой бытовых сказок). Говорят, что казахский Алдар Косе был высоким, привлекательным мужчиной с черными волосами, по какой-то причине на его лице не росла борода, потому его стали именовать Косе («безбородый»). Считается, что он жил в просторах между горами и степями, а у башкир существуют предания о том, что Алдар Косе обитал на берегах рек и озер в лесах.

Остроумие и смекалка Алдара Косе прежде всего направлены на изобличение и высмеивание самодуров-ханов, жадных баев, несправедливых биев, заботясь об интересах народа. Он делал это простым способом, используя силу слова, и, не противореча законам шариата, помогал им осознавать свои недостатки. Иными словами, мы можем понять без лишних объяснений, насколько сложно найти такие слова, которые заставляют человека задуматься и рассмеяться, используя находчивость, сообразительность, глубокомыслие и мастерство.

Способность вызывать смех за счет юмористических слов или ситуаций действительно в значительной степени зависит от мастерства и умения исполнителя. Это связано с тем, что комический эффект достигается не только самим текстом, но и такими факторами, как подача, интонация, мимика, время и артистизм.

Однажды ночью в дом Алдара Косе забрались воры. Алдар Косе, узнав о приходе воров, продолжал лежать, храпя, как спящий человек. Пока воры выносили вещи из дома, Алдар Косе, прижимая подмышкой войлок, на котором лежал, присоединился к ворам и ушел вместе с ними. В темноте воры не узнали Алдара Косе.

Добравшись до определенного места, Алдар-косе спрятал воров в чьей-то конюшне, где держали скот, а сам вышел наружу и запер вход в конюшню. Затем он сообщил людям в своем ауле, и они помогли поймать воров. Народ поблагодарил Алдара-косе за то, что он помог задержать воров. Алдар-косе, забрав свои вещи, вернулся домой [2.2]


Также имеются свидетельства о том, что цикл анекдотов о Ходже Насреддине популярен у народов Ближнего Востока и Средиземноморья, а также в Центральной Азии, в арабской, персидской, турецкой и среднеазиатской литературе, у народов Закавказья и Балкан [3.1]

Заключение. Подводя итог можно сказать следующее: сохранение анекдотов о Ходже Насреддине, Алдаре Косе и Омирбеке Лаккы является свидетельством их долговечности

как культурных фигур, и это значительно увеличивает вероятность того, что они останутся в истории на протяжении веков.

Литература:

1. С. Садырбаев *Қазақ халық әдебиеті. Алматы «Рауан» 1990. Стр.23.*
2. К. Максетов, Н.Камалов, К.Мамбетназаров. *Қарақалпақ халық аңызлары хәм анекдотлары. Нукус. «Қарақалпақстан» 1995. Стр.46-69.*
3. В.А.Гордлевский. *Избранные сочинения. Москва. 1961. К.С.Давлетов. Опроисхождении образа Ходжи Насреддина (канд.дисс.), Москва 1961.*
4. Ш.Халмухаммедов. *Анекдот как жанр туркменского фольклора (канд.дисс. автореферат), Ашхабад 1966.*
5. К.Максетов *Қарақалпақ халқының көркем ауыз еки дөретпелери. Нукус. «Билим» 1996. Стр. 214-217.*
6. К. Максетов. *«Қарақалпақ фольклористикасы». Нукус «Қарақалпақстан», 1989. Стр.153-155.*
7. Н.Даукараев *Шығармаларының толық жийнағы 2-том, Аўызеки халық творчествосы. Нукус «Қарақалпақстан», 1977. Стр.86.*
8. Леонид Соловьев. *Проблема народа в повести «О Ходже Насреддине» // Материалы второй и третьей научных конференций молодых ученых Узбекистана, вып. I, изд-во «Фан» Ташкент, 1970..*
9. *Роль анекдота в дилогии Л. Соловьева «О Ходжа Насреддине». сб. «Вопросы литературоведения и языкознания» // (Материалы третьей и четвертой конференций молодых ученых), Изд-во «Фан» , Ташкент, 1972.*



AYNUR AYDIN İBRAHİMOVA,

Azərbaycan Milli Bilimler Akademisi, Folklor Enstitüsü

“GO‘RO‘G‘LI” DOSTONIDAGI AYOL TİMSOLINING MİFOLOGİK ARXETİPLARI “KÖROĞLU” DESTANINDA KADIN İMGESİNİN MİTOLOJİK ARKETİPLERİ

Özet: Köroğlu destanı, kahramanlığı idealleştirme ölçeğinde halkın yaşayan bir geçmiştir. Bilimsel, tarihi değerinin yanı sıra sosyal, kültürel ve eğitimsel önemi de bununla bağlantılıdır. “Göroğlu” – “Köroğlu” destanları dizisi Kafkasya, Orta Doğu ve Orta Asya versiyonlarına bölünmüştür. Özbek “Göroğlu” destanları dizisi Özbekistan’da ve Afganistan’da Özbekler arasında yaygındır. Dizideki destanlar görece bir bağımsızlığa sahip olsalar da, bir dizi merkezi epik karakterle birleşirler: Destansı diyar Çenlibel (Çembil), Göroğlu, yiğit arkadaşları ve silah arkadaşı Gırat, her zaman onlarla bir arada olan kırk cesur adam, Ahmad Serdar, Sagibülbul, periler ve diğer imgeler destan dizisini birleştirip tamamlar ve onlara muazzam bir yorgunluk verir. Özbek “Göroğlu” destan dizisinde, kahramanların eşleri, Azerbaycan versiyonunda olduğu gibi kaçırılmış güzeller, han ve bey kızları değil, uzak, gizemli ve büyümlü ülkelerde yaşayan efsanevi perilerdir. Her iki versiyonda, savaş yüzyılı için savaş temaları, tüm halkların destansı eserlerindeki cesur elçiliğin konusu, kahramanın düğün gezisi, merkezde bir kadının yer alması yaygındır. Bu kadar arkaik ve özellikle yaygın olaylar arasında, erkekler ve kızlar arasındaki kahramanlık yarışlarından bahsedebiliriz. Son tür evlilik yarışması, savaşçı bir kızın imajıyla ilişkilidir. Daha arkaik formatlarında, bu imaj anaerikil aile ilişkilerini ifade eder. Kahramana yenilen savaşçı kız, nişanlısı veya karısı olur. Çenlibel’deki kadınların her biri kendi istekleri ve arzularıyla Çenlibel’e gelir, her birinin kendi destanı vardır. Bazen kahramanlar onları getirmek için düşman topraklarına giderler ve birçok macera ve kahramanlık gösterdikten sonra kıza kavuşmayı başarırlar. Çenlibel bir toplumdur ve çok adil bir toplumdur, kadın ve erkek arasındaki ilişki toplumda korunur.

Anahtar kelimeler: Köroğlu, destan, Çenlibel, kahraman, kadın, arketip

MYTHOLOGICAL ARCHETYPES OF THE FEMALE IMAGE IN THE EPIC OF KOROGLU

Summary: The epos “Koroglu” is a alive past of the people on the scale of the idealizing of heroism. Its scientific, historical values and at the same time its social, cultural and educational importance were connected with it. The series of the eposes “Goroglu” – “Koroglu” are divided into the versions of the Caucasus, Middle East and Central Asia. Uzbek series of the eposes “Goroglu” are spread widely on the territory of Uzbekistan and among the Uzbeks of Afghanistan. Although the eposes included in the series have a relative independence, they are united by a number of central epic characters: epic Chanlibel (Chambil) dwelling, Goroglu, his fighter friends and his battle friend Girat, forty brave men who are always together with him, Ahmed Sardar, Sagibulbul, houris and other images join a series of eposes, complete them and giving them monumental exhaustion.

In the series of Uzbek eposes “Goroglu” the wives of the hero are not kidnapped beauties, the daughters of Khan and noble men as in the Azerbaijani version, but they are legendary fairies living in distant, mysterious and magical countries. In both variants, along with the battle themes for the age of war, the plot of hero’s being a messenger, the hero’s marrying travel in the epic activity of all peoples are spread widely that in the center of it one can observe the woman. Among the more archaic and especially widespread such plots, we can mention specifically the fighting competitions between the boy and the girl. The last type of marriage competitions is connected with the image of a warrior girl. In its more archaic forms this image belongs to matriarchal family relations. The warlike girl who defeated the hero becomes his fiancée or mistress. Each of the women in Chanlibel comes there with her own wishes and desires, each has her own epos. Sometimes to bring them the heroes go to the enemy places, after making a lot of adventures and bravery, they manage to get the girl they want. Chanlibel is a society and is a very fair society and the relations of women and men are protected in the society.

Keywords: Koroglu, epos, Chanlibel, hero, woman, archetype

Türk halklarının ortak epik yaratıcılık örneklerinden biri olan “Köroğlu” destanı, kahramanlık pofusu, ideolojik içeriği, yayıldığı coğrafyanın genişliği, karakterler sisteminin zenginliği ve benzeri xüsusiyyetleri baxımından özellikle dikkat çeker. “Köroğlu” destanı, kahramanlığı idealize etme ölçüsünde halkın yaşayan bir geçmişidir. Bilimsel ve tarihsel değerinin yanı sıra, sosyal, kültürel ve eğitsel önemi de bununla bağlantılıdır.

Bilim insanlarının çoğunluğunun kanaatine göre, kadim Koroğlu mitinin epik bir yapıya doğru gelişimi, Yakın Doğu’daki Oğuz – Türkmen hegemonyasıyla (XIV–XV yüzyıllar) bağlantılı olmuştur. Sonraki aşamada Oğuzların yerleşik olduğu Anadolu, Azerbaycan ve Orta Asya bölgelerinde meydana gelen farklı siyasî-tarihî süreçler sebebiyle destan farklılaşmış, bu doğrultuda “Göroğlu” – “Köroğlu” destanlar dizisi Kafkasya, Orta Doğu ve Orta Asya varyantlarına ayrılmıştır.

Özbek “Göroğlu” destanları dizisi Özbekistan’da ve Afganistan’da Özbekler arasında yaygındır. Dizideki destanlar görece bir bağımsızlığa sahip olsalar da, bir dizi merkezi epik karakterle birleşirler: Destansı diyar Çenlibel (Çembil), Göroğlu, yiğit arkadaşları, silah arkadaşı Gırat, her zaman onlarla bir arada olan kırk cesur adam, Ahmad Serdar, Sagibülbül, periler ve diğer imgeler destan dizisini birleştirip tamamlar ve onlara muazzam bir yorgunluk verir.

Destanın Anadolu, Azerbaycan ve Orta Asya versiyonları ve versiyonları arasındaki farklılıklardan biri de imge sisteminde kendini gösterir. Bildiğimiz gibi, “Köroğlu” destanında kadın imgeleri geniş bir yer tutar. İster Azerbaycan (“Köroğlu”), ister Anadolu (“Köroğlu”), ister Orta Asya (“Göroğlu”, “Gurguli”) versiyonlarında olsun, kadın imgeleri büyük ölçüde üst sınıfın temsilcileridir; kahramanların eşleri, bilge danışmanları ve bazen de silah arkadaşları olarak hareket ederler. “Köroğlu” araştırmacılarından Yegana İsmayilova’nın yazdığı gibi, “Köroğlu” destanındaki tüm imgeler, seviyeleri ne olursa olsun, Kahraman ve Anti-Kahraman kutuplarına ayrılmıştır. Destandaki kadın imgeleri (daha doğrusu delilerin eşleri ve sevgilileri), Köroğlu ve delilerden oluşan Kahraman kutbunda yer alır (İsmayilova 2010: 88).

Her iki versiyonda, savaş yüzyılı için savaş temaları, tüm halkların destansı eserlerindeki cesur elçiliğin konusu, kahramanın düğün gezisi, merkezde bir kadının yer alması yaygındır. Bu kadar arkaik ve özellikle yaygın olaylar arasında, erkekler ve kızlar arasındaki kahramanlık yarışlarından bahs edebiliriz. Son tür evlilik yarışması, savaşçı bir kızın imajıyla ilişkilidir. Daha arkaik formatlarında, bu imaj anaerkil aile ilişkilerini ifade eder. Kahramana yenilen savaşçı kız, nişanlısı veya karısı olur. Çenlibel’deki kadınların her biri kendi istekleri ve arzularıyla Çenlibel’e gelir, onların her birinin kendi destanı vardır. Bazen kahramanlar onları getirmek için düşman topraklarına

giderler ve birçok macera ve kahramanlık gösterdikten sonra kıza kavuşmayı başarırlar. Çenlibel bir toplumdur ve çok adil bir toplumdur, kadın ve erkek arasındaki ilişki toplumda korunur.

Azerbaycan “Köroğlu”nda, erkeklere – delilere özgü birçok özellik kadınlara da atfedilir; bunlardan biri de saz çalıp söyleme ve şiir okuma yetenekleridir. Azerbaycanlı bilim insanlarının bulgularına göre, Azerbaycan halk destanlarında âşık, daha doğrusu saz çalabilen çeşitli kadın tipleri gözlemlenmek mümkündür:

1) Saz çalabilen, şiir okuyabilen ve aynı zamanda savaşçı olan kadınlar. Örneğin, “Muhammed ve Gülendām” destanındaki Gülendām, “Şah İsmail” destanındaki Arap Zengi, “Haydar Bey” destanındaki Süsenber vb.

2) Tamamen âşık olan veya âşıklığı ön planda olan kadınlar. Örneğin, “Valeh ve Zernigar”daki Zernigar Hanım, “Leyli Azizbey kızı” destanındaki Leyli vb.

3) Buta verildikten sonra veya âşık olarak saz çalma ve şiir söyleme yeteneğini kazanan kadınlar (örneğin “Âşık Garip”deki Şahsanem vb.).

4) Âşığın seferlerinde yardımcı olan kadınlar (çoğunlukla yaşlı kadınlar olarak tasvir edilirler) (Abbasov 2019: 51).

“Köroğlu” destanında ağırlıklı olarak birinci ve dördüncü tiplerle karşılaşırız. Azerbaycan “Köroğlu” destanındaki kadınların çoğu saz çalıp şarkı söyleyebiliyor. Destanda, en hüzünlü, en kırılgan anlarında, bazen de heyecanlı, en kaygılı anlarında, kadın kahramanların arzularını şiirsel bir dille dile getirdiklerini görüyoruz: “Köroğlu dönüp Nigar’a baktı. Nigar’ın bir halde olduğunu gördü, bir halde, elma gibi yanakları Semerkand kağıdı gibi beyazlaşmıştı. Ela gözleri bahar bulutları gibi doluydu. Yakut dudakları bir anda öylesine solmuştu ki, konuşamaz, donup kalmıştı. Köroğlu ağzını açmak üzereydi ki, Nigar Hanım ayağa kalktı. Ne Köroğlu’na ne de delilere baktı, yavaş yavaş tepenin ta ucuna geldi. Eyvaz’ın gittiği yollara, başı uzaktaki karlı dağlara Baküyordu. Saçlarından üç tel ayırıp mermer göğsüne bastırarak şöyle dedi...” (Köroğlu 1965: 128-129).

Aşk ilişkileri Azerbaycan “Köroğlu”nda o kadar geniş bir yer kaplar ki, bazıları bu tür “Köroğlu” kollarının ayrı bir grup olarak sınıflandırılmasını bile önermiştir. Örneğin, Azerbaycan’da “Köroğlu” araştırmacılarından biri olan Ferhad Ferhadov, “Köroğlu” destanının kollarının 3 gruba ayrılabilceğini belirtmiştir:

1) Düşmanlara karşı savunma ve karşı saldırıyı yansıtan seferler (örneğin, “Köroğlu ve Bolu Bey”, “Tokat Seferi”, “Hasan Paşa’nın Çenlibel’e Gelişi” vb.).

2) Güzel kızları ve delileri Çenlibel’e getirmeyi amaçlayan seferler (Örneğin; “İstanbul Seferi”, “Erzurum Seferi”, “Türkmen Seferi” vb.).

3) Çeşitli olaylarla, beklenmedik ve olağanüstü durumlarla ilgili seferler (örneğin, “Köroğlu’nun Bağdat Seferi”, “Kulun Kaçışı”, “Durat’ın Kayboluşu” vb.) (Ferhadov 1968: 32).

Profesör Rüstem Rüstemezade, “Köroğlu”ndaki kadın karakterleri de ele almış ve bağımsız olarak seslendirdiği kol-destanları ayrı ayrı değerlendirmiştir. 2007 yılında yayınlanan “Mehbbet Destanları” adlı kitabına, 1980’lerde Azerbaycan’ın Tovuz bölgesindeki Hatınlı köyünde kaydedilmiş bir “Köroğlu” öyküsünü de dahil etmiştir. “Köroğlu’nun Eşleri” adlı bu öykü, Köroğlu’nun eşleriyle şiirsel bir sohbetinden oluşan bir bölümdür. R. Rüstemezade ayrıca bu bölüm hakkında kapsamlı bir betimleyici-bilgilendirici yorum yazmıştır (Rüstemezade 2007: 491-497).

“Köroğlu” destanındaki olayları tarihsel ve toplumsal açıdan yorumlayan bilim insanlarına (M. Caferli, F. Ferhadov, P. Efendiyev, A. Nebiyev ve diğerleri) göre, destandaki kadınlar, feodal toplumdaki ahlaki ve kültürel sıkıntıları dile getiren “protestocu” karakterlerdir: “Dolayısıyla, destandaki deliler alt kastın temsilcileridir ve kadınlar ise yönetici sınıfın temsilcileridir. Delilerin toplumda maruz kaldıkları baskı ve yaşadıkları zorlu ahlaki yaşam onları isyana iter: deliler Köroğlu’na katılır ve baskıya karşı mücadele ederler. Hanımların maddi sorunları yoktu, onları Çenlibel’e getiren manevi sıkıntıydı. Çenlibel’e gelen tüm kadınlar babalarının veya erkek kardeşlerinin zu-

lmüne karşı çıkarlar” (Caferli 2007: 86-87). Örneğin, buna örnek olarak M. Caferli, Nigar Han’ın verdiği beyitin tahlilinde şöyle yazar: “Şiirin son kıtası toplumsal bir motife dayanmaktadır:

“Men hotkar kızıyam, Niga`rdır adım,
Şahlara, hanlara mehel koymadım.
Bir sensen dünyada benim muradım,
İsterem özüne eyle yar meni!”

Görüldüğü gibi Nigar aslında bir hükümdarın kızı olmama rağmen bu sınıfın toplumsal ahlakını kabul etmediğini ilan etmektedir. “Kralı hiçe saymak” psikolojik bağlamda bir kralın veya hanın oğullarını sevmemek anlamına geliyorsa, toplumsal bağlamda da “krallığı” veya “hanlığı” sevmek anlamına gelir. Bu durumda “Dünyada tek arzum sensin” dizesi, Nigar Hanım’ın Köroğlu şahsında vücut bulan toplumsal düşüncüyü hayat inancı olarak ilan ettiği anlamına gelmektedir” (Caferli 2007: 90-91).

Azerbaycan “Köroğlu”ndaki en çarpıcı kadın karakter, Köroğlu’nun eşi Nigar Hanım’dır. Nigar Hanım, destansı ideal kadın tipinin açık bir örneğidir. Özbek “Göroğlu”nun “Şahdarhan Kolu”nu inceleyen Erhan Solmaz’ın da belirttiği gibi, ideal eş tipi, “Köroğlu”/“Göroğlu” kollarında karşılaştığımız olumlu tiplerden biridir (Solmaz 2020: 48). Bunlar, kendilerine verilen görevle kahramanın yolculuğunda ona destek olan en önemli tipler arasındadır (Fedakâr-Aksoy 2019: 110).

Nigar Hanım, Osmanlı padişahının kızı olmasına rağmen sarayın zincirlerinden kurtulan, kendi hayatını belirleyen, özgürlüğü seven, iradeli ve hayatı seven bir karakterdir. Nigar Hanım, Çenlibel’deki en yüksek statüye sahip kadındır. Köroğlu’nu azarlayabilen ve eleştirebilen tek karakterdir.

Özbek “Göroğlu” destan dizisinde, kahramanların eşleri, Azerbaycan versiyonunda olduğu gibi kaçırılmış güzeller, han ve bey kızları değildirler. Türkmen ve Özbek versiyonlarına göre, Köroğlu’nun eşleri – Yunus Peri, Miskal Peri ve Gülnar Pari - mitolojik varlıklarla ilişkilidir. Peri Ağayunus (Yunus), üç yüz altmış peri kızıyla birlikte “Kap” (“Kaf”) dağında yüksek bir kulede yaşamaktadır (<https://www.kitaphana.net/book/1725/read>).

İsimlerindeki “peri2 unsuru, mitolojik güçlerle olan bağlantılarına da işaret eder. Azerbaycan versiyonunda, “Ağcakuzu” dalında da benzer bir imge yer alır: Köroğlu’nun Ağcakuzu adlı delisinin aşık olduğu Perizad Hanım, “İsmi-azam” okur, kılık değiştirir, aslana dönüşür ve ormanlarda ve dağlarda yaşar (Köroğlu 2021: 242-247).

Yunus perisi, doğaüstü varlıklarla ilişkilendirilse de, Azerbaycan “Köroğlu”ndaki Nigar Hanım ile aynı karakter ve işleve sahip bir karakterdir. Destanın farklı versiyonlarında, kahramanlara rehberlik eden bilge kadınlar ve delilere annelik eden başka karakterler de vardır. İlginç bir şekilde, Azerbaycan versiyonunda genç Köroğlu’na akıl veren ve yol gösteren baba Alı bir erkekken, Türkmen-Özbek versiyonlarında bu işlevi, büyükbabası Cıgalı Bey ile birlikte Köroğlu’nu büyüten anne Gülenam üstlenir.

Kahramanlık destanının doğasına uygun olarak, Köroğlu’nun Azerbaycan ve Özbek versiyonları da dahil olmak üzere tüm versiyon ve varyatlarında, kadınların eş seçerken değer verdiği ilk özellik cesaret ve kahramanlıktır. Köroğlu’na veya onun delilerine (Eğer yiğitsense, get götür beni) evlenme teklifleri bir kahramanlık sınavı niteliğindedir. Kahraman, düşman şehrine gelip onunla karşılaşmalı, kahramanlık göstermeli, rakipleriyle savaşmalı ve kazanmalıdır.

Azerbaycan “Köroğlu”nda, kahraman bir kadın tipi olan Telli Hanım, Aşık Cünun’u hapisneden kurtarmak için savaşçı kılığına girer, “altan yeyinib, üstden gıfillanır, üstden geyinib altdan gıfillanır, kılıç kurşanır, nize asır, emud götürür” (Köroğlu 1965: 63), tek başına bekçileri öldürür ve Köroğlu’nun âşığını serbest bırakır. Bu noktada kendini Köroğlu olarak tanıtarak şehirde paniğe neden olur. “Bundan sonra kendin hakkında beş şey söylediğinde, bizden de bir şey söylesin!” diye Köroğlu’na bir mesaj gönderir.

Köroğlu/Göroğlu destanının Azerbaycan ve Orta Asya versiyonlarındaki kadın karakterlerden bahsederken, özellikle yaşlı kadın karakterlerinden bahsetmek isteriz. Yaşlı kadınlar, farklı kollarda ve varyantlarda hem olumlu hem de olumsuz karakterler olarak rol alırlar ve bu da daha karmaşık bir anlambilime sahip olduklarını gösterir. Aşık ile sevgili arasında aracılık etmenin yanı sıra, bazen kahramanları kötü karakterler olarak yok etmeye çalışırlar. Özbek-Türkmen versiyonunda ise, mitolojik şemaya göre Göroğlu, Ağayunus ile evlenmek için başka bir dünyaya – “periler dünyasına” - girmelidir. Bu dünyaya giriş, kalenin ağzında duran ejderha ve yaşlı kadın Kempir gibi efsanevi yaratıklar tarafından da engellenir.


Yaşlı kadın imgesinin ikili yapısı Azerbaycan halk masallarında daha açık bir şekilde görülmektedir. Azerbaycan halk masallarını inceleyen Ramazan Gafarlı, “Yaşlı kadının vahşi hayvanlar ve orman yaşamıyla olan ilişkisi nedeniyle, eski zamanlarda ölümler dünyasının ve hayvanlar âleminin sahibi olarak düşünüldüğünü” yazar (Gafarlı 2019: 109).

Azerbaycan destanının birçok versiyonunda, Köroğlu’na karşı çıkan savaşçı kadınlar yer alır. “Köroğlun Aypara” kolunda Sanem Hanım, aşkını reddettiği için ordu komutanı olarak Köroğlu’na karşı savaşır (Köroğlu 2021: 239).

Görüldüğü gibi, Azerbaycan ve Özbek-Türkmen versiyonlarında kadın karakterler, mitolojik anlamları ve destandaki işlevleri nedeniyle tipolojik bireysellikler sergileyebilmektedir. Çoğu, Köroğlu/Göroğlu veya deliler gibi ön planda ve ana karakterlerde yer almasa da, olay örgüsünde ve olayların gelişiminde önemli bir yere sahiptirler.

KAYNAKÇA:

1. Abbasov 2019 – E.H.Abbasov. *Azerbaycan Halk Destanlarında Kadın Aşık Tipi // II Uluslararası Develi, Âşık Seyrânî ve Türk Kültürü Kongresi «Türk Kültürü Bildirileri», 3. kitap. Develi, s.50-52.*
2. Caferli 2007 - M.Caferli. *Dastan Yaradıcılığı. Bakü: Elm.*
3. Ferhadov 1968 – Ф.Фархадов. *Закавказская версия эпоса “Кероглы”. Автореф. дисс. Баку.*
4. Fedakâr-Aksoy 2019 – S.Fedakar, H.Aksoy. *Türk Destanlarındaki Kadın Tiplerinin Tespiti ve Tahlili: Kırgız Destanları Örneği // Ankara, Milli Folklor Dergisi, sayı 124, ss. 105-120.*
- Görogly eposy – <https://www.kitaphana.net/book/1725/read>
- İsmaylova 2010 – Y.İsmaylova. *“Köroğlu” Destanının Образlar Sistemi. Bakü, Nurlan.*
5. Köroğlu 1965 – Köroğlu. *Düzenleyeni: M.Tehmasib. Bakü, Azerbaycan Devlet Neşriyyatı*
6. Köroğlu 2021 – Köroğlu. *Düzenleyeni: E.Esger. Bakü, Elm ve Tahsil.*
7. Gafarlı 2019 – R.Gafarlı. *Mifologiya, II cild. Bakü, Elm ve Tahsil.*
8. Rüstemzade 2007 – R.Rüstemzade. *Mehebbet Destanları. Gence: Gence Poligrafiya.*
9. Solmaz 2020 – E.Solmaz. *Özbek Köroğlu Destanı’nın Şahdarhan Kolu Üzerine Bir İnceleme. İstanbul, Gazi Kitabevi.*



VAZIRA DAVIROVA,

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

XALQ MAQOLLARINING NASHR ETILISHI TARIXIDAN

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollarining to'planishi va nashr etilishi tarixi bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Tadqiqot XI asrdagi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asaridan boshlab, XIX – XX asrlarda Herman Vamberi, N.P.Ostroumov kabi xorijlik tadqiqotchilarning, shuningdek, Bekjon Rahmon, Sherali Ro'ziyev, H. Zarifov, M. Afzalov va T. Mirzayev singari o'zbek folklorshunoslarining maqollarni jamlash va nashrga tayyorlash borasidagi faoliyatini yoritadi. Maqolada o'zbek xalq maqollarining o'zbek hamda xorij olimlari tomonidan o'rganilishi va nashrga tayyorlash masalalari haqida so'z yuritiladi. Maqola o'zbek maqollarining ilk manbalardan tortib zamonaviy ilmiy nashrlargacha bo'lgan tarixiy jarayonini ixcham va tizimli ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: o'zbek maqollari, paremiologiya, folklor, maqollar to'plami, xalq og'zaki ijodi, nashr tarixi, maqol, topishmoq, afsona, ertak, qo'shiq, urf-odat.

Аннотация: В данной статье поэтапно анализируется история собирания и издания узбекских народных пословиц. Исследование охватывает период от XI века — начиная с труда Махмуда Кашгарии «Девону лугати-т-турк» — до деятельности зарубежных исследователей XIX–XX веков, таких как Герман Вамбери и Н. П. Остроумов, а также узбекских фольклористов Бекжона Рахмона, Шерали Рузиева, Х. Зарифова, М. Афзалова и Т. Мирзаева, занимавшихся сбором и подготовкой пословиц к публикации. В статье рассматриваются вопросы изучения узбекских народных пословиц узбекскими и зарубежными учёными, а также проблемы подготовки их к изданию. Работа представляет ценность благодаря компактному и системному изложению исторического процесса развития узбекских пословиц — от ранних источников до современных научных публикаций.

Ключевые слова: узбекские пословицы, паремология, фольклор, сборники пословиц, устное народное творчество, история издания, пословица, загадка, легенда, сказка, песня, обычаи.

Jahon maqolshunosligida muayyan xalqning milliy-madaniy, tarixiy, diniy, ruhiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, hayotiy turmush-tajribalarining benazir in'ikosi bo'lgan maqollarni folkloristik-lingvistik jihatdan tadqiq qilish, ya'ni ularning mantiqiy-falsafiy hamda didaktik-lingvistik xususiyatlarini yoritish, shakllanish manbalari, etimologiyasini ochib berish, maqollarni xalqning kundalik hayoti, maishiy dunyoqarashi, qadriyat va an'analari, urf-odatlar bilan bog'liq holda tadqiq etish bu kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Jahon paremiologiyasidagi xalq maqollariga doir ilmiy-nazariy qarashlarni umunlashtirish, qardosh va noqardosh xalqlarda ko'p asrlar davomida shakllangan va to'plangan xalq maqollarni qiyoslash-chog'ishtirish masalalariga katta ahamiyat berilishi ham bejiz emas, albatta. Shunga ko'ra xalq maqollari nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik, balki folklorshunoslik nuqtayi nazaridan: ularning struktur-semantik, milliy-mental, kognitiv va universal xususiyatlarini aniqlash yuzasidan ham o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda.

Xalq maqollarini to‘plash va hayot qonuniyatlari sifatida keyingi avlodlarga yetkazish masalasi juda qadimdan dolzarb va muhim vazifa sanalgan. Jahon maqolshunosligi hamda lug‘atshunosligiga e‘tibor qaratilsa, xalq maqollarini yozib olinish tarixi ancha olis davrlarga borib taqalgani ma‘lum bo‘ladi. Bu borada jahon paremiologiyasida ancha ishlar amalga oshirilgan.

Jumladan, o‘zbek xalq maqollarining to‘planishi va nashr etilishi masalasi borasida ham talaygina ishlar amalga oshirilgan. Aslida, xalq maqollarini to‘plash, saralash, variant va versiyalarini chog‘ishtirib, asl maqol variantlarini aniqlab nashrga tayyorlash ancha muammoli va murakkab jarayon sanaladi. O‘zbek xalq maqollari dastlab, ma‘lum bir asar yoki to‘plam tarkibida jamlanib nashr qilingan bo‘lsa, XX asr boshlarida e‘tiboran alohida to‘plam sifatida nashr qilina boshlandi.

Biz o‘zbek paremiologiyasi va ilk xalq maqollarining jamlanmasi sifatida XI asrda yaratilgan ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnografi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari ko‘z oldimizga keltiramiz. Mahmud Koshg‘ariy faoliyati va sa‘y-harakati natijasida o‘sha davr uchun xos xalq turkiy xalq maqollarining 295 tasi hozirga qadar saqlanib qolgan. Devonda xalq maqollari maxsus to‘plam sifatida jamlanmagan bo‘lsa ham, o‘rta asrlardagi xalq maqollarining shakli va mazmuni haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarini tadqiq etuvchi olimlar asar tarkibidagi xalq maqollarini saralab, alohida tadqiqotlar yaratdilar hamda to‘plamlar nashr ettirdilar. Bunday kichik risolalardan biri turk olimi Najib Osim tamonidan amalga oshirildi. Bu haqda A.Fitrat shunday deydi: “Devoni lug‘ot”ning ko‘p so‘zlari ostida maqollardan, she‘rlardan dalillar, toniqlar keltirilgan. Bular to‘qquz-o‘n asr burung‘i turk adabiyotining eng qimmatli namunalaridir. Turkiyot bilan mashg‘ul bo‘lg‘anlar bu she‘rlarg‘a, bu maqollarg‘a shuning uchun juda katta ahamiyat beradir. Usmonli turkshunoslaridan Najib Osim afandi “Devonu lug‘ot”dag‘i maqollarni olib izoh qilg‘an edi” [1.12.]. Demak, “Devon”dagi maqollarni ilk bor bir joyda jamlagan va ularning ma‘nosini o‘rganishni turk tarixchisi va tilshunosi Najib Osim boshlab bergan. Najib Osim 1924-yilda o‘zining “Eski savlar” nomli kitobini e‘lon qildi [12.]. Mazkur kitobda olim ilk bor “Devonu lug‘ati-t-turk” asaridagi 274 ta xalq maqollari jamlanadi va ularning har biriga maxsus izoh beriladi. Najib Osim mazkur asarni Kilislik Rifat Bilge tomonidan turk tiliga tarjima qilingan kitobidan foydalanadi. Asar turk tilida, 176 betni tashkil etadi. Najib Osim kitobning kirish qismida shunday yozadi: “Turk xalqi sav (ya‘ni ibratli so‘z) va otalar so‘ziga, ya‘ni xalq maqollariga tarixan katta e‘tibor qaratgan bo‘lib, bu kabi hikmatli jummalarni o‘zlashtirgan kishilarni donishmand va hikmat sohibi sifatida baholagan. Maqollarga amal qilmagan kishilarni yovvoyilar qatoriga qo‘shganlar va hikmatga hurmat ko‘rsatishni ijtimoiy qoidaga aylantirganliklari ko‘zga tashlanadi. Mazkur asarda jami 764 misra va taxminan 300 ga yaqin maqol (sav) keltirilgan bo‘lib, ular o‘sha davr turk jamoalari badiiy tafakkuri va og‘zaki ijodiyoti haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi” [13.].

Abdurauf Fitrat Najib Osimning mazkur risolasini o‘rgangach, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarini adabiy-tanqidiy nuqtai nazardan o‘rganishga kirishdi va 1927-yilda “Eng eski turk adabiyoti namunalari” nomi bilan risola e‘lon qildi. Mazkur risolada Fitrat dastlab Mahmud Koshg‘ariy haqida ma‘lumot berib, uning qomusiy olim ekanligini ta‘kidlaydi. Asarning ilmiy qimmatini alohida e‘tirof etib, shunday deydi: “Devoni lug‘ot”ning ko‘p so‘zlari ostida maqollardan, she‘rlardan dalillar, toniqlar keltirilgan. Bular to‘qquz-o‘n asr burung‘i turk adabiyotining eng qimmatli namunalaridir. Turkiyot bilan mashg‘ul bo‘lg‘anlar bu she‘rlarg‘a, bu maqollarg‘a shuning uchun juda katta ahamiyat beradir” [1.12.]. Abdurauf Fitrat mazkur risolada “Devonu lug‘oti-t-turk”dagi manzum va mansur parchalarni kiritib, ularning janriy tabiati, adabiy xususiyatlarini talqin qilgan. “Devonu lug‘oti-t-turk” izohli lug‘at bo‘lishi bilan bir qatorda, qadimgi turk adabiyoti va og‘zaki ijodiga mansub noyob asardir degan xulosaga kelgan.

Olim devondagi she‘riy parchalarni davriy va mazmuniy jihatdan o‘rganadi. Kitob uch bobga bo‘lingan. Birinchi bobni turk alplariga atalgan marsiyalarga bag‘ishlaydi. Ikkinchi bobda pand-

nasihat, odob-axloqqa doir xalq satrlariga e'tibor qaratadi. Uchinchi bob esa lug'at bo'lib, shu qo'shiqlar tarkibidagi so'zlar izohi va sharhiga bag'ishlanadi.

“Devonu lug'oti-t-turk” asaridagi xalq maqollariga alohida e'tibor qaratgan yana bir olim S.Mutallibov sanaladi. Uning fikriga ko'ra, “XI asrda bir shahar bilan ikkinchi shahar xalqlari, bir qabila bilan ikkinchi qabila a'zolari o'rtasida aloqa munosabat kuchaysa-da, biroq tilda xilma-xillik hukmron edi. Bunday holatlarga barham berish, tilda ma'lum normalar yaratish kabi ulug' va g'oyat sharaflı ishga ehtiyoj tug'iladi. Ana shu talabga javoban Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'oti-t-turk” asarini yozdi” [1.115.]. O'zbek tilshunosi S.Mutallibov devonni o'zbek tiliga sharhlari bilan tarjima qilar ekan undagi xalq maqollariga alohida e'tibor qaratadi. Asar tarjimasidan so'zng maxsus izohlar kiritilgan “Indiks”da devoda mavjud qadimgi turkiy qavmlarga tegishli bo'lgan maqollarni alohida ajratib har biriga maxsus izoh beradi.

O'zbek xalq maqollariga qiziqqan va ilk bor nashrga kiritgan xorijlik olimlardan biri Herman Vamberi bo'lib, u Xorazm xonligi va Buxoro amirligining tarixi, madaniyatini o'rgangan. Herman Vamberi o'zbek xalq og'zaki ijodiga qiziqib, ertak, afsona, rivoyat, jumladan, xalq maqollarini yig'ib nashr ettirgan. “Uning 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan “Chig'atoy tili darsligi” xrestomatiya-lug'atiga folklor va adabiyotning ayrim namunalari qatori 112 ta o'zbek maqoli kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjiması ham berilgan [6.7.]. Nemis va o'zbek maqollarini qiyosan o'rganayotgan tadqiqotchi F.Bafojev shunday ma'lumot beradi: “Dastlab, 1865-yilda Vengriya davlat Fanlar akademiyasining filologiya bo'limi chop etgan “Tilshunoslik axboroti”ning 271-315-sahifalarida o'zbek folkloridan materiallar, jumladan, 44 maqol, shuningdek, bir qancha ertak va topishmoqlar ham nashr etilgan edi. Bu chet ellarda o'zbek folkloriga qiziqishning ortib borayotganidan darak berardi. Oradan ikki yil o'tib, venger olimi Herman Vamberi ham o'z kitobida o'zbek xalq maqollaridan namunalar e'lon qiladi” [2.33.]. H.Vamberi o'zbek maqollarini yig'ibgina qolmay, ularni o'z ona tiliga tarjima qilib, izohlashga ham harakat qiladi. Bu haqda adabiyotshunos Bahodir Karim, “Ma'lumki, Herman Vamberi 1863-1864 yillarda darvesh qiyofasida O'rta Osiyoga keladi. Imkoni doirasida manbalarni yig'ib, o'zi bilan olib ketadi. “O'rta Osiyoga sayohat” kitobidan keyin ko'p o'tmay Vamberining “Chig'atoy tili saboqlari” nomli yana bir kitobi bosiladi. Vamberi shu kitobining “Xrestomatiya” qismida bundan roppa-rosa bir yarim asr oldin, ya'ni 1867-yilda xalq og'zaki ijodining eng kichik janrlaridan biri – o'zbek maqollaridan 112 tasining aslini o'zbek-arabiy hamda lotin imlosida, shuningdek, davomidan olmon tiliga tarjimasini beradi”[3.178.], – deb yozadi. H.Vamberining o'zbek xalq maqollari kiritilgan “Chig'atoy tili darsligi” kitobi ilk bor 1867-yilda Leypsig (Germaniya)da chop etilgan bo'lsa, mazkur kitob 1975-yilda Amsterdam (Niderlandiya)da qayta nashr qilingan. Olim ushbu kitobining so'z boshida shunday yozadi: “Xitoydan Dunaygacha bo'lgan xalqlarning tillari, ularning ichki va tashqi munosabatlari, keyingi taraqqiyoti – hammasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir... Bir paytning o'zida ikki e'tiqodda bo'lish juda og'ir ekan. Turkistonning sahro va o'tloqlarida yalangoyoq, darvesh qiyofasida yurib, til va adabiyotiga oid qimmatbaho materiallar yig'ib kelganim uchun hech kim hech narsa demasa kerak. Ularning fan rivoji uchun ahamiyati kattadir, degan umiddaman”[5.10.].

“Chig'atoy tili darsligi”da “Bir qancha o'zbek maqollari” sarlavhasi ostida keltirilgan o'zbek xalq maqollari hech qanday qoidaga amal qilmay (alifbo yoki mavzu tartibida), raqamlangan holda avval eski o'zbek va lotin yozuvida o'zbek tilida, so'ng ularning tarjiması nemis tilida berilgan. Bu haqida F.Bafojev shunday deydi: “Olim maqollarni avval arab va lotin alifbosida kiritadi.

تام نينك قولاغي بار.

Tamning kulagi bar,

Die hat auch Ohrn.

Ba'zi maqollardan so'ng qavs ichida yoki havola shaklida qo'shimcha izohlar ham berib o'tilgan. Ammo ularning hammasi ham maqol ma'nosini to'g'ri va to'liq ochib bermagan" [2.34.].

O'zbek xalq maqollarini to'plash va nashr ettirishga o'z hissasini qo'shgan yana bir xorijlik olim N.P.Ostroumov bo'ladi [11.]. U XIX asr oxirlarida Turkiston o'lkasi etnografiyasini o'rganishga kirishadi, og'zaki ijod namunalarini yig'a boshlaydi. Bu haqda uning o'zi shunday yozadi: "Mahalliy aholining maqol, topishmoq, afsona, ertak, qo'shiq, urf-odat, o'yinlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish biz uchun mahalliy aholining psixologiyasini tushunishga yordam beradi va ular hayotining turli qirralarini anglash uchun kalit vazifasini o'taydi" [7,110]. N.Ostroumov to'plagan materiallarini "Сарты. Этнографические материалы" nomi bilan chop ettirdi. Risola uch jildidan iborat bo'lib, 1891-1895-yillar oralig'ida Toshkentda "Ф. и Г. Бр. Каменские" litografiyasida chop etilgan. To'plamning birinchi jildida mahalliy aholi ziyolilari va rus-tuzem maktabi o'qituvchilari tomonidan yozib olingan maqollarning 1100 tasi eski o'zbek yozuvida berilgan. Uchinchi jild esa to'laligicha o'zbek xalq maqollari va topishmoqlariga bag'ishlangan. Bu to'plamda N.Ostroumov mingta maqolni rus tiliga o'girib, 21 mavzu ostida bergan. Bundan tashqari, XIX asrning yirik shoiri Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarini yanglishib, maqollarga asoslangan xalq ertagi deb, "Сова, сыч и филин" nomi bilan risola so'ngida joylashtiradi. Ertakdan so'ng o'zbek xalq maqollari haqidagi ilmiy va amaliy qarashlarini "Sartlarning maqol, matallari haqida ba'zi mulohazalar" ("Несколько замечаний относительно пословиц и поговорок сартов") maqolasida bayon etadi. Maqola o'zbek xalq maqollarining o'ziga xosligi, ularning shakllanish omillari, shakli va badiiyati haqidagi rus olimining ilk ilmiy qarashlari bayon etilgani bilan g'oyatda qimmatlidir.

N.P.Ostroumov xalq maqollari va matallarining tadqiqida rus folklorshunoslarining fikriga tayanib ish ko'radi. Jumladan, xalq maqollarini to'plash va nashr ettirish xususida V.Dalning ko'rsatmalariga amal qilsa, maqol va matallarni o'zaro farqlashda prof. F.Buslayev, prof. A.Potebnya fikrlariga tayanadi. To'g'ri, bu olimlarning rus maqollari va matallari xususida qilgan ishlari tahsinga sazovor, biroq ularning bu qarashlarini to'laligicha o'zbek xalq maqol va matallarida qo'llash hamisha ham o'zini oqlayvermaydi. Afsuski, keyinchalik ham folklorshunosligimizda bu qarash davom etdi, shu bois o'zbek maqol va matallarini farqlashda haligacha bir qarorga kelinmadi.

N.P.Ostroumov o'zbek xalq maqollarining shakllanish omillarini ham bir qadar tadqiq etishga harakat qiladi. Olim xalq maqollarining genezisi haqida fikr bildirib, shunday deydi: "Sartlarning maqol va matallari kelib chiqishi o'ziga xos qadimiy tarixiga ega. Sart maqollarining aksariyati umumturkiy bo'lib, boshqa turkiy xalqlarda ham qo'llanadi. Shuning uchun aynan bir maqol qirg'izlar, tatarlar va turklar nutqida ham uchraydi. Ba'zi maqollar sartlar bilan yonma-yon yashaydigan fors-tojik tillaridan o'zlashgan". [7,114] Darhaqiqat, o'zbek xalq maqollarining ildizi qadimgi turkiy xalqlarning ilk ibtidoiy davrlariga borib taqaladi.

Olim o'zbek xalq maqollarining shakllanishida uchta asos mavjud deb qaraydi: "Sartlarning kelib chiqishi umumturkiy bo'lgani kabi ularning maqol va matallarining ham shakllanishi umumiylik kasb etadi. Shuning uchun sart maqollaridagi mazmunni faqat sartlarning maishiy hayotiga tegishli deyish to'g'ri emas. Shunday bo'lsa-da, ularni o'rganish alohida e'tibor talab qiladi. Chunki ular sartlarning ma'naviy merosini tashkil qiladi" [7,114]. Ko'rinadiki, xalq maqollarining asosiy qismi xalqning maishiy hayot tajribalari asosida shakllanadi, ikkinchidan, xalqning diniy qarashlari va e'tiqodi ham xalq maqollarining shakllanishiga asos bo'ladi. Uchinchidan, yozma adabiyot ham xalq maqollarining paydo bo'lishida yetarlicha asos bo'lishini aytib: "Sart maqollarining shakllanishida diniy e'tiqod bilan birga, dinga alohida e'tibor bilan yondashgan va xalq orasidan yetishib chiqqan buyuk shoirlar So'fi Olloyor, Hazrati Yassaviy kabi ijodkorlarning ham ta'siri kattadir" [7,118], – deya ta'kidlaydi.

Xullas, rus missioneri N.P.Ostroumov o'zbek maqolshunosligida o'zining ilmiy va nazariy qarashlari bilan alohida o'rin tutadi. U xalq og'zaki ijodi materiallarini yig'ishdan va tadqiq etishdan ijtimoiy-siyosiy maqsad ko'zlagan bo'lsa-da, o'zbek folklorshunosligida xalq qo'shiqlari, ertaklari, maqollari, topishmoqlarining ilk bor yig'ilishi va nashr qilinishiga o'z hissasini qo'shdi [9,188].

Asl ismi Mulla Bekjon Rahmon o'g'li bo'lgan jadid adabiyotining yorqin namoyanda Bekjon Rahmon, Xorazm xalq respublikasi va "Yosh xivaliklar" ijtimoiy harakatining yetakchi vakillaridan bo'lgan. U ko'p qirrali yetuk olim bo'lib, jadid, siyosatchi, maorif noziri, adabiyotshunos, musiqashunos, folklorshunos sifatida tanilgan. Mulla Bekjon haqida folklorshunos olim S.Ro'zimboyev quyidagicha ma'lumot beradi: "1913-1918 yillarda Mulla Bekjon Istambul seminariyasida diniy va dunyoviy bilimlar bo'yicha tahsil oldi. Bunga qadar u yerda o'zbek adiblari Fitrat, Abdurahmon Sa'diy, Usmon Xo'ja va boshqalar o'qigan edilar. Mulla Bekjonning Turkiyada bo'lishi uni Ismoil Gaspirali boshchiligidagi yosh turklar harakati g'oyasi bilan oshno qildi. Natijada, u Xivaga kelib, "Yosh xivaliklar" safiga qo'shilib jadidchilik harakatini targ'ib qila boshladi".

To'plamning kirish qismida olim shunday yozilgan: "Do'rd-besh oy ichida qilg'on emgak orqasida yig'nab bilgan maqollarimizni alifbo tartibida boblarga ayirub, har maqolning bosh harfini e'tibora olub o'z bobina yozduk. Barchasi "577" durulidan iborat bo'lg'on maqollarni "O'zbekcha otalar so'zi" deb adab, siza sunduq. Bizdan so'ramoqlarni go'rsatmak, yoshlardan g'ayrat". demak, Bekjon Rahmon mazkur to'plamdagi maqollarni 4-5 oy ichida o'zi to'plagan va nashrga tayyorlagan. Bu haqda akademik T.Mirzayev quyidagicha ma'lumot beradi: "Xalq maqollarini sovet davrida ham to'plash va o'rganish dastavval kichik-kichik maqol to'plamlari nashr etishdan boshlandi. Shundaylardan dastlabkisi Xorazm materiallari asosida tuzilgan to'plamdir. Unda 564 ta maqol alfavit tartibida joylashtirilgan bo'lib, "Xalq adabiyoti" nomida kichik so'zboshi ham berilgan" [4,9].

Hozirgi o'zbek maqolshunosligining yangi davri bevosita xorazmlik jadid Bekjon Rahmon nomi bilan bog'liqdir. Mulla Bekjon o'zbek adabiyotshunosligi, musiqashunosligi, tilshunosligi va folklorshunosligiga oid yirik ilmiy tadqiqotlar yaratgan. Uning "O'zbekcha otalar so'zi" nomli to'plami o'zbek xalq maqollarining ma'lum bir jamlanmasi sifatida ilk bor nashr qilingan to'plamlaridan biri sanaladi.

Oradan biroz vaqt o'tib, ya'ni 1926-yilda o'zbek xalq maqollarining yana bir kitobi Moskvada SSSR xalqlari markaziy nashriyotida chop etildi. Bu kichik maqollar to'plamini yig'ib nashrga tayyorlovchi farg'onalik folklorshunos Sherhali Ro'ziyev edi [10]. Mazkur to'plamga Farg'ona vodiysi, asosan, Qo'qon atroflaridan to'plangan maqollar alifbo tartibida kiritilgan. Sherhali Ro'ziyevning faoliyati va ijodi haqida boshqa ma'lumot mavjud emas. Qo'limizda mavjud to'plamning ham so'z boshisi yo'q, faqat 711 ta maqolning eski o'zbek yozuvi asosida alifbo tartibidagi matni saqlanib qolgan. Ma'lum bo'lishicha, so'z boshida Sherhali Ro'zi "Darvesh" taxallusini qo'llagan. Taxallusdan ko'rinadiki, Sherhali Ro'zi nafaqat folklorshunos, balki ijodkor shoir ham bo'lgan. Sherhali Ro'ziyevning ilmiy-ijodiy faoliyatini topish va o'rganish adabiyotshunoslarimizning oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

To'plam 1926-yili Moskvada arab alifbosida nashr qilingan. Kitob jami muqovadan tashqari, so'z boshi bilan birga 52 sahifani tashkil etadi. To'plamda arab alifbosidagi harflar tizimida 711 ta maqol kiritilgan. To'plamga kiritilgan maqollar quyidagicha tartibga ega: "alif" harfi ostida 1-195, "be" harfi ostida 196-277gacha, "pe" harfi ostida 278-288gacha, "te" harfi ostida 289-334, "jim" harfi ostida 335-340gacha, "che" harfi ostida 341-352, "xo" harfi ostida 353-360, "dol" harfi ostida 361-375, "ro" harfi ostida 376-378, "ze" harfi ostida 379-384, "sin" harfi ostida 385-417, "shin" harfi ostida 418-423, "g'ayn" harfi ostida 424-431, "fo" harfi ostida 432, "qof" harfi ostida 433-497, "kof" harfi ostida 497-560, "gof" harfi ostida 561-568, "lom" harfi ostida 569-570, "mim"

harfi ostida 571-588, “nun” harfi ostida 589-596, “vov” harfi ostida 597, “hoy hutti” harfi ostida 598-608, “yoy” harfi ostida 609-694, “ayn” harfi ostida 696- 700, “xe” harfi ostida. To‘plam qayta chop etilmagan. To‘plamdagi maqollar mavzusi rang-barang bo‘lib, mavzuga qarab ajratilmagan. Sherali Ro‘zi to‘plagan maqollarda ham lokal xususiyatlar ko‘rinadi, shuningdek, to‘plamdagi ba‘zi maqollar ikki jildli “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamiga kiritilmay qolgan.

Unga kirgan maqollarning ko‘pchiligi ayni bir hududda qo‘llanilgani sabab Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi maqollar bilan bir xillikni tashkil etadi. To‘plamning yana bir o‘ziga xosligi har bir harf ostida berilgan maqollar so‘ngida xalq tilida qo‘llanadigan qo‘pol va dag‘al maqollar ham keltirilganidir. Bu holatni ham boshqa to‘plamlarda uchratmadik. To‘plamda “Alif” harfi ostida 1) “Arava o‘q yer, aravakash bo‘q yer”; 2) “O‘g‘rining ko‘ti quvish”; 3) “Avval o‘yinga tushma, tushganingdan keyin ko‘t qimirlatishni qo‘yma”; 4) “Ulfating olaqarg‘a bo‘lsa, yemishing bo‘q bo‘lar”; 4) “Eshakni tarbiya qilsang oxurga chichar”; 5) “Echkiniki hamma vaqt ochilib tursa ham, hech kimning ishi yo‘q, qo‘yniki bir marta ochilsa, hamma kuladi” kabi qo‘pol, vulgar maqollar ham berilgan. Bu mazkur davr ijtimoiy qatlam ommaning saviyasi, turmush darajasini qay darajada ekanligini ko‘rsatadi [10].

Hodi Zarifovning maqolshunoslik borasidagi keyingi ishi 1947 yilda nashr etilgan “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi”[8] to‘plamidir. Bu to‘plam ham maqolshunoslik, uning nashri uchun muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, 1939-yilda B.Karimov tomonidan “Maqollar va hikmatli so‘zlar” va 1941-yilda yozuvchi Sharif Rizo, O‘.Azimov, O‘.Xolmatovlar hamkorligida ham shu nom ostida to‘plam e‘lon qilindi. M.Afzalov esa S.Xudoyberganov, S.Ibrohimovlar bilan hamkorlikda “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamini tartib berdi. M.Rahmonov, Husayn Shams va Rustam Komilovlar to‘plagan maqollarni ham o‘z ichiga olgan bu maqollar to‘plami 1958, 1960, 1965 va 1978-yillarda to‘rt marta qayta-qayta nashr etildi. Unda salkam 4,5 ming maqol jamlangan edi. 1959-yilda Y.Chernyavskiy va V.Ro‘zimatovlar tarjimasida rus tilida maqollar to‘plami nashrdan chiqdi. Nihoyat, M.Ahmadboyeva tuzgan “Maqollar”(1960), R.Jumaniyozov tartib bergan “So‘z ko‘rki – maqol” (1962, 1964, 1970) to‘plamlari yuzaga keldi.


O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va ommaga yetkazishda 70-80-yillarda yanada jiddiyoq yondashildi. Bu sohadagi dastlabki ish E.Siddiqov tuzgan “Dengizdan qatralar” (1976) to‘plami bo‘ldi. Unda ikki mingdan ziyodroq o‘zbek maqollari alifbe tartibida jamlangan edi. Bu davrda T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Madrahimova singari folklorshunoslar g‘ayrati bilan 4 ming maqoldan tartib berilgan. “O‘zbek xalq maqollari” (1978, 1981 va 1984) to‘plami yuzaga keldi. Bunda akademik To‘ra Mirzayevning xizmatlari alohida bo‘lganini qayd etmoq joiz.

T.Mirzayev. Olim ustozi Hodi Zarifning maqolshunoslik ishlarini davom ettirib, 1987-yilda o‘zbek folklori arxivi materiallari asosida o‘zbek xalq maqollarining asosiy qismini o‘z ichiga olgan “O‘zbek xalq maqollari” ikki jildligini tayyorlashda bosh bo‘ldi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Til va adabiyot institutining folklor bo‘limi jamoasi bilan birgalikda nashrga tayyorladi. Bu to‘plam maqollarning mukammal nashri bo‘lib, kelajakda to‘plamga kirmay qolgan maqollar bilan yanada to‘ldirilishi, mukammallashtirilishi nazarda tutilgan. Biroq keyingi nashrlar shu to‘plamning qayta nashri bo‘lib qolaverdi.

Xullas, o‘zbek xalq maqollariga bo‘lgan qiziqish, ularga og‘zaki ijodning alohida janri sifatida qarash va to‘plab nashr ettirish masalalar tarixi ancha olis davrlarga borib taqaladi. Shunday bo‘lsa-da, xalq maqollarini alohida to‘plam sifatida nashr ettirish va ilmiy jihatdan tadqiq etish ishlari asosan XIX asrning oxiri XX boshlariga e‘tiboran shakllandi. Xalq maqollarini to‘plash va nashr ettirish borasida bir qancha kamchiliklari bo‘lsa-da xorijlik olimlarning ham xizmati katta bo‘ldi. XX asrga kelib o‘zbek folklorshunosligi shakllangach, xalq maqollarini ilmiy o‘rganish va nashr ettirish ishlariga alohida e‘tibor qaratildi va o‘zbek maqolshunosligi yanada takomillashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурауф Фитрат. *Энг эски адабиёт намуналари*. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – б.12.
2. Бафоев Ф. *Ўзбек ва немис халқ мақолларининг қиёсий-типологик тадқиқи*: Филол. фан. б-ча фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2021. – Б.33.
3. Карим Б. Ҳерман Вамбери – Ўзбек мақоллари таржимони // *Жаҳон адабиёти*. – Тошкент, 2018. – № 12. – Б. 178-183.
4. Мирзаев Т. *Ўзбек халқ мақоллари / Ўзбек халқ мақоллари ва унинг ушбу наири ҳақида*. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 9.
5. Нурмуродов Й. *Ўзбек фольклори немис тилида*. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.10.
6. Нурмуродов Й.Б. *История изучения и проблем научно-литературного перевода узбекского фольклора на немецкий язык: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук*. – Тошкент: Фан, 1983. (Нурмуродов Й. *Ўзбек фольклори немис тилида*. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.7.)
7. Остроумов Н.П. *Сарты. Этнографические материалы. Выпуск третий. Пословицы и загадки сартовъ*. – Тошкент: Еипо-Литография торг. Дома. Ф. и. Г. Бр. Каменские, 1895. – С. 110.
8. *Оталар сўзи – ақлнинг кўзи. Тўпловчи ва тузувчи: Ҳ. Зарифов*. – Тошкент, 1947.
9. Рўзимбоев С., Раҳимов В., Матёқубов Б. *Хоразм жадида адабиёти намояндаси Мулла Бекжон Раҳмон ўғлининг адабий мероси/ “Ўзбек адабиётишунослигида талқин ва таҳлил муаммолари” мавзуидаги илмий-назарий анжуман материаллари*. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – Б. 188-191.
10. *Ўзбек мақоллари / тўпловчи ва тузувчи: Шерали Рўзи*. – М., 1926.
https://ru.wikipedia.org/wiki/Остроумов_Николай_Петрович.
https://books.google.co.uz/books/about/Eski_savlar.html?id=W67ZfvdXCBA&redir_esc=y
<https://www.kitapsepeti.com>.



SARVINOZ NURMONOVA

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

SIROJIDDIN SAYYID SHE'RLARIDA OLAMNING BADIY LISONIY MANZARASI

Annotatsiya: Maqolada Sirojiddin Sayyid ijodida insonning hissiy konseptlari – “baxt”, “sevgi” va “sog‘inch” – lingvokulturologik va konseptual jihatlariga ko‘ra tahlil qilingan. Shoir she‘rlari orqali o‘zbek tilidagi badiiy matnlarda hissiy tajriba qanday verballashishi, milliy madaniyatga xos tasavvurlar orqali inson ruhiyatining turfa qatlamlari qanday ifodalanishi aniqlangan. Sirojiddin Sayyid ijodida har bir hissiy konsept – baxt, sevgi va sog‘inch – milliy mentalitet, individual ruhiy tajriba va lingvistik imkoniyatlar bilan uyg‘unlashgan. Shoirning o‘ziga xos uslubi, obrazlar tanlovi va til vositalaridan foydalanish mahorati she‘rlarda teran hikmat va go‘zal badiiyatni uyg‘unlashtiradi. Shu tariqa, Sirojiddin Sayyid ijodi lingvokulturologik va konseptual tahlil nuqtayi nazaridan o‘zbek adabiyoti va madaniy merosining boy manbayi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: baxt konsepti, sevgi konsepti, sog‘inch konsepti, lingvokulturologiya, badiiy obraz, milliy mentalitet, ruhiy kechinma, konseptual tahlil

Annotation: This study examines the emotional concepts of “happiness,” “love,” and “longing” in the poetry of Sirojiddin Sayyid through linguocultural and conceptual analysis. The research aims to identify how emotional experience is verbalized in Uzbek literary texts and how culturally shaped perceptions reveal different layers of human psychology. The findings indicate that each emotional concept in Sayyid’s works is closely intertwined with national mentality, individual spiritual experience, and the expressive potential of the Uzbek language. The poet skillfully combines profound philosophical insight with refined artistic expression, making his works a valuable source for linguocultural and conceptual studies of Uzbek literature and cultural heritage.

Keywords: happiness concept, love concept, longing concept, linguoculturology, artistic image, national mentality, emotional experience, conceptual analysis.

Kirish. Olamning hissiy-lisoniy manzarasi til hissiy makonini ko‘rish, jamoaning hissiy tavsifini yetarlicha ochib berish imkoniyatini beradi. Badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni verballashtirish mexanizmlari va usullari lisoniy shaxs – matn muallifining hissiylik fenomeni nuqtayi nazaridan ifodalanadi. Inson konseptosferasini tahlilga tortar ekanmiz, beixtiyor shoirning she‘rlarida “sevgi”, “baxt”, “sog‘inch” konseptlari yangicha yaratilmalar bilan yozilganini kuzatish mumkin.

Bilamizki, baxt tuyg‘usi o‘zbek mentalitetida g‘arbdan farqli o‘laroq quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi. Baxt – mening bu dunyoga kelganim. Baxt bu – ota-onamning borligi. Baxt bu – musulmon bo‘lganimiz. Baxt bu – yaxshi odamlar diydori. Odamlar baxt deganda ko‘proq nimani tushunishadi? Har kim o‘zining ongi, tafakkuri rivojiga qarab baxtni har narsada ko‘radi. Ayollar, asosan, oilasining tinch va xotirjamligi, erining unga mehr-muhabbatli bo‘lib, farzandlari barkamol bo‘lishini, balog‘at yoshidagi yigit va qizlar esa har tomonlama o‘ziga mos juftini uchratishni baxt deb hisoblaydi. Baxtni boylik bilan o‘lchab bo‘ladimi? Boylik baxt ko‘rsatkichi emas. Masalan, bir buyuk rus olimi o‘zining baxtini raketalar yaratishda ko‘rgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da baxt tushunchasi taqdir; nasiba, ulush ma’nolarida qo‘llanilishi keltirilgan:

1. Baxt – ijtimoiy tomondan kishining o‘z faoliyati natijalarida, hayotda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetgani, orzu-umidning ushalishi sifatida namoyon bo‘ladigan ma’aviy-axloqiy tushuncha.

2. Baxt – hayot(turmush)dan to‘la mamnunlik va bearmonlik holati; saodat, qut. Mehnat baxt keltirar. Maqol.

Ona yer nafasiga, mehriga, in’omlariga to‘yib yashashdan ortiq baxt bormi? “Saodat” [Ўзбек тилининг изоҳли луғати(5ж),2008:278].

Ta’kidlash lozimki, Azim Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da baxt va uning sinonimlariga quyidagicha izoh beriladi, ya’ni *baxt*, *iqbol*, *tole*, *saodat* sinonimlar hisoblanib, ular kishining turmushdagi mamnunlik holati, turmushdan mamnun etuvchi narsa ma’nolarini ifodalaydi. *Iqbol* sinonimi, asosan, badiiy uslubga xosdir. *Tole*, *baxt*, *iqbol* sinonimlariga nisbatan omad varianti ko‘p qo‘llanadi. *Saodat* sinonimi ko‘proq kitobiy uslubga xos, yakka holida kam qo‘llanadi. *Baxtli*, *baxtiyor*, *saodatli*, *toleli*, *mas’ud* kabi sinonimlar ham mavjud. *Mas’ud* sinonim shakli esa eskirgan, kitobiydir [Хожиев А, 1974:50].

Sirojiddin Sayyidning quyidagi “Baxt” sarlavhali she’rida insonning ma’lum bir yoshdagi baxt tushunchasi to‘ydan yodgorlik – chimildiq tushunchasi orqali butun o‘zbek millatining quvonchini, yangi hayot ostonasi, oila tushunchasini ifodalab kelgan lingvomadaniy konseptni ko‘rishimiz mumkin.

Uylangan yigitlar bu yil buncha ko‘p!
Har bir uyda bittadan kelin,
Har bir uyda to‘ydan yodgorlik –
Chimildiq va ... *bittadan kelin* [Сирожддин Саййид, 2019:79].

Shoir quyidagi misralari orqali baxtning nisbiy tushuncha ekanligini, mutlaq baxt yo‘qligini, baxtni qanday ma’noda tushunish shaxsning ijtimoiy hayotdagi o‘rniga, bilimi, yoshi, hayotdagi mavqeyi, kishining dunyoqarashiga bog‘liq degan fikrga keladi:

Bu dunyoda chin gulga
Chin baxt-u chin ilhaq yo‘q. (“Filfakning Hilolasi”)

Baxt haqida jamiyatdagi kishilarning tasavvurlari ijtimoiy tuzum va undagi ijtimoiy munosabatlar majmuasi bilan bog‘liqdir, haqiqiy baxtga erishmoq uchun, chin ma’noda baxtli bo‘lish uchun har bir inson hayotda o‘z shart-sharoitidan kelib chiqib, haqiqiy insoniylik fazilatlarini, qobiliyatini keng namoyon etishi kerak. Oila qurgach moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qoplamoq uchun, o‘z yashash maskanlarini osuda bir joyga aylantirish uchun harakat qilmog‘i zarur bo‘ladi.

Bir go‘zal, nozanin qizga uylanib,
Balki saodatda tanho bo‘lursan. (“Suqrot aytadiki”)

Shuningdek, baxtga erishmoq uchun inson jamiyatda, oilada o‘z o‘rnini topgan, burch va ma’suliyatni to‘g‘ri anglagan bo‘lishi lozim. Odam o‘z ongi va tafakkuri, dunyoqarashi, xatti-harakati, xulqi, aql-zakovati bilan baxtli bo‘lish uchun intilishi va kurashishi kerak. Har bir shaxs o‘z taqdirini xalq, Vatan taqdiri bilan uyg‘unlashtirgandagina to‘la baxtli bo‘lishi mumkin:

*Jomi baxtim ichra ko'rsam iztirobim jilvasin,
O'zligimni o'zgalar ko'zindagi yosh bilsa bas. ("Shahr aro")*

Sirojiddin Sayyidning "Dil fasli" to'plamidan o'rin olgan quyidagi she'rlarida "baxt" konsepti bir so'zning turli ma'no qirralarini, holat va tushunchalarini bildirgan:

1. Hayotdan mamnun va hayoti dard-u g'am bilan to'lgan paytlar.

*Ular ham go'yo meni
O'rtanib o'ylagaylar.
Baxt-u baxtsizligimdan
Qissalar so'ylagaylar ("Onamning kalishlari")*

2. Turmush, Umr yo'li, taqdir.

*Jomi baxtim erdi doim goh qurum, goh quyqaliq,
Nozanin ko'rdim u kun, bir nozaninkim uyquliq. ("Uyqulik baxt")*

3. Omad, tole', umr yo'ldosh

*Ko'rganim bul bari, do'stlar, tush edi, ro'yo edi,
Ul mening baxtim edi-yu, baxtim erdi uyquliq.*

"Sevgi" konsepti o'zbek tilida yaratilgan badiiy asar va she'rlarda muhabbat, ishq so'zi bilan sinonim tarzda qo'llaniladi. "Sevgi" konsepti ifodalagan muhabbat tushunchasi bir tomondan hissiy, ikkinchi tomondan esa badiiydir. Badiiy adabiyot ta'biri bilan aytganda, eng go'zal kechinma hisoblangan sevgi (ishq) emotsional konsept sifatida badiiy nutqda turli lisoniy vositalar bilan konseptuallashtiriladi.

Har qanday madaniyatning markaziy tushunchalaridan biri – bu sevgi, muhabbat tushunchasidir. Muhabbat, ya'ni sevgi insonlar bilan bog'liq o'ziga xos hodisa – fenomendir. Tadqiqotchilarning fikricha, hech bir konsept "muhabbat" hissiy konsepti singari ko'plab ma'no va keng madaniy xususiyatlarni qamrab ololmaydi. "Muhabbat" konsepti har qanday tilda o'z aksini topadigan asosiy universal tushunchadir [Buzrukova D, 2024:14]. "Muhabbat" hissiy konsepti har qanday lingvomadaniyatning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilida "love", rus tilida "lyubov", fransuz tilida "amour", o'zbek tilida esa "sevgi" yoki "muhabbat" konsepti inson ongi va his-tuyg'ularining asosiy kategoriyasi sifatida qaraladi [Buzrukova D, 2024:14].

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da sevgi tushunchasi, birinchidan, qarama qarshi jinsdagi odamlarning (er va xotin, yigit va qizning) bir-biriga nisbatan chuqur intim, chin qalbdan va fidokorona iliq munosabat tuyg'usi; ishq, muhabbat. Sevgi pulga sotilmas, ko'ngil pulga topilmas. Maqol. Sevgi odamning yuragiga tiniqlik, nur, ko'ngliga ezgu orzular soladi deyishadi. S. Ahmad, Sud. Sevgini tortib bo'larmu Tosh-u tarozi bilan.. E. Vohidov, Muhabbat.

Ikkinchidan, biror kimsa yoki narsaga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'usi. Vaqtim chog' etgan – Vatan sevgisi! Ko'ksim tog' etgan – vatan sensan! Y. Mirzo [Ўзбек тилининг изоҳли луғати(5ж), 2008:470].

Sirojiddin Sayyidning "sevgi", "muhabbat" hissiy konseptlari tarannum etilgan she'rlari bisyor. Shoir she'rlarida bu nekbini tuyg'ular o'zgacha, quyuq metaforalar zanjirga qadalgan durday saf tortgan. Muhabbat ilohiy tuyg'u, unda poklik mujassam! Xalq ifodasi "Muhabbat tilda emas, dilda bo'ladi"ning isboti bo'lgan ushbu she'rda shoir tabiiy va hayotiy holatdan muhabbatning go'zal iqrorini yaratgan. Bu izhorda ilk sevgiga duch kelgan oshiq holatida o'zbekona axloq me'yorlari, xokisorlik, benihoya hurmat, kamtarlik, hayo kabi shaxsning ma'naviy barkamolligini ko'rsatuvchi sifatlar mujassamlashgan. Aynan "Sevgi" deb nomlangan she'rda 22 ta bir-birini takrorlamaydigan, kognitiv va metaforik *kechmishimdir, bugunimdir, olovimdir, kulimdir, kukunimdir,*

tugunimdir, erib ketgan qorim, boychechak bo'lib ungan zorim, majnuntolim, teragim, kuragim, tiniq jilg'am, nayson – bahor yomg'iri yuvgan ko'ylagim, quyosh ko'rpa qavib qo'ygan bog'im, ko'ksimdagi dog'im, chirog'im, dilga yaqin, lek ko'zdan yirog'im, hech tunganmas azobim, guvohim, gunohim, savobim, tiniq kulgi, go'zal mulk kabi obrazlar bilan yaratilgan:

*Sevgi mening kechmishimdir, bugunimdir,
Olovimdir, kulimdir ham kukunimdir.
Bu yo'llarda oxir bir kun to'kilgumdir.
Evgi mening ko'nglimdagi tugunimdir.*

Har qanday shoirning ijodiy kamolotini ko'rsatadigan bosh omil – she'rlaridan teran hikmatlarning go'zal badiiyat bilan aks etishidir. Ijodning yuksalish pallasida fikr teranlashadi, “qaymoq bog'laydi”, ifoda sayqallanadi, o'ziga xoslik yaqqolroq namoyon bo'ladi. Sirojiddin Sayyid she'rlarida ana shu kamolot alomatlari bo'y ko'rsatayotgani alohida tahsinga loyiqdir [Жабборов Н, 2015:159].

Jism muvaqqat, ya'ni vaqtincha, abadiy emasdir. Vatan esa mangu muhabbatdir, muhabbati yo'q inson esa nomurod, maqsadsiz bo'ladi. Mana bu misralar fikrimizni quvvatlaydi:

*Ketar jisming muvaqqatdir,
Vatan – mangu muhabbatdir.
Agar kimda muhabbat yo'q,
Jahonda nomurod bo'lgay.*

Sirojiddin Sayyid she'rlarida sevgi konseptining yadrosida ayol va vatan konseptlari joylashgan bo'lib, uning periferiyasida sog'inch, ayriliq, azob, hijron, kechmishim, bugunim, olovim, kulim, erib ketgan qor, ko'ksimdagi dog', chiroq, guvohim, gunohim, savobim, tiniq kulgi, go'zal mulk kabi leksemalar o'rin olgan.

Sirojiddin Sayyid idiositilini o'rganish jarayonida “Inson” konseptosferasining muhim jihatlari-dan biri “sog'inch” konsepti shoir ijodida, shaxsiy taqdir yo'lida mahzun lahzalari ifodasi yanglig' qalamga olingani e'tiborni tortadi. Avvalo, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da sog'inch tushunchasi izohiga qarasak, sog'inish his tuyg'usini ifodalab kelishi berilgan. Ijodkorning bu mavzuda yozilgan she'rlari talaygina. Jumladan, birgina “Sog'inch tahlili” she'rini tahlil qilganimizda bu leksema armon, hissiy tuyg'u, og'riq, ayriliq, azob kabi ma'nolarda qo'llanganligini kuzatamiz. Shuningdek, she'rda sog'inmoq holat fe'li 7 marta, sog'inch mavhum ot 11 marta ishlatilganligi mazmunning ta'sir kuchini yanada oshirishga xizmat qilgan.

*Seni sog'inmasdan yashamoq og'ir,
Sog'inib yashamoq undan-da og'ir.*

Misralarda qo'llangan tardi aks san'ati sog'inch hissining ko'chma ma'noda og'riqli azob ekanligini tasvirlab, uni qora bulutga o'xshatadi, bu his o'zgalarni ko'kartirsa-da, shoirni kuydirib turishini, undan hech ayrilmasligini, kurab bo'lmas mangu qor ekanligini ta'kidlab, sog'inchni jonlantiradi, ya'ni tashxis san'atidan mohirona foydalanadi:

*Sog'inch diydiraydi loygarchilikda...
Qora bulut yanglig' sog'inch yillarki
Ruhimda muallaq turibdi...*

Sog‘inch ayrilmaydi mendan bir nafas ...

Sog‘inch o‘zgalarni ko‘kartirsa gar,

Meni kuydiradi oxir bu sog‘inch...

Sog‘inch – mangu qordir

Kuralmaydi u.

Sirojiddin Sayyid ijodida “Sog‘inch” konseptining ma’no qirralari turlichadir. Shoir bu konsept ma’nosida insonga xos bo‘lgan turfa xil *umid, armon, diydor* kabi hissiyotlarni ifodalagan:

1. Umid

Sog‘inchlarim gullar ochar bog‘larda,

Yomg‘irlarim biqir-biqir, Niginjon (“Asal qizim Nigina”).

2. Istak

Sog‘inchning devorlari

Yomg‘irlarda yemrilgan.

Ular ham onam kabi

Yo‘llaringa termulgan (“Onamning kalishlari”).

3. Armon

a) Yomg‘irlar yig‘lashib sel bo‘ldi, ona,

Sog‘inchlar birlashib yil bo‘ldi, ona.

To‘planib-to‘planib barcha og‘riqlar

Mening ko‘kragimda dil bo‘ldi, ona.

b) Umr – bir sog‘inchdir,

Umr – bir og‘riq.

U tomoni zangor,

Bu tomoni sorig‘.

d) Sog‘inch qoplar xonamizni,

O‘ylab yolg‘iz jonimizni,

Biz qoldirib ketgaydirmiz

Yomg‘irlarga onamizni (“Onamning kalishlari”).

e) Bir sog‘inch bor – gulning rangida,

Torlar titrar ko‘ngillarimda (“Bir sog‘inch”).

4. Qo‘msamoq, xumor qilmoq

Sog‘inchim chinor bo‘lgay,

Hammasi diydor bo‘lgay.

Dilim shoxingga ilsam ,

Bir go‘zal anor bo‘lgay (“Dashnobod anoriga”).

5. Ko‘rgisi kelmoq, diydor

Ona, bul sog‘ichni qandoq yozayin,

O‘rtamizda cheksiz oppoq varaq bor.

6. Sog‘inch bilan to‘lib-toshmoq

Yulduz uchsa bunda kuygan yuragim,

Surxon desam, jimirlaydi yuragim (“Surxon sog‘inchi”).

Sirojiddin Sayyidning o‘ziga xos uslubi shundaki, shoir she’rlaridagi so‘z tanlash mahorati, obrazlar ifodasi, til vositalari sodda, xalqchil, kitobxonga birdek manzur bo‘lishi hamda she’rdan anglashilayotgan mazmun barcha uchun tushunarli ekanligidadir:

*Eski choponidan bir hidlar kelar,
Menga tanish hidlar...
Jon o'rtanadi! ("Sog'inch")*

Inson dunyoga kelganidan so'ng, ulg'aygani sari umri davomida turli xil yaxshi va yomon holatlarning guvohi bo'ladi. Shunday "og'ir" hislardan biri bo'lgan sog'inch tuyg'usiga namchil, yomg'irli, qor bosgan aniqlanmishlari bilan keltirib, ko'ngil holatini tinglovchiga sodda va tushunarli bo'lishini ta'minlagan:

*Ko'p namchil sog'inchlar kechdi boshimdan:
Yomg'irli, qor bosgan sog'inchlar...*

Shuningdek, shoir "Tijoratchi do'stim Tursunboyga hazil manzuma" she'rining mazmun mohiyati orqali esa hozirgi kunda savdo – sotiq bilan shug'ullanuvchi vatandoshlarimizga murojaat zamirida inson konseptosferasi periferiyalaridan biri bo'lgan "mehr" konseptining odamgarchilik, himmat bildiruvchi ma'no ottenkalari bilan bog'liq ravishda berilganini kuzatish mumkin:

*Miskin opa-singillarga najot ber,
Do'konlar qur, ko'chalarga hayot ber.
Eng avval sen shoirlarga zakot ber,
Shoirlarda goh non, gohi choy bo'lmas.*

*Bu el mehri o'xshar quyosh, oylarga,
Faqirlari aylansinlar boylarga.*

Xulosa. Zamonaviy o'zbek she'riyatining rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan shoir-lardan biri Sirojiddin Sayyid o'zbek tilining lug'at boyligining oshishiga, tilimiz semantik taraqqiyotiga ham o'z ulushini qo'shib kelmoqda. Shoir she'rlarida ifoda sodda, fikrlar lo'nda bayon qilingani bois ko'pchilikning e'tirofiga sazovor bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик. 2 жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б. 278.
2. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик. 4 жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б. 470.
3. Ҳоҗиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли лугати. наشريёти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 50.
4. Buzrukova D. Olamning hissiy-lisoniy manzarasida "Muhabbat" konseptining lingvokulturologik va gender tahlili: Filol.bo'yicha falsafa. fan. d-ri (Phd) diss. Avtoreferat. – Farg'ona, 2024. – B. 14.
5. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Тошкент: Фафур Фулом, 2015. – Б. 159.
6. Сирожиддин Саййид. Асарлар I қисм. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 609 б.
7. Сирожиддин Саййид. Асарлар II қисм. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 588 б.
8. Сирожиддин Саййид. Асарлар III қисм. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 605 б.
9. Сирожиддин Саййид. Асарлар IV қисм. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 607 б.
10. Саййид Сирожиддин. Дил фасли: Шеърлар. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2007. – 145 б.

ZULQUMAR QALBAEVA

*O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi qoraqalpoq gumanitar
fanlar ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

TERMINLAR TIZIMINI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: Xalqning og'zaki so'zlash uslubi bilan ilmiy uslubning farqi bo'lgani kabi, so'zlar va terminlar orasida ham o'ziga xos farqlarni ko'rish mumkin. Ilm va texnika jadal rivojlangan davrda yangi tushunchalarning va yangi so'zlarning paydo bo'lishi tabiiy. Ayniqsa, o'z nazariyasiga ega bir ma'noli terminlarning yuzaga kelishi va terminologiyaning rivojlanishi har bir milliy til uchun katta ahamiyatga ega. Maqolamizda aynan shu terminlar va ularni o'rganuvchi soha terminologiya haqida so'z etamiz. Terminlarni tizimlashtirish esa har bir tilning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Terminlari tizimlashtirilgan tillar esa, rivojlangan va o'z o'rniga ega tillar hisoblanadi. Termin va terminologiya, ularning tizimlashtirilishi va rivojlanishida ko'plab tilshunoslarning xizmati bor. Bir necha ilmiy ishlar terminologiya sohasida olib borildi. Maqolada terminologik tilshunoslarning fikri va terminlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: termin, terminlar tizimi, ilmiy uslub, aniqlik, adabiy til, terminologiya, lingvistik fan, terminologik soha, leksikologiya.

Annotation: Just as there is a difference between the oral style of speech of the people and the scientific style, one can also see specific differences between words and terms. In an era of rapid development of science and technology, the emergence of new concepts and new words is natural. In particular, the emergence of unambiguous terms with their own theory and the development of terminology are of great importance for each national language. In our article, we will talk about these terms and the field of terminology that studies them. Systematization of terms contributes to the development of each language. Languages whose terms are systematized are considered developed and have their own place. Many linguists have contributed to the systematization and development of terms and terminology. Several scientific works have been conducted in the field of terminology. The article describes the views of terminological linguists and the specific characteristics of terms.

Keywords: term, term system, scientific method, precision, literary language, terminology, linguistic science, terminological field, lexicology.

Kirish. Til – kundalik hayotning aksi, jamiyat hodisalarining ko'zgusidir. Jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklarning nomlari, eng avvalo, tildan boshlanadi. Tilni o'rganish orqali, uning tub ma'nosini analiz qilish orqali bir xalqning tarixiy davrlarini o'rganish mumkin. Shu bilan birga, jamiyat hayotining rivojlanish davrlarini o'rganish orqali biz tilning evolyutsion rivojlanishini kuzatishimiz mumkin.

Jamiyat har doim o'zgarishlarga uchrab turadi. Shunga ko'ra, til ham tenglashtiriladi. Rivojlangan tilning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, uning atamalari bir tizimga to'g'ri keladi.

Ko'p yillar davomida termin so'zlarni lingvistik usullarda o'rganish leksikologiya bo'limida amalga oshirildi. Biroq, terminologik leksika o'ziga xos shakllanish yo'llari va o'zgarish tarixiga

ega. Bu, asosan, ilmiy fikrlar, texnika va madaniyat rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan so'zlarga bag'ishlangan.

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot atamalarini keng tarqalishiga olib keladi. Tilda ko'plab atamalarining paydo bo'lishi, asosan, ilm-fan va texnikaning kundalik ishiga kiritilishi bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, ilm-fan, san'at, ma'rifat va matbuot sohalari rivojlanishi terminologik leksika rivojlanishiga olib keladi.

So'zlarni nomlash kundalik hayotda ishlatiladi. Terminologik jihatdan tiklanmagan, terminlarning ma'nosi aniqlanmagan til – adabiy til darajasiga ko'tarilmagan til. Terminologiya masalasi bilan shug'ullanuvchi olimlar shuni ko'rsatadiki, agar biror mamlakatning milliy tilida terminologiya mavjud bo'lmasa va u ishlatilmasa, u holda ilmiy terminologiya ishlatiladigan boshqa tilga e'tibor qaratish kerak [9; 4].

So'zlarni tushuncha sifatida ishlatadiganlar ham bor, tushuncha sifatida ishlatmaydiganlar ham bor. Terminsiz muloqot qilish, ilmiy fikrlarni terminsiz ifodalash mumkin emas. Ammo, bu so'zlarni maxsus leksika sifatida tanlab, ularga ilmiy ta'rif berish juda qiyin masala.

Tushunchalar va ularning o'zaro bog'liqligi va o'ziga xos xususiyatlarini atamalarsiz nomlab bo'lmaydi. Terminologiya bo'limlar va ularga mos nomlar bo'lgan boblardan biri. Ayni paytda terminologiyani fan sifatida o'qitish, terminologiyani nazariy, amaliy va ilmiy masalalarni to'liq bilishga tayyorgarlik ko'rish zarurligi seziladi. Bundan tashqari, siz ushbu sohada atamalarini to'plab, ularni tizimlashtirish, ularning ma'nosini tushunish muhimroq bo'ldi.

Terminologiya til bilimining yangi bosqichi sifatida, lingvistikada qo'llanilayotgan amaliy nuqtayi nazardan, ilmiy fikrlarning muhimligi bilan belgilanadi. Odatda, tilshunolar bu atamaga leksikologik nuqtayi nazardan qaraydilar, uning ilmiy to'g'riligiga e'tibor bermaydilar. A.Superanskayaning terminologiyani nazariy masalalariga bag'ishlangan ma'ruzasida "F.Riggsning fikricha, terminologiya konseptologiya va leksikologiya o'rtasida bo'lishi kerak", deb ta'kidlagan fikrini bayon qiladi.

N.Marchuk esa terminologiyani ilm deb ataydi: "termin va nomlarni aniqlashni ilmiy deb ta'riflashga ko'proq "terminologiya" nomi kiradi, "terminografiya" esa terminologiya bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lganda, terminologik lug'atlar to'g'ri bilim ekanligiga ishora qiladi" [6; 317].

Hozirgi kunda fanlar tizimida terminologiya haqidagi ilmiy fikrlar bir yo'nalishda emas. Ular quyidagilarga bo'linadi:

1. Terminologiya – leksikologiyani bir tarmog'i
2. Terminologiya – lingvistik fan
3. Terminologiya – bu o'zaro bog'liq bo'lgan alohida ilm-fan bo'limi.

Bugungi kungacha, terminlar – leksikologiyamizning bir qismi bo'lgan. Terminologiya masalalari bo'yicha izlanishlar olib boruvchi olimlar terminologiyani alohida ilmiy fan deb tan olishadi. Akademik V.V. Vinogradovning so'zlariga ko'ra, termin va terminologiya masalasi til bilimlari masalasiga kiradi: "termining ma'nosini aniqlash bilan bog'liq barcha masalalar til bilimini turli ilmiy sohalar bilan yaqinlashtirish bilan bir qatorda, uni turli hunarmandchilik va sanoat sohalari bilan birlashtiradi. Oldinga qo'yilgan maqsad – belgilangan maqsadga muvofiq bo'lgan atamalarining ko'paytirilishini belgilab qo'yishdir".

Terminologik leksikani o'rganish, shuningdek, jamiyatdagi mazmun-mohiyatni aniqlashda A.A. Reformatzkiyning, V.V. Vinogradovning, A.N. Baskakovning, G.V. Stepanov, S.G. Barxudarov, O.S. Axmanova, I.F. Protchenkoning, V.I. Siforovning, Y.A. Desheriyevning, K.M. Musayev, R.A. Budagov, L.I. Skovorsov, V.P. Daniylenko, T.S. Qog'otkova, T.S. Kandelaki, A.V. B.Z. Bukchina, V.F. Juravlev, I.N. Volkov, B.O. Oruzbayeva, M.Sh. Gasimov, T. Bertagayev va boshqa olimlarning o'rni o'zgacha edi.

Ilm tili aniqlikni talab qiladi. Sinonimlar, ko'p ma'noli va metaforalarga yo'l qo'ymaslik uchun atamalar tizimlashtiriladi. Lekin bu tizimli bo'lishni anglatmaydi. Buni tilshunoslar turlicha tushuntirishga harakat qiladi. Masalan, belgiyalik terminolog – tilshunos V.A.Daniylenko terminlarni tasniflash nuqtasiga e'tibor qaratadi va tushuntirishga harakat qiladi. Uning so'zlariga ko'ra, u terminologiyani alohida o'rganish va ajratish kerak.

Olim V.P.Danilenko terminologiya turlarini ajratishda quyidagicha aytadi: “Terminologiya mahalliy, tabiiy, ilmiy, shuningdek, sintezlash turlariga bo'linadi. Ko'pincha, hozirgi holatga ko'ra, bu atama faqat tabiiy o'zgarish davridan o'tganidan so'ng ishlab chiqilgan va tizimlashtirilgan bo'ladi” [5; 77]. Ko'pgina olimlar terminologiyani o'ziga xos ilmiy fan sifatida qabul qilish va tizimlashtirish kerakligini tan olishadi.

Tarixiy terminologiyani tizimlashtirishda uning adabiy tilga kirishini aniqlash zarur. Adabiy tilga terminologik leksika qo'shilib ketgani uchun tilshunoslarning nuqtayi nazari bir xil bo'lmagan. A.Superanskaya va boshqalar bu fikrlarni quyidagicha ajratib ko'rsatdi:

1. Terminologiya – adabiy tillar leksikasining bir qismi;
2. Terminologiya – adabiy til, milliy tilning ma'naviy qismi bo'lib, unda inson markazi mavjud;
3. Terminologiya – bu til emas, balki soxta belgilarning aniq bir tizimi.

Ilm-fan terminologiyasi yaxshi o'zgargan va terminologik leksikasi tizimlashtirilgan tillarda ilm-fan va texnikaning har bir bo'limining o'zgarishini ko'rsatishi mumkin bo'lgan elementlar. Ilm-fan va texnikaning har bir bo'limida aks etgan so'zlarni tushunishda terminologiyaning asosiy elementi – bu atama.

Termin – terminologik tizimning asosiy elementi. Termin – ilmiy-texnologik tushunchaning ilmiy nomlanishi bo'lib, maxsus ilmiy ta'rifga ega bo'lgan so'zlar va so'zlar birikmasi. Birlamchi leksik birlik, ya'ni inson bilimi bo'yicha bo'limlar aniq va abstrakt tushunchalarni belgilaydi. O.S.Axmanova quyidagicha ta'rif beradi: “Termin (inglizcha) – tildagi maxsus ilmiy-texnik so'zlar va so'z birikmalari, ular maxsus belgilar va maxsus ob'ektlarni aniq ko'rsatishga mo'ljallangan” [1; 18].

V.N.Shevchuk termin haqida quyidagicha izoh beradi: “termin – bu so'z bo'lib, o'rta asrlarda “aniqlash”, “tushuntirish” ma'nolarini bildirgan, fransuz tilida mavjud bo'lgan “terme” leksemasi “so'z” ma'nosini bildirgan [10; 6].

Termini (lotincha terminus – chegara, chegarasi) – so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, bu so'z yoki so'z birikmasi ilm yoki texnikaning muayyan bo'limiga xos bo'lgan ma'noni anglatadi.

Terminning ta'rifi haqida gap ketganda, ma'no va tuzilishining ta'rifi, shuningdek, yaratilish printsiplari bo'yicha juda ko'p tafsilotlar mavjud. 20-30-yillarda tilshunoslar bu terminlar haqida o'ylashardi, ularning mazmun-mohiyati, ilm-fandagi o'rni haqida o'ylashardi. Bu so'zning nomi fonetik tizimga mos kelishi kerak. 20-30-yillarda bosma nashrlardan chiqqan alohida ilmiy nashrlarda “termin” deb qabul qilingan. O'sha yillarda chop etilgan alohida gazeta maqolalarida “termin” varianti qo'llanilgan. Bu so'zlar tilimizda quyidagi sabablarga ko'ra saqlanadi:

Birinchidan, “termin” so'zi bizning tilimizda ko'p yillar davomida ishlatilgan, ko'pchilikning ongiga singib ketgan, ko'z o'ngida ulg'aygan so'z. Bu psixolingvistik omil.

Ikkinchidan esa “termin” nomini xalq qo'llanib keldi. Oxirgi uch avlodni o'rganish tizimiga asoslangan lug'atning til normasi deb qabul qilinadi.

Uchinchidan, bu nom terminologiya bo'limining asosiy atamasidir. O'nlab va yuzlab atamalar ilm-fan nomidan terminologiyani o'rganishni boshladi. Masalan: terminlar, terminologiya, terminografiya, terminlar tizimi, terminlar leksikasi, terminologik leksika.

Tushunchaning nomi – bu ma'lum bir ilmiy yoki kasbiy sohada predmetga oid tushunchani ifodalovchi termin bo'lib, odatda o'sha sohaning leksik tizimida boshqa tushunchalarni ham bel-

gilashda ishlatiladi. Termin o'z ta'rifiga to'liq muvofiq bo'lib, ta'rif esa tushunchaning ko'lamini aniqlaydi va uning mazmuniy mohiyatini aks ettiradi.

Terminlar bo'yicha olimlar orasida so'rovlar olib borildi. Terminlarning tuzilishi va semantikasi bo'yicha ma'lumotlar berdi. V.N.Proxorova o'z ma'ruzasida ushbu terminga quyidagicha ta'rif berdi: "Termin – bu alohida leksika to'plamidagi so'zlar bo'lib, bu so'zlar ma'noli (ya'ni so'zning ta'rif) mavjud bo'lgan so'zlar to'plamidir. Taqdim etilgan ma'lumotlarning hammasi ham bir xil emas. Har qanday so'z prinsiplar uchun termin bo'lishi mumkin, biroq uning o'ziga xos xizmati (funktsiyasi) bilan bog'liq. Sanoatda qo'llaniladigan terminlar muayyan kasbkorlar guruhining o'zaro munosabatlari uchun ishlatiladi. Shuningdek, bu terminlar tushunchani nomlashda ham qo'llaniladi.

Reformatskiyning fikriga ko'ra: "terminlar – bu maqsadga muvofiq, xizmat jihatidan cheklangan, shunga ko'ra aniq tushuntirish, nomlarni bir ma'noga tenglashtiruvchi so'zlar deb biladi, ularning ilm-fan va texnika, siyosat va diplomatiyada muhimligini ta'kidlaydi" [8; 85].

Kundalik ishlatiladigan so'zlar yoki so'zlardan o'z belgilari bilan ajralib turadi. A.Reformatskiyning ta'kidlashicha, bu so'zlar o'zaro bog'liqdir. U bu fikrlarni ikki yo'nalishga bo'lib tashlaydi, ya'ni birinchi yo'nalishda bu so'z ma'noga bog'liq, ikkinchi yo'nalishda esa bu so'z obyektga bog'liq. U, shuningdek, bu usulda alohida terminlarning terminlik ma'nosiga emas, balki leksik ma'nosiga e'tibor qaratilayotganini ta'kidlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, so'zlarning ma'nosi ko'pincha kontekstga bog'liq bo'ladi, ammo terminlar kontekstga bog'liq emas.

Shuningdek, A.Reformatskiy bu terminlarni quyidagicha tushunadi: "To'g'ridan-to'g'ri narsa yoki predmet bilan bog'liq. Chunki ilm-fan va texnologiyada yangiliklar paydo bo'ladi, yangi terminlar paydo bo'ladi. Bu to'g'ri termin hosil bo'lganidan darak beradi. Uni so'z bilan ham taqqoslab bo'lmaydi. Gap shundaki, so'zlarga ko'p ma'nolik xos, lekin terminlar bunday xususiyatlarga ega emas".

Tilshunos-terminologlar orasida terminga ham ekspressiv ta'sirni qo'shib qo'yishadi. Ulardan biri V.N.Proxorova "Terminning emocionalligi haqida" nomli maqolasida shunday deydi: "Agar termin faol ishlatilishi hissiy so'zlardan tashkil topgan bo'lsa, unda u xuddi shu hissiy rangni saqlab qoladi" [7;40]. Bu esa o'ziga xos bo'lmagan xususiyatlarni o'z ichiga oladi, ya'ni ko'proq ifodalovchi so'zlar.

Terminlarning o'ziga xos belgilari va ma'nolari to'g'risida M.Sh.Gasimov o'z ma'ruzasida: "Ma'nolarni ajratib olishda belgilarning bir xilligiga e'tibor qaratish bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, terminlar ma'nosining to'g'riligi nafaqat ma'nolar bo'yicha belgilarni ajratib olish bilan bog'liq, balki bu belgilar qanday turda bo'lishi bilan ham bog'liq" [4; 19].


Shuningdek, terminlarning boshqa leksik birliklardan farqli o'laroq, kamroq farqlarga ega bo'lishi mumkin: termin odatda xarakterga bog'liq bo'lib, so'zlovchining fikriga qo'shimcha ma'no bermaydi yoki qo'shimcha ranglar bilan bo'yashmaydi. Ya'ni aniq tushunchani berish xususiyatiga ega. Termin so'zlar ijodiy so'zlarni ifodalay olmaydi.

Shunday qilib, so'zlar aniq bir dalil, dalil yoki ta'rifni anglatishi mumkin.

Ularning asosiy xususiyatlaridan biri aniqlikdir. Qozog'istonlik olim U.Aytbayuli o'z fikrida atamalarning o'ziga xos bo'lgan belgilarini quyidagicha ifodalaydi: "terminlarga xos aniqlik, ilmiylik va qisqalik bo'lishi kerak, bu belgilar terminlarga xos bo'lishi va saqlanishi kerak" [2; 18]. Bizning fikrimizcha esa, bu belgilar bu terminning asl ma'nosini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1966.
2. Айтбайұлы Ө. Қазақ тил билиминиң терминологиясы мәселелери – Алматы: «Абзал-Ай» баспасы, 2013. 18-б.
3. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды Московского института истории, философии и литературы. М., 1939. Т. 5.12.
4. Гасымов М.Ш. Основы терминологии азербайджанского языка: Автореф. дисс. д-ра филол. наук. Баку, 1972. С.19.
5. Даниленко В.П. О терминологическом словообразовании // Вопросы языкознания. – 1973. – №4. – С. 77.
6. Марчук Ю.Н. Компьютерная лингвистика. - М.: Восток-Запад, 2007. - С.317.
7. Прохорова В.Н. Актуальные проблемы современной русской лексикологии. - М.:Изд-во МГУ, 1973. С. 40.
8. Реформатский.А.А. Введение в языкознание М., 1960, 85-б.
9. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы теории. – М., 1989. С.4.
10. Шевчук В.Н. Производные военные термины в английском языке. – М., 1983. – С. 6.
11. Чаплыгин С.А. Задачи и методы работы по упорядочению технической терминологии // Изв. АН СССР, ОТП, М., 1973.



MARG‘UBA ABDULLAYEVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
filologiya fanlari doktori, professor¹*

KICHIK JANRLARNING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada naql, masal, maqol, hikmat kabi adabiy janrlarning tarixiy asarlarda aks etishi ilmiy jihatdan tekshirilgan. Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Abulgozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlarida tarixiy shaxslar tilidan aytilgan kichik adabiy janrlar tahlil etiladi. Asar mualliflarining xalq naqlari va hikmatli so‘zlaridan foydalanish mahorati, tili va uslubi aniqlangan. Tarixiy asarlarda naql, masal, maqol, otalar so‘zi tarixiy shaxslar “zikri”da yoki ular bilan bog‘liq hikoyatlar tarkibida uchrashi asoslab beriladi. Tarixiy nasrda kichik janrlarning berilishi tarixiy qahramon ruhiyati, xarakter-xususiyatlarini oydinlashtirishga xizmat qilgan. “To‘rt ulus tarixi” va “Shajarayi turk” asarlarida asosan hukmdorlar tilidan aytilgan naql va hikmatli so‘zlar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *naql, masal, hikmat, o‘git, otalar so‘zi, ibratli xulq, “To‘rt ulus tarixi”, “Shajarayi turk”, tahlil, tadqiq.*

Abstract: This article scientifically examines the reflection of literary genres such as proverbs, parables, sayings, and wisdom in historical works. It analyzes minor literary genres expressed through the language of historical figures in Mirzo Ulugh Beg’s “History of the Four Nations” and Abulgozi Bakhodir Khan’s “Shajarayi Turk.” The authors’ mastery of folk tales and wise sayings, their language, and style are revealed. In historical works, proverbs, parables, sayings, and idioms are used based on their frequency in references to historical figures or in the context of stories related to them. The presentation of minor genres in historical fiction served to reveal the psyche and character traits of historical heroes. In works like “History of the Four Nations” and “Shajarayi Turk,” proverbs and wise sayings, spoken primarily in the language of rulers, were analyzed.

Key words: *proverb, parable, wisdom, instruction, father’s words, exemplary behavior, “History of the Four Nations”, “Turkish Genealogy”, analysis, research.*

Kirish. Naql atamasi O‘rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan mavjud bo‘lib, turli xil ma’nolarni anglatgan. Dastlab, folklorning ayrim janrlari shu nom bilan yuritilgan. U adabiy jarayonda yuz berib, turkiy xalqlar madaniyati, axloq falsafasi tafakkuri zahirida paydo bo‘lgan. Naql asosan hikmatli fikr, o‘gitlar majmui. Binobarin, u hayotiy voqea va hodisalardan falsafiy umumlashmalar yaratib, majoziy yo‘l bilan ibratli xulq, muomalani bayon etuvchi hikoya. Demak, naql aql, odob, donolikni ulug‘lab, anglash va baholash imkonini beradi.

Xalq og‘zaki ijodi va mumtoz badiiy asarlarda noqil va naql atamasi juda ko‘p uchraydi. Biri aytuvchi, bayon etuvchi, ikkinchi hikoya ma’nosini anglatadi. Dastlab, qissa, maqol, ertak, matal, topishmoq, dostonlar ham naql deb yuritilgan. Noqil esa naql qiluvchi Noqil o‘rnak olsa arziydigan axloq, odob normalari haqida hikoya qiluvchini bildiradi.

¹ margubaabdullayeva507@gmail.com

Maqsad va vazifalar. Tarixiy asarlarda naql asosan ta’limiy-estetik funksiyani bajaradi. “To’rt ulus tarixi” va “Shajarayi turk” asarida ham xalq naqlaridan samarali foydalanilgan. Qoraxonning o’g’li O’g’uzxon musulmonlikni qabul qilganida, otasi hayratda qolib, “O’g’uzxon jonimdan aziz bo’lsa ham, o’tkir shamshir bilan ishini qilurman. Din-u urfimdanda qaytgan ekan, xanjar bilan boshini kesmoq lozim”, – dedi. Shu voqea tasviri nazm orqali berilgan bo’lib undan kelib chiqadigan naql qo’yidagicha: *“Otasi dinidan kechgan o’g’ulning dilini kiyna tig’i bilan tilmoq lozim”* [8; 45]. Yoki: O’ngxonning Tayangxon nayman qo’lida nobud bo’lishi tasvirlangan she’rda ham *“Dunyoning ishi shu: goh senga sut tutadi, gohida – qon. Podshoh yoki lashkar bo’lmagin, ajaldan qutulolmaysan”* [8; 90]. *“Gumon ahlidek so’z o’g’risi bo’lma”* [8; 100].

“Shajarayi turk”da hukamolar, ulamolar va oqsoqollarning ibratli so’laridan ham keltirilib, asarning ta’limiy-estetik qimmatini oshirishga erishgan. Masalan, hukamolar tilidan: *“hech nimarsaning martabasi to’qquzdan yuqori bo’lmas, nihoyati to’qquz turur”*, deb aytadi. Bu hikmatli so’z mo’g’ullarining to’qqiz xonidan olinganini ham asarning boshqa o’rinlarida aytib o’tadi. Shu kabi dalillar borki, bu tarixiy asarlardagi kichik adabiy janrlarni tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Usullar. Naqlni alohida janr sifatida o’rganish uning xususiy belgilarini oydinlashtirish, xalq madaniyati, tarixi, turmush tajribalari, pedagogik qarash, xulq normalarini bilish va yoritish, shakl-shamoyilini aniqlashda zarur ahamiyat kasb etadi [5; 216]. Naql ibratli hodisa, axloq normalarini bahs uslubida yoritadi. Tabiatdagi barcha narsalar, barcha jonzodlar orasida inson eng komil va eng ulug’ zotdir. Shuning uchun ham har bir odam shu yuksak nomga munosib bo’lishi kerak. Mana shu g’oya asarning o’zagini tashkil qiladi.

A.Husayniy “Badoyi’ us-sanoyi” asarida naqlning ibratli odobni targ’ib etish uslubi haqidagi ta’rifni keltiradi: “Naql uldurkim, o’zga birovning ma’nosin olur va o’zgacha bir libosda zohir qilur” [3; 268]. Naql aytish o’rniga ko’ra farq qiladi. U xohlagan paytda emas, o’rni kelganda, zarurat tug’ilganda hikoya qilinadi.

A.Abdurahmonov “Turkiy xalqlar og’zaki ijodi” kitobida qadimgi turkiy xalqlar adabiyotining janr xususiyatlariga to’xtalib, otalar tomonidan keltirilgan hikmatli so’zlarni “sav” janri sifatida talqin qiladi. Savni adabiy janr sifatidagi o’rnini “Devonu lug’atit-turk”, “Qutadg’u bilig” asarlarida keltirilgan misollar bilan dalillaydi.

*Bordi qadim donolar,
Tog’day yuksak bilimda.
Eslab o’gitlarini
Quvonch ortar dilimda.*

Qadimda donolar va otalar so’zlarini, o’gitlarini “sav” janri sifatida atalganligini ta’kidlaydi. “Sav” voqeyi tasvirga xos bir necha janrning umumlashma nomi, ya’ni hozirgi adabiyotshunoslikdagi epik tur atamasiga yaqin turadi. Devonda “Otlar so’zi” iborasi sav atamasi bilan ham ifodalangan. “Savda shundag’ kelir” – otalar so’zi shundoq keladi [7; 168]. “Otlar so’zi” ham bilik ma’nosiga yaqin turadi, ammo bu ikki atamaning farq qiluvchi xususiyatlari ham mavjud. Biligda dono fikrlar va hikmatli so’zlarning qisqalik, lo’ndalik, ayni paytda ko’chma ma’nolik xususiyatlari mujassamlashadi. Biligning ijodkori zamondosh bilga bo’lishi ham mumkin. “Otlar so’zi”ning janr xususiyati o’tmishdan meros bo’lib qolgan pand-nasihati, axloq, odob ifodalangan asarlarni qamrab oldi” [1; 329].

O’git adabiy janr sifatida “Devonu lug’atit-turk” asarida “o’tluk” tarzida keltirilgan.

Natijalar va mulohaza. Mirzo Ulug’bek asarida “naql” so’zini bir-necha o’rinlarda tilga olib o’tadi. Biroq naqlni to’laligicha bayon etmaydi. Voqealar bayoni jarayonida naqlda keltirilgan ma’lumotni asoslash va xabar etkazish maqsadida eslatib o’tadi. Masalan, Tulixonning Hirotga

yurishi to'g'risidagi ma'lumotlarda ham "*naql qilishlaricha*" jumlasini bilan boshlangan ma'lumotni keltiradi. "Naql qilishlaricha, mavlono Sharafuddin xatib Chig'irton va yana o'n besh nafardan bo'lak tirik jon qolmagan" [8; 175], – deb yozadi. Bundan ko'rinadiki, tarixiy asarlarda "naql" axborot va xabar etkazish maqsadida keltirilgan. Shu bois muallif og'zaki eshitgan yoki biror manbada o'qigan ma'lumotlarini voqealar bayoniga qistirib o'tgan.

Yana bir o'rinda Misr mamlakati zikrida "naql qilishlaricha, Bandqadar hukmronligi davrida xos kishilaridan ikki-uch kishini Rum taraflariga josus qilib yubordi va ehtiyotkorlik o'sha mamlakatning tevarak-atrofini aylanib chiqib, Misrga qaytib bordi" [8; 245]. Mazkur o'rinda muallif "naql" deganda og'zaki eshitgan hikoyani nazarda tutgan ko'rinadi. Va ma'lumotlarni to'ldirish uchun shunchaki, eslab o'tadi.

Bundan tashqari asarda Kebakxon podshohligining zikrida keltirilgan naql diqqatga sazovordir. "Ul (Kebakxon – M.A.) maqtovg'a sazovor xondan shunday nodir xabarlarini naql qiladilarki, bir kuni bir to'da xos xodimlari bilan otga minib ziyoratga chiqdi. Sahroda sayr qilardi. Qazilgan bir chuqurda odam suyaklariga ko'zi tushdi-da, shu yerda turib qoldi. Biroz ularni kuzatib, mulozimlaridan so'radi: Tushunayapsizmi bu suyaklar menga nimalar haqida so'zlamog'da? Uning xos odamlari javobda lol qoldilar. So'ng o'zi javob berib, dediki: Mazlumlari kulayotirki, mendan adolat istaydilar va shohona himmat. Buning ma'nosini chaqmoqchi bo'lib, xazora amirini, bu sarzamin unga taalluqdor edi, suyaklar ahvolini tahkik qilishni va u yerda ular uchun ko'p xususiyatga ega ekanligini nazarda tutib, topshirdi. Sardor ularning yurti bo'lgan qishloqchani surishtirib bildiki, o'sha sanadan uch yil oldin Xurosondan karvon kelayotib, o'sha erga etganda, shu yerlik jamoa ularni o'ldirgan, mollarini talaganlar. O'sha mollarning ba'zisi ularning qo'llarida saqlanib qolgan. Bu voqealar bo'lib o'tgach, qahramon Adolatxon (Kebakxon – M.A.) barcha mollarni va xuniylarni aniqlashga farmon berib, Xuroson valiysiga odam jo'natdi. Unga surishtirib, o'ldirilganlarning vorislarini topib, ularni bo'lgan voqeadan xabardor qilishni topshirdi. Adolatli shoh dargohiga kelganlaridan keyin mollarini xuntalablarga topshirdilar" [8; 315]. Naql qilingan hikoya so'nggida she'r berilgan. Uning mazmuni qo'yidagicha:

Ko'ring bu insofu adolat tartibini,

Ki u o'lganlar ustixonini dodiga etdi.

"To'rt ulus tarixi" asarining boshqa tarixiy manbalardan farqli jihati shundaki, har bir voqelik tasviri ham nasriy, ham nazmiy usulda bayon etiladi. Mazkur naqlda ham xissa-xulosa ikki misra she'rda tasvirlangan.

"Shajarayi turk" asarida ham *xalq naqllari – hikmatli so'zlar va o'gitlardan* ko'plab namunalar uchraydi. Asarda buyuk podshohlar va sarkardalar haqidagi naqlar va ularning o'gitlari – so'zlaridan parchalar berilgan. Jumladan:

Nayman podshohi Tayangxonga O'ngxonni boshini olib kelishadi. Bunday ulug' podshohni va qari kishini nima uchun o'ldirdinglar. Tirik olib kelish kerakligini aytib, beklarini aybladi. Tayangxon O'ngxonning boshiga kumush qoplatib, eshikka qaratib, taxtining ustiga qo'ydi. Bir kuni O'ngxonning quruq kallasi tilini og'zidan chiqarib, tebrandi. O'sha kuni uch marta shunday qildi. Buni naymanning qarilari irim bildi. Shu sababli ular Chingizxondan engilib, qatl etildi [2; 53].

"Masal" arabcha so'z bo'lib, o'rnak, maqol, hikoyat ma'nolarini bildiradi. Mumtoz adabiy istilohda masal termini maqol va frazeologizm ma'nolarida ishlatilgan [14; 146].

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida "savlashdi" janri to'g'risida ma'lumot berilgan. A.Abdurahmonov bu adabiy janrni masal janriga tenglashtiradi. Savlashdi – turkiyda masal aytuvchi ma'nosida ham izohlangan [1; 331].

Tarixiy nasr namunalarida esa bu janr adabiy jarayon talablari asosida ma'lum o'zgarishlar-

ga uchragan. Janr imkoniyatlari kengaygan, umumlashma xususiyatlarni ifodalagan. “Shajarayi turk”da keltirilgan *masallar* maqol va frazeologik birlikni oʻzida ifoda etgan. Abulgʻozi asarida masallardan keltirib, fikrini tasdiqlash va asoslash uchun qoʻllaydi. Masalan, asarning muqaddima qismida “Turkning masali turur: *“Uksuk oʻz kindigini oʻzi kesar”*” [2; 11]. Nazarimizda, Abulgʻozi masal deganda, mumtoz adabiy istilohga koʻra xalq maqollarini nazarda tutgan. Bu oʻsha davrda maqolning masal nomi bilan qoʻllanganini koʻrsatadi. Adabiy janrlar takomilida ham aynan shu holatni kuzatish mumkin. Chunki koʻpgina xalqlar ogʻzaki ijodida maqol va hikmatli soʻzlar, hatto, ertaklar ham masal deb atalganini aytib oʻtish oʻrinlidir.

Abulgʻozi asarining birinchi bobida oʻzbek masalini keltiradi: *“It semirsa egasin qopar”*, degan. Muallif Alanchaxon zamonidagi toʻqchilikka shukur qilmagan xalq ichida budparastlikka asos solinganini tasvirlash maʼnosida bu masaldan foydalangan.

“Bu kungi ishni tanglagʻa solgʻan kishining ishi hech bitmas”. Mazkur maqol Chingizxon tomonidan aytilgan boʻlib, jang qilmaslik uchun otlarini oriqligini bahona qilgan beklariga nasihat qilish mazmunini ifodalaydi.

Chingizxonning oʻz oʻgʻillari va yaqinlariga qilgan nasihatlarida ham naql janriga xos belgilar mavjud. Faqat bu majoziy uslubda emas, real voqealarga asoslangan holda xalq ogʻzaki ijodi anʼanalarini qoʻllash orqali amalga oshiriladi.

Chingizxonning nayman eli ustidan gʻalaba qozongani voqealari tasvirida bir-necha **hikmatli soʻz va maqollarni** keltiradi. “Burunqi yaxshilar aytib turur: *“Oʻn darvesh bir palosning yuzina sigʻar. Ikki podshoh yer yuziga sigʻmas”*, teb” [2; 54]. Yoki naymanning beklari tilidan aytilgan oʻgitni olaylik. *“Turadin va ev, eldin ayrilib, yot yurtga borib koʻr qidirib yuruguncha oʻlgan yaxshi”*. Dushman qoʻlida xizmat qilgandan koʻra jasorat bilan oʻlimni sharaf deb qabul qilishi ham oʻquvchini toʻlqinantirib yuboradi.

Yana shunday naqlardan biri Chingizxon tomonidan Sulton Jaloliddinga qarata aytilgan edi. *“Otadin oʻgʻul tugʻsa, shundoq tugʻsun”*. Chingizxon Sultonning ishlariga taxsinlar aytib, mardligi va jasoratiga qoyil qolganini tasvirlash uchun berilgan, mazkur oʻgit mazmuni shunday. Har bir ota borki, oʻzidan shunday mard farzand tugʻilishini istaydi.

Asarda “Chingizxonning baʼzi masalalari va biliklari va rasm va qoidalari zikri” [Qarang: 2; 80-81]da podshohlarning hukm chiqarishi, har bir kishining qobiliyatiga qarab ish va lavozim berish kerakligi toʻgʻrisidagi oʻgitlari ham asarning taʼlimiy-estetik funksiyasini taʼminlashga xizmat qilgan.

“Berdibekxon bin Jonibekning xon boʻlgʻanining zikri”da ixcham syujetga ega boʻlgan bir masal keltirilgan. “Jonibekxon oʻlgandan soʻng Tabrizdin Berdibekxon Saroyjiq keldi. U kun aza tutdilar. Azadin soʻng tamom shahzodalar va umarolar Berdibekxonni xon qildilar. Bu Berdibekxon ajab zolim taʼb, fosiq, qora va badniyat kishi erdi. Aqa va inisin-da, qarindosh urugʻin-da hech kishi qoʻymay oʻlturdi kim, yurt oʻzumga boqiy qolgʻay teb. Bilmadi kim dunyo foni turur. Axir podshohligʻi ikki yilgʻa etmay tarixi etti yuz oltmish ikkida vafot topdi. Sayinxon avlodi Berdibekda munqatiʼ boʻldi. Holo oʻzbek ichinda **masal** turur: *“Nor boʻyni Berdibekda kesildi”*. Andin soʻng Joʻchixonning oʻzga oʻgʻillarining avlodi podshohlik qildilar” [2; 109].

Yodgorxonning vafot topgani zikrida Abulxayrxonning oʻgʻillari va qarindoshlari oʻrtasidagi taxt talashuvlar orqali koʻp kishi nobud boʻlgani aytilgan mazkur voqeadan, jarayonni tasvirlash maqsadida muallif qari (oqsoqol) kishilarning soʻzlaridan keltirib oʻtadi. *“Otang evin yov chopsa, birga chop”* [2; 118], soʻzlarini keltirib, Berkaxonning ota yurtiga urush qilganini aytib, toʻzgʻigan elni yigʻganini taʼkidlaydi.

“Elbarsxonning Urganchni olganini zikri”da burungi oʻtgan oʻzbeklarning ahli tajribalaridan aytib tururlar: *“Toʻraning davlatli boʻlurining nishoni ul turur kim navkarga mehribon boʻlur*

va badavlatining nishonasi qarindoshg'a mehribon bo'lur" [2; 123]. Elbarsxonning bu so'zlarga amal qilmagani yonidagi beklarining mardakligidandir. U beklarning so'ziga kirib o'z qarindoshlaridan bir-nechasini o'ltirdi. Va buning oqibati ham yaxshilikka olib kelmadi.

Abulg'ozī o'z tilidan kichikligida oqsoqollardan eshitgan o'gitini Dinmuhammadning noto'g'ri ishlari bayonida berib o'tadi. Va bundan o'quvchini to'g'ri xulosa chiqarishga chaqiradi. "biz kichik erkanda oqsoqolliklar aytur erdi: *"Yomon ishni bu ozdur, mundin ne bo'lur"* – teb qilg'uchi bo'lmang. Bizning yurtimiz bir saru ichku sabab bo'lub buzulg'an turur". [2; 129]

Masal janri talablari mos keladigan kichik syujetga ega bir voqea tasvirlangan. Bu aynan masal janrining hikoyat mazmunida qo'llanganini isbotlaydi. Voqea Dinmuhammad bilan bog'liq bo'lib, o'zbek xalqi orasida masalga aylanganligi aytiladi. "Jovdin ayrilg'andin so'ng tirik tushgan beklarni Dinmuhammad sulton oldiga olib keldilar. Bu falon bek, bu falon bek teb sultonning oldindan bir-bir o'tkaza erdilar. Sulton ot ustinda erdi, bir bekni olib keldilar. "Bu kim turur?" – teb so'radi. Olib kelgan kishi "Hofiz qo'ng'irat", tedi. Anda sulton aytdi. "Sen Hofiz hamisha Ubaydxon oldinda Urganch musulmon ermas, kofirdur!" – der ermish sen. Ne sababdin bizni kofir dey turursen?" Anda Hofiz yukundi. Taqi aytdi: *"Ushbu zamon musulmonliq birlan kofirlik ma'lum bo'lur"*. Sulton hech nimarsa temadi. Hofiz qo'ng'iratning bu so'zi shul kundan beri o'zbek orasinda masal bo'lub qoldi" [2; 136].

Yana bir o'rinda Urganchda Qolxon zamonida benihoft arzonchilik bo'lganini aytib, *"Qolxon xon bo'ldi, bir pulg'a bir non bo'ldi"*, deb xalq ichidagi gaplarni keltiradi.

Poyanda Muhammad sulton haqidagi voqealarda ajoyib bir hikoyatni berib o'tadi. "Poyanda Muhammad sulton kam aql erdi. Bir kun otasida ko'runishda o'lturg'anda kelib yukundi-da aytdi: "Mening yoshim Abul Muhammaddin ulug'. Ani xon deytururlar va meni sulton. Sizning hukmingiz birlan aytadurlar yo o'zlari aytadurlar?"

Xon bu so'zga ne aytarin bilmay turub erdi. Xonning bir yaxshi begi bor erdi. Turumchi otli, turkmaning Layna (Labna) urug'indin, benihoyat aqlli kishi erdi. Aning aytg'an yaxshi so'zlari ko'p turur. Ul aytdi: "Muning to'rasini, podshohim, men berayin?"

Xon aytdi: "Andaq qil!" – tedi. Turumchi Poyanda Muhammad sultong'a boqib aytdi: "Sizni xudoyi taolo berganda otangiz sulton erdi. Ukangiz dunyog'a kelganda otangiz xon erdi. Kishining otasi ne bo'lsa – o'g'li shul bo'lur. Sultondan tuqqanni sulton, derlar va xondin tuqqanni xon derlar", – tedi. Bu so'z ahmaqg'a ma'qul bo'ldi, qo'pub ketdi. Ul ham otasidin so'ng vafot etdi" [2; 142].

Mazkur naqlda ham xalqning eng dono, aqlli va donishmand kishilari to'g'risida, ularning yaxshi so'zlari ibrat uchun kitobxonga etkaziladi. "Po'lod sultonning sifati"da u haqdagi bir-necha naqlar hikoya qilinadi. Muallifning aytishicha, kichik paytlarida bu podshoh haqida ko'p naqlar aytilgan. Uning qilgan ishlari xalq ichida unutilib ketmasligi uchun uch-to'rt naqlni keltirib o'tishni ma'qul topadi. Shu naqlardan birida Abdullaxon Urganch ustiga bostirib kelgani aytiladi. Avval kelganida Abdullaxon Yangi ariqdan qaytib ketgan edi. U Yangi ariqda turg'anda yosh yigitlardan besh yuz kishi jang qilishga choqlanganda, Po'lod sulton men ham borurman deb, o'tlanibdi. Inisi Temur sulton yosh o'g'lonlarga qo'shib qayga borursan? – deb, man qilibdi. Barcha beklar ham man etibdi. Qabul qilmay ketibdi. Borib qoravullar bilan urushganda g'olib kelibdilar. Urush qizigandan keyin ajralib bilmabdi. Yovning ko'maki ko'p kelibdi. Qaytib qochibdilar. Po'lod sulton barchadan oldin qochib kelib, otdin tushub, Xevaqlarning darvozasida bo'sag'asiga minib, qulochini yoyib, "kelur bo'lsang, kel! Jov shahrga nechuk kirursan emdi" – deb faryod qilar ekan. [2; 147-148]

Asarda Abulg'ozī tarixi tasvirlangan sahifalarda ham uning tilidan bir o'git bayon etiladi. Abulg'ozī jang paytida yovning qo'lidan qochishga harakat qilib, o'zini suvga tashlaydi. Oti va ki-

yimlari bilan suvda suzish qiyin bo'lganida bir qari kishining unga aytgan o'gitini eslab, u aytgan so'zlarga amal qilib, dushman qo'lidan qutulib ketganligini hikoya qilib beradi. "Bir qari kishi bor erdi. Ul aytur erdi, har qachon jovdin qochganda sarupoy birlan ot yoldasangiz, bir oyoqingizni qo'yushqondin o'tkarib, otning quyruqina qo'yung! Bir oyoqingizni uzangida qo'yung! O'zingiz tik turing! Bir qo'lingiz birlan egarning kin qoshina bosing! Bir qo'lingiz birlan otning jilovini ko'tarib tortib tuting! Mundoq qilmasangiz ot sovutli, sarupoli kishini olib chiqa bilmas, teb" [2; 169].

"To'rt ulus tarixi" asarida O'g'uzxonning xotinlariga munosabati, kichik xotinini sevishi va bundan avvalgi xotinlarining rashk alangasida kuyishi bilan bog'liq voqealar xalq ichida zarbulmasalga aylangani aytiladi [8; 44]. Zarbulmasal deyilganda, O'g'uzxon va uning xotinlari to'g'risidagi hikoyatlar nazarda tutilgan. Naql yuz bergan hodisaga munosabat bildirib, voqea sababini izohlash, tushuntirish, o'git chiqarish, o'rnak qilib ko'rsatish maqsadi paydo bo'lgandagina aytiladi. Naql janrining ana shu xususiyatlari "To'rt ulus tarixi" va "Shajarayi turk" asarlarida yorqin aks etgan.

Xulosa.

1. Naql va masal bir-biriga yaqin adabiy janrlardir. Har ikkalasi ham majozga asoslanadi. Biroq personajlar talqiniga ko'ra farqlanadi. Tarixiy asarlarda keltirilgan naql va masallarda majozga asoslanish xususiyati deyarli uchramaydi. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, tarixiy asarlarda bayon etilgan naql va masal janriga oid syujetlarda majoziy obrazlarga murojaat yo'qolib borgan.


2. Naql va maqol yuz bergan voqea sababini aniqlab falsafiy xulosa chiqaradi, nasixatomuz niyat, g'oyalarni ilgari suradi. Bunday o'xshashlik maqolning hayotiy voqealar sintezi yoki naql zaminidan unib chiqqanligini tasdiqlaydi. Maqol ibratli yoki salbiy hodisani yaxlit fikr, ixcham, obrazli iboralarda lo'nda ifodalasa, naql epik obrazlar munosabati misolida bayon etadi. Maqol va naql yuritilayotgan bahsning xulosasi yanglig' namoyon bo'ladi.

3. Naqlar ma'nosi rang-barang bo'lib, asosan ikki mavzuda yoritiladi: birida bilimdon, to'g'ri, pokiza, mard, tadbirkor, dono, adolatparvar kishilar ulug'lanadi. Ikkinchisida sodda, laqma, ochko'z, xudbin, munofiq, dangasa, kaltafahm, bilimiga amal qilmagan kimsalar rad etiladi. Har ikki mavzuni majoziy ma'no tashuvchi voqea-hodisalar tashkil etadi. Demak, naqlar amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ular aql bilan ish yuritish, doimo sezgir, favqulodda hodisalarga tayyor turish, ziyrak xushyorlikni boy bermay, sergak, faol bo'lish, teran fikrashga da'vat etadi. Sof naqlar majozga asoslanishi, ixcham, soddaligi, voqealarning ishonchli talqini bilan ajralib turadi. Sof naqllarda pand-nasihati va o'git shartli, ramziy obrazlar nutqida ayon bo'ladi. Bu borada "Ikki qarg'a" naqli o'rinli misol bo'ladi. "To'rt ulus tarixi" asarida "Qobil va Hobil" voqealari tasvirlangan o'rinlarda "Ikki qarg'a haqida"gi naql keltirilgan. "Aytishlaricha, bir muddat Hobil murdasini ko'tarib yurgan va uni nima qilishini bilmagan. Bir kuni bir yurtga borgan, qarasa, bir qarg'a boshqa qarg'a bilan jang qilmoqda. Biri o'ldirildi, tirik qolgan qarg'a, o'lik qarg'ani tuproq ostiga berkitdi" [8; 19]. Naqlidagi majoziy obrazning qilgan ishi keyinchalik odam o'lganda erga ko'mish rasmiga asos bo'ldi. Va bu amalni birinchi joriy qilgan Qobil bo'ldi.

4. O'zbek xalq naqlari ibratli axloq normalarini targ'ib qilish, belgilashda, yomon illatni inkor etishda timsoliy obrazlarga asoslanishi, sifatlash, o'xshatish, istiora kabi badiiy tasvir vositalariga tayanishi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, naql ekspozitsiyasi qisqa va sodda bo'lib, voqealarning o'rni, shart-sharoiti, qahramon tabiati vazifasi, raqib personaj haqida ma'lumot beradi. Uning boshlanmasi "naql qilibdurlarkim", "hikoya qilishlaricha", "aytishlaricha" kabi an'anaviy kirish bilan boshlanadi. Voqealar ko'tarinki ruhda davom etadi. Tugun kutilmaganda yuz beradi. U voqealar harakatini boshlovchi vosita, syujetning tarkibiy qismi, nihoyat o'git tashuvchi hodisa sababini aniqlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov A. *Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. (Eng qadimdan islomgacha bo'lgan davr)* – Samarqand. 2006. – B. 329.
2. Абулғозий. *Шажарайи турк.* – Тошкент: Чўлпон. 1992. – Б. 190.
3. Атоуллоҳ Хусайний. *Бадойиъ ус-санойиъ.* – Тошкент: 1981. – Б. 268.
4. Зоҳидов В. *Юксак нафосат ва мангу ҳикмат обидаси. “Калила ва Димна”.* – Тошкент: 1966. – Б. 3.
5. Имомов К. *Ўзбек халқ насри поэтикаси.* – Тошкент. Фан. 2008. – Б. 214.
6. *Киргизско-русский словарь.* – М., 1965. – С. 550.
7. Кошғарий. *Девону лугатит турк. 1-том.* – Тошкент: 1963. – Б. 330-333.
8. Мирзо Улуғбек. *Тўрт улус тарихи. (Бўрибой Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳририда; Форс тилидан тарижима).* – Тошкент: Чўлпон. 1993. – Б. 352.
9. *Таджикско-русский словарь.* – М., 1954. – С. 219.
10. Тилавов Б.Т. *Поэтика таджикских народных пословиц и поговорок.* – М., 1967. – С. 260.
11. *Ўзбек классик шеърятини жанрлари. Ўқитувчи.* – Тошкент: 1979. – Б. 146.



ORALBEK A.

M.O. Avezov nomidagi Adabiyot va san'at institutining ilmiy xodimi¹

QOZOQ SHOIRLARI OQIT ULIMJIULI VA ABDIGALI SARIYEVNING ASARLARIDA DINIY-MA'RIFIY YO'NALISH KAZAK ŞAIRLERİ AKIT ÜLİMJIULI İLE ABDİGALİ SARIYEV'İN ESERLERİNDE DİNİ-EĞİTİCİ YÖNELİM

ÖZ: Kazak şiirinde dinî-eğitici yönelimi incelerken, özel bir önem verilmesi gereken manevi miraslar arasında XIX. yüzyılın sonları ve XX. yüzyılın başlarında yaşamış şairlerin bıraktığı edebî mirasların da olduğu görülmektedir. Bu şairlerin eserleri, o dönemdeki dinî ve eğitici fikirleri anlatmanın yanı sıra, millî bilinci uyandırmaya ve manevi değerleri canlandırmaya yönelmiştir. Onların yapıtları, Kazak toplumunun kültürel ve manevi gelişiminin önemli aşamalarını belirlemiş ve millî düşüncenin oluşumuna büyük katkılar sağlamıştır. O dönemin şairlerinin şiiri, İslami dünya görüşünü yaymakta ve dinî değerleri sanatsal bir dille aktarmanın seçkin bir örneğini sunmaktadır. Aynı zamanda onların eserleri, eğitici düşünceleri geliştirme özelliği ile öne çıkar; bu yolla şairler, Kazak halkının eğitime ve bilime olan ilgisini artırarak toplumsal ve kültürel değişimlerin ön koşullarını oluşturmada önemli bir rol oynamışlardır. Bu bağlamda, Akıt Ülimjiuli (1868-1940) ve Abdilgali Sariyev (1901-1964) gibi şairlerin eserleri, Kazak manevi hayatının oluşumundaki önemli aşamaları kapsamış, halkın dinî dünya görüşü ve ahlaki değerlerini güçlendirmeye odaklanmıştır. Milli manevi mirasın ayrılmaz bir parçası haline gelen bu eserler, Kazak kültüründe dinî-eğitici yönelimin oluşumuna önemli katkılar sunmuştur. Şairlerin eserlerinin en temel özelliği, İslami dünya görüşüne dayanan eğitici içeriklerini derinlemesine işlemeleridir. Bu eserler, her bireye hayattaki hedeflerin temelini Allah'ın rızasını kazanmak olduğunu anlatmaya çalışmış, insanları riyakârlık, gösteriş, kibir ve bencillikten uzak durmaya davet etmiştir. Şairlerin eserleri, insanın karakterini İslam'ın ideallerine uygun şekilde geliştirmeyi ve kemale ulaşma çabasını teşvik etmeyi amaçlamaktadır.

İslami dünya görüşü bağlamında, Akıt Ülimjiuli'nün eserleri, tarikat yolunun öğretilerini özümseyen, bireyin kendini tanımasını ve manevi arınmaya yönelmesini amaçlayan bir öğreti olarak öne çıkar. Akıt'ın eserleri sadece dinî bir vaaz niteliğinde değil, aynı zamanda insanı mükemmelliğe ulaştıran bir eğitim aracı işlevi görmüştür. Şairin çalışmalarında, onun manevi arayışları ve içsel temizliğe yönelik çabaları açıkça görülmektedir. Abdilgali Sariyev'in eserlerinin içeriğinde ise bireyin manevi değerler aracılığıyla kendini yenilemesi ve güzel ahlak geliştirmesi fikri ağır basmaktadır. Özellikle şiirlerinde, insanın yaratıcıdan gelen erdemli özellikleri öne çıkarılarak yüceltilmiştir.

Giriş

Geleneksel Kazak Müslümanlığı, dünya görüşü açısından tasavvuf felsefesine dayanırken takip edilen yolun İmam Azam Ebu Hanife mezhebi olduğunu söyleyebiliriz. Bunların her birinin

¹ ORCID: 10000-0002-0600-7006

Ora-10@mail.ru

insanlık tarihinin eski dönemlerinden kök salan kaynakları vardır. Örneğin, tasavvufun dünya görüşüne ait unsurlar, İslam öncesi dönemlerde de mevcuttu. Buna, Filozof Platon'un sezgi ve soyut düşünceyle ilgili fikirlerini örnek olarak verebiliriz. Aynı şekilde, İmam Azam Ebu Hanife mezhebi, Kazak anlayışına yerleşmeden önce pek çok aşamadan geçerek olgunlaşmıştır. İslam dinini bütüncül bir forma kavuşturma yolunda Kur'an ilmini uzmanlıkla tefsir ederek temel bir ilim hâline getiren "Beyzavi ve Razi gibi müfessir âlimler; hadis ilminde mihenk taşı olan İmam Buhari ve İmam Tirmizi gibi büyük âlimler; akaid inanç esasları ilminin temellerini atan Maturidi ve Eş'ari gibi imamlar; şariat ilmini sistemleştiren Ebu Hanife, Ebu Yusuf ve Merginani gibi fıkıh âlimleri; tasavvuf ve ruhaniyet ilminin zirvesinde yer alan Yusuf Hamedani ve Hoca Ahmet Yesevi gibi veliler, Kur'an ve Sünneti esas alarak İslam dinini bütünlüklü bir şekilde sistematik hâle getirmiştir" [1]. Bu âlimlerin oluşturduğu ilim, Kazak bozkırlarında yayılan Müslümanlığın temelini oluşturmuş ve X. ile XX. yüzyıllar arasını kapsayan dinî-eğitici düşüncenin de başlangıç kaynağı hâline gelmiştir. Dolayısıyla, adı geçen dinî-eğitici şahsiyetlerin, dinî bakış açısı açısından bu bilginlerin ilimleriyle donandığını, İmam Azam Ebu Hanife'nin mezhebini takip ettiklerini, öğrenci yetiştirmede ve eğitim-öğretimde Hoca Ahmet Yesevi'nin yolunu izlediklerini ve dönemlerinin düşünürleri ile dinî-eğitici öğretmenleri olduklarını söylemek yanlış olmaz.

Dinî-eğitici akım, tüm Doğu'da ve Orta Asya ülkelerinde geniş bir şekilde yerleşmiş olup bu derin tarihe sahip akımın Kazak halkının geçmişi ve bugünü açısından büyük bir öneme sahip olduğu görülmektedir. Aslında, Kazak halkının Ekim Devrimi'ne kadar süren kabilevi-patriyarkal ve feodal toplum yapısının ardından Bolşevik sistemine ve Sovyet politikasına başlarda direnç göstermesinin temel nedenlerinden biri, toplumda sağlam bir şekilde yer etmiş olan İslam dininin prensipleri ve buna dayalı dinî-eğitici akımın etkisidir. XX. yüzyılın başlarında Kazak topraklarında yayılan ulusal kurtuluş hareketlerinin liderlerinin arasında din adamlarının bulunması bir tesadüf değildir.

Dinî-eğitici akımın önde gelen temsilcileri arasında Makış Kaltayev, Ebubekir (Kerderi) Şokanov, Nurjan Nauşabayev, Akıt Ülimjiuli, Abdigali Sariyev gibi isimler sayılabilir. Bu bağlamda, Akıt Ülimjiuli ve Abdigali Sariyev'in eserlerine odaklanmak yerinde olacaktır.

1. Akıt Ülimjiuli: Eserleri ve Dini-Eğitici Eğilimi

Akıt Hacı'nın hayatı ve eserlerine dair ilk bilgilere, 1898 yılında Rus Türkolog N. Katonov'un "Deyatel" dergisinde Akıt'ın eserleri hakkında yayımladığı ilk özel makalede rastlanmaktadır [2]. Akıt Ülimjiuli, XIX. yüzyılın sonu ve XX. yüzyılın başlarında yaşamış, Altay ve Kobda bölgesi Kazakları arasında dindarlığıyla tanınmış ve eserleriyle kalıcı bir iz bırakmış, seçkin bir şairdir. O, ünlü bir Kazak şairi, dinî lider ve halk eğitimcisidir.

Avaz ijodida tashbehning qator namunalari kuzatiladi. Quyidagi baytning ilk misrasida **tashbehi sareh** (ochiq o'xshatish), ikkinchi misrasida **tashbehi jam'**ni ko'rish mumkin:

Malohat avjida husning qamardek,

So'zing lazzatda **qand** ila **shakardek.** (Avaz O'tar, inv.№7102:214)

Navbatdagi baytda **tashbehi mo'kad** (ta'kid yo'li bilan o'xshatish) mavjud:

Nigorimkim, erur asru sitamgar,

Qoshi – yo, kirpiki – oq, chashmi – kofar. (Avaz O'tar, inv.№7102:79)

Tashbehi tafzil qo'llanilgan quyidagi baytda shoir oldin ma'shuqa yuzini kun – quyoshga mengzaydi, ammo o'z o'xshatishidan qaytib, oftobdan mahbuba yuzining ustunligini "Anga har tun **zavol** erdi, munga har kun **kamol** erdi" so'zlari bilan dalillaydi:

Yuzining mehrini kundek demak behudago'likkim,

Anga har tun **zavol** erdi, munga har kun **kamol** erdi. (Avaz O'tar, inv.№7102:362)

Avaz quyidagi baytda yorning beqaror ko'zlarini elni oziga jalb qiluvchi ikki chobuk g'izolga qiyoslaydi:

Bordur latofat gulshani ichra, nigoro, **ko'zlaring**,

Elni o'ziga qilg'uchi moyil **iki chobuk g'izol**. (Avaz O'tar, inv.№7102:222)

Bunda navoiyona qiyos ta'siri seziladi. Hazrat Navoiy "Sho'x ikki g'izolingni noz uyqusi-dan uyg'ot" misrasida yor ko'zlarini ikki g'izolga qiyoslaydi. Avaz baytida tashbeh (ko'zlarning ikki chobuk g'izolga o'xshatilishi) va istiora (latofat gulshani) singari badiiy san'atlar vositasida mazmun go'zal badiiy shaklda beriladi.

"Navoiy metafora va o'xshatishlarida narsalarning tashqi mushohadalarigagina emas, ko'proq, narsalar, hodisalar, kartinalar orasidagi ichki mushobahadlar, bog'lanishlar, munosabatlarga zo'r ahamiyat beradi. Buning natijasida yangi poetik birikmalar, yangi poetik majozlar yaratadi, badiiy vositalari xazinasini boyitadi, she'rning obrazlilikini quyuqlashtiradi. Bir misrada ifodalangan poetik ma'no bilan keyingi misradagi so'zlar orasida ichki bog'lanishlar topadi, yangi, mantiqan bir-biridan kelib chiqqan va butun butun bir lavha chizadi" (Oybek, 1979: 42). Shu kabi Avazning quyidagi baytida zulqofiyatayn san'ati (ko'zlaringg'a – so'zlaringg'a, xunborim – ash'orim), muvozan (misralardagi so'zlarning vazndoshligi, *ey* va *nazm* so'zlarini istisno qilganda), shuningdek, *chashmi* va *ushbu* so'zlaridagi yangroqdosh "*sh*" tovushining ishtirok etganligi baytning xushohangligini, jozibadorligini ta'minlash orqali estetik ta'sirni kuchaytirgan bo'lsa, mahbuba ko'zlariga oshiqning qon to'kuvchi diydalarining hamda purma'no, dilxush so'zlariga muallifning sermazmun, dilkash ash'orining bag'ishlanishi mantiqiy uyg'unlikni yuzaga keltirgan. Ayni o'rinda xunbor ko'zlarning buloqqa tashbeh qilinishi (*chashmi* xunbor)da ham tasviriylik va ta'kid kuchli: buloqdan qaynab chiqqan suvning tinmay oqishi va oshiq ko'zlaridan ashkning betinim to'kili-shi davomiylik nuqtai nazaridan uyg'unlik kasb etsa, buloqning va ko'zning ko'rinishi shakliy mutanosiblikka asos bo'lgan:

Ko'zlaringg'a, *ey* qaroko'z, *chashmi* xunborim fido,

So'zlaringg'a *nazm* bo'lg'on *ushbu* ash'orim fido. (Avaz O'tar, inv.№7102:18)

"Ijodkorlarning badiiy mahorati, eng avvalo, uning mazmun va shaklga munosabati bilan belgilanadi" (Hasanov, 1993:67). "San'atda ... uyg'unlik muhimroq" (Rustamov, 1979:33). Shakl va mazmunni mutanosiblashtirish yo'lidan borgan Avaz ijodida she'riy san'atlarning g'azaldan g'azalga takomillshtirib borilganini kuzatish mumkin. "Har kishikim, gar o'zin ishq ichra hayron aylagay" boshlanmali g'azalda ilk misrada bitta **zulf** tilga olinib, navbatdagi baytda oshiq xotirining oshufta (*parishon*) va ta'bining *parishon* bo'lishida **zulf**, xotir hamda ta'b *parishonlik* belgisiga ko'ra mantiqan uyg'unlashgan. Shuningdek, **zulfi** mushkin izofaviy birikmasida **zulf** hamda mushk qoralik va xushbo'ylik belgisi e'tiboridan tashbihi muyaqqad (faqat mushabbih va mushabbihun bihdan iborat)ni yuzaga keltirgan:

Kimsakim, ul **zulfi mushkin** sori rag'bat aylasa,

Xotirin oshufta-u ta'bin parishon aylagay. (Avaz O'tar, inv.№7102:344)

Shoir "Har kishikim, orzuyi vasli jonon aylagay" boshlanmali g'azalida tasviriylikni oshirish, mazmunni go'zal libosda berish maqsadida ayni detallarga kengaytirgan holda qayta murojaat qiladi:

Kimki yorin **xol** ila **zulf-u xatin** fikr aylasa,

Xotirin oshufta-u ta'bin parishon aylagay. (Avaz O'tar, inv.№7102:350)

Bunda dastlabki misrada uch detal – yorning **xoli**, **zulfi** hamda **xati** ketma-ket kelishi ta'dil san'atiga asos bo'lgan va navbatdagi misrada yorning **xoli**, **zulfi** hamda **xatini** o'ylash xotir va ta'bning *parishon* bo'lishiga sabab sifatida keltirilgan.

Shoir she'riyatini bezagan san'atlardan yana biri – husni ta'lildir. "Husni ta'lil san'ati baytda ifodalanayotgan hayotiy voqea, hodisa yoki holatga g'ayritabiiy, ya'ni haqiqiy bo'lmagan biron

sabab ko'rsatish, shu vosita orqali u yoki bu g'oyaviy-badiiy niyatni amalga oshirish, biron g'oya yoki fikrni ta'kidlab ko'rsatishni nazarda tutadi" (Hojiahmedov, 2008:18). Avaz O'tar husni ta'lil san'atiga murojaat qilib, g'ayritabiiy talqinga asoslangan bir qator yorqin badiiy lavhalar yarata-di. Uning ijodida gul, quyosh timsollari zaminida yaratilgan husni ta'lilning chiroyli namunalari-ni ko'ramiz. Quyidagi baytda gulning ochilish holatidan mahbuba go'zalligini obrazli tarzda if-odalashda mohirona foydalanilgan:

Burqa'in olg'och jamolidin chamanda ul go'zal,

Jaybini chok aylabon bo'ldi base bechora gul. (Avaz O'tar, inv.№7102:236)

Tabiiy holat – gulning ochilishi g'ayritabiiy tarzda – chamanda yuzidan pardasini ko'targan go'zalning jamolini ko'rib, ko'ksini chok qilgan – deb badiiy talqin qilingan. Tashxis san'atiga asoslangan bu tasvirda insonga xos "jaybi (kiyimning yoqasi)ni chok qilmoq" xususiyati gulga ko'chirilgan va husni ta'lil ma'shuqa yuzining guldin ham latifroq ekani, go'zalligi, latofatini ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, "Jaybini chok aylabon bo'ldi base bechora gul" misrasida shoirning gulni "bechora" deb ta'riflashida unga xayrixohligi, uni o'zi kabi xor-u zalil ko'rishi sezilib turadi. Aytish mumkinki, ijodkor "bechora gul" timsolida zor-u nizor oshiq, mazlum kishilar obrazini ham umumlashtirishga erishgan.

"Adabiyotimiz tarixi shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi bo'lib kelgan" (Hojiahmedov, 1998: 3). Quyidagi yorqin husni ta'lil shoirning badiiy tafakkuri quvvatini namoyon qiladi:

Bulbuli shaydoni bag'rig'a urar xori firoq,

Bu jihatdin bo'lg'usi so'ngra so'lub ovora gul. (Avaz O'tar, inv.№7102:236)

Gulning avval nafis va maftunkor bo'lib ochilib, so'ngra so'lishini nazarda tutgan shoir husni ta'lil san'ati asosida chiroyli bir fikrni ifodalagan. Gulning so'lishiga sabab "uning bulbuli shay-doning bag'riga tikanlarini sanchganligi" deb g'ayritabiiy dalil keltirgan. Shoir yaratgan ushbu g'ayritabiiy talqindan ijodkor ko'zlayotgan asosiy maqsad tabiiy jarayon – gulning so'lishi tas-virini berish emas, balki "birovning diliga ozor bergan, yuragiga nishtar sanchgan kishi muqarrar halokatga mahkumdir" degan ta'kididir.

Quyidagi baytda Avaz quyoshni go'zal mahbubaga oshiq bo'lgan siymo sifatida tasvirlar ekan, oftobning tabiiy xatti-harakatini husni ta'lil san'ati asosida ta'sirchan ifodalaydi:

Ey, jamoling volasi gar ermas ersa oftob,

Ne uchun qilg'usidur tinmay hamisha iztirob. (Avaz O'tar, inv.№7102:36)

Avaz oftobning haroratli ko'rinishini, titrab turgandek holatini g'ayritabiiy sharhlash orqali mahbuba malohatini ta'kidlashni maqsad qiladi va quyoshning iztirobi (beqarorligi)ga yor jamoli-ga maftun-u shaydolikni sabab qilib ko'rsatadi. Bunda Atoiy va Ogahiy qo'llagan an'anaviy husni ta'lilning yangicha ifodasi ko'zga tashlanadi.

Quyidagi baytda quyoshning botishi manzarasidan unumli foydalanib, husni ta'lilning chiroy-li namunasi yaratilgan:

Bu dam yorim olsa yuzidin niqob,

Bo'lur zarradek nopadid oftob. (Avaz O'tar, inv.№7102:38)

Shoir ta'riflayotgan mahbuba shu qadar go'zalki, u yuzidan niqobini olganda, nurli ruxsori-ni ko'rgan oftobning ko'zlari qamashib, zarradek g'oyib bo'ladi, botadi. Baytda ifodalangan hayotiy haqiqat va badiiy talqin o'rtasida hech qanday mantiqiy aloqa bo'lmagani holda ularni o'zaro bog'liq deya taqdim qilinishi – shoir g'oyaviy-badiiy niyatining hosilasidir. Shoir quyoshning botishini mah-buba chehrai olamtobining nuriga dosh berolmaslik ifodasi sifatida g'ayritabiiy talqin qilish orqali yor latofatining behad go'zalligi, yuzlarining nihoyat darajada nurliligini ta'kidlashga erishgan.

Avaz ijodida navoiyona uslubda yaratilgan husni ta'lil namunalari ham ko'ramiz:

Nega har kunda so'yi Sharqdin, ey mah, tulu' aylar,

Yuzing nurig'a xurshid ermasa bo'yla agar muhtoj. (Avaz O'tar, inv.№7102:69)

Shoir quyoshning har kun Sharqdan chiqishini uning porlab olamga ziyo taratish uchun mahbubaning munavvar chehrasidan nur olishga muhtojligi bilan izohlaydi. Misradagi "bo'yla" so'zi esa xurshidi olamning bu holati oshiqning mahbuba iltifotiga muhtojligiga qiyoslanayotganidan dalolat beradi. Bundan anglashiladiki, shoir oshiq iztiroblari, uning yor vasliga ehtiyojmandligini obrazli tasvirlash maqsadida husni ta'lil san'atiga murojaat qilgan. Bu - Navoiy an'anasining shoir ijodidagi davomidir. Binobarin "Alisher Navoiy... muhim bir kashfiyotdan she'riyatimizni bahramand qildi: u husni ta'lil san'atini o'zi chizayotgan lirik qahramonning qiyofa-yu tuyg'ulari, sevgilisiga bo'lgan sidq-u vafosi, hijron damlaridagi dardli kechinmalarini ta'sirchan ifodalash uchun ham qo'llay boshladi" (Hojiahmedov, 2008:73). Avaz uning bu kashfiyotini o'z ijodiga muvaffaqiyatli tatbiq qilib, husni ta'lilning betakror namunalari poetik tasvirga jalb qilgan. Buni yuqoridagi misol ham tasdiqlaydi. Shuningdek, quyidagi husni ta'lil ham Navoiy ta'sirining samarasidir:

Dilbarim ruxsori birla bahs etib ta'diblar –

Ko'rdi tong bodi yelidin jaybin aylab pora gul. (Avaz O'tar, inv.№7102:236)

Gul tojibarglarining yirtilgan matodek qat-qat bo'lib turganini kuzatar ekan, shoir gul mahbubaning latif, nafis ruxsori bilan husn talashib bahs etgan, buni ko'rgan tong nasimi gulga ta'dib berib, uning ko'ylagi yoqasini – jaybini pora-pora qilgan, deya sharhlaydi. Hayotiy holatga bu tarzda g'ayritabiiy sabab ko'rsatish hazrat Navoiy yaratgan husni ta'lil namunalari ta'sirining bir ko'rinishidir. Bunda Hazrat ijodidagi "Oy sening go'zal yuzing bilan talashgani uchun go'yo Quyosh panjasi bilan uning yuziga shapaloq tortib yuborgani tufayli yuzi ko'kimtirdir" mazmunidagi husni ta'lildagi badiiy talqin qilish tarziga monandlik mavjud:

Oy yuzing birla talashdi buki ko'ktur orazi,

Panjasi birla quyosh go'yo yuziga urdi koj. (Navoiy, 2011:98)

Xulosa: Avaz O'tar mumtoz she'riyatimizdagi she'riy san'atlarni ma'no xarakteri, obraz talabi, ohang yo'llariga ko'ra mahorat bilan qo'llagan. Uning ijodida qo'llanilgan tashbeh, husni ta'lil san'atlari shoir maqsad qilgan fikrni poetiklashtirishga xizmat qilgan. Shoir ijodida mazkur san'atlarning Hazrat Navoiy ijodida uchramaydigan yetuk namunalari kuzatiladiki, bu Avaz badiiy mahoratining yuksakligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. *To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 2-jild. Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.

2. Alisher Navoiy. *To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 3-jild. Xazoyin ul-maoniy. Badoye' ul-vasat.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.

3. Avaz O'tar. *Devon. O'zR FASHI, Qo'lyozma, inv. № 942.*

4. Avaz O'tar. *Devon. O'zR FASHI, Qo'lyozma, inv.№ 7102.*

5. Haqqulov I. *Avazning she'riy mahorati haqida.* // Qobulov N., Mo'minova V., Haqqulov I. *Avaz va uning adabiy muhiti.* – T.: Fan, 1987. – B. 179.

6. Hasanov S. *Sab'ai sayyorning badiiyatiga doir// Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari.* – Toshkent: Fan, 1993.

7. Hayitmetov A. *Adabiy merosimiz ufqlari.* – T.: Fan, 1957. – B. 209-210.

8. Hojiahmedov A. *Husni ta'lil san'ati.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 18.

9. Hojiahmedov. A. *She'riy san'atlar va mumtoz qofiya.* – T.: Sharq, 1998.

10. Oybek M.T. *Mukammal asarlar to'plami. 19 tomlik. T.13.* – T.: Fan, 1979. – B.42.

11. Rustamov A. *Navoiyning badiiy mahorati.* – T.: Adabiyot va san'at nashr., 1979. – B.33.

SURAYYO DUSKARAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
tayanch doktoranti

“MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” ASARIDA SHE’RIY PARCHALARNING O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Muhokamat ul-lug‘atayn” asaridagi she’riy parchalar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: lingvistik, nutq, ruboiy, bayt, uslub, adabiyotshunos, fors tili.

Annotation: This article deals only with “Muhakamat ul-lughatain”. More precisely, the poetic fragments expressed in this work were taken as the main object of the study.

Keywords: linguistic, speech, rubai, verse, style, literary critic, persian language.

Kirish. Alisher Navoiy o‘zbek adabiyotining eng porloq quyoshi sifatida haqli ravishda e’tirof etilgan. U kishining olimligi ham qomusiylik kasb etgan. Uning tarix, ma’naviyatshunoslik, falsafa, din tarixi, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasiga oid qarashlarini aks ettirgan bir qator asarlari yaxshi ma’lum. Ular orasida “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Majolis un-nafois”, “Riselayi muammo”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon” singari asarlar o‘z mazmun va mundarijasi bilan ham, qo‘yilgan masala va muammolarning insonni hayratga soladigan darajadagi yechimlari bilan ham ajralib turadi.

Ushbu maqolada faqat “Muhokamat ul-lug‘atayn” [1] haqida so‘z yuritiladi. Aniqrog‘i, mazkur asarda o‘z ifodasini topgan she’riy parchalar tadqiqot uchun asosiy obyekt qilib olindi.

Alisher Navoiyning olimlik faoliyati doirasida uning tilshunosligi alohida mavqe va obro‘ga ega. Olimlar uni bu borada qiyosiy tilshunoslikning otalaridan biri sifatida e’trof etishadi. Haqiqatda ham uning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari (1499-yilda yaratilgan) olimga shunday sharafni keltirgan.

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari mana shunday boshlanadi: “Alhamdu lillohi imtoza-l-insona alo soiril-maxluqoti bisharafi-n-nutq-va-l-lisoni va azhara min azubati lisonihi va halovati bayonihi sukkari-sh-shukri va shahdi-sh-shuhudi va-l-imtinoni” 1. Tarjimasi : “Arabchadan tarjima: “Insonni nutq va til bilan sharaflab, tilining shirinligi, fikr bayon etishining go‘zalligi, shukr aytishning shakari, (Ollohning birligiga) guvohlik berishining asali va minnatdorchiligi tufayli uni (insonni) yaratgan, barcha boshqa jonzodlardan ulug‘ va mumtoz qilgan Ollohga hamdu sanolar bo‘lsin”)¹ .

Allohgga hamd mumtoz asarlar boshlanmasidagi an’anaviy kirish vazifasini ado etadi. Alisher Navoiy ham mana shu an’ananing ichida yashagan ijodkor sifatida bunga to‘la rioya qiladi. Ayni paytda, xuddi shu yerning o‘zida u asosiy maqsadni ham oldinga suradi. Asarning inson nutqi bilan bevosita aloqadorligini maxsus urg‘ulaydi. **R u b o i y:**

Ey so‘z bila qilg‘on ofarinish og‘oz,

Insonni aroda aylagon mahrami roz

Chun “kun fayakun” safhasiga bo‘ldi tiroz

¹ Alisher Navoiy. MAT, Muhokamat ul-lug‘atayn. (Matnni P.Shamsiyev nashri asosida izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlovchi S.G‘aniyeva). 20 jildlik, 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000. 7-bet.

Qilg'on oni nutq ila boridin mumtoz"².

Baytlar so'zning mo'tabar va ilohiy ekanligini izohlaydi. Uning mo'tabarligi shundaki, hatto olamning yaratilishining o'ziyoq bevosita so'zga bog'liq bo'lgan. Ilk aytilgan so'z "Bo'l" ma'nosini berar edi. Shundan olam yaraldi, bo'ldi. Mana shu so'z ma'nosini anglash imkoniga ega bo'lgan insonning yaratilishi ham shu silsilaga daxldor. U shu so'z aytilgan sahifaning munosib bezagi bo'ldi. So'zga bog'liq holda insonga nutqning ham in'om etilishi insonni mutlaqo aziz va mukarram qildi.

Ko'rinadiki, mazkur she'riy parcha adibning dunyoqarashi asosida turgan metodologiya haqidagi muhim ma'lumotlarni aks ettirmoqda. Olimning butun ilmiy qarashlari o'sha davr falsafasiga ma'lum bo'lgan ilmiy-nazariy ma'lumotlar tizimi bilan uyg'undir. Buni akademik A.Rustamov "Hazrati Navoiyning diyonati, ya'ni dini-yu barcha faoliyati islom aqoyidining tariqat martabasiga asoslangan"³, – deb izohlagan edi.

"Subhonolloh, ne qudrati komiladurkim, insonni "Xammartu tiynata odama biyadi arba'ina sabohan" ("Odamning loyini qirq tong pishitib qo'ydiim") 3 karimasi mazmuni birla "allam alasma kullaha!" ("Hamma ismlarni o'rgatdi"). 4 qobiliyati berdi va ani "al-mutakallim" ("Men aniqroq va chiroyliroq gapiraman") ismi mahzari qildi. Va to ul bu mazhariyat sharafigin jami'i maxluqotqa sarafroz bo'ldi va bu tashrif bila borisidin imtiyoz topti".

"Subhonolloh"– pok, pokiza, har qanlay gunohlardan xoli Allohning sifati ma'nosini beradi. U taajjubni ifodalash imkoniga ega bo'lgan so'zdir.

Alisher Navoiy insonning so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishni, nutq sharafiga muyassar bo'lishni yuksak ijtimoiy ahamiyatga molik ekanini shu xilda ifodalaydi. Adib tilga ijtimoiy hodisa sifatida baho beradi. Tilni insonni butun boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi asosiy belgi sifatida ta'kidlaydi. Yaratuvchi insonga o'zaro so'zlashish, muloqot uchun "qobiliyyate berdi" va "ul bu mazhariyyat sharafigin jami'i maxluqotqa sarafroz bo'ldi va bu tashrif bila barisidin imtiyoz topti.

Ruboiy:

Ya'niki, chu olamni yaratti Ma'bud,
Olam eliga qudrat ila berdi vujud.
Inson edi maqsudki, bo'ldi mavjud,
Insondin ham habibi erdi maqsud". [2,7].

Mazkur parcha yuqoridagi nazariy qarashlarning she'riy asosnomasidir. Zero, ilk misra avval olamning Alloh tomonidan yaratilgani haqida bo'lsa, keyingi misra uning o'z qudrati vositasida odamni ham paydo qilgani haqida bitilgan. "Olam eli" birikmasi mana tushunchaning poetik ifodasidir.

"Insondin ham habibi erdi maqsud" Navoiyning islomiy e'tiqodidan kelib chiqqan hamda Qur'on oyatlariga mos va munosib bo'lgan she'riy ifodaning o'ziga xos xulosasidir.

Shundan keyin keltirilgan ruboiy ularga hamohang:

R u b o i y:

Ul vaqtiki, ne olam edi, ne odam,
Qilmaydur edi bularni sun' ilgi raqam.
Chun ul o'zining xilqatidin urdi dam,
Mantuqi edi "kunta nabiyan fafham"⁴.

7. Tarj. ar.: "Unga (payg'ambarlarga), yoqimli xislatli oilasiga va pokiza sahobalariga Ollohning salovati va ko'pdan-ko'p salomlari bo'lsin".

Navoiy so'zga yuksak baho beradi. Uni daryo tubidagi duru javohirlar bilan qiyoslab ko'rsatadi. So'z dur bo'lganidan keyin uning doimiy manzili daryo, bunisiniki esa ko'ngil bo'ladi.

² O'sha kitob, 309-bet.

³ Aliybeg Rustamiy. Hazrati Navoiyning e'tiqodi. – Toshkent: "EXTREMUM PRESS", 2010. 4-bet.

⁴ Tarj. ar.: "Payg'ambar bo'lding bas anglab ol".

“Andoqki, daryodin gavhar g’avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javhariga ko’ra zohir bo’lur”. Modomiki, gavharning joyi daryo ekan, uni tashqariga olib chiquvchi g’avvosdan boshqa hech kim bo’la olmaydi. G’avvos uni tashqariga olib chiqqanidan keyingina duru javohirlarning qiymati ma’lum bo’ladi. Xuddi shunga o’xshash “Ko’nguldin dog’i so’z durri nutq sharafiga sohibi ixtisos vasilasi bila guzorish va oroyish ko’rguzur va aning qiymati ham martabasi nisbatig’a boqa intishor va ishtihor topar”, ya’ni ko’ngil tubidagi so’z gavharlari ham ixtisos egalari (mutaxassislar) tomonidan oshkor etiladi va shuhrat qozonadi.

Gavharni baholashda darajalar ko’p: “Gavhar qiymatig’a nechukki, marotib asru ko’pdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa bo’lur”. Demak, ular o’z darajalariga ko’ra bir dirhamdan yuz tumangacha bo’lgan narx oralig’ida qadrlanadi. Bunda “diram” eng kichik va “tuman” eng yirik pul birligi hisoblanadi. Ayni mulohazalarning she’riy ifodasi esa mana bunday: Qit’a:

Injuni olsalar mufarrih uchun,

Ming bo’lur bir diramga bir misqol.

Bir bo’lur hamki, shah quloqqa solur:

Qiymati mulk, ibراسi amvol. oshkor kardan, zohir kardan, nishon dodan

Injuni xursandchilik uchun olsalar, misqol qanchalik kichik bo’lishiga qaramasdan uning qadri ming diham darajasida ortadi. Shunchalik kichik bo’lishiga qaramasdan u shoh salobatini ortishiga hissa qo’shadi: uning qiymati mamlakat darajasida bo’ladi va o’zidagi boylik – bisotni ko’rsatish imkoniga ega bo’ladi.

Na shunday katta va qiymat kasb etgan moddiy boylik tavsifi bejiz emas. U So’zning mavqeini tasavvur qilish uchun o’ziga xos “o’lchov birligi” bo’ladi: “So’z durrining tafovuti mundin dog’i bag’oyatroq va martabasi mundin ham benihoyatroqdur. Andoqki, sharifidin o’lgan badang’a ruhi pok yetar, kasifidin hayotlik tang’a zahri halok xosiyati zuhur etar”. **Q i t ’ a:**

So’z gavharedurki, rutbasining

Sharhidadur ahli nutq ojiz,

Andinki erur xasis muhlik,

Ko’rg’uzguchadur Masih mo’jiz.

Moddiy naf va manfaatlarni ko’rib turish mumkin. Tilning, nutqning sharofati uchun esa til ojizdir. Uni faqat Masih mo’jizasiga qiyoslash mumkin, xolos. Masihning o’likni tiriltira oladigan mo’jizaviy qudratga egaligi esga olinsa, mohiyat oydinlashadi. Navoiy uni “ bu so’zning tanavvui taaqquldin nari va tasavvurdin tashqaridur”, deb baholaydi.

Navoiy avval arab, so’ng turkiy va forsiy va hindiy tillar haqida maxsus to’xtaydi, ularni “asl tillar” sifatida baholab, boshqa tillarning ham yuzaga kelishidagi bobo til vazifasini ado etganlarini maxsus qayd etadi. Shundan keyin turkiy tilning ichki imkonlari, boyligi hamda favqulodda nodir va inja ma’nolarni ifodalay olishini amaliy jihatdan ham ko’rsatishga harakat qiladi. U dastlab, “ichmoq” harakati bilan aloqador bo’lgan fe’llar silsilasiga e’tibor qaratadi:

Shuaro akobiridinki, ba’zi “may” ta’rifida mubolag’a qilibdurlar va bu mo’taddun bih amredurki, may ichmoq qavoidida so’z ko’p surup, zarofat nihoyatsiz zohir qilurlar. Biri sipqarmoq lafzidurki, mubolag’a mundin o’tmas. Turkcha nazmda bu matla’ bordurkim, b a y t:

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o’zumdin boray,

Shart bukim, har necha tutsang labo-lab sipqaray.

Muallif “sipqarmoq” fe’li ifodalagan ma’noning fors tilida ifodalash imkonsizligini qayd etadi: “Oyo! Bu “sipqaray” lafzi mazmunig’a yetganda, forsiy she’rda ne iloj qilg’aylar?

Va tomshimoqki, g’oyat zavqdin bot ichmas va lazzat topa-topa, oz-oz ichar. Bu g’arib ma’ni adosida turkchada bu matla’ bordurki, b a y t:

Soqiy chu ichib, manga tutar qo’sh:

Tomshiy-tomshiy ani qilay no’sh.

Shoirning asosiy maqsadi har bir soʻzda aks etgan “gʻarib maʼni”larni koʻrsatib berishdan iboratdir. Agar “gʻarib” soʻzining “ajib”, “ajoyib”, “gʻalati”, “yangi va nodir narsa”, “taajjub”, “hayrat(li)”, “gʻaroyib”⁵ singari maʼnolarga egaligini nazarga olsak, muallifning maqsad va muddaosi aniqroq.

Umuman olganda, Navoiy “Muhokamat ul-lugʻatayn”ni yozishda juda koʻplab maqsad va muddaolarni koʻzda tutgan. Xususan, asarning sal kam umrining oxirida yozilgani shoirning bu masala va muammoni uzoq yillar davomida oʻylab yurgani va masalaga jiddiy tayyorgarlik koʻrganini koʻrsatadi. Qolaversa, asar Alisher Navoiyni haqiqatda ham qomusiy bilimlar egasi ekanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlaydi va uning yirik tilshunos, nozik didli etnograf hamda hassos adabiyotshunos ekani ochiq koʻrinadi. Muallif oʻz asari bilan ona tilidagi imkoniyatlarning arab, fors hamda hind tillari bilan bellasha oladigan keng imkoniyatlarga egaligini koʻrsatib berdi. Ilmiy asar ichida badiiy sheʼriy parchalarning kiritilishi muallif gʻoyalarining amaliy namunasi sifatida ham, soʻz sanʼatining oʻziga xos namunalari sifatida ham oʻrinli va maʼqul boʻlgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliybeg Rustamiy. *Hazrati Navoiyning eʼtiqodi*. – Toshkent: EXTREMUM PRESS, 2010. – B.80.
2. Alisher Navoiy asarlar tilining izohli lugʻati. Toʻrt tomlik. 4-tom. – Toshkent, 1983, – B.98-99.
3. Alisher Navoiy. *MAT, Muhokamat ul-lugʻatayn*. (Matnni P.Shamsiyev nashri asosida izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlovchi S.Gʻaniyeva). 20 jildlik, 16-jild. – Toshkent, Fan, 2000. – B.236.
4. Alisher Navoiy. *Muhokamat ul-lugʻatayn*. [Matn] Q.Sodiqov tahlili, tabdili va talqini asosida. – Toshkent: Akademknashr, 2017, – B.28.
5. Imomnazarov M. *Tatabbu moʻjizasi*. – // *Musulmon mintaqa madaniyati rivojida “majoz tariqi” bosqichi*. 2-kitob. Alisher Navoiy. – Toshkent, “Mumtoz soʻz”, 2022, – B.230.
6. Isʼhoqov Yo. *Soʻz sanʼati soʻzligi*. – Toshkent, Oʻzbekiston”, 2014, – B. 320.
7. Mallayev N. *Buyuk shoir va mutafakkir*. – Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019, – B. 68.
8. Sodiqov Q. *Alisher Navoiy asarlarining tili (Fonetika va morfologiya)*. – Toshkent: *TURON-IQBOL*, 2025, 67-bet Oʻzbek tilining izohli lugʻati, II jild, – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, – B.561.
9. Valixojayev B. *“Muhokamat ul-lugʻatayn” haqida*. – // <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-muhokamat-ul-lugatayn-haqida.html>

⁵ Alisher Navoiy asarlar tilining izohli lugʻati. Toʻrt tomlik. 4-tom. – Toshkent, 1983, 98-99-betlar..

ABDULLA ULUG'OV,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi*

TAFAKKUR ODAMI

Annotatsiya: Maqolada Asqad Muxtor she'rlari, roman, qissa, hikoya, drama, maqolalari xususida to'xtalangan. Yozuvchi asarlari markazida davr o'zgarishlari va inson taqdiri masalasi muhim o'rin tutgani tahlillar asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Asqad Muxtor, she'r, roman, qissa, hikoya, drama, maqola.

Abstract: The article focuses on the poems, novels, short stories, dramas, and articles of Asqad Muxtor. Based on the analysis, it is shown that the changes in the era and the issue of human destiny occupy an important place in the center of the writer's works.

Keywords: Asqad Muxtor; poem, novel, short story, drama, article.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtor (1920 – 1997) ko'p qirrali ulug' ijodkor edi. Bu jihatdan uni na tengdoshlari va na keyingi adabiy avlod vakillarining hech biri bilan taqqoslab bo'lmaydi. Asqad Muxtorni avvalgi adabiy avlod namoyandaligidan faqat Oybekka qiyoslash mantiqqa muvofiq keladi. Chunki u xuddi "Navoiy" romani muallifi singari iste'dodli shoir, zabardast nosir, mohir dramaturg, o'tkir tarjimon, zukko adabiyotshunos, benazir muharrir, yosh ijodkorlarning g'amxo'r ustoz va dono rahbar-arbobdir. Asqad Muxtor shaxs sifatidagi olami, insoniy fazilatlarini, qalamkash sifatidagi mehnatsevarligi, oilaparvarligi va yana ko'pgina xislatlariga ko'ra Oybekka o'xshaydi. U xuddi Oybek domla singari ijodining serqirraligi, mazmundorligi va salmoqdorligi jihatidan tengdoshlaridan ham, o'zbek adabiyotining keyingi avlod vakillaridan ham ancha ustun turadi. Oybek domlani o'zidan keyingi adabiy avlod vakillari "ustoz" deb bilgani singari o'tgan asr 50-yillaridan so'ngra ijod maydoniga qadam qo'yganlar ham Asqad Muxtorga zamonaviy o'zbek adabiyotining muhtasham chinorlaridan biri sifatida qaraydi. Chunki u o'zining salkam oltmish yillik ijodiy faoliyati davomida doim zamonaviy o'zbek adabiyotining oldingi safida turib, turli janrdagi badiiy barkamol asarlari hamda noyob tashkilotchilik-rahbarklik faoliyati bilan adabiy jarayondagi ijobiy o'zgarishlar manzarasini belgilashga salmoqli hissa qo'shdi. Asqad Muxtor dastlabki asarlaridan biri "Po'lat quyuvchi" dostoni (1947)dan boshlab, yuksak insonparvarlik hislariga yo'g'rilgan she'rlarida ham, hayot haqiqati aks ettirilgan hikoya, qissa, roman, dramalarida ham turmush voqeligini gavdalantirish va inson obrazini yaratish borasida tadrijiy tarzda o'sib, yuksalib bordi. Barcha zamonlarda hamma odamlar uchun birday manfaatli adabiy-falsafiy o'y-fikrlar mujassam "Yosh do'stlarim" va ayniqsa, "Tundaliklar"ida esa u o'zini mutafakkir-donishmand inson ekanini ochiq-ravshan namoyon qildi. Mutafakkir-donishmand insonlarning fikri, qarashlari esa hech qachon qarib, eskirib, iste'molga yaroqsiz bo'lib qolmaydi. Chunki jamiki moddiy va ma'naviy ne'matlarga o'z ta'sirini o'tkazib, yemirib ado qiladigan Vaqt Asqad Muxtor singari mutafakkir-donishmandlarning insoniyatning olis va yaqin o'tmishdagi turmush tajribalariga asoslangan, serg'alva zamonning ziddiyatli o'zgarishlarini o'zida jamlagan mulohaza va xulosalarini hamisha e'zozlab ardoqlaydi. Odamlar esa ularni o'zlari uchun Haqni tanish, hayot mazmunini anglab, inson bo'lib yashash dasturi qilib oladi. Kitobxon muallifning "Tundaliklar"ini, she'riy va nasriy asarlarini mutolaa qilayotganida beixtiyor Asqad Muxtor har qanday muammoning yechimiga

kalit topib bera oladigan donishmanddir. Dunyoda u javob bera olmaydigan savol bo'lmasa kerak, degan o'yg'a boradi. Chunki Asqad Muxtor barcha mulohazalarini aql tarozisiga solib, o'lchab ko'rsatadi, hayotsevarlik va insonparvarlik hissi balqib turgan teran xulosalarini turli hodisalarni o'zaro taqqoslashlar asosida taqdim qiladi. Shu bois uning she'rlari, hikoya, qissa, roman, drama, tarjima va turli mavzudagi mazmundor maqolalari so'z san'ati tobora qadrsizlanib borayotgan hozirgi globallashgan zamonda ham adabiyot insoniyat uchun mislsiz murabbiy ekani, u barcha san'atlarning asosi sifatida bashariyat ma'naviyati poydyevori bo'lib turgani, adabiyot o'tmishda bo'lgani singari bugungi kunda ham, istiqbolda ham bashariyat uchun chinakam madadkor, birdan-bir xaloskor bo'lib qolishi to'g'risida so'zlab turibdi.

Taniqli sharqshunos, filologiya fanlari doktori, professor Temur Muxtorov: "Men dadamning yig'laganini atigi birmarta—Oybek vafot etganidako'rganman" degan (Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida. — Toshkent: "Ma'naviyat", 2003. — 200 b. — 184-bet). Bu esa "Chinor" romani muallifi "Qutlug' qon", "Navoiy"ning ijodkori bilan ruhan-ma'n'an juda yaqin bo'lganidan, uning shaxsiga va ijodiga chin dildan mehr bilan qaraganidan darak beradi. Oybek o'z asarlarida tarixiy haqiqatni va davr ijtimoiy hodisalarini barcha murakkabliklari bilan aks ettirgani, Asqad Muxtor ham she'r, dostonlari, roman, qissa, hikoya, dramalari, dolzarb muammolarga bag'ishlangan maqolalarida voqelikni ta'sirchan ifoda qilgani ham ana shu haqiqatni tasdiqlaydi.

Ulug' shoir Rauf Parfi Asqad Muxtorga "jahon miqyosidagi eng madaniyatli adibimiz" deb ta'rif bergan va: "Asqad Muxtor ijodiyoti ko'zgusida avliyo Zardushtiy, Konfutsiy, Dao, Muhammad alayhissalom, Iso alayhissalom, Bahouddin Naqshband ta'limotlarining badiiy savlati yuz ko'rsatadi. Bu in'ikos u yoki bu darajada bo'lishidan qat'i nazar, Inson va insoniylik, Inson baxti uchun kurash g'oyasi bilan sug'orilgandir" deb ta'kidlagan (Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida. — Toshkent: "Ma'naviyat", 2003. — 200 b. — 169-bet).

"Sabr daraxti" muallifining ushbu e'tirofi ham "Asqad Muxtor — donishmand-mutafakkir" degan fikrni tasdiqlashga xizmat qiladi. Rauf Parfi hech bir ijodkorga bunday baho bermaganini esa barcha yaxshi biladi. Yoki G'afur G'ulom "Hurmatli ukam Asqadga" degan sarlavha qo'yib, unga she'r bag'ishlagani, 1947-yilning 17-noyabrida bitilgan ushbu to'rtlikda: "Shoirlik nima-yu, zargarlik nima, // Seni ham o'ziga tortdi bu hunar. // Olmos poralarni zarrin ipga ter, // Boshing Surayyoga bo'lsin barobar" deyilgani, Asqad Muxtor yigirma yetti yoshligidayoq ulug' shoirning ishonchini qozonib, uning ana shunday muborak tilagiga muyassar bo'lgani ham "Chinor" romani muallifi ijodi davrning dolzarb muammolarini qamrab olgani, u she'riy, nasriy asarlari va dramalarida zamondoshlarining yorqin obrazini gavdalandirganidan kelib chiqadi (O'sha manba. — 3-bet). Yoki Mirtemirning: "Asqad Muxtor, hech mubolag'asiz, yirik san'atkordir. U ham shoir, ham hikoya va romannavis, ham nazariyachi, ham tarjimon, ham publisist, ham arbob... Asqad Muxtor hikoyalari va romanlari o'qigulik, o'ylatgulik, esda qolgulik, ta'sirli va hayotiy. Asqad qahramonlari bir-biriga o'xshamaydilar va o'zganing choponiga zor emas..." degan so'zlari Asqad Muxtorning ijodiy merosi "axborot bo'roni" ichida qolgan bugungi kunda ham, insoniyat xavotirlanib qarayotgan istiqbolda ham har tomonlama o'rganishga, mufassal va mukammal tarzda tekshirishga munosibligini isbotlaydi (O'sha manba. — 3 — 4-betlar).

Yoki Said Ahmadning: "Asqad Muxtor kitoblarining qahramonlari — juda jiddiy odamlar. Ular fikr qiladigan, jamiyat taqdirida katta rol o'ynaydigan qahramonlardir. Asqad bir romanini "Davri mening taqdirimda" deb atadi. Menimcha, bu nom uning hammam kitoblari uchun umumiy sarlavha bo'lishi mumkin. "Opa-singillar", "Tug'ilish", "Bo'ronlarda bordek halovat...", "Chinor" romanlarining qahramonlari taqdirida butun bir davr nafasi gurkirab turadi" degan fikri ham Asqad Muxtor ijodiy merosini o'rganish ijtimoiy hayot keskin o'zgarib borayotgan, adabiyot va san'atga nisbatan bepisand munosabat kuchayib ketayotgan hozirgi tezkor davrda milliy madaniyatimizni boyitishga, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlashga, milliy o'zlikni teranroq

anglashga, zamondoshlarimiz tafakkurini o‘stirib, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishini bildiradi (O‘sha manba. – 11-bet).

Asqad Muxtor ijodiy merosining bunday hayotbaxsh ta’siri uning asarlari mantiqning mustahkam mezonlariga asoslangani tufayli yuzaga keladi. Shu bois allomaning she’riyati ham, nasriy asarlari, turli mavzudagi mazmundor maqolalari ham nafaqat hozirgi davrning, balki kelgusi zamonlarning ham talablariga to‘la muvofiq keladi. U tarjima qilgan asarlar esa nafaqat adabiyotimiz, balki madaniyatimiz ravnaqiga qo‘shilgan bebaho hissa bo‘lib qolaveradi.

His-tuyg‘u odamzod tabiatida qanchalik katta, keng, muhtasham “maydon”ni ishg‘ol qilgan bo‘lmasin, uning turmush tarzi barcha zamonda mantiq mezonlariga asoslanadi. Chunki insonning vujudida hayvoniy xususiyatlar mavjudligi, kishilik jamiyatining hamma davrdagi holati xuddi shuni taqozo etadi. Asqad Muxtorning barcha asarlarida esa mantiq ustuvorlik qiladi. Bu mantiq inson tabiati xususiyatlarini, u yashaydigan jamiyatning tartib-talablarini va ular o‘rtasidagi murosasiz kurash manzaralarini o‘zida mujassamlashtiradi. Alloma adibning asarlari, avvalo, o‘zining xuddi shu jihatiga ko‘ra uning ustozlari hamda tengqurlarining ijodidan alohida ajralib turadi.

Asqad Muxtorning foto suratlari ham, yozgan asarlari ham u donishmand-faylasuf inson bo‘lganidan darak beradi. Kishi uning kitoblardagi, gazeta-jurnallar sahifasidagi rasmlariga ko‘zi tushganida beixtiyor o‘ychan, mahzun bo‘lib qoladi va negadir ich-ichidan o‘ziga o‘zi “Shu paytgacha nima ishlar qildim? Qanday yashadim?..”ga o‘xshash savollar bera boshlaydi. Bu savol-javob jarayoni juda og‘riqli kechsa-da, odam o‘zi to‘g‘risida, umuman, hayot haqida ancha haqiqatlarni anglab yetadi va avval sezmagan, e’tibor qilmagan narsa-hodisalari bag‘rida behad ko‘p sir-sinoat, jumboq yashirin ekaniga ishonchi ortib, ajablanib qoladi. Shuning barobarida, o‘zining o‘jizligi, nochorligidan ich-ichidan uyalib ketadi. Asqad Muxtorning gazeta-jurnallar, kitoblardagi surati, she’r, hikoya, qissa, romanlari, “Yosh do‘stlarimga” kitobi va, albatta, “Tundaliklar”i o‘z o‘quvchilarining fikrlashini ulg‘aytirib, ularning dunyoqarashini teranlashtiradi. Ular, eng muhimi, kishini fikrlashga, mushohada yuritishga undaydi, muammoning boshqalar payqamagan, sezmagan jihatlariga diqqatni qaratadigan odamlarning so‘zini tinglashga, ularning mulohazalarini eshitishga undaydi. Chunki Asqad Muxtor o‘z asarlarida odamlardan: “Yodimda, taxminan o‘n besh yil// burun // Bir bemor do‘stimdan olgandim xabar// Dilida qolibdi bir soatlik// gurung.// Uchrashsak: eslaydi hozirga qadar.// Men ham quvonaman duch// kelganda u, // Bilaman – ko‘nglida yaxshi gapi// bor.// Har soat taqdiri qo‘limizda-yu, // Kimlar qay biridan shunday minnatdor?” deb so‘raydi (Muxtor A. Tanlangan asarlar: She’rlar, nasriy asarlar. – Toshkent: “Sharq” 2020. – 736 b. – 61-bet).

O‘z-o‘zidan ayonki, har qanday odam bunday haqli savol oldida, albatta, dovdirab qoladi. Mantiqiy fikrlash qobiliyati kuchli kishilar esa doim o‘ziga ham, boshqalarga ham shunga o‘xshash savollar beradi. Bunday kishilar Asqad Muxtor aytganidek, “yaproqni kitobday o‘qigani, qalbida bulbullar sayragani, oyga qarab turib, ko‘zi yoshlangani” bois o‘ziga va o‘zgalarga shu kabi savollarni berishdan to‘xtamaydi (O‘sha manba. – 30-bet).

Asqad Muxtor asarlari satrlaridan sizib chiqqan, adibning she’rlari, hikoya, qissa, roman, drama va maqolalarini mutolaa qilish chog‘ida ko‘ngilda tug‘ilgan savollar chuqur mantiqiy asosga ekanligi va hayot bilan uzviy bog‘liqligi tufayli kishining his-tuyg‘ulari va ong-tafakkuriga ta’sir o‘tkazib, uning didi, saviyasini o‘stiradi. Asqad Muxtor asarlari “Adabiyot – insonshunoslik. So‘z san’ati – hayot darsligi. Chunki u odamga o‘zini va dunyoni tanitadi” degan ta’riflar shunchaki balandparvoz so‘zlar emas, ayni haqiqat ekaniga chin isbot bo‘la oladi. Alloma adabiyot har bir odam o‘ziga berilgan umrning ma’no-mohiyatini idrok etib, inson bo‘lib yashashi uchun zarur asos ekani, u bashariyatga ulug‘ hayotbaxsh ta’sir ko‘rsatib kelganini e’tiborga olib: “Sen odamzodni shunday ulg‘aytding, // Kuchga to‘ldirding sen uning qalbini” deb ta’kidlagan (O‘sha manba. 31-bet).

Asqad Muxtorning bosiq, vazmin mantiqiy mushohadaga asoslangan she'riyati u yashab, ijod qilgan jo'shqin va murakkab davrning dolg'alarini eslatadi. Adibning nasriy asarlari, dramalari va maqolalarida ham shu davrning haqqoniy manzarasi aks etadi. Ularda har bir so'z keng qamrovli ma'no kasb etib, inson qalbidagi ziddiyatlardan, zamonaning qarama-qarshiliklarga to'la murakkab jarayonlaridan xabar beradi. Asqad Muxtorning she'rlari o'z zamonasining yangroq shoirlari she'rlaridan farqli holda, hayot bayramlardan iborat emasligi, unda hamisha ezgulik va yovuzlik kurashi kechishi, turmush odamlarga goh quvonch, goh tashvish taqdim etib, ularni tez-tez dovdiratib, shoshirib qo'yishidan so'zlaydi. Ularda teran mantiqqa asoslangan mulohazalar porlab ko'rinib, kishini o'ziga o'zi savol berib, o'zi bilan munozara qilishga majbur etadi.

Azaldan ayonki, ijodkor she'r yoki hikoya bitar ekan, birinchi navbatda, o'zining ko'rib-kechirganlariga tayanadi. U lirik qahramonning kechinmalari, personajlarning ichki dunyosi, orzu-intilishlarini qalamga olar ekan, albatta, o'zining hayotiy tajribasi, muayyan paytdagi ruhiy holati, kayfiyatidan kelib chiqadi. Bir so'z bilan aytganda, badiiy asarda, u qaysi janrda ekanligidan qat'i nazar, muallifning tarjimai holi, shaxsi, uning saviyasi, didi, dunyoqarashi aks etadi. Asqad Muxtor she'rlari va nasriy asarlarida, drama va maqolalarida, aksariyat ijodkorlardan farqli holda, turmush hodisalari haqida axborot, ma'lumot bermaydi. U barcha yozganlarida qisqa-qisqa chiziqlarda, aniq harakatlarda lirik qahramonning, personajlarning ichki olamini butun murakkabligi bilan ochib ko'rsatadi.

O'zbekiston xalq shoiri Mirtemir: "Asqad she'rlaridagi yetuklik va yuksak didga chinakam havas qilaman" degan (Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2003. – 200 b. – 5-bet). U "Opa-singillar", "Tug'ilish", "Chinor" singari mashhur romanlar muallifi she'riyatiga maftunligi boisini: "Asqad Muxtor she'rlari shunchalar rang-barang, dilkash, ziyobaxsh va quvnoq. She'rda ham Asqadning o'z yo'sini, o'z uslubi, o'z dastxati, o'z shavkati, o'z zahmati – qisqasi, o'zligi yaqqol. Oz va lekin soz. Asqad she'rlari tinch va limmo-lim, lekin tagi tug'yonlik ko'klam soylaridek tabiiy, purhikmat, kuchli va jozibali. Asqad she'rlarida obrazlar siyqalik illatidan xoli. Asqad tili – chinakam poeziya tili. Asqad so'z xazinasiga ega qalamkashlardan. Chertib-chertib, chinniday jarang bergan so'zlardan silliq va har qaysisi o'z o'rnida zarur g'isht qo'ya oladi" deb izohlagan (O'sha manba. – 4-bet).

"Chinor", "Opa singillar", "Tug'ilish", "Davri mening taqdirimda", "Bo'ronlarda bordek halovat...", "Buxoroning jin ko'chalari", "Kumush tola", "Jar yoqasida chaqmoq" yoki "Insonga qulluq qiladurmen", "Fano va baqo", "Chodirxayol", "Ko'ktosh", "Arvoh" zamonaviy o'zbek nasrining yorqin namunalari qatorida turadi. Asqad Muxtorning ushbu asarlarisiz o'tgan asr o'zbek adabiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Shunday bo'lsa-da, adabiyot ahli Asqad Muxtorning she'riyatiga alohida ehtirom bilan qaraydi. Masalan, qayd qilinganidek, o'zbekning buyuk shoiri Mirtemir "Asqadning she'rlaridagi yetuklik va yuksak didga chinakam havas qilaman" degan bo'lsa, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov: "Asqad Muxtorning she'riyati, u qadar silliq va ravon tuyulmasa ham, o'ziga xos ohang va jilosi bor, ko'p silliq va ravon she'rlardan ham ko'ra dilbarroq, samimiyroq, teran va falsafiy mushohadaga moyilligi bilan ajralib turadi" deb e'tirof qilgan (O'sha manba. – 35-bet). Erkin Vohidovning "u qadar silliq va ravon tuyulmasa ham" degan so'zlari Asqad Muxtor she'rlarining o'ziga xos jihatiga aniq "tashxis" bo'lish barobarida, uning she'rlari keng o'quvchilari jamoatchiligi o'rtasidagi, omma orasida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov yoki Muhammad Yusuf she'rlari kabi e'tibor qozonmaganligi sababini tushuntirib beradi. Asqad Muxtorning "99 miniatyura", "Quyosh belanchagi", "Sizga aytar so'zim" she'riy to'plamlari zamonaviy o'zbek she'riyatidagi o'sish-o'zgarishlar manzarasini belgilab bersa-da, kitobxonlar ularga "Tilla baliqcha", "Munojot"ni tinglab..." (Abdulla Oripov), "O'zbekim", "Inson", "Nido" (Erkin Vohidov) muallifining she'rlariga qiziqqanichalik qizg'in munosabatda emasligini barcha yaxshi biladi. Shunday bo'lsa-da, adabiyot ahli Asqad Muxtor she'rlarini o'zbek she'riyatidagi

alohida katta hodisa sifatida e'tirof qiladi. Shu o'rinda Abdulla Oripov va Erkin Vohidov "xalq shoiri", Asqad Muxtor hamda Rauf Parfi "shoirilar shoiri" degan qarash chuqur asosga ega ekani ayonlashadi. Bu "99 miniatyura" muallifi o'z she'rlarida hayot hodisalari vazminlik, osoyishta ohangda ma'lum qilib, ulardan kutilmagan, juda teran xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Rauf Parfi ushbu haqiqatni, yuqorida qayd etilganidek, "Asqad Muxtor ijodiyoti ko'zgusida avliyo Zardo'shtiy, Konfusiy, Dao, Muhammad alayhissalom, Iso alayhissalom, Bahouddin Naqshband ta'limotlarining badiiy savlati yuz ko'rsatadi" deb ifodalagan. U "Asqad Muxtor XX asr o'zbek-turk dunyosini butun fojialari-la, butun parvozlari-la mujassam qilgan buyuk adibdir" deb ta'kidlagan (O'sha manba. – 169-bet). Adabiyotshunos, adib va tarjimon Mahkam Mahmud Andijoniy esa Rauf Parfi shunday deb ulug'lagan bu serqirra ijodkorning juda samarali kechgan faoliyati xususida fikr bildirib, uni: "Asqad Muxtor XX asr jadid ma'rifatchilari Ismoil G'aspirali, Zakii Validiy To'g'on, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Ibrat, Xislat, Tavallo ijodiy mersini biluvchi va qadrllovchi, Ovro'po va jahon adabiyoti xazinalaridan xabardor, nasri falsafiylik va insonparvarlik bilan yo'g'rilgan, shoirligi nasridan ham balandroq, Sofokl va Shekspir asarlarini qoyillatib tarjima qilgan katta san'atkor" deb ardoqlagan (O'sha manba. – 124-bet). O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirmqul Qodirov serqirra ijodkor sifatida zamonaviy o'zbek adabiyoti ravnaqiga bebaho hissa qo'shgan bu qalam zahmatkashi faoliyatiga: "Opa-singillar", "Tug'ilish", "Davr mening taqdirimda", "Chinor" romanlari va ular bilan bir davrda yozilgan "99 miniatyura" kabi she'riy kitoblar Asqad Muxtor ijodida nazm bilan nasr ajib bir uyg'unlikda rivojlanib borganini ko'rsatadi. "Davr mening taqdirimda" romani "uch fasl dostoni" deb atalishi bejiz emas. Bu roman, ayniqsa, uning birinchi qismi, she'rga yo'g'rilgan dostondek o'qiladi... Asqad akaning shoirlik talantiga oid bir qancha taassurotlarimni maxsus aytgim keladi. "Chetdan yashiroq ko'rinadi" deganlaridek, men kabi nasrnavisga balki she'riy uslub aniqroq sezilar. "Po'lat quyuvchi"dan boshlab, "99 miniatyura" va eng keyingi "Sizga aytar so'zim" to'plamigacha Asqad Muxtor poeziyasining yil sayin kuchga to'lib borgan, takrori yo'q bir uslubiy o'zgachalik quyuvqlashib, tiniqlashgani menga yaxshi mayi nobning yillar o'tgani sari sifati oshib borishini eslatadi. Adibning romanlarida ham men uning shoirlik ovozi eshitib turaman. Shuning uchun Asqad aka romanchilikka ham shoir bo'lib kirib kelgan, asr, davr muammolarini, eng avvalo, epik bir shoirning ko'zi bilan ko'radi, deb o'ylayman. "Opa singillar", "Chinor" – yozuvchi ijodining juda yuksak bosqichlari ekani shubhasiz. Adib bu yuksakliklarga ham, avvalo, o'zining shoirlik qanotlari bilan ko'tarilgandek tuyuladi. O'z uslubi va ijodiy ovozidagi shoirlik jarangini qator-qator romanlar yozganidan keyin ham yo'qotmaydigan yozuvchilar kam bo'ladi. Asqad aka ana shunday nodir yozuvchilardan ekanini uning so'nggi o'n yillikda yozgan she'rlari isbot qilib turibdi" deb baho bergan (O'sha manba. – 43-bet).

Said Ahmad, Pirmqul Qodirov, O'tkir Hoshimov kabi yozuvchilarning Asqad Muxtor ijodi, uning she'riyati to'g'risidagi bu kabi mulohazalari zaminida ularning Asqad Muxtorning shaxsiga samimiy hurmati, mehri barobarida, ularning she'r qadri va ahamiyatini, shoirlik noyob, nodir qobiliyat, she'riyat yuksak san'at ekanini chuqur his etishi turadi.

Qalam ahlining yuqorida iqtibos qilib keltirilgan e'tiroflaridan ular shoir, adib, dramaturg, tarjimon, muharrir, rahbar Asqad Muxtorni zamonaviy o'zbek adabiyotining olijanob siymosi, ajoyib inson, nodir ijodkor sifatida e'zozlashi, hurmat qilishi ayon bo'ladi. "99 miniatyura", "Quyosh belanchagi", "Sizga aytar so'zim" to'plamlaridagi she'rlar, "Po'lat quyuvchi", "Mangulikka daxldor" dostonlari, roman, qissa, hikoya, drama, tarjima va maqolalari Asqad Muxtor shunday e'zoz va ehtiromga munosib nodir iste'dod ekanidan guvohlik beradi. Zamonaviy o'zbek she'riyati jahondagi istalgan xalqning she'riyati bilan bemalol bellashib, g'olib bo'la oladigan darajaga ko'tarilishida, albatta, Asqad Muxtorning chuqur falsafaga, o'tkir mushohadalarga asoslangan, bag'riga nozik his-tuyg'ular, teran kechinmalarni jo qilgan she'rlari salmoqli hissa bo'lib qo'shilgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning: "Asqad Muxtor talay yetuk romanlari, qissalari, hikoya va dramatik asarlari bilan tarixga kirgan adib. Ustozning roman va hikoyalari haqida soatlab gapirish mumkin. Men uning she'riyatiga hamisha havas bilan qaraganman. Buning sababini tushuntirish ancha mushkul. Gap shundaki, Asqad Muxtor she'riyati boshqa ustozlarimiznikidan keskin farq qiladi. Asqad akaning she'rlarini tez o'qish mumkin emas. Asqad akaning she'rlarini baqirib o'qish mumkin emas. Deklamatsiya qilish mumkin emas. Bu she'rlarni juda osoyishta, aslo shoshilmasdan, ichki ritmikasinini topib o'qish kerak. Ularni, hatto, birovga o'qib berish ham qiyin va nazarimda, buning keragi ham yo'q. Bu she'rlarni har kim alohida, o'zi uchun, iloji bo'lsa, tanho qolganida o'qisa, g'alati holat ro'y beradi. Siz qandaydir sirli olamga kirib qolgandek bo'lasiz. Satrlar o'zidan o'zi nurlanib ketayotganga o'xshaydi. Ularda qandaydir osoyishta dard bor. Qismatning ko'p past-u balandini ko'rgan donishmand odamning hayot haqidagi xulosalari, teran falsafasi bor. Biroq falsafa sizga yangilik bo'lib ko'rinmaydi. Shoir sizga nimanidir o'rgatmaydi, nimagadir da'vat etmaydi. Bu tuyg'ular, bu xulosalar o'zingizniki. Ular haqida siz ham o'ylagansiz, siz ham iztirob chekkansiz. Faqat ular qalbingiz va ongingizda qaytadan yangilanadi. Yangilanib, sizni larzaga soladi... O'n yildan keyin ularni yana o'qisangiz, tag'in hayajonlanasiz va hayot ma'nisi haqida o'yg'a tolasiz. Haqiqiy san'at asari, haqiqiy badiiyat degan shu bo'lsa kerak" degan so'zlari adabiyot ahli bebaho inson, zahmatkash ijodkor Asqad Muxtorning shaxsi va ijodiga yuksak hurmat bilan qarashi, uni "muhtaram ustoz" deb e'zozlashining boisi nimada ekanligini bilib olishga, buning sababini tushunib yetishga imkon beradi (O'sha manba. – 37-bet).

Har bir odam yoshi, ijtimoiy ahvoli, kasb-koridan qat'i nazar, doim ohangdor tovushni yoqtiradi. Chunki inson tabiatan shunday yaratilgan. Qo'shiq, ashula o'zida musiqa ohanglarini mujassamlashtirgani bois kishilarning diqqat-e'tiborini darhol jalb etadi. Ma'no-mazmuni juda sayoz nazm namunalari ham musiqa bastalab, qo'shiqqa aylantirilganida odamlarni o'ziga mahliyo qiladi. Odamlar qo'shiq kuylaganida sermazmun hikmatli so'zlar, eng zarur pand-nasihat, o'git, da'vat, chaqiriqlarga ham quloq solmaydi. Chunki musiqaning jarangdor ohanglari ularning ong-shuurini to'laligicha egallab, yaxshi-yomon to'g'risida o'ylab, fikrlab, mushohada yuritishiga yo'l qo'ymaydi. Ohang, ovoz daf'atan his-hayajon qo'zg'ab, qalbni quvonchga to'ldiruvchi va aksincha – qayg'uning domiga uloqtiruvchi qudratli vosita ekani qo'shiqda, she'rda, voizlarning nutqida yaqqol namoyon bo'ladi. Asqad Muxtorning she'rlari G'afur G'ulom, Hamid Olimjon yoki Abdulla Oripov, Erkin Vohidov she'rlari singari jarangdor musiqiy ohangga ega bo'lmasa-da, teran ma'no-mazmunni ifodalagani bilan diqqatni jalb etadi. Ular o'zining xuddi shu jihati bilan qo'shiqchi shoirlarning she'rlaridan behad baland turadi. Chunki Asqad Muxtorning she'rlari miyaga zarur ozuqa-quvvat bo'lib quyulib, kishining ong-tafakkuri sarhadlarini kengaytiradi.

Aksariyat shoirlarning she'rlarida his-tuyg'u, kechinmalar bayon etiladi. Ularda voqelik romantik tarzda aks ettirilgani bois ehtirolar ifodasi ustuvorlik qiladi. "99 miniatyura", "Quyosh belanchagi", "Sizga aytar so'zim" to'plamlaridagi she'rlarda esa, ulardan birmuncha farqli holda, lirik qahramonning holati, kayfiyati, o'y-fikrlari mantiq qoliplariga muvofiq qalamga olinadi. Asqad Muxtorning she'rlari xuddi shu xususiyatiga ko'ra boshqa qalamkashlarning yozganlaridan alohida ajralib turadi. Ulardagi mulohazalar mustahkam mantiqqa asoslangani tufayli odam va olam to'g'risidagi ajoyib falsafiy lavhaga o'xshab ko'rinadi. Ushbu lavhada dunyoda kechayotgan ijtimoiy hodisalarga, kishilarning kundalik turmushiga, ularning o'zaro muomala-munosabatiga teran nigoh bilan qaraydigan donishmand insonning o'y-kechinmalari aks etadi. Ziyrak o'quvchi Asqad Muxtor asarlarida diqqat qaratilgan muammolar markazida odamlarga cheksiz mehr va yuksak ishonch bilan qaraydigan, insonning bunyodkorlik mehnatini qadrlaydigan ulug' ijodkor turganini, albatta, payqaydi. "99 miniatyura", "Quyosh belanchagi"ni mutolaa qilganlar, "Chinor", "Davri mening taqdirimda" yoki "Buxoroning chin ko'chalari"ni o'qiganlar Asqad Muxtor

odamlarga boshqa qalamkashlar aytmagan mazmuni teran, hech qachon eskirmaydigan ko‘p yangi fikrlarni taqdim etganini anglab yetadi. Ular shu asnoda “Davri mening taqdirimda” muallifi ana shunday xususiyatga ega, aql-zakovat nuriga yo‘g‘rilgan, erkin va teran fikrga asoslangan, umumbashariy mohiyatga ega milliy qadriyatlarni ulug‘lagan serqirra ijodi, jo‘shqin faoliyati bilan zamonaviy o‘zbek adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shganini idrok etishadi va Asqad Muxtor globallashib, insoniyat “axborot bo‘roni” ichida qolgan bugungi kunda ham, kelgusi zamonlarda ham har jihatdan ibrat olishga, havas qilishga arzigulik ajoyib inson, zahmatkash ijodkor bo‘lganini bilib olishadi.

Asqad Muxtorning ijodiy merosi uning bilim doirasi benihoya keng bo‘lgani, u o‘tmish voqeligi va zamonasi hodisalarini, odamlarning tabiati, fe‘l-atvorini zo‘r ishtiyoq bilan o‘rgangani, uning “u qadar silliq va ravon tuyulmaydigan, lekin o‘ziga xos ohang va jiloga ega” she‘rlari, ijtimoiy davr murakkabliklari diqqat markaziga qo‘yilgan, boshqa yozuvchilarning asarlaridan tamoman farq qiladigan roman, qissa, dramalari, turli mavzudagi ko‘plab maqolalari zaminida doimiy mashaqqatli mehnat turgani, u mehnatga chin dildan samimiy muhabbat bilan qaragani, astoydil ishtiyoq bilan muttasil ijod qilganini ayon etadi. Qolaversa, bu zahmatkash ijodkorning ism-sharifida ham bir hikmat ko‘rinadi. Chunki “asqad” arabcha so‘z bo‘lib, “o‘ta baxtiyor, baxtli, saodatmand bola” (Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma‘nosi: (Izohli lug‘at). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 608 b. – 37-bet); “muxtor” esa “tanlangan, saylangan yoki erki o‘zida bo‘lgan, mustaqil, erkin” ma‘nosini bildiradi (O‘sha manba. – 264-bet).

G‘afur G‘ulom, Mirtemir, Pirimqul Qodirov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi ulug‘ ijodkorlar yuksak hurmat-ehtirom bilan qaragani, asarlari dunyoning ko‘plab xalqlari tiliga tarjima qilingani, Xayriddin Sultonov, Erkin A‘zam, Abdulla Sher singari o‘nlab taniqli yozuvchi, shoirlar uni o‘zlariga “ustoz” deb bilgani, asarlari millionlab kitobxonlarning ixlos va ishonchini qozongani u chindan ham baxtli, saodatli inson ekanini tasdiqlasa, asarlari adabiyotdagi an‘anaviy qoliplarga ko‘p-da mos kelmasligi, boshqa qalamkashlarning yozganlaridan har jihatdan alohida ajralib turishi, chunki u she‘rlari, roman, qissa, hikoya, dramalari, maqolalarini allaqanday majburiyat tufayli o‘zini zo‘rlab, zo‘riqib, majburlab, bo‘g‘ilib emas, balki o‘zini erkin, ozod qo‘yib, savqitabiiy ilhom bilan bitganini bildiradi. Bu esa uning ism-sharifiga ham muayyan darajada aloqadorligiga ishora bo‘lib ko‘rinadi. Ulug‘ ijodkorning “Sizga aytar so‘zim” va boshqa to‘plamlaridan joy olgan “u qadar silliq va ravon tuyulmaydigan, lekin o‘ziga xos ohang va jiloga ega” she‘rlardagi misralarning pishiq-puxta ishlangani, ularda har bir so‘z o‘z o‘rniga qo‘yilgani, roman, qissa, drama va maqolalardagi mustahkam mantiqqa asoslangan, mazmuni teran mulohazalar Asqad Muxtor tug‘ma tafakkur odami bo‘lgani, u turmushda ko‘rib-kechirganlari, eshitib bilganlariga, o‘qigan kitoblariga hech qachon befarq, loqayd qaramagani, ular to‘g‘risida muttasil mushohada qilib, o‘ylanib yurgani va chiqargan xulosalarini boshqalarga yetkazish istagida qo‘liga qalam olib, yozganlarining matni ustida astoydil qunt va ixlos bilan ter to‘kib mehnat qilganini ayon etadi.

Asqad Muxtorning inson va ijodkor sifatida butun umr adabiyot ahli va millionlab o‘quvchilarning cheksiz minnatdorligi va samimiy hurmatiga sazovor bo‘lishining boisi avvalo shundadir. Uning bebaho ijodi va samarali ijtimoiy faoliyati ko‘rinmasdan, bilinmasdan turib, ming-minglab kishilarning ong-tafakkuriga ta‘sir o‘tkazib, ularning turmush to‘g‘risidagi tasavvurini teranlashtiradigan zalvorli salmoqqa ega ekani kelgusi zamonlarda ham, albatta, e‘tirof etiladi. Shunday bo‘lishiga ishonsa, shundan umid qilsa bo‘ladi.

“Sizga aytar so‘zim”dan ham, muallifning boshqa she‘riy to‘plamlaridagi she‘rlardan ham, roman, qissa, hikoya, drama va maqolalaridan ham adabiyotning insonlar jamiyatidagi ahamiyatini teran anglagan, ijtimoiy turmush hodisalarini chuqur tahlil qiladigan, “inson” degan jumboqning sir-sinoatlarini bilishga intiladigan ulug‘ ijodkor qarab turadi. U ushbu asarlarida o‘quvchilarini

xudbinlik illati, manfaatparastlik kasalligi, amal-mansab egallash istagi, hokimiyatparastlik xuruji alohida bir odamni xarob qilishi barobarida, butun bir millatni ayanchli ahvolga solib, gullab-yashnagan mamlakatni tanazzulga eltishi to‘g‘risida o‘ylantiradi. Chunki u she‘riy, nasriy asarlarida odamlar hayotidagi fojeiy holatlarni juda sodda uslubda, tushunarli tarzda chizib beradi. Masalan, “Qo‘r” she‘rini: “Urush yillarini siz bilmaysiz, // Hech qaytib kelmasin u chog‘lar. // Nonni qo‘ying, gugurt ham yo‘q edi, // O‘chib qolar edi o‘choqlar. // Kechin tezak yoqib, tikilib kulga, // Jindek qiya ochib mo‘rini. // Men o‘choq boshida mudrab o‘tirar edim, // Tonggacha saqlay deb qo‘rini” deb boshlaydi (Muxtor A. Tanlangan asarlar: She‘rlar, nasriy asarlar. – Toshkent: “Sharq” 2020. – 736 b. – 63-bet). U “Tundaliklar”ida: “Biz nimaiki yozsak, kimdandir iqtibos olamiz. Falon donishmand bunday degan, falon klassik unday degan... Ulug‘larning “aforizm”larini butun-butun kitoblar holida nashr etamiz. Vaholanki, ularning ko‘pi allaqachon hech qanaqa “suyanchiq”qa muhtoj bo‘lmagan, hammaga ma‘lum oddiy haqiqatlar. Bu didaktik konservatizm original tafakkur rivojiga xalaqit bermaydimi? Men ulug‘larga qarshi emasman, ammo o‘z fikrlash salohiyatimizni ham ishga solishimiz kerak-da! “Ulug‘lar aytgan” deb oddiy haqiqatlarni maqola va kitoblarimiz, shiorlarimizda takrorlayveramizmi? “Sof havo hammamizga kerak!” deb hech kim alvonlarga katta qilib yozib qo‘ymaydi-ku!” deydi (O‘sha manba. 722-bet). Tafakkur odami bo‘lgan adib “Chodirxayol” hikoyasida esa fikrlamaslik, o‘zicha mulohaza yuritmaslik, kingadir qulday itoat etib, ergashib umrguzaronlik qilish insonni aqliy, ma‘naviy majruh etib, oxir-oqibatda, uni ayanchli ahvolga solib qo‘yishini ko‘rsatib beradi. “Chodirxayol” Asqad Muxtorning nasriy asarlari ham xuddi uning she‘rlari kabi boshqa ijodkorlarning yozganlariga o‘xshamasligi, ulardan har jihatdan o‘zgacha bo‘lib ajralib turishiga yorqin misol bo‘la oladi. “Insonga qulluq qiladurmen”, “Fano va baqo” yoki “Taqdir kimning qo‘lida?”ni Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Said Ahmadning hikoyalari bilan aslo taqqoslab bo‘lmaydi. Bu yozuvchilarning yozganlarida nima deyilmoqchiligi ochiq-oydin ayon bo‘lib turadi. Asqad Muxtorning nasriy asarlari esa xuddi uning she‘rlari singari tag ma‘noga to‘la bo‘ladi va o‘ylantirib, mahzun qilib qo‘yadi.

“Tundaliklar”dagi birgina: “Vaqt inson hukmida emas. U – Ollohning mulki. Shuning uchun sudxo‘rlik (qarz berib, foiz evaziga kun ko‘rish) haromdir. Zero, sudxo‘r vaqtni (o‘ziga tegishli bo‘lmagan narsani) sotadi” degan fikr ham “Asqad Muxtor – chin donishmand. U – tafakkur odami” deyish uchun yetarli asos bo‘la oladi.

“Opa-singillar”, “Tug‘ilish”, “Davri mening taqdirimda”, “Chinor” yoki “Qoraqalpoq qissasi”, “Buxoroning jin ko‘chalari” kabi nasriy asarlar, “Po‘lat quyuvchi”, “Yanga”, “Yevropada qolgan qabrlar”, “Qo‘r” singari zamonaviy o‘zbek she‘riyati durdonalari “Asqad Muxtor – o‘z davrining badiiy ifodachisi, hassos musavviri” deyishga undaydi. Hayot hodisalarini haqqoniy aks ettirish va muayyan zamon va makondagi inson obrazini badiiy gavdalandirish esa barcha davrda ijodkorlar uchun ham qarz, ham farz sanaladi. Chunki ularda XX asrning ziddiyatli voqeligi va shu murakkab zamonda yashagan odamlarning qarama-qarshiliklarga to‘la qalb manzarasi aks etadi. Ana shu asosga ko‘ra “Chinor”, “Yevropada qolgan qabrlar”, “Qo‘r” muallifini o‘z davrining badiiy solnomachisi desa bo‘ladi. U ijodining ana shu ajoyib xususiyatiga ko‘ra avvalgi adabiy avlod namoyandalari, tengqurlari va adabiyotimiz maydonida keyin ot surib, javlon urgan qalamkashlardan alohida ajralib turadi. Asqad Muxtor ijodiy faoliyatining zamonamiz uchun qimmat va uning kelgusi asrlardagi ahamiyati avvalo shu bilan belgilanadi. Uning adabiy merosida Sharq va G‘arbning bebaho badiiy-ilmiy tafakkuridan chinakamiga ilhom olgan hamda undan juda samarali ijodiy bahramand bo‘lgan shoir, adib, tarjimonning yorqin qiyofasi ko‘rinadi. Asqad Muxtorning o‘ziga xos noyob ijodiy olamini uning teran mantiqqa asoslangan donishmand dunyosi – tafakkur odami ekanligi yaxlit birlashtirib turadi. Shuning uchun “Opa-singillar”, “Tug‘ilish” muallifining asarlarini davrning ilg‘or fikrli kishilari hamisha alohida qiziqish bilan o‘qishadi. Bu ulug‘ ijodkor asarlarini mutolaa qilish esa zamoni va makoni, irqi, jinsi, ijtimoiy ahvoli, dini va tilidan qat‘i nazar, har bir

odamning fikrini charxlab, aql-tafakkurini o‘stiradi, hayotga qarashlarini teranlashtiradi. Chunki u she‘rlarining har bir misrasida, nasriy asarlarining har bir sahifasida jo‘shqin turmush bag‘ridan olingan real voqelik manzarasini chizib, kishilarni odam olami va olam hodisalarining biron bir siridan, ularning ko‘pchilik sezmagani, e‘tibor qilmagan jumboqlaridan ogohlantiradi hamda ular to‘g‘risida o‘ylantiradi.

Asqad Muxtorning she‘rlari, garchi ular “u qadar silliq va ravon tuyulmasa-da” (Erkin Vohidov), adabiyotshunoslikning eng yuksak mezonlaridan kelib chiqib baholanganida ham janrning eng porloq namunalari bilan bir qatorda tura oladi. Chunki ularning, mashhur “O‘zbekim” qasidasi muallifi ta’kidlaganidek, “o‘ziga xos ohangi va jilosi” bor. Shoirning “Sizga aytar so‘zim” va boshqa to‘plamlaridagi she‘rlari, qayd qilinganidek, shaklining sodda va oddiyligi, aytilayotgan fikr mavjud turmushning bag‘ridan olinganligi, sun‘iy, yasama, chuchmal emasligi – hayotiyliigi, o‘zida teran falsafiy mazmunni mujassamlashtirgani, boshqa shoirlarning she‘rlaridan jiddiy farq etishi bilan diqqatni tortadi. Eng muhimi, ular tafakkur odamining so‘zi sifatida e‘tibor qaratilgan voqelik, holat to‘g‘risida o‘ylantirib qo‘yadi, mushohada-mulohaza yuritish uchun asos beradi. Bir so‘z bilan aytganda, kishini befarq qoldirmaydi. Ular zamonning o‘zgarishlari, inson tabiati murakkabliklari, uning hayot yo‘li kutilmagan g‘ov, to‘siqlarga to‘laligi, taqdir sinovlari kishini doim turfa xil mashaqqat, azoblarga ro‘para qilishi, ulardan o‘tish esa hamisha ko‘p og‘ir kechishi xususida mushohada yuritishga undaydi. “Sizga aytar so‘zim”dagi she‘rlar, shoirning boshqa to‘plamlaridagi she‘rlari ham insonparvarlik g‘oyasiga asoslangan falsafiylikning yaqqol ifodasi bo‘lib ko‘rinadi.

“Sen yetim emassan”, “O‘zbekiston”, “Munojot”ni tinglab...”, “O‘zbekim”ni ovoz chiqarib o‘qish kishiga juda xush yoqadi. Bundan tinglovchilar ham cheksiz zavqlanadi. Lekin “Sizga aytar so‘zim”dagi, shoirning boshqa to‘plamlaridagi she‘rlarini G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov yoki Abdulla Oripovning she‘rlari singari ovoz chiqarib, baqirib o‘qib bo‘lmaydi. Shayx Alouddin Munurning quyidagi mulohazalari buning boisini muayyan darajada ochiqaydi: “She‘r o‘zi nima? Arablar ichki kiyimni “shi‘or” deydi. Bu so‘z “she‘r” so‘zi bilan o‘zakdosh. Badanga, badandagi tuklarga tegib turadigan kiyim “shi‘or” deyiladi. She‘r baqirib o‘qiladigan narsa emas. She‘r ich-ichidan chiqadigan bir sirdir. Men shunday o‘ylayman. Navoiyning baland darajaga ko‘tarilishining sababi shundaki, u zot vujudidan o‘tgan, yuragiga eng yaqin, aytmadan turolmaydigan fikrini, tuyg‘usini nazmga solgan, balki she‘rni o‘zi uchun yozgan, nashr qilish uchun emas. “Shu‘ur” – sezish degani. Olloh taolo shoirga shunday bir ne‘mat berganki, u boshqalar ko‘rolmaydigan, sezmaydigan narsani oniy sur‘atda ko‘ra oladi, ilg‘aydi. Shuning uchun ham u shoir bo‘lib yaralgan” (So‘z ahlidan so‘z. – Toshkent: “Muharrir nashriyoti”, 2025. – 240 b. – 227-bet). Shayx Alouddin Mansur esa ko‘pchilikning biri bo‘lib barcha odamlar qatori yashagan inson emas. U “Umrini “Qur‘on” ma‘rifatiga sarflagan, Ollohning Kitobini ilk bor o‘zbek adabiy tiliga (ma‘nolar tarjimasini) o‘g‘irgan, zamonamizning ulug‘ allomalaridan biri, mufasssir olim”dir (O‘sha manba. 215-bet).


“Ijodi o‘tmishning, bugungi kunning va kelgusi zamonlarning ko‘p murakkab masalalarini qamrab olgan Asqad Muxtor she‘riyatida qaysi mavzu yetakchilik qiladi?” degan savol qo‘yilsa, albatta, adabiyotshunoslar mushkul ahvolda qoladi. Masalan, “Bobur, Furqat adabiy merosida vatan sog‘inchi, hijron mavzusi yetakchilik qiladi” deyilsa, bu fikr haqiqatga har jihatdan muvofiq keladi. “99 miniatyura”, “Quyosh belanchagi” yoki “Sizga aytar so‘zim” to‘plamlaridagi she‘rlarda ham adabiyotda azaldan aks ettirib kelinayotgan shu kabi mavzularga diqqat qaratiladi va ularning hammasi teran mantiqiy mushohadaga asoslangan holda yoritib beriladi. Ushbu she‘rlarda tafakkur kishisi bo‘lgan shoirning hayot voqeligi va tabiat hodisalarini juda sinchkovlik bilan kuzatishi, odamlarning fe‘l-atvori, o‘zaro munosabatlari, zamondoshlarining kayfiyati, orzu-intilishini nozik fahmlashi yaqqol seziladi. “El yurt”, “Tabiat”, “Yashash oson emas”, “Yillarim”, “She‘riyat”

yoki adabiyot ahli ko'p e'tirof qilgan "Yevropada qolgan qabrlar", "Yangam", "Sobirman" bunga yaqqol isbot bo'la oladi. Shoirning boshqa she'rlarida ham fikrlar chuqur mantiq asosida bir-biri bilan mustahkam bog'lanib, kishini mushohada yuritishga undaydigan teran xulosalar chiqariladi. "Yevropada qolgan qabrlar", "Yillarim", "She'riyat"dagi badiiy ifodaning kundalik so'zlashuv tiliga yaqin soddaligi ham dunyoqarashi keng, o'zi bilan o'zi munozara qilib, mushohada yuritishga odatlangan kishilarga xush yoqadi. Chunki shoir odamlarga murojaat qilib, ulardan: "Hisobga olmaymiz hayotimizning // Yo'lda tushib qolgan har bir onini, // Balki yarar edi saqlab qolmoqqa // Kimlarningdir aziz jonini. // Oltin boshqoq bo'lib unarmidi, balki // Bir shoh satr bo'lib tug'ilmidi... // Bunday daqiqalar butun umrning // Balki choragidir, balki yarmidir" deb so'raydi (Muxtor A. Tanlangan asarlar: She'rlar, nasriy asarlar. – Toshkent: "Sharq" 2020. – 736 b. – 29 – 30-betlar). O'z-o'zidan aniqki, barcha odamlar emas, balki faoliyatini taftish qilib, o'ziga tanqidiy qaraydigan tafakkur kishilari shunday o'ylab, shunday yashaydi.

Asqad Muxtor she'riyatining, umuman, ijodining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda vaqtning qadrlash masalasi alohida urg'ulanib, bu bebaho ne'mat inson hayotida benihoya muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Hayotning ana shu mangu, muqaddas haqiqatini anglagan kishilar esa doim nimalardir to'g'risida o'ylab, mushohada qilib yuradi. Fan doktori, professor Temur Muxtorovning: "Dadamni kuzatgan kishi shuni anglar ediki, u har doim kuchli ruhiy kechinmalarga sho'ng'ib yashagan, hayotdan chuqur va salmoqla tuyg'ularni topa olganidan zavq tuygan. Shuning uchun uning ijodini tadqiq qilgan adabiyotshunoslar she'riyatidagi falsafiylikni qayd etishgan" degan so'zlari "Sizga aytar so'zim" to'plami muallifining she'riyatidagi, umuman, ijodidagi ko'pgina xususiyatlar, jumladan, teran mazmunga ega mantiqiy mushohada va undan kelib chiqadigan zalvorli xulosa bevosita uning – tafakkur kishisi ekanligidan, shaxsidan kelib chiqishini tushunib olishga ochqich – kalit bo'la oladi (Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2003. – 200 b. – 184-bet).

Betakror she'riyati, muhtasham nasriy asarlari, turli mavzudagi mazmundor maqolalari, bebaho tarjima asarlari, saxovatga to'la ijtimoiy-ijodiy faoliyati, zahmatkash, zukko muharrirligi, mehri daryo murabbiyligi bilan XX asr o'zbek adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan Asqad Muxtor o'zining har bir asarida, u kichkina to'rtlikdir yoki "Chinor", "Davri mening taqdirimda", "Opa-singillar" singari muhtasham romandir, bundan qat'i nazar, zamonaning ilg'or fikrli ziyolisi – tafakkur odami sifatida fikr yuritadi, davr donishmandi bo'lib ko'rinadi, hayotning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy muammolari to'g'risida nima demasin, barcha mulohazalarini aniq dalillar bilan asoslab, isbotlab taqdim etadi. U barcha asarlarida davr har bir kishining tarjimai holiga, u istasin-istamasin, o'z ta'sirini o'tkazadi, degan qarashni ilgari suradi. Ulug' ijodkor she'rlari, roman, qissa, hikoya, drama, maqolalari markaziga davr o'zgarishlari va inson taqdiri masalasini jiddiy qilib qo'yadi. Asqad Muxtor ushbu asarlarida o'zini anglashga, faoliyatini tahlil-taftish qilishga, yashayotgan zamonasini idrok etishga intilayotgan kishilarning o'y-kechinmalarini ehtirosiga to'lib ifodalaydi. U asarlarining ayni o'rinlarida katta qalb egasi – tafakkur odami bo'lib ko'rinadi. O'z-o'zidan aniqki, bunday qalb egalarining fikri, qarashlari aqli sog'lom kishilarning ko'ngliga xush yoqib, ularni ezgu ishlarga oshufta qilib qo'yadi. Asqad Muxtor o'z asarlarida nima demasin, sidqidildan aytadi. Chin dildan aytilgan so'zlar esa ular xoh olqish, xoh qarg'ish bo'lsin, albatta, amalga oshadi. Chunki bunday so'zlar haqiqatning ro'yobga chiqishiga, hodisalarning yangi qirralari ochilishiga xizmat qiladi. Asqad Muxtor she'rlarining umuman, uning qalami bilan bitilgan bitiklarning ahamiyati shundaki, ular kishiga tafakkur qilishi, hayotning qaysidir hodisalari, muammolari to'g'risida mushohada yuritishi uchun zarur ozuqani beradi. Ijodkorning she'rlari, umuman, barcha asarlari, janridan, yozilgan davridan qat'i nazar, o'quvchilarining aql-idrokini o'tkirlashtirib, fikrlashga teranlik baxsh etadi. Ularda bitta qarash – kishilar boshqalarning qarshiligi tufayligina emas, avvalo o'zining sustkashligi, harakatsizligi, loqaydligi, beparvoligi

tufayli, boqimandalik kayfiyatiga berilib yashashi sababli orzu-istaklari yo‘liga to‘siq qo‘yadi va maqsadiga erisholmaydi. Dunyodagi urushlar ham, oiladagi mojarolar ham, boshqa illatlar ham kishilarning fe‘l-atvori, o‘zaro muomala-munosabati, vazifasini qanaqa bajarayotgani, burchini qanday ado etayotganiga bevosita bog‘liqdir, degan fikr ilgari suriladi. Bir so‘z bilan aytganda, Asqad Muxtorning she‘riy to‘plamlarida ham, boshqa asarlarida ham ma‘naviy komillikka intilayotgan ezgu niyatli insonning – tafakkur odamining bezovta qalbi parvozi aks etadi.



OLIMJON TURDALIYEV,

*Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

HUMOYUN FATTOHNING “BOSHQACHA ODAM”I

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy adabiyotimizning yosh iste’dodli ijodkorlaridan biri Humoyun Fattoh she’rlaridagi individual jihatlar, uning so‘z qo‘llash mahorati va badiiy tasvir uslubi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Humoyun Fattoh, lirik qahramon, tashbeh, badiiy topilma, poetik talqin.

Annotation. This article discusses the distinctive individual features in the poetry of Humoyun Fattoh, one of the young talented creators of our national literature, as well as his mastery of language and artistic style of imagery.

Keywords: Humoyun Fattoh, lyrical protagonist, simile, artistic innovation, poetic interpretation.

Hozirgi o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos ovozi bilan ijod ahli va kitobxonlar e’tiborini qozonib ulgurgan yosh shoirlardan biri Humoyun Fattoh 2000-yilda Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon shahrida tug‘ilgan. Uning mo‘jazzgina “Boshqacha odam” nomli she’riy to‘plami 2021-yil O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o‘tkazilgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsiya qilingan.

Kamina uning ijodini uzoq yillardan beri g‘oyibona kuzatib kelayotgan muxlis sifatida, ayniqsa, she’rlaridagi falsafiy teranlik, betakror o‘xshatishlar, badiiy topilmalar va o‘ziga xos obrazlar meni doimo o‘ziga maftun etishini alohida ta’kidlamoqchiman. Xolis bir kitobxon sifatida aytish mumkinki, uning she’rlarida tabiat va inson o‘rtasidagi ilohiy bog‘liqlik, hayot falsafasi, yosh shoirning ulkan qalb kechinmalari o‘quvchining qo‘lidan ohista ushlab, beixtiyor xayolotning rangin bog‘lari sari yetaklab ketadi. Bir dam kuzgi yaproqlarning “jon berishi” yor sochlari sog‘inchida shamolning yanada kuchliroq esishi hayratga solsa, bir dam “qorong‘i tushgan yorug‘ shahar” ko‘chalarida lirik qahramon bilan kezasiz. Sizni shaharda “chinorlar junundek qayrilib, holingizni so‘rib qarshi oladi”. Yosh shoirning she’riy dunyosini sayr etar ekansiz, lirik qahramonning “hali yetilmagan, hatto hali qushlar uchib yetib bormagan qirg‘oq” kabi pok, beg‘ubor ko‘ngliga duch kelasiz. Keyingi manzilda sizga “ilonlar chirmashgan koshonalarga sovchi bo‘lib borayotgan qaldirg‘och” peshvoz chiqadi...

She’rlar mutolaasi davomida kitobxon bevosita shoirning tahayyul dunyosiga kirib qolganini, lirik qahramon kechinmalarini o‘zida his qila boshlaganini, u kulsa, kulib, dard cheksa, dardlanib, shodlansa, shodlanib, u bilan birga yashay boshlagani sezmay qoladi.

Yosh shoirning she’rlaridagi o‘zgacha talqinlar, betakror o‘xshatishlar va noodatiy topilmalar

BIRINCHI KITOBIM

BOSHQACHA ODAM
HUMOYUN FATTOH



uning katta iste'dod sohibi ekanini namoyon qiladi. U tilimizdagi mavjud frazeologik birliklarni qayta talqin qilish, badiiylashtirish orqali o'z she'rlariga alohida nafosat va ko'rk bag'ishlaydi:

Kosamni sabrga to'ldirma lim-lim,
Quloq sol berkinib solgan dodimga.
Seni rom etmagan qaqshagan ko'nglim,
Sen maftun bo'lgansan iste'dodimga.

Yoki:

Hali ham boshimga qo'nmadi humo,
Hali mos kelmadi ismim jismimga...
Hali tark etmadi ko'nglimni gumon,
Hali ham zordirman bir tishlam mumga.

Shoir o'zining so'z qo'llash mahorati bilan tilimizning imkoniyatlarini bor bo'yicha gavdalandirishga harakat qiladi. Ayniqsa, she'rlarida shakldosh va o'zakdosh so'zlarni mahorat bilan bir mazmun ipiga marjondek tiza olishi she'rlariga o'zgacha ohor baxsh etadi:

Hushimga kirib kel, tushlarimdan tush,
Qo'ynimdagi mumtoz dardni parchala!

Uyquchi qiz bermaydi uyqu.

Savdogar, boshimda ne savdo kechgan,
Jimliklar kechgan-u, aks-sado kechgan,
Bir qoshiq qonimdan bir gado kechgan,
Kelganman yuragi torlar qoshidan.

Uning she'rlari go'yoki "badiiy topilma va kashfiyotlar uyiga" kirgandek taassurot uyg'otadi. So'zlarni nafis ohangda o'ynata olgan shoir mahoratiga nisbatan hayrat tuyg'usini ham kuchaytiradi. Xususan, quyida yosh talant sohibining she'ridan olingan parchalar o'zida chuqur lirik kechinmani mujassam etadi; obrazlari yengil, nozik va o'quvchini darhol o'z ruhiy oqimiga olib kiradi:

Qo'shtepa, ko'chalar olmali, qushli,
Erta kirib kelar, kuz – sohibjamol.
Har doimgidan ham esmoqda kuchli,
Demak, sochlaringni sog'ingan shamol!

Xarsanglar – tog'larning bolaligimi?

Kezganim yetmasmi shuncha darbadar,
Qaygayam borardim yodingdan chiqib?

Bir yelka topasan o, faqat
Devorga suyangan yelkalar...

So'z sehrini teran anglagan shoirning she'rlari har qanday yasamalikdan xoli, tabiiy va samimiyydir. Uning badiiy tafakkurida tarix va san'at uyg'unligi izchil saqlangani, tarixiy shaxslar

hamda ular bilan bog'liq fazilatlarining she'riyatda mushtarak holda aks etishi alohida e'tiborga molik. Xususan, Yusuf alayhissalom – Qur'oni Karimdagi mashhur qissaning qahramoni bo'lib, tush ta'birida benazir payg'ambar sifatida tanilgan. Shu sababli adabiyotda u haqiqatni anglash, tushlarni ta'bir qilish va pinhoniylar sirlarni fahmlash timsoli sifatida keng qo'llanadi.

O'lgudek yugurdim Mashriq-u Mag'rib,

Yusuf, ta'biri ne bunday ro'yoni?

Vafosi bor odam misoli mag'rur,

Bevafo atadim ko'hna dunyoni.

Shoirning yana bir she'ridan olingan ushbu parchada u borliq olamning tabiiy manzaralaridan – tunda osmonning yulduzlarga to'lishi va unda hukm suradigan sokinlikdan ilhomlanadi. Shoir bu jarayonni “tunda ko'kning quvonishi” tarzida poetik talqin etadi. Bu holatni esa quvonchdan porlagan ko'zga mengzaydi. Bu ikki holat o'rtasidagi ranglar uyg'unligi va har ikkisida qoralik ichidagi nur, uchqun, porlash mavjudligini ilg'ay olgan shoir uni she'rga mohirona ko'chira olgan:

Mustamlaka bo'lib gina, kek,

G'amdan ozod bo'larsan yana.

Tunda quvongani kabi ko'k,

Quvonarsan ko'zlaring yona...

“Dorilfununda” nomli she'ri ham boshlanishi bilanoq noodatiy o'xshatishlari orqali o'quvchini o'ziga rom etadi:

Ma'ruza xonasi, uchinchi qavat,

*G'ashimga tegadi **to'rtburchak osmon.***

Yurakdan sevishga qilgan cha da'vat,

Xush yoqib o'tasiz shabbodasimon.

She'rda ma'ruza xonasidagi holat tasviri orqali ikki xil olam – tor, chegaralangan makon va yurakdagi keng, beg'ubor his-tuyg'ular qarama-qarshi qo'yiladi. Shoir tomonidan tor xonaning yuqori qismi, shiftini “to'rtburchak osmon” deb tasvirlanishi esa o'ziga xos, noodatiy tashbeh hisoblanadi.

“Traktir kafesida” deb nomlangan she'rda ham noyob satrlar ko'zga tashlanadi. Xususan, quyidagi misralarida qo'llangan “qonsiz qo'llar” va “go'zal qotil” birikmalari o'rtasida kuchli paradoksal holat mavjud. Shuningdek, “go'zal qotil” birikmasi orqali ikki ijobiy va salbiy bo'yoqqa ega ikki so'z bir tushunchani ifodalash uchun safarbar qilingan. Bir qarashda bu ikki so'zning nomantiqiy bog'lanishidagi tuyiladigan bu birikma zamirida kuchli mantiqiy yotadi:

*Xo'rsinib qarayman – **qo'llaring qonsiz,***

*Axir, sen – sog'inchning **go'zal qotili!***

Shoir she'rlaridagi gorizont va vertikal qo'llangan sintaktik takrorlar, bo'laklardagi sintaktik parallelizm she'rga o'zgacha bir ichki ritm va ohang beradi, o'quvchi ongiga estetik ta'sir o'tkazish bilan birga she'rning mazmun bo'laklarini kompozitsion jihatdan bir-biriga bog'lash funksiyasini ham bajaradi:

Tushun, sen – xayolan talangan o'ljam,

Tushun, sen – ko'ksimga tegmagan bir o'q.

Endi bu shaharning kuzlari o'lgan,

Endi bu shaharning bahorlari yo'q.

Albatta, yuqorida keltirilgan parchalar – yosh shoir iste'dodining kichik, ammo yorqin uchqunlari xolos. Zamonaviy o'zbek she'riyatida shunday tug'ma talantlarning mavjudligi bizda chin dildan faxr tuyg'usini uyg'otadi. Humoyun Fattohning she'rlari qalbning tub tuyg'ularini aks ettirib, o'quvchini o'z olami bilan bog'laydi. Shu bilan birga, quyidagi she'rda ichki antitezali qarama-qarshi so'zlar va jumalarning mahorat bilan qo'llanishi uning ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Baxtiyor olamda yuribman *mulzam*,
Istiqomat qilib darveshlar kabi...
Ko'nglimda dunyoni ko'targan bo'lsam,
Nega og'ir botar bir qizning gapi?!

Humoyun Fattoh "Muhabbat" nomli she'rida kitobxonini butun she'r davomida asar oxirida yuz beradigan ulkan badiiy portlashga tayyorlaydi. Garchi she'r muhabbat deb nomlangan muqaddas tuyg'uga bag'ishlangan bo'lsa-da, u odatiy "o'ldim-kuydum" kabi oshkora izhorlardan va sun'iy, navbatchi iboralardan butunlay holi tarzda yozilgan:

Ko'chaga zerikib chiqaman uydan,
Bahordan oldingi sovuq kunlarda,
O'zimni ehtiyot qilaman, ammo
Ichimga kiradi baribir sovuq.
So'ng yana shoshgancha uyga qaytaman –
"Sovqotmasin", deyman ko'nglimdagi qiz...


Ketdim, ko'zlaringda qolmoq uchunmi,
Qo'rqmasdan qo'l urdim buyuk bir ishga –
Yigirma yil zo'rg'a yig'gan kuchimni,
Bir kunda sarf etdim xayrlashishga.

Uslubiy figuralar esa, garchi obraz yaratmasa-da, ana shu obrazlarning shakllanishiga, barkamol, pishiq bo'lishiga, o'quvchining matnni to'g'ri va tez tushunib olishiga ko'maklashadi. Ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan, obraz yaratayotgan til birliklari tasvir obyektiga ijodkor bahosini beradi, yuksak emotsionallikni yuzaga keltiradi. O'quvchi yoki tinglovchidagi hissiyotlarning junbushga kelishida tezlashtiruvchi vosita rolini – katalizatorlik vazifasini bajaradi, yozuvchiga ko'makdosh bo'ladi. Badiiy ijodning qiyinchiligi ham shundaki, yozuvchi his-tuyg'ularni o'zi qanoatlanadigan darajada ifodalay oladigan til birligini axtaradi. Ularni bir-birlariga chog'ishtiradi, qarama-qarshi qo'yadi, yonma-yon qo'llaydi, takror ishlatadi.

Bir yaqin insonimdan eshitishimcha, shu kunlarda shoirning yangi bir she'riy to'plami she'riyat shaydolari ixtiyoriga havola qilinish arafasida. Yosh shoirga ijod yo'lida ulkan zafarlar tilaymiz. Uning iste'dodidan ko'plab nafis, betakror va ta'sirchan she'rlar dunyoga kelaversin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Humoyun Fattoh. *Boshqacha odam*. – Toshkent: Adabiyot, 2022. – 48 b.
2. Karimov S. *Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. O'quv qo'llanma*. – Samarqand: SamDU, 1994.
3. Karimov S. *O'zbek tilining badiiy uslubi*. – Samarqand: Zarafshon, 1992. – 140 b.



JABBOR ESHONQULOV,
*O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi direktori,
filologiya fanlari doktori, professor*

TURKIY FOLKLORSHUNOSLIKNING YETUK DARG'ALARIDAN BIRI

Shokir Ibrayev nomi bugun nafaqat Qozog'iston, balki butun turk dunyosiga, hech mubolag'asiz aytish mumkinki, jahon folklorshunosligiga yaxshi tanish bo'lgan ism. Uni o'z yurtida, qardosh mamlakatlarda, xorijda ham umrini ilmga, turkiy xalqlar tili va madaniyati, folklori hamda yozma adabiyoti, umumturkologiya masalalarini tadqiq etishga bag'ishlagan zabardast olim sifatida bilishadi.

U 1950-yilda Qozog'iston Respublikasining Qizilo'rda viloyatining Shiyel tumaniga qarashli Beshtom ovulida tug'ilgan. Ovuldagi o'rta maktab ta'limidan so'ng, 1973-yilda Qozoq davlat universitetini muvafaqqiyatli yakunlaydi. Bir muddat Farobiy nomidagi universitetda o'qituvchilik qiladi. 1979-1982-yillarda Qozog'iston Fanlar akademiyasining Muxtor Avezov nomidagi adabiyot va san'at institutida ilmiy xodim, kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim vazifasida ishlaydi. Dastlab, nomzodlik, so'ngra doktorlik dissertasiyasini muvafaqqiyali himoya qiladi, professorlik darajasiga erishadi.

1982-1989-yillarda shu institutning qo'lyozmalar bo'limini boshqaradi. 1995-yilda institut direktori, 1996-yildan esa Qozog'iston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti lavozimida ishlay boshlaydi. Bir muddat Turkiyaning Egey universitetining professori, Xo'ja Ahmad Yassaviy nomidagi qozoq-turk universiteti rektori, Turkiy xalqlar Akademiyasining prezidenti lavozimlarida ishladi. Oddiy aspirantlikdan, filologiya fanlari doktori, professor, akademiklik darajasigacha bo'lgan sharaflari yo'lni bosib o'tdi.

Hozirgi kunda Xo'ja Ahmad Yassaviy nomidagi qozoq-turk universiteti qoshidagi Turkologiya ilmiy tadqiqot institutiga rahbarlik qilib kelmoqda. Qayerda, qanday vazifada ishlamasin, u bit-ta aqidaga amal qildi: qaysi xalqning farzandi, kimlarning avlodi, qanday oilada voyaga yetganini unutmadi. Halollikni o'ziga kasb qildi, har doim ilmga suyandi, haqiqat tug'ini baland ko'tardi.

Shokir Ibrayev bilan tanishganimizga sal kam o'ttiz yil bo'layapti. Ilk bor Turkiyada bo'lib o'tgan xalqaro anjumanlardan birida tanishgandik. Bir ko'rishgandayoq qandaydir bir iliqlik yur-agimni chulg'ab olgan, xuddi oldindan bilgan, tanigan odamday menda qadrdonlik hissi uyg'ongan edi. Bu hissiyot bugungi kungacha o'zgargani yo'q. Shokir og'ani ko'rganda o'zimning tug'ish-ganimni ko'rganday quvonib ketaman.

Olimni martaba emas, ilmi mashhur qiladi. O'tgan asrning oltmishinchi yillarida ilm olami-ga kirib kelgan Shokir Ibrayev, Kenjaxon Matixonov, Anarboy Bo'ldiboyev kabi olimlar ustoz-lari S.Qasqabasov, Y. Tursunov, R.Beriboyevlar kabi Ch.Valixanov, A.Baytursunov, M.Avezov, E.Qoniratboyev kabi qozoq folklorini juda yuksaklikka ko'targan ustozlarning yo'lini davom ettir-dilar. Bir paytlar qozoq folklorshunosligida erishilgan yuksak "marra"ni boy berishni istamadilar. Istakning o'zi kifoya qilmaydi. Bunga juda katta bilim, tafakkur, hayotiy tajriba, qunt, sabr va matonat kerak bo'lardi. Bu avlod zimmasidagi mas'uliyatni yaxshi his qildi va ularning har biri

yetuk folklorshunos bo'lib yetishdilar. Turkiy xalqlar folklorini tadqiq etish bu olimlarning sharaflari vazifasiga aylandi.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodi, xususan, qahramonlik eposi, asrlar davomida xalqning tarixiy xotirasi, estetik didi va ma'naviy qadriyatlarini mujassam etgan bebaho meros hisoblanadi. Bu merosni ilmiy asosda o'rganish, uning poetik xususiyatlari, variantchilik tizimi va umumturkiy ildizlarini aniqlash zamonaviy folklorshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ana shu jarayonda turkolog olim, filologiya fanlari doktori, professor Shokir Ibrayevning ilmiy tadqiqotlari alohida o'rin tutadi.

Shokir Ibrayevning ilmiy faoliyati asosan turkiy xalqlar qahramonlik eposini, uning poetikasi, janr xususiyatlari hamda tarixiy-tipologik asoslarini o'rganishga qaratilgan. Ayniqsa, **“Dada Qo'rquq kitobi”**, **“Qoblandi botir”**, **“Edige”** kabi xalq dostonlarini atroficha tadqiq etish orqali u ushbu epik yodgorliklarning umumturkiy mohiyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Olimning ishlari turkiy eposni alohida xalq doirasida emas, balki yaxlit madaniy-tsivilizatsion hodisa sifatida talqin qilishga zamin yaratdi.

“Dada Qo'rquq kitobi (Qo'rquq ota kitobi)” xuddi “Alpomish”, “Manas” kabi turkiy xalqlarining eng nodir og'zaki ijodi namunalaridan biri hisoblanadi. Bu kitob shu paytgacha eng ko'p o'rganilgan, eng ko'p chop etilgan va eng ko'p sevib o'qib kelinayotgan asarlardan biridir.

IX–XIV asrda yaratilib, XV asrdan qo'lyozma holida kitobat qilingan mazkur asarning shu paytgacha ikki yozma varianti – Drezden (Berlin) va Vatikan nusxalari mavjud bo'lib, o'z ichiga o'n ikkita bo'y, ya'ni, har biri alohida voqealar tafsilotiga bag'ishlangan dostonlarni qamrab olgan. Bu dostonlarni birlashtirib turuvchi jihat esa Qo'rquq otadir.

Shokir Ibrayevning “Qo'rquq ota kitobi” tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqoti nafaqat Qozoqistonda, balki butun turk dunyosida iliq e'tiroflarga sabab bo'ldi. Nazarimda, Shokir og'a Qo'rquq ota fenomenini boshqa olimlardan ko'ra chuqurroq anglagan va teranroq tahlil etgan. Nima uchun? Bu savolni olimning **“Qo'rquq ota kitobi”**, **“Qozoq eposi”**, **“O'g'uz dostonlari poetikasi”** yoxud **“Epos olami”** kitoblarini o'qiyotganda o'zinga ko'p marta berganman. Javobni Shokir Ibrayevning hayot yo'lidan, kitoblari, ko'plab maqolalari, turli nashrlarga sochilib ketgan suhbatlaridan topganman.

Shokir og'a Qo'rquq ota haqidagi afsonalar vatani bo'lgan yurtda o'sib ulg'aygan. Qo'rquq otaga muhabbat uning bolalik chog'laridanoq qon-qoniga singib ketgan, uning timsolidagi ajododlar o'giti ruhida ulg'aygan. Yana bir jihat, Shokir Ibrayev Qo'rquq ota haqidagi terma va dostonlar kuylanib kelinayotgan makonda kamol topdi. Yoshligida ruhiyatiga singgan o'gitlar jonli ijrodan olingan taassurotlar bilan yanada boyidi. Keyinchalik esa, folklorshunoslik borasidagi adabiyotlar uning nazariy bilimlarini yanada mustahkamladi. Bu olingan bilimlar Shokir Ibrayevni xalqaro doirada fikrlashga, folklor masalalarini dunyo miqyosida tahlil etib, muhim xulosalarga kelishga undagan.

Qahramonlik eposi Shokir Ibrayev tadqiqotlarining markaziy ob'ekti hisoblanadi. U epos poetikasi, epik vaqt va makon, obrazlar tizimi masalalarini chuqur tahlil qiladi. Olimning fikricha, eposdagi voqealar vaqti mifologik va tarixiy qatlamlarni o'zida mujassam etgan bo'ladi.

Shokir Ibrayev turkiy eposlardagi takrorlar, formulalar va an'anaviy epitetlarni poetik tizimning muhim unsurlari sifatida baholaydi. Bu elementlar epik matnning og'zaki ijro sharoitida saqlanishini ta'minlashini turkiy xalqlar dostonlari matni tahlili asosida isbotlaydi.

Shokir Ibrayevning ilmiy merosida turkiy xalqlar folklori va epik an'analari markaziy o'rin tutsa-da, uning Abay tanuv (abayshunoslik) masalalariga doir izlanishlari ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Olim Abay merosini faqat qozoq milliy adabiyoti doirasida emas, balki umumturkiy ma'naviy tafakkur kontekstida talqin qiladi.

Shokir Ibrayev Abay Qo‘nonboevni shoir sifatidagina emas, balki ma‘rifatparvar mutafakkir, turkiy xalqlar ma‘naviy uyg‘onishini ifoda etgan shaxsiyat sifatida baholaydi. Olimning fikricha, Abay ijodi og‘zaki an‘anadan yozma adabiyotga o‘tish jarayonida ko‘prik vazifasini bajargan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Qozog‘iston, umuman turkiy davlatlar o‘rtasidagi ilmiy, madaniy hamkorliklar tabora mustahkamlanib bormoqda. Biz Turkiy davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning yangi bir yuksalish davrini yashayapmiz, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu o‘rinda Turkiy davlat tashkiloti rahbarlarining sayi harakatlari, qat‘iy pozisiyalarini alohida urg‘ulab o‘tish joiz bo‘ladi. Shu bilan birga, xalqlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikka o‘zlarining benazir ulushini qo‘shib kelayotgan turli sohalarida faoliyat yuritib kelayotgan turkolog olimlarimizning xizmati ham beqiyos. Bularning orasida Shokir Ibrayevning ham alohida o‘rni bor.

Olim so‘nggi yillardagi tadqiqotlari bilan faqat folklorshunosgina emas, balki yirik turkolok olim sifatida turk dunyosiga tanildi. Olim o‘z izlanishlarida turkologiyani quyidagi bosqichlarga: turkologiyaning shakllanish tarixi, turkologiyaning tarkibi, turkologiyaning tarixiy taraqqiyot tamoyillari, turkologiyaning bugungi holati bo‘lib tadqiq etadi va uni ko‘p tarmoqli gumanitar fanlarning yaxlit majmuasiga aylanib ulgurganini urg‘ulaydi.

Shokir Ibrayev ilmiy izlanishlari bilangina emas, Xo‘ja Ahmad Yassaviy nomidagi qozoq-turk xalqaro universitetining Turkologiya ilmiy tadqiq instituti rahbari sifatida o‘z tashkilotchiligi bilan turkologiyaga muhim hissa qo‘shib kelmoqda. Bu dargohda bo‘lib o‘tayotgan xalqaro miqyosdagi anjumanlar va ularda ilgari surilgan masalalar bu sohaning kelgusi taraqqiyoti uchun muhim nazariy xulosalarni bermoqda.

Shokir Ibrayevning ellikka yaqin kitoblari, to‘rt yuzdan oshiq maqolalari, so‘nggi yillarda chop etilgan “Shekir Ibrayev. Shig‘armalar. Epos elemi. 1-tom”, “Shekir Ibrayev. Shig‘armalar. Qazaqtin G‘uriptik folkloru 2-tom”, “Shekir Ibrayev. Shig‘armalar. Qazaq folklori. 3-tom”, “Shekir Ibrayev. Shig‘armalar. Turkologiya jena qazaq ruxaniyati. 4-tom”, “Shekir Ibrayev. Shig‘armalar. Abay fenomeni. 5-tom”, “Shekir Ibrayev. Shig‘armalar. Abaydin aqindiq beynesi. 6-tom”, “Shekir Ibrayev. Shig‘armalar. Ot folkloristiki do tyurkologii. 7-tom” kabi qozoq tilida nashr etilgan ko‘p jildligi, “Shakir Ibrayev. Kazak Rituel Folkloru” nomli Turkiyada hamda Qirg‘iz Respublikasining Bishkek shahrida qirg‘iz tilida chop etilgan “Shakir Ibrayev. Qazaq Salttik folkloru” kabi kitoblari olimning bugungi ilmiy olamda tutgan o‘rni va nufuzini ko‘rsatib turibdi.

Olim ko‘plab tadqiqotlarida eposni faqat folklor namunasi sifatida emas, balki tarixiy xotira, ijtimoiy ong va etnik o‘zlikning ifodasi sifatida tahlil qiladi. Bu yondashuv zamonaviy folklorshunoslik, umumturkologiya uchun muhim nazariy ahamiyatga ega.

Qozog‘iston Fanlar akademiyasining akedemigi, Cho‘qon Valixanov nomidagi davlat muhovfoti sovrindori, xalqaro folklorshunoslar qo‘mitasi a‘zosi Shokir Ibrayevning tadqiqotlari Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya, Germaniya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarda e‘tirof etilgan, uning ilmiy qarashlariga suyangan holda tadqiqolar olib borilmoqda. Bunday ta‘riflarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish joizki, filologiya fanlari doktori, professor, Qozog‘iston Fanlar akademiyasining akedemigi Shokir Ibrayev O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining “Adabiy meros” ilmiy jurnali tahririyati a‘zosi.

O‘z umrini tuki xalqlar folklorini tadqiq etishga bag‘ishlagan olim, zamonaviy folklorshunoslikning yetuk darg‘alaridan biri – Shokir Ibrayev bu yil qutlug‘ yetmish besh yoshni qarshilamoqda. Ilm tug‘ini baland ko‘targan, o‘z hayoti, ilmi va tashabbuskorligi bilan hamkasblariga, yoshlarga o‘rnak bo‘lib kelayotgan olimni ushbu qutlug‘ yosh bilan tabriklab, kelgusi ilmiy ijodiy ishlariga ulkan muvfaqqiyatlar tilab qolamiz.

“ADABIY MEROS” JURNALIGA QABUL QILINADIGAN MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Nashrga original, ilgari nashr qilinmagan maqolalar va jurnal mavzusiga mos keladigan materiallar qabul qilinadi.

Original maqolaning hajmi (annotatsiya, kalit so‘z va so‘z birikmalari hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bundan mustasno) 1 intervaldan 10-12 betdan oshmasligi kerak.

Matn – Microsoft Word.

Format – A4.

Matnning ikki yonida qoldiriladigan o‘lcham – 2 sm.

Shrift – Times New Roman.

Shriftning kattaligi – 14.

Qatorlar oralig‘i – 1. xat boshi – 1,25.

Maqolalar o‘zbek, rus, ingliz, turk tillarda qabul qilinadi.

Maqolaning tuzilishi quyidagicha tavsiya etiladi:

Qo‘lyozmaning nomi:

Maqola va boshqa materiallar sarlavhasi qisqa, Mazmunga muvofiq va 12 so‘zdan oshmasligi kerak.

Mualliflar:

Mualliflarning to‘liq nomlari quyidagi tartibda qayd etilishi kerak: ismi, otasining ismi, familiyasi, ikki yoki undan ortiq mualliflar bo‘lsa, vergul bilan ajratiladi.

Muallif(lar)ning ish joyi:

Ushbu ma‘lumot quyidagi tartibda taqdim etilishi kerak: kafedra, institut, shahar va mamlakat.

Yozishmalarga javobgar muallif:

Ismi, otasining ismi, familiyasi; bo‘lim, muassasa, mamlakat, to‘liq pochta manzili, telefon raqami, faks raqami, elektron pochta manzili keltirilgan bo‘lishi kerak.

Maqolaning sarlavhasi (ingliz, rus va o‘zbek), muallif (mualliflar) haqidagi ma‘lumotlar lotin alifbosi (transliteratsiya)da beriladi.

Annotatsiya va kalit so‘zlar:

Annotatsiya – ilmiy xarakterdagi maqola hajmidan tashqari berilgan ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi qisqacha bayon.

Annotatsiyada maqolaning asosiy jihatlarini bayon etishda quyidagilarga e‘tibor beriladi:

Tadqiqotning asosiy ma‘lumotlarini qamrab olishi va ishda mavjud bo‘lmagan faktlar bo‘lmasligi lozim;

Maqolaning tuzilishi annotatsiyada takrorlanadi: kirish, maqsad va vazifa, usullar, natija/ muhokama, xulosa/mulohaza;

Natijalar aniq va lo‘nda bo‘lib, uzviylikda beriladi;

Annotatsiyada maqola sarlavhasi takrorlanmaydi, keraksiz izohlar, “kirish jummalari” (Muallif maqolada shuni nazarda tutadiki...) bo‘lmasligi lozim;

Annotatsiyada iqtibos keltirilmaydi;

Annotatsiya matnining hajmi 250–300 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

Annotatsiya ostida “Kalit so‘z va so‘z birikmalari” (8–10 ta) yozuvi joylashtiriladi. Kalit so‘zlar maqolaning asosiy mazmunini ifodalab, asosan, sohaga doir muhim tushunchalardan tashkil topgan bo‘lishi lozim.

Kirish:

Maqolada tadqiqotning maqsadi va maqola yozilishi vaqtida ilmiy muammoning holati aks etishi kerak.

Maqsad va vazifa:

Maqolaning mazmun-mohiyati maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tizimli ravishda ochib beriladi.

Usullar:

Tadqiqot usullari batafsil tavsiflangan bo‘lishi lozim.

Natijalar va mulohaza:

Natijalar va mulohazalar kengaytirilgan shaklda taqdim etilishi kerak (ba‘zi o‘rinlarda jadvallar va tasvirlar yordamida), shuningdek, ilgari nashr etilgan natijalarning qiyosiy tahlili va talqini beriladi.

Xulosa:

kirish qismida qo‘yilgan savollarga javoblar, xulosalar aniq ko‘rsatilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi:

Adabiyotlar ro‘yxati lotin alifbosiga transliteratsiya qilinadi.

Ro‘yxatga kiritilgan adabiyotlar soni 10 tadan kam 50 tadan oshmasligi kerak.

Maqola matni ichida adabiyotlar quyidagicha berilishi lozim: [Muallif familiyasi, nashr yili: sahifa].

Masalan, 1. Familiya, ism (nashr yili). asar nomi, nashriyot nomi, shahar, sahifa.

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ”

Требования к оформлению статьи

К публикации принимаются оригинальные, ранее не публиковавшиеся статьи и материалы, относящиеся к тематике журнала.

Размер исходной статьи (без аннотаций, ключевых слов и словосочетаний, а также списка использованной литературы) не должен превышать 10-12 страниц в 1 интервале.

Текст – MicrosoftWord.

Формат – А4.

Размер слева от текста – 2 см.

Шрифт – TimesNewRoman.

Размер шрифта – 14.

Межстрочный интервал – 1.

Абзац – 1.25.

Статьи принимаются на узбекском, русском, турецком и английском языках.

Рекомендуемая структура статьи следующая:

Название рукописи:

Название статьи и других материалов должно быть коротким, актуальным и не более 12 слов.

Авторы:

Полные имена авторов следует записывать в следующем порядке: имя, отчество, фамилия, через запятую, если авторов два и более.

Место работы автора:

Эта информация должна быть предоставлена в следующем порядке: отдел, институт, город и страна.

Автор корреспонденции:

Имя, отчество, фамилия; отдел, учреждение, страна, полный почтовый адрес, номер телефона, номер факса, адрес электронной почты.

Название статьи (английский, русский и узбекский), сведения об авторе (авторах) даются латинским алфавитом (транслитерация).

Аннотация и ключевые слова:

Аннотация представляет собой краткое изложение научной статьи на английском, русском и узбекском языках, прилагаемое к объему научной статьи.

Обобщая основные положения статьи, нужно обращать внимание на следующее:

аннотация должна охватывать основные данные исследования и не содержать фактов, которые отсутствуют по делу;

в аннотации повторяется структура статьи: введение, цель и задача, методы, результаты / обсуждение, заключение / обзор;

результаты ясны и лаконичны и даны согласованно;

аннотация не должна повторять название статьи, не должна содержать лишних комментариев, “вводных предложений” (автор подразумевает в статье...);

аннотация не цитируется;

размер текста аннотации должен составлять 250-300 слов.

Ключевые слова и фразы должны быть размещены под аннотацией (8-10 слов). Ключевые слова должны выражать основное содержание статьи и состоять в основном из важных понятий, относящихся к данной области.

Введение:

Статья должна отражать цель исследования и состояние научной проблемы на момент написания статьи.

Цель и задачи:

Содержание статьи должно быть раскрыто систематизировано, исходя из целей и задач.

Методы:

Следует подробно описать методы исследования.

Результаты и отзывы:

Результаты и отзывы должны быть представлены в развернутой форме (с использованием таблиц и рисунков, где это необходимо), а также должны включать сравнительный анализ источников и литературы по тематике исследования.

Вывод:

Ответы на вопросы, поставленные во вводной части, выводы должны быть четко указаны.

Порядок оформления использованной литературы:

Библиография транслитерируется латинским алфавитом. Перечисленные публикации должны быть не менее 10 и не превышать более 50.



ADABIY MEROS

2025-YIL 4-SON / ILMIY JURNAL

زادەنىڭ «فەرغانە تودەسى» نى ھەم ئەلبەتتە ئېسىلەپ ئۆتۈش كېرەك. سەنئەت نى كەسپ قىلىپ ئالغان بىر تودە بولۇش ئان كورە، ئۇ، كۆپرەك تەشۋىقات يولىنى تۇتقان بىر نەرسە ئېدى. بىزنىڭ قېمەتلىرىمىز بۇسۇف جان (قىزى)، بىر زەمانلار ئۈشە تودە بىلەن بىرگە ئۇرۇش مەيدانلىرىدە يۈردى.

ئەقلىنىڭ 4 ۋە 5 نىچى يىللاردا ئۆزبېك سەنئەتى، ئۆز قېمەتلىرى ئۇيغۇر تىلى بىلەن «شەيخ سەنجان»، «ئېيلىس»، «ئەيلىلى — مەجنۇن» سەنئەتلىرى ۋە مۇھەببەت،

«ئۇيغۇرلار» (شېئىرلىرى نېكى)، «چىن

سەۋىش»، «ھىندىستانلىقلار»،

«سەلىم»، «چىن تېمىر باتۇر» كەسپى

جەددى نەرسەلەرنى كوردى. ھازىر،

ئۇنىڭ كەسپ سەنئەتكارلىرى ۋە ئۆز

رەئىسلىرى بار. سەنئەت

بۇ خاراكتېر بىلەن تاشكەنت شەھەرلىرىگە

كەتتە — كەتتە ياخشى سەنئەتلىرى سالىدۇ. باشقا شەھەرلەردە ھەم ئۆزىگە ياراشار سەنئەتلىرى بار. ئايىتىمىز ئۇنىڭ بىلەن ئەندىجان سەنئەتلىرىنى ياراق دېيىپ ئېيتىمىز مۇمكىن.

ھەممىدىن مۇھىمى، ھازىر، ئۆزبېك سەنئەتلىرى ئۆزىگە

بىر شەكىل ئاقتارۇش يولىغا كىرىپ قالغانىدۇر. مەسىلەن ۋەدەگى

ئۆزبېك «درام» ئىستۇدىيەسى، بىر قىسىمىدە بۇ مەسىلە خىلىدەن

بىرى ئۆتۈرۈلگەن، ئۇ مەسىلەلەرنىڭ تەسىرى سەنئەتلىرىگە يېتۈرۈلگەن

باغلانغان كىشىلەرنى ھەم قىزىقىپ تۇرادۇر. ياقىدا، مەزكۇر

ئىستۇدىيەدە ئۇرۇپ، تىياتىر ۋە كىنا عالمىدە تانلىغان

رەئىسلىرىلەردىن تۇر كىمىيەلى ئىر توغۇرۇل

مۇھىمىن بېك بىر مۇساحەبە قىلىپ، ئىستۇدىيە تەلەپلەرنى

«مىيىر خولە تىياتىرى» نى قەبۇل قىلىشقا دەۋەت قىلدى. ئۇنىڭ

قارشى ئىستۇدىيە ھەلى ھازىر بىر نەرسە دىيە ئالماسا ھەم، بۇزەمىدە

تۇرۇپلا بولۇپ ئاتى.

«پەدەر كۇش» دەۋرى، يۇقارىدا ئەيتىشكەنچە، بىر كۈتۈپلىش،

بەلۋەنلەش دەۋرىدۇر. جۇدە ساددە ۋە جۇدە ئويۇننى يازىلىپ

يەنە ئۈشە خىلدا ئويالغان «پەدەر كۇش»، بىر — ئىككى يىل

ئاراسىدا ئۆزبېك سەنئەتلىرىگە «ئەيلىلى — مەجنۇن» ۋە «ئەسلى —

كەرەم» ۋە «ئۆيلىلەر» («مۇلا ئىسىرىدىن» ئەسلىرى) نى ئويال

غۇندى قۇۋەت بېردى. قۇۋەت، ئۇ دەۋردە ئۈشە تودە كەتتە

نەرسەلەردە كەتتە — كەتتە روللەرگە چىققان كىشىلەر بولۇپ

(ئەۋلادى، نىزامىدىن، بىر ئىدىن ۋە بەدرىلەر) تەنتارى — سەنئەت

عالمىدە بىر نېچچە خىل جەريان بارلىقىدىن بېخە بىر ئېدىلەر.

شۇ ئۈچۈن، ئۇلار، ئۆزبېك تىياتىرى ۋە سەنئەتلىرى ئۇچۇن

بىر بولۇپ بىر تېمى ۋە بىر شەكىل ئاقتارمايدۇ. ھەتتا، ئۈشە ۋە قىدا

بىزدىن كورە ئالدىدا بولغان تاتار سەنئەتلىرى بىلەن ئازادىچان

سەنئەتلىرى ھەم ئاقتارۇشقا ياقىلاشقان ئېدى. ئۇ ۋەقەدا روسىيە

دەگى تۇر كىمىنىڭ ھەممىسى ھەم كۆز ئالدىلىرىداغى (مەسىلەن ۋەدەگى

يا لېنىنگرادداغى كەسپلىك تېمىسى) روسىيە تىياتىرلىرى كەسپى

«رىئالىست» بىلەن سەنئەتلىرى بارلىققا، توغرىسى تەشكىل قىلماق

ئىستەيلىرى ئېدى. بىز ھەم ئۇنىڭدىن قىلدىق. ھەتتا، ئۇ ۋەقەدا بىزنىڭ

رەئىسلىرىمىز باغىزار باغچانلىق خۇد ئىچكىرى روسىيەلى

تاتار بولغۇچى ئېدى. «پەدەر كۇش» دەۋرىدە ئازادىچانلى

عادى بىر ھەۋەسكار (خەلق تەسۋىر خەمكىرەف) شەھەرلەر ئاراسىدا

تالاش بولۇپ يۈردى.

مەنە شۇ حالدا، بىز ئەقلىلىق كېلىپ كىردى. ئەقلىلىق باشىدا

ھەر جايدا يېمەزە تىياتىر تودەلەرنى پەيدا بولدى. كىيىنچە،

«كەرەل مەركىس» تودەسى كەسپ (پروفىسسىيونال) بىر

تودەگە ئېگە بولدى. ھەلى ھازىر ھەم، ئۆزبېك سەنئەتلىرىنىڭ ئۆب

ئالدىنى ئۈشە تودەنىڭ سەنئەتكارلىرى بولۇپ كېلىدۇ؛ ئىجتىمال،

ئالتۇنلى سەنئەتلىرىگە ئۈشە تودەنىڭ

بوزلەرى بىلەن يازسا.

بىز تودەلەر ئاراسىدا ھەمىزە خەكىم

ISSN 2181-2500



ع. سۈلەيمان.

مەتبۇعاتىمىز.